

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

R.D.DUSMURATOV, A.S.BOLTAYEV

MOLIYAVIY TAHLIL

230000 – “Iqtisod” ta’lim sohasi:

5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (agrar sektor bo’yicha)

Toshkent-2020

R.D.Dusmurotov – iqtisod fanlari doktori, professor
A.S.Boltayev – katta o‘qituvchi

Darslik 230000-«Iqtisod» ta’lim sohasining 5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat ta’lim yo‘nalishining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturlari asosida tayyorlangan.

Darslik 3 bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limi moliyaviy tahlilning nazariy asoslariga, ikkinchi bo‘limi moliyaviy tahlil va uchinchi bo‘limi esa agrar sohaning boshqa tarmoq korxonalarini xo‘jalik faoliyatining tahliliga bag‘ishlangan. U 17 ta bobdan iborat bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalarni o‘z ichiga oladi. Darslik «Moliyaviy tahlil» fani bo‘yicha ishchi o‘quv dasturida berilgan mavzularni to‘liq qamrab olgan. Xususan, har bir mavzu bo‘yicha nazorat savollari va testlari berilgan.

Mazkur darslik 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari va boshqa iqtisodiy yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, darslik amaliyotdagi tadbirkorlar, iqtisodchi-buxgalterlar va xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarlari uchun ham foydali deb o‘ylaymiz.

Taqrizchilar:

- K.R.Hotamov** - O‘zbekiston Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, dotsent
- M.Yu.Raximov** - Toshkent moliya instituti “Iqtisodiy tahlil va audit” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Darslik universitet Ilmiy kengashida muhokama qilindi va nashrga tavsiya etildi (20__ yil “__” _____dagi ____-sonli bayonnoma).

Р.Д.Дусмуратов –доктор экономических наук, профессор
А.С.Болтаев – старший преподаватель

Учебник подготовлен в соответствии с требованиями учебной и рабочей программы по направлению обучения бакалавриата 5230900-“Бухгалтерский учет и аудит” области образование 230000-“Экономика”.

Учебник состоит из трех разделов, первый раздел раскрывает теоритически основы финансового анализа, второй раздел раскрывает финансового анализа, третий раздел раскрывает анализу хозяйственной деятельности предприятий других отраслей аграрного сектора. Учебник состоит из 17 глав, список использованных литератур и приложений. Учебник охватывает всех тем учебной программы по дисциплины “Финансовой анализ”. В частности, даны контрольные вопросы и тесты по каждому тем.

Учебник рекомендуется для студентов, обучающихся по направлению бакалавриата 5230900-“Бухгалтерский учет и аудит” и других экономических направлениях. Также, считаем учебник будет полезным для предпринимателем, экономистов-бухгалтеров и руководителей хозяйствующих субъектов.

Рецензенты:

- К.Р.Хотамов** - Заведующей кафедрой “Бухгалтерского учета, анализа и аудита” Банковско-финансовой академии Узбекистана, доктор экономических наук, доцент
- М.Ю.Рахимов** - Заведующей кафедрой “Экономического анализа” Ташкентского финансового института, кандидат экономических наук, доцент

Обсуждено и рекомендовано к изданию решением Научным советом Ташкентского государственного аграрного университета (Протокол № ____ от « ____ » _____ 20__ г.)

R.D.Dusmuratov – Doctor of Science on economics, professor
A.S.Boltayev – senior teacher

The textbook was prepared in accordance with the requirements of the curriculum and work program for the direction of undergraduate study 5230900- “Accounting and Audit” areas of education 230000- “Economics”.

The textbook consists of three sections, the first section reveals theoretically the basics of financial analysis, the second section reveals financial analysis, the third section reveals the analysis of economic activity of enterprises of other sectors of the agricultural sector. The textbook consists of 17 chapters, a list of used literature and applications. The textbook covers all topics of the curriculum for the discipline "Financial analysis". In particular, control questions and tests on each topic are given.

The textbook is recommended for students studying in the direction of undergraduate 5230900- “Accounting and Auditing” and other economic areas. Also, we believe the textbook will be useful for entrepreneurs, economists, accountants and business executives.

Reviewers:

- K.R. Khotamov** - Head of the Department of Accounting, Analysis and Audit of the Banking and Finance Academy of Uzbekistan, Doctor of Economics, Associate Professor
- M.Yu. Rakhimov** - Head of the Department of “Economic Analysis” of the Tashkent Financial Institute, candidate of economic sciences, Associate Professor

Discussed and recommended for publication by decision of the Scientific Council of the Tashkent State Agrarian University (Protocol No. ____ of "____" _____ 20__)

MUNDARIJA

KIRISH	20
IBO‘LIM. MOLIYAVIY TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI	
IBOB. MOLIYAVIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI	21
1.1. Tahlil fanining vujudga kelishi va rivojlanishi.....	21
1.2. Moliyaviy tahlil fanining predmeti.....	25
1.3. Moliyaviy tahlilning maqsadi, vazifalari va asosiy prinsiplari.....	32
1.4. Moliyaviy tahlilning shakllari va xususiyatlari.....	34
1.5. Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.....	37
<i>Nazorat savollari</i>	40
<i>Nazorat testlari</i>	40
II BOB. MOLIYAVIY TAHLILDA QO‘LLANILADIGAN KO‘RSATKICHLAR	46
2.1. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tasniflash belgilari	46
2.2. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning mazmuni bo‘yicha tasniflanishi.....	47
2.3. Ko‘rsatkichlarni foydalanish doirasi bo‘yicha tasniflanishi.....	48
2.4. Ko‘rsatkichlarning ifodalanish shakli bo‘yicha tasnifi.....	49
2.5. Ko‘rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo‘yicha tasniflash.....	50
2.6. Ko‘rsatkichlarni shakllanish usuli bo‘yicha tasniflash.....	51
<i>Nazorat savollari</i>	53
<i>Nazorat testlari</i>	53
III BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR	56
3.1. Omilli tahlil va uning asosiy elementlari.....	56
3.2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning tasnifi.....	59
3.3. Moliya-xo‘jalik faoliyatiga omillar ta’sirini aniqlash tartibi.....	65
<i>Nazorat savollari</i>	68
<i>Nazorat testlari</i>	68
IV BOB. MOLIYAVIY TAHLILNI TASHKIL ETISH VA UNING AXBOROT MANBAI	71
4.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni tashkil etish.....	71
4.2. Moliyaviy tahlil axborot manbalari va ularga quyiladigan talablar.....	76
4.3. Moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish.....	78
<i>Nazorat savollari</i>	80
<i>Nazorat testlari</i>	81
V BOB. MOLIYAVIY TAHLIL FANINING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR	84
5.1. Moliyaviy tahlil fanining metodi va usullarining turkumlanishi.....	84
5.2. Oddiy-an’anaviy usullar.....	86
5.2.1. Taqqoslash usuli va uni qo‘llashda amal qiladigan shartlar.....	86
5.2.2. Balansli bog‘lanish usuli va uning tahlilda qo‘llanilishi.....	87
5.2.3. Zanjirli bog‘lanish usuli va uning tahlilda qo‘llanilishi.....	91

5.2.4. Ko‘rsatkichlar farqi usuli va uni tahlilda qo‘llanilishi.....	94
5.2.5. Qayta hisoblash usuli va uning tahlilda qo‘llanilishi.....	96
5.3. Iqtisodiy-matematik usullar.....	98
5.3.1. Integral usuli va uni tahlilda qo‘llanilishi.....	98
5.3.2. Logarifmlash usuli va uni tahlilda qo‘llashning afzalliklari.....	101
5.3.3. Korrelyasion-regression tahlil usuli va uni tahlilda qo‘llash tartibi.....	103
5.4. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari.....	106
5.4.1. Moliyaviy hisobotni o‘qish.....	106
5.4.2. Gorizontaal va vertikal tahlil.....	109
5.4.3. Trend tahlili.....	115
5.4.4. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili.....	118
<i>Nazorat savollari</i>	121
<i>Nazorat testlari</i>	121
II BO‘LIM. MOLIYAVIY TAHLIL	
VI BOB. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLILI.....	125
6.1. Korxonada moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlil maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	125
6.2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi tahlili.....	126
6.3. Moliyaviy barqarorlik tahlili.....	131
6.4. Korxonada balansli likvidligi tahlili.....	148
6.5. Korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlili.....	153
6.6. Aylanma mablag‘lar aylanishining tahlili.....	159
<i>Nazorat savollari</i>	162
<i>Nazorat testlari</i>	162
VII BOB. ASOSIY VOSITALARNING HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI.....	166
7.1. Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	166
7.2. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili.....	168
7.3. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo‘llari.....	171
7.4. Asosiy vositalar bilan ta‘minlanish darajasining tahlili.....	175
7.5. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili.....	178
<i>Nazorat savollari</i>	182
<i>Nazorat testlari</i>	183
VIII BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING TAHLILI.....	187
8.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	187
8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holati tahlili.....	188
8.3. Debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va aylanuvchanligining tahlili.....	193
8.4. Kreditorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va aylanuvchanligining tahlili.....	199
<i>Nazorat savollari</i>	204
<i>Nazorat testlari</i>	205

IX BOB. PUL OQIMLARINING TAHLILI.....	208
9.1. Pul oqimlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	208
9.2. Operasion faoliyat bo'yicha pul oqimining tahlili.....	211
9.3. Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliq to'lashlardagi pul oqimining tahlili.....	213
9.4. Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari oqimining tahlili.....	215
9.5. Pul mablag'lari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili.....	217
<i>Nazorat savollari</i>	219
<i>Nazorat testlari</i>	219
X BOB. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI.....	223
10.1. Xususiy kapital tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	223
10.2. Xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili.....	225
10.3. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili.....	227
<i>Nazorat savollari</i>	230
<i>Nazorat testlari</i>	230
XI BOB. MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILI.....	234
11.1. Moliyaviy natijalar tahlilining ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	234
11.2. Moliyaviy natija ko'rsatkichlari va ularning shakllanishi.....	235
11.3. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili.....	240
11.4. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili.....	246
11.5. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	249
11.6. Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili.....	252
11.7. Sotish rentabelligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili.....	255
<i>Nazorat savollari</i>	258
<i>Nazorat testlari</i>	258
XII BOB. KORXONA INVESTISION FAOLIYATI TAHLILI.....	263
12.1. Investisiyalar mazmuni, tasniflanishi va davlat tomonidan tartibga solinishi.....	263
12.2. Investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlari.....	267
12.3. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari.....	268
12.4. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlari.....	273
12.5. Muqobil loyihalar tahlili va eng maqbulini tanlash.....	281
12.6. Korxonada investision faoliyati tahlili.....	283
<i>Nazorat savollari</i>	289
<i>Nazorat testlari</i>	289
XIII BOB. KORXONA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING TAHLILI.....	293
13.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy yo'nalishlari.....	293
13.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish usullari.....	296

13.3. O‘zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	298
13.4. Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishning mazmuni, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	303
13.5. Eksport operatsiyalarining tahlili.....	305
13.6. Import operatsiyalarining tahlili.....	307
<i>Nazorat savollari</i>	310
<i>Nazorat testlari</i>	310

III BO‘LIM. AGRAR SOHANING BOSHQA TARMOQ

KORXONALARI XO‘JALIK FAOLIYATINING TAHLILI

XIV BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH TAHLILI.....

14.1. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	314
14.2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tuzulmasi hamda assortimentining tahlili.....	318
14.3. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili.....	324
14.4. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot sifatining tahlili.....	327
14.5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili.....	331
<i>Nazorat savollari</i>	337
<i>Nazorat testlari</i>	338

XV BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARINING MEHNAT RESURSLARI BILAN TA‘MINLANGANLIGI VA ULARDAN FOYDALANISH TAHLILI.....

15.1. Qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslarini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	342
15.2. Mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik va ulardan foydalanish darajasining tahlili.....	343
15.3. Mehnat unumdorligining tahlili.....	347
15.4. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi mehnat omillarining tahlili.....	354
<i>Nazorat savollari</i>	359
<i>Nazorat testlari</i>	360

XVI BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR, NOMODDIY AKTIVLAR VA MATERIALLARDAN FOYDALANISH TAHLILINING XUSUSIYATLARI.....

16.1. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligining tahlili.....	364
16.2. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili.....	367
16.3. Texnologik uskunalardan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sirining tahlili.....	378
16.4. Nomoddiy aktivlardan foydalanish tahlili.....	381

16.5. Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.....	386
<i>Nazorat savollari</i>	391
<i>Nazorat testlari</i>	392
XVII BOB. TA'MINOT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	396
17.1 Ta'minot tashkilotlarida tovar aylanmasining tahlili.....	396
17.1.1. Ta'minot tashkilotlarida tovar aylanmasi tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	396
17.1.2. Tovar aylanishi rejasi bajarilishining tahlili.....	398
17.1.3. Ta'minot jarayonini tovar bilan ta'minlanganligi va tovar resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili.....	405
17.2. Sotish xarajatlari tahlili.....	411
17.2.1. Sotish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	411
17.2.2. Sotish xarajatlari umumiy hajmi va darajasi o'zgarishining tahlili.....	414
17.2.3. Sotish xarajatlarining xarajat moddalari bo'yicha tahlili.....	417
17.3. Ta'minot tashkilotlari moliyaviy natijalari tahlili va uni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish.....	423
17.3.1. Yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili.....	423
17.3.2. Sotish rentabelligi tahlili: milliy va xalqaro tajriba.....	428
<i>Nazorat savollari</i>	433
<i>Nazorat testlari</i>	434
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR	437
ILOVALAR	440

СОДЕРЖАНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	20
I РАЗДЕЛЬ. ТЕОРИТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА	
ГЛАВА I. СОДЕРЖАНИЕ, ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА	21
1.1. Возникновение и развитие дисциплины анализ	21
1.2. Предмет дисциплины Финансовой анализ	25
1.3. Цель, задачи и основные принципы финансового анализа.....	32
1.4. формы и особенности финансового анализа	34
1.5. Взаимосвяз с другими дисциплинами финансового анализа	37
<i>Контрольные вопросы</i>	40
<i>Контрольные тесты</i>	40
ГЛАВА II. ПОКАЗАТЕЛИ ПРИМЕНЯЕМЫЕ В ФИНАНСОВОМ АНАЛИЗЕ	46
2.1. Критерии классификации экономических показателей	46
2.2. Классификация экономических показателей по содержание	47
2.3. Классификация показателей по сферы применение	48
2.4. Классификация показателей по формы выражение	49
2.5. Классификация показателей по степени обобщение	50
2.6. Классификация показателей по методом формирование	51
<i>Контрольные вопросы</i>	53
<i>Контрольные тесты</i>	53
ГЛАВА III. ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФИНАНСОВО-ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ	56
3.1. Анализ факторов и их основные элементы	56
3.2. Классификация факторов, влияющих на финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов	59
3.3. порядок определение влияние факторов на финансово-хозяйственной деятельности	65
<i>Контрольные вопросы</i>	68
<i>Контрольные тесты</i>	68
ГЛАВА IV. ОРГАНИЗАЦИЯ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА И ИХ ИСТОЧНИКИ ИНФОРМАЦИИ	71
4.1. Организация финансового анализа в хозяйствующих субъектах	71
4.2. источники информации финансового анализа и предъявляемые требования к ним	76
4.3. Оформление результатов финансового анализа	78
<i>Контрольные вопросы</i>	80
<i>Контрольные тесты</i>	81
ГЛАВА V. МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА.....	84
5.1. Классификация методов и приемов финансового анализа	84
5.2. Простые традиционные методы.....	86

5.2.1. Метод сравнения и условия, применимые к его применению	86
5.2.2. Балансовый метод и его применение в анализе.....	87
5.2.3. Метод цепных подстановки и его применение в анализе.....	91
5.2.4. Метод разницы показателей и его применение в анализе.....	94
5.2.5. Метод пересчета и его применение в анализе.....	96
5.3. Экономико-математические методы.....	98
5.3.1. Интегральный метод и его использование в анализе.....	98
5.3.2. Логарифмический метод и преимущество его применение в анализе	101
5.3.3. Метод корреляционно-регрессионного анализа и порядок его применение в анализе	103
5.4. Специальные методы финансового анализа	106
5.4.1. Чтение финансовой отчетности	106
5.4.2. Горизонтальный и вертикальный анализ.....	109
5.4.3. Трендовый анализ	115
5.4.4. Анализ финансовых коэффициентов	118
<i>Контрольные вопросы</i>	121
<i>Контрольные тесты</i>	121
РАЗДЕЛЬ II. ФИНАНСОВЫЙ АНАЛИЗ	
ГЛАВА VI. АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЕ ПРЕДПРИЯТИЯ	
6.1. Значение изучение финансового состояние предприятие, цель, задачи ва источники информации анализа.....	125
6.2. Анализ состава и составление бухгалтерского баланса	126
6.3. Анализ финансовой устойчивости	131
6.4. Анализ ликвидность баланса предпроиятие.....	148
6.5. Анализ платежеспособности предприятия	153
6.6. Анализ оборачиваемости оборотных активов	159
<i>Контрольные вопросы</i>	162
<i>Контрольные тесты</i>	162
ГЛАВА VII. АНАЛИЗ СОСТОЯНИИ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ	
7.1. Значение, источники информации и источники информации анализа состояние основных средств и эффективности их использование	166
7.2. Анализ состава, структуры и динамики основных средств	168
7.3. Система показателей, представляющих основные средства и пути их определение	171
7.4. Анализ обеспеченности исномными средствами	175
7.5. Анализ эффективности использование основных средств	178
<i>Контрольные вопросы</i>	182
<i>Контрольные тесты</i>	183
ГЛАВА VIII. АНАЛИЗ ДЕБИТОРСКИХ И КРЕДИТОРСКИХ ЗАДОЛЖЕННОСТЕЙ	
	187

8.1. Цель, задачи и источники информации анализа дебиторских и кредиторских задолженностей	187
8.2. Анализ общего состояние дебиторских и кредиторских задолженности	188
8.3. Анализ состава, структуры и оборачиваемости дебиторской задолженности	193
8.4. Анализ состава, структура и оборачиваемости кредиторских задолженности	199
<i>Контрольные вопросы</i>	204
<i>Контрольные тесты</i>	205
ГЛАВА IX. АНАЛИЗ ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ	208
9.1. Цель, задачи и источники информации анализа денежных потоков ..	208
9.2. Анализ денежных потоков по операционной деятельности	211
9.3. Анализ денежных потоков по инвестиционному, финансовому деятельности и налоговых платежей	213
9.4. Анализ денежных потоков в иностранной валюте	215
9.5. Анализ состава, структуры и динамики денежных средств	217
<i>Контрольные вопросы</i>	219
<i>Контрольные тесты</i>	219
ГЛАВА X. АНАЛИЗ СОБСТВЕННОГО КАПИТАЛА	223
10.1. Цель, задачи и источники информации анализа собственного капитала	223
10.2. Анализ состава, структуры и динамики собственного капитала.....	225
10.3. Анализ эффективности использование собственного капитала	227
<i>Контрольные вопросы</i>	230
<i>Контрольные тесты</i>	230
ГЛАВА XI. АНАЛИЗ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ	234
11.1. Значение, задачи и источники информации анализа финансовых результатов	234
11.2. Показатели финансовых результатов и их форминие	235
11.3. Анализ финансового результата от реализации продукции (работ, услуг) и факторов, влияющих на их изменение	240
11.4. Анализ финансовых результатов основной деятельности	246
11.5. Анализ чистого прибыльи и факторов, влияющих на его изменение	249
11.6. Анализ показателей рентабельности	252
11.7. Анализ рентабельности продаж и факторов, влияющих на его изменение	255
<i>Контрольные вопросы</i>	258
<i>Контрольные тесты</i>	258
XII БОБ. АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	263
12.1. Содержание, классификация и государственное регулирование инвестиций	263
12.2. Методы оценки экономической эффективности инвестиционных	

проектов	267
12.3. Статические методы оценки экономической эффективности инвестиционных проектов	268
12.4. Динамические методы оценки экономической эффективности инвестиционных проектов	273
12.5. Анализ альтернативных проектов и выбор наиболее оптимальных ...	281
12.6. Анализ инвестиционной деятельности предприятий	283
<i>Контрольные вопросы</i>	289
<i>Контрольные тесты</i>	289
ГЛАВА XIII. АНАЛИЗ ВНЕШНЕ-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ	293
13.1. Внешне-экономическая деятельность и ее основные направления ..	293
13.2. Способы регулирования со стороны государства внешне-экономической деятельности	296
13.3. Внешняя торговля в Узбекистане и ее значение в развитии экономики	298
13.4. Содержание организации, задачи и источники анализа внешне-экономической деятельности предприятий	303
13.5. Анализ экспортных операций	305
13.6. Анализ импортных операций	307
<i>Контрольные вопросы</i>	310
<i>Контрольные тесты</i>	310
РАЗДЕЛ III. АНАЛИЗ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ДРУГИХ ОТРАСЛЕЙ АГРАРНОГО СЕКТОРА	
ГЛАВА XIV. АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВА И ПРОДАЖИ В ПЕРЕРАБОТАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	314
14.1. Значение анализа процессов производства и продажи продукции в перерабатывающих предприятиях, задачи и источники информации анализа	314
14.2. Анализ производства продукции, структуры и ассортимента продаж	318
14.3. Анализ равномерности производства продукции	324
14.4. Анализ качества продукции в перерабатывающих предприятиях	327
14.5. Анализ факторов, влияющих на производство и продажи продукции	331
<i>Контрольные вопросы</i>	337
<i>Контрольные тесты</i>	338
ГЛАВА XV. АНАЛИЗ ОБЕСПЕЧЕННОСТИ ТРУДОВЫМИ РЕСУРСАМИ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ПЕРЕРАБОТАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	342
15.1. Значение анализа трудовых ресурсов в перерабатывающих предприятиях, задачи и источники информации анализа	342
15.2. Анализ обеспеченности трудовыми ресурсами и уровень	343

использование их	
15.3. Анализ производительности труда	347
15.4. Анализ факторов, влияющих на объем производство продукции ...	354
<i>Контрольные вопросы</i>	359
<i>Контрольные тесты</i>	360
ГЛАВА XVI. ОСОБЕННОСТИ АНАЛИЗА ИСПОЛЬЗОВАНИЕ	
ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ, НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ И	
МАТЕРИАЛОВ В ПЕРЕРАБОТАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ	364
16.1. Анализ обеспеченности предприятий основными средствами	364
16.2. Анализ эффективности использование основных средств	367
16.3. Анализ влияние на объем производство продукции уровень использовании технологических оборудований	378
16.4. Анализ использовании нематериальных активов	381
16.5. Анализ обеспеченности метиральными ресурсами предприятий и эффективности их использование	386
<i>Контрольные вопросы</i>	391
<i>Контрольные тесты</i>	392
ГЛАВА XVII. ОСОБЕННОСТИ АНАЛИЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	
СНАБЖЕНЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ	396
17.1. Анализ товарооборота в снабженческих организациях	396
17.1.1. Цель, задачи и источники информации анализа товарооборота в снабженческих предприятий	396
17.1.2. Анализ выполнение плана товароборота	398
17.1.3. Анализ обеспеченности товарами процесса снабжение и эффективность использование товарными ресурсами	405
17.2. Анализ расходов продаж	411
17.2.1. Цель, задачи и источники информации анализа расходов продаж	411
17.2.2. Анализ общего объема и изменение уровни расходов продаж	414
17.2.3. Анализ расходов продаж по статьям затрат	417
17.3. Анализ финансовых результатов в снабженческих организаций и совершенствование на основе международного опыта	423
17.3.1. Анализ Валового прибыла и факторов, влияющих на его.....	423
17.3.2. Анализ рентабельности продаж: национальньный и международный опыт.....	428
<i>Контрольные вопросы</i>	433
<i>Контрольные тесты</i>	434
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР	437
ПРИЛОЖЕНИЕ	440

C O N T E N T

INTRODUCTION.....	20
I SECTION. THEORETICAL BASES OF FINANCIAL ANALYSIS	
CHAPTER I. CONTENTS, SUBJECT AND OBJECTIVES OF FINANCIAL ANALYSIS.....	21
1.1. The emergence and development of the discipline analysis.....	21
1.2. Course subject Financial analysis.....	25
1.3. The purpose, objectives and basic principles of financial analysis.....	32
1.4. Forms and features of financial analysis.....	34
1.5. Relationship with other disciplines of financial analysis.....	37
<i>Questions</i>	40
<i>Tests</i>	40
CHAPTER II. INDICATORS APPLICABLE IN FINANCIAL ANALYSIS.....	46
2.1. Classification criteria for economic indicators.....	46
2.2. Classification of economic indicators by content.....	47
2.3. Classification of indicators by scope.....	48
2.4. Classification of indicators by form expression.....	49
2.5. Classification of indicators by degree of generalization.....	50
2.6. Classification of indicators by the method of formation.....	51
<i>Questions</i>	53
<i>Tests</i>	53
CHAPTER III. FACTORS INFLUENCING FINANCIAL AND ECONOMIC ACTIVITIES OF ECONOMIC SUBJECTS.....	56
3.1. Analysis of factors and their main elements.....	56
3.2. Classification of factors affecting the financial and economic activities of business entities.....	59
3.3. Procedure definition of the influence of factors on financial and economic activities.....	65
<i>Questions</i>	68
<i>Tests</i>	68
CHAPTER IV. ORGANIZATION OF FINANCIAL ANALYSIS AND THEIR SOURCES OF INFORMATION.....	71
4.1. Organization of financial analysis in business entities.....	71
4.2. Financial analysis information sources and requirements.....	76
4.3. Reporting the results of financial analysis.....	78
<i>Questions</i>	80
<i>Tests</i>	81
CHAPTER V. METHODS AND METHODS OF FINANCIAL ANALYSIS.....	84
5.1. Classification of methods and techniques of financial analysis.....	84
5.2. Simple traditional methods.....	86
5.2.1. Comparison method and conditions applicable to its use.....	86

5.2.2. The balance method and its application in analysis.....	87
5.2.3. Chain substitution method and its application in analysis.....	91
5.2.4. Method of difference indicators and its application in the analysis.....	94
5.2.5. The conversion method and its application in the analysis.....	96
5.3. Economic and mathematical methods.....	98
5.3.1. The integral method and its use in analysis.....	98
5.3.2. Logarithmic method and the advantage of its application in analysis....	101
5.3.3. The method of correlation and regression analysis and the order of its application in the analysis.....	103
5.4. Special methods of financial analysis.....	106
5.4.1. Reading financial statements.....	106
5.4.2. Horizontal and vertical analysis.....	109
5.4.3. Trend analysis.....	115
5.4.4. Analysis of financial ratios.....	118
<i>Questions</i>	121
<i>Tests</i>	121

SECTION II. THE FINANCIAL ANALYSIS

CHAPTER VI. ANALYSIS OF FINANCIAL CONDITION OF THE ENTERPRISE.....	125
6.1. The value of the study of the financial condition of the enterprise, purpose, objectives and sources of information analysis.....	125
6.2. Analysis of the composition and preparation of the balance sheet.....	126
6.3. Financial stability analysis.....	131
6.4. Liquidity balance sheet analysis.....	148
6.5. Analysis of solvency of the enterprise.....	153
6.6. Analysis of current assets turnover.....	159
<i>Questions</i>	162
<i>Tests</i>	162
CHAPTER VII. ANALYSIS OF THE STATE OF FIXED ASSETS AND THE EFFECTIVENESS OF THEIR USE.....	166
7.1. The value, sources of information and sources of information analysis of the state of fixed assets and the effectiveness of their use.....	166
7.2. Analysis of the composition, structure and dynamics of fixed assets.....	168
7.3. The system of indicators representing fixed assets and ways to determine them.....	171
7.4. Analysis of security with isnom means.....	175
7.5. Analysis of the effectiveness of the use of fixed assets.....	178
<i>Questions</i>	182
<i>Tests</i>	183
CHAPTER VIII. ANALYSIS OF ACCOUNTS AND ACCOUNTS PAYABLE.....	187
8.1. The purpose, objectives and sources of information analysis of receivables and payables.....	187
8.2. Analysis of the general condition of receivables and payables.....	188

8.3. Analysis of the composition, structure and turnover of receivables.....	193
8.4. Analysis of the composition, structure and turnover of accounts payable.	199
<i>Questions</i>	204
<i>Tests</i>	205
CHAPTER IX. CASH FLOW ANALYSIS	208
9.1. Purpose, tasks and sources of information of cash flow analysis.....	208
9.2. Analysis of cash flows from operating activities.....	211
9.3. Analysis of cash flows for investment, financial activities and tax payments.....	213
9.4. Analysis of cash flows in foreign currency.....	215
9.5. Analysis of the composition, structure and dynamics of cash.....	217
<i>Questions</i>	219
<i>Tests</i>	219
CHAPTER X. ANALYSIS OF OWNED CAPITAL	223
10.1. Purpose, tasks and information sources of equity analysis.....	223
10.2. Analysis of the composition, structure and dynamics of equity.....	225
10.3. Analysis of the effectiveness of the use of equity.....	227
<i>Questions</i>	230
<i>Tests</i>	230
CHAPTER XI. ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS	234
11.1. The value, objectives and sources of information analysis of financial results.....	234
11.2. Indicators of financial results and their formation.....	235
11.3. Analysis of the financial result from the sale of products (works, service) and factors affecting their change.....	240
11.4. Analysis of financial results of core activities.....	246
11.5. Analysis of net profit and factors influencing its change.....	249
11.6. Profitability Analysis.....	252
11.7. Analysis of sales profitability and factors influencing its change.....	255
<i>Questions</i>	258
<i>Tests</i>	258
CHAPTER XII. ANALYSIS OF INVESTMENT ACTIVITIES OF ENTERPRISES	263
12.1. Content, classification and government regulation of investments.....	263
12.2. Methods for assessing the economic efficiency of investment projects...	267
12.3. Static methods for assessing the economic efficiency of investment projects.....	268
12.4. Dynamic methods for assessing the economic efficiency of investment projects.....	273
12.5. Analysis of alternative projects and selection of the most optimal.....	281
12.6. Analysis of investment activities of enterprises.....	283
<i>Questions</i>	289
<i>Tests</i>	289

CHAPTER XIII. ANALYSIS OF THE EXTERNAL ECONOMIC ACTIVITY OF ENTERPRISES.....	293
13.1. Foreign economic activity and its main directions.....	293
13.2. Methods of regulation by the state of foreign economic activity.....	296
13.3. Foreign trade in Uzbekistan and its importance in the development of the economy.....	298
13.4. The content of the organization, tasks and sources of analysis of foreign economic activity of enterprises.....	303
13.5. Analysis of export operations.....	305
13.6. Analysis of import operations.....	307
<i>Questions</i>	310
<i>Tests</i>	310
SECTION III. ANALYSIS OF ECONOMIC ACTIVITIES OF OTHER ENTERPRISES AGRICULTURAL SECTORS	
CHAPTER XIV. ANALYSIS OF PRODUCTION AND SALES IN PROCESSING ENTERPRISES.....	314
14.1. The value of the analysis of processes of production and sale of products in processing enterprises, tasks and sources of information analysis.....	314
14.2. Analysis of the production of products, structure and range of sales.....	318
14.3. Analysis of uniformity of production.....	324
14.4. Analysis of product quality in processing enterprises.....	327
14.5. Analysis of factors affecting the production and sales of products.....	331
<i>Questions</i>	337
<i>Tests</i>	338
CHAPTER XV. ANALYSIS OF SECURITY OF LABOR RESOURCES AND THEIR USE IN PROCESSING ENTERPRISES.....	342
15.1. The value of the analysis of labor resources in processing enterprises, tasks and sources of information analysis.....	342
15.2. Analysis of the availability of labor resources and the level of their use.	343
15.3. Labor productivity analysis.....	347
15.4. Analysis of factors affecting the volume of production.....	354
<i>Questions</i>	359
<i>Tests</i>	360
CHAPTER XVI. FEATURES OF ANALYSIS USE OF FIXED ASSETS, INTANGIBLE ASSETS AND MATERIALS IN PROCESSING ENTERPRISES.....	364
16.1. Analysis of the security of enterprises with fixed assets.....	364
16.2. Analysis of the effectiveness of the use of fixed assets.....	367
16.3. Analysis of the impact on the volume of production; level of use of technological equipment.....	378
16.4. Analysis of the use of intangible assets.....	381
16.5. Analysis of the provision of metral resources of enterprises and the effectiveness of their use.....	386

<i>Questions</i>	391
<i>Tests</i>	392
CHAPTER XVII. FEATURES OF ANALYSIS OF ACTIVITIES OF SUPPLIED ENTERPRISES	396
17.1. Analysis of trade in supply organizations.....	396
17.1.1. The purpose, objectives and sources of information of the analysis of commodity circulation in supply enterprises.....	396
17.1.2. Analysis of the implementation of the turnover plan.....	398
17.1.3. Analysis of the supply of goods to the process of supply and the efficiency of the use of commodity resources.....	405
17.2. Sales Cost Analysis.....	411
17.2.1. The purpose, objectives and sources of information of the analysis of sales expenses.....	411
17.2.2. Analysis of total volume and change in levels of sales expenses.....	414
17.2.3. Analysis of sales costs by cost items.....	417
17.3. Analysis of financial results in procurement organizations and improvement based on international experience.....	423
17.3.1. Analysis of Gross Profit and Factors Affecting It.....	423
17.3.2. Sales Profitability Analysis: National and International Experience....	428
<i>Questions</i>	433
<i>Tests</i>	434
LIST OF USED LITERATURES	437
ATTACHMENT	440

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda innovatsion iqtisodiyotni barpo etish o‘z navbatida samarali uyg‘unlashgan boshqaruvni talab etadi. Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “... biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma‘rifat va innovasiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” deb ta’kidlab o‘tganlar¹. Mazkur vazifaning ijrosini ta’minlashda iqtisodiy fanlarni takomillashtirish va uning axborot ta’minotini rivojlantirish zaruriyatidan kelib chiqib, moliyaviy tahlil fanini mukammal o‘rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy tahlilning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari orqali o‘tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda, erishilgan hamda kelgusida erishiladigan moliyaviy natijalar va moliyaviy holatiga har tomonlama baho berish, shuningdek, xo‘jalik faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab to‘g‘ri xulosalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifasi sifatida xo‘jalik faoliyatini o‘rganish, uni yanada rivojlantirish, takomillashtirish, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish, erishilgan muvaffaqiyatlarni keng jamoatchilikka ko‘rsata bilish va yo‘l quyilgan kamchiliklarning sabablarini o‘rganish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam berishdan iborat.

“Moliyaviy tahlil” fanidan tayyorlangan mazkur darslik 3 bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘limi moliyaviy tahlilning nazariy asoslariga, ikkinchi bo‘limi moliyaviy tahlil va uchinchi bo‘limi esa agrar sohaning boshqa tarmoq korxonalarini

¹Mirziyoyev Sh.M. “Azmu shijoatli xalqimiz tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir” nomli 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).

xo‘jalik faoliyatining tahliliga bag‘ishlangan. U 17 ta bobdan iborat bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, har bir mavzu bo‘yicha nazorat savollari va testlari berilgan.

Darslikni tayyorlashda buxgalteriya hisobi va tahlil faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlar, to‘plamlar va boshqa tegishli manbalardan foydalanildi. Darslikda keltirilgan buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari shartli ravishda “Sharq” fermer xo‘jaligi, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat va Toshkent viloyati “Agrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyati (AJ) ma’lumotlari sifatida olingan bo‘lib, rasmiy hisoblanmaydi. Mavzularni o‘rganishda va yoritishda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun foydalanildi.

Darslik qo‘lyozmasini o‘qib, kamchiliklarini tuzatish hamda shakl va mazmunini yaxshilash borasida bergan maslahatlari uchun taqrizchilar i.f.d., dotsent K.R.Hotamov va i.f.n., dotsent M.Yu.Raximovlarga chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Mazkur darslik 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari va boshqa iqtisodiy yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, darslik amaliyotdagi tadbirkorlar, iqtisodchi-buxgalterlar va xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarlari uchun ham foydali deb o‘ylaymiz.

Albatta, kitob kamchiliklardan holi bo‘lmasligi mumkin. Uni mazmun va shakl jihatdan yaxshilash borasida bildiriladigan barcha fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

Mualliflar

I BO‘LIM. MOLIYAVIY TAHLILNING NAZARIY ASOSLARI

I BOB. MOLIYAVIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Tahlil fanining vujudga kelishi va rivojlanishi

Tahlil fanini vujudga kelishi va fan sifatida shakllanishida o‘ziga xos evolyusion yo‘lni bosib o‘tgan. Uning vujudga kelishi, shakllanishi va mustaqil fan sifatida rivojlanishi iqtisodchi olimlarning jumladan, M.Q.Pardaev², A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov³, T.Qudratov, N.Fayzieva⁴, M.Q.Pardaev., J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlarning⁵ tahlilga oid ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida atroflicha yoritilgan.

Bu fanni paydo bo‘lishi, shakllanishi va takomillashishiga olib keluvchi omillar jamiyatda yuzaga kelgan obyektiv shart-sharoitlar hisoblanadi. Xususan, XVI – XVII asrlarda ishlab chiqarishning takomillashib borishi, erkin raqobatning vujudga kelishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy ahvolini baholash va yaxshilash borasida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilib o‘rganish zarurati o‘z navbatida tahlil elementlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yillarda «Счётоводство» jurnalida chop etilgan maqolalarda paydo bo‘la boshlagan. Ushbu maqolalar asosan buxgalteriya balansining tahliliga bag‘ishlangan. Chunki, o‘sha davrlarda xo‘jalik faoliyatining natijalari asosan buxgalteriya balansida aks ettirilgan. Buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyekt mablag‘lari va ular manbaining ma’lum davrdagi o‘zgarishi aniqlangan. Biroq, mazkur o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga qanday obyektiv va subyektiv omillar ta’sir ko‘rsatayotgani va ularning natijalari mulk egalari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar sifatida qarala boshlangan. Bu esa, buxgalteriya balansidagi

² Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Samarqand; «Zarafshon» 2001. -28 b.

³ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: «Sharq» 2005. - 20 b.

⁴ Qudratov T., Fayzieva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. –T.: «Voriz-nashriyoti», 2012. -7 b.

⁵ Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil: O‘quv qo‘llanma. –T, 2017. -12 b.

ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilib o'rganish zaruratini paydo qilgan. Shu tariqa, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan fan – «Balansshunoslik» fani vujudga kelgan.

Fan o'zining rivojlanish yo'li davomida «Balansshunoslik», «Balans talqini», «Balansni tahlil qilish», «Hisobot tahlili», «Iqtisodiy tahlil», «Sosial-iqtisodiy tahlil», «Xo'jalik faoliyati tahlili», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili», «Iqtisodiy tahlil» va «Moliyaviy tahlil» nomlari bilan atalib kelingan.

Tahlil fani 1940-yillarga kelib, «Xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani sifatida to'liq shakllangan va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitila boshlagan. Shu davrda iqtisodchi olimlar tomonidan ushbu fanga doir darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlandi va chop ettirildi. Jumladan, S.K.Tatur «Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий», N.R.Veysman «Анализ хозяйственной деятельности промышленных предприятий», M.S.Rubinov «Основы учёта и анализа хозяйственной деятельности промышленного предприятия» va boshqa darsliklar chop ettirildi.

XX asrning 50 – 60-yillaridan boshlab, tahlil fanini iqtisodiyot tarmoqlariga mos holda bir qancha turlari vujudga keldi. Bularga sanoat korxonalari faoliyatining tahlili, qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili, savdo korxonalari faoliyatining tahlili kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'tgan asrning 70-80-yillarida iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha ijobiy ishlar olib borildi va tahlil nazariyasi fan sifatida shakllandi. Ushbu fanning nazariy asoslari birinchi bo'lib Rossiyalik iqtisodchi olimlar M.I.Bakanov va A.D.Sheremetlar tomonidan bir tizimga keltirilgan holda 1987-yilda «Теория экономического анализа» nomli darslik sifatida chop ettirildi. Shundan so'ng bu fanga doir nazariy masalalar Ukrainalik, Belorussiyalik va O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham o'rganildi. Hozirgi kunga qadar oliy o'quv yurtlarida «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» mustaqil fan sifatida o'qitilib kelinmoqda.

Xo'sh, tahlil fani Respublikamizda qachondan shakllana boshlagan va fan sifatida vujudga kelgan? degan savol tug'iladi. Dastlab, XX asrning

60-yillariga kelib O‘zbekistonlik olimlar ham bu fan sohasida ijod qila boshlashdi. Albatta, Respublikamizda tahlil fanini tashkil topishi va shakllanishida Samarqand va Toshkentdagi oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borgan iqtisodchi olimlarning xizmatlari katta hisoblanadi. XX asrning 70-80-yillarida iqtisod fanlari doktori, professor I.T.Abdukarimov rahbarligida tahlil fanini o‘zbek maktabiga asos solindi. Ushbu maktab a‘zolarining Respublikamizda tahlil fanini shakllanishi va vujudga kelishida qo‘shgan hissasi katta hisoblanadi. Ularning tahlil fanini nazariy, uslubiy va tashkiliy jihatlarini shakllantirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarini alohida etirof etish lozim. Jumladan, ushbu davrda tahlil maktabi a‘zolari I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev va A.A.Abdievlar tomonidan «Xo‘jalik faoliyatining tahlili»ga bag‘ishlangan to‘rt tomlik albom yaratildi. Bu albomning birinchi qismi «Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslari»ga bag‘ishlangan. Ushbu albomning ikkinchi tomi esa «Kooperativ savdoda iqtisodiy tahlil» nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalarini xo‘jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan. Ammo matlubot kooperatsiyasi ko‘p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3-tomi «Matlubot kooperatsiyasi alohida tarmoqlari xo‘jalik faoliyatining tahlili» mavzusiga bag‘ishlangan. Albomning 4-tomi matlubot kooperatsiyasi tashkilotlarida barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilinganidan keyingi o‘tkaziladigan tahlil usullarini o‘z ichiga olgan. Bu «Moliyaviy holatining tahlili» deb nomlangan va unda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini tahlil qilish tartibi iqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullardan foydalangan holda bayon qilingan.

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib Respublikamizda tahlil fani rivojlana boshladi. Bunda Toshkentdagi oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib borgan iqtisodchi olimlardan E.Akramov, Yo.Abdullaev, E.Ergeshev, N.Xan, X.Shodiev, A.Shoalimov va boshqalarning hissa katta hisoblanadi.

1990-yillarning boshlariga kelib Respublikamizda tahlil faniga oid dastlabki o‘zbek tilidagi adabiyotlar yaratila boshlandi. Jumladan, I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, A.A.Abdiyev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan «Matbuot

kooperasiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida birinchi marta o‘zbek tilida darslik vujudga keldi. Ushbu davrga kelib tahlil fanini rivojlanish sohasiga iqtisodchi olimlardan B.I.Isroilov, Z.N.Qurbonov, A.V.Vaxobov, A.T.Ibrohimov, M.To‘laxo‘jaeva, T.Sh.Shog‘iyosov, T.Q.Qudratov, I.O.Voljin, V.V.Ergashboev, M.Yu.Rahimov va boshqalar kirib kela boshladilar hamda ular tahlilning turli jihatlariga bag‘ishlangan asarlar yarata boshladilar.

Hozirgi kunda Respublikamizda tahlil faniga oid ko‘plab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar chop ettirilgan. Jumladan, iqtisodchi olim professor M.Q.Pardaev tomonidan yaratilgan «Iqtisodiy tahlil nazariyasi» nomli, A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulovlarning «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» nomli, E.Ergeshevning «Iqtisodiy va moliyaviy tahlil» nomli, T.Sh.Shog‘iyosov «Kompleks iqtisodiy tahlil» nomli, M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlarning «Iqtisodiy tahlil» nomli, T.Q.Qudratov va N.Fayzievalarning «Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati» nomli darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanilib kelinmoqda.

Shuningdek, «Moliyaviy tahlil»ga bag‘ishlangan bir qancha adabiyotlar ham chop etildi. Bular jumlasiga M.Q.Pardaevning «Moliyaviy tahlil metodologiyasi», A.T.Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil», I.T.Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari», I.O.Voljin va V.V.Ergashboevlarning «Moliyaviy tahlil», E.A.Akramovning «Korxonalarining moliyaviy holati tahlili», M.Q.Pardaev va B.I.Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» va M.Yu.Raximovning «Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili» kabi o‘quv adabiyotlari moliyaviy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanishida, oliy o‘quv yurtlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida, kadrlar malakasini oshirish tizimida va xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holati tahlilini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tegishli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

1.2. Moliyaviy tahlil fanining predmeti

Har qanday o'quv fanida predmet (o'rganadigan sohasi, undagi muammolar), metod (o'rganish usullari va qo'llaniladigan amallarning ilmiy asoslangan majmui), obyekt, funksiyalar va prinsiplar kabi muhim elementlari shakllangan bo'lishi lozim. Shu bois, boshqa iqtisodiy fanlar kabi «Moliyaviy tahlil» fani ham o'zining predmetiga ega bo'lishi kerak. Fanning predmeti faqat shu fanga xos bo'lib, boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim.

«Moliyaviy tahlil» fanini predmeti umumiy qilib aytganda tahlil qilinayotgan obyektning moliya-xo'jalik faoliyati hisoblanadi. Lekin, boshqa iqtisodiy («Moliyaviy hisobi», «Boshqaruv hisobi» «Statistika», «Moliya», «Audit») fanlarning ham predmeti keng ma'noda moliya-xo'jalik faoliyati hisoblanadi. Boshqa iqtisodiy fanlar ham moliya-xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rganadi. Demak, har bir fanning, xususan, «Moliyaviy tahlil» fanini o'ziga xos jihatini, unga tegishli predmetini aniqlab olish lozim. Bu esa, shu fan nimani o'rganadi degan savolga javob beradi.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qilib o'rganish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, ular tomonidan bu fan «Iqtisodiy tahlil» nomi bilan atalib, uning predmetiga quyidagicha ta'rif berilgan. Jumladan, A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, B.Xakimovlar «Iqtisodiy tahlil fanining predmeti – korxonalar, firma, uyushmalar, birlashmalarni xo'jalik jarayonlarini ularga ta'sir etuvchi subyektiv va obyektiv omillar asosida, mazkur voqeliklarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi vositasida, xo'jalik subyektlarining faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi va ular faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi»⁶ deb ta'rif berganlar.

Yana bir iqtisodchi olim E.Ergeshev «Boshqa fanlar singari «Iqtisodiy tahlil» fani ham o'zi asoslanadigan iqtisodiy tahlil mazmuniga ko'ra tavsiflanuvchi predmetga ega. Savdo korxonalarini xo'jalik faoliyati tahlili predmeti deb bunday

⁶ A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, B.Xakimov. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. -T.: «Toshkent Moliya instituti», 2003, 176 b (28 b).

korxonalaridagi xo‘jalik jarayonlari hamda ushbu jarayonlar natijalarini, obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liqligi va bu bog‘liqlikning tegishli iqtisodiy axborotnomalarda aks ettirilishiga aytiladi»⁷ deb ta’kidlaydi.

T.Q.Qudratov, M.M.Ibrohimov, Z.N.Karimovalar esa «Iqtisodiy tahlil fanining predmeti bo‘lib, barcha korxonalar faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida ro‘y bergan va sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tahlil obyektiv va subyektiv omillar ta’siri ostida sodir bo‘lgan va bo‘layotgan jarayonlarning holati va harakatini hamda ularning natijalarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadi. Tahlil o‘z predmetini o‘rganishda iqtisodiy axborotlardan foydalanadi, ya’ni iqtisodiy axborotlar asosida jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi keng qamrovda o‘rganiladi»⁸ deb ta’kidlaganlar.

Iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev., J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlarning ta’riflashicha «Iqtisodiy tahlil fanining predmeti – xo‘jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta’sirida sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va bo‘ladigan ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni ma’lumotlar manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar tizimi orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganishdan iboratdir».

Demak, tahlil fanini predmetiga yuqorida mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta’riflar berilgan. Umumiy mazmunda shu narsa ko‘rinadiki, iqtisodiy tahlil fani xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik jarayonlari va ularning natijalarini o‘rgangan holda yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqishni o‘rganishdan iborat ekan.

2000-yillarning boshlarida «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunlar asosida Oliy ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida iqtisodiy tahlil fanini negizida «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» nomi bilan davlat ta’lim standartlariga kiritilib, o‘quv jarayoniga mustaqil fan sifatida tatbiq etildi. Bu yangi o‘zgarishlarni nazarda tutgan holda 2005 yilda iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulovlar tomonidan «Moliyaviy

⁷ E.Ergeshev Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. -T.: «Toshkent tezkor bosmaxonasi», 2005. 345 bet. (7 b).

⁸ T.Q.Qudratov, M.M.Ibrohimov, Z.N.Karimova Iqtisodiy tahlil. -T.: «Ilm Ziyoy», 2005. -200 bet. (7 b).

va boshqaruv tahlili» nomli darslikni yaratdilar. Ushbu darslikda iqtisodchi olimlar ««Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanining predmeti deb – turli mulk shaklidagi korxonalar, uyushmalar, birlashmalar va hokazolarning moliyaviy-xo‘jalik jarayonlarini sodir bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to‘lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo‘lib faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi. Bunday o‘rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko‘pgina axborot manbalaridan foydalanadi»⁹ deb aytib o‘tganlar.

Mazkur ta’rifdan ko‘rinadi-ki, mazkur fan ham korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini o‘rganib, qanday samaradorlikka erishishini ko‘rsatib beradi.

Biroq, 2014-yilda davlat ta’lim standartlariga va malaka talablariga o‘zgartirish kiritilishi munosabati bilan iqtisodchi olimlarning tavsiyalariga ko‘ra bu fan yana qayta «Iqtisodiy tahlil» fani sifatida o‘quv rejaga kiritildi va o‘quv jarayoniga tatbiq etildi.

2016-yilda 5230900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» yo‘nalishi uchun malaka talablari qaytadan ishlab chiqilib tasdiqlandi. Xorijiy davlatlarda ushbu fanning nomlanishi va o‘qitilishi o‘rganilgan holda yangidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan malaka talablari hamda o‘quv rejasiga mazkur fan «Moliyaviy tahlil» nomi bilan kiritildi. Chunki, tahlil natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, xorijiy davlatlarda boshqaruv tahlilidan farqli ravishda moliyaviy tahlil alohida fan sifatida shakllangan.

Shu o‘rinda haqli bir savol tug‘iladi: *Xo‘sh moliyaviy tahlil nima va u nimani o‘rgatadi?*

Iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarini o‘rganish natijalariga asoslangan holda shuni aytish mumkin-ki, moliyaviy tahlilga ularning yondashuvlari mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, turlicha bayon qilingan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlar A.I.Alekseeva, Yu.V.Vasilev, A.V.Maleeva

⁹ A.V.Vahobov, A.T.Ibragimov, N.F.Ishonqulov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. -T.: «Sharq» NMAK, 2005 -479 bet. (38 b).

va L.I.Ushviskiylar tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: «Moliyaviy tahlil ichki axborot manbalaridan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan tashqi subyektlar tomonidan o'tkaziladigan tahlildir»¹⁰.

L.E.Basovskiy, A.M.Lunyova va A.L.Basovskiy «Moliyaviy tahlil e'lon qilinadigan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida o'tkaziladigan tahlildir»¹¹ deb ta'riflashgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning asarlarida ham moliyaviy tahlilga yondashuvlar mavjud bo'lib, xususan iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tomonidan moliyaviy tahlilga quyidagicha ta'rif beriladi: «Moliyaviy tahlil – xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini o'rganishga bag'ishlangan tahlildir»¹².

Iqtisodchi olim E.Akramov esa «Moliyaviy tahlil – korxonalarining ochiq tarzdagi moliyaviy hisobotlar ma'lumotlariga asoslanib o'tkaziladigan tahlildir» deb ta'riflaydi.

Iqtisodchi olimlar E.Ergeshev va X.M.Davlyatovlar moliyaviy tahlilning maqsadini quyidagicha ifodalashadi: «Moliyaviy tahlilning maqsadi hisobot ma'lumotlari orqali korxonada xo'jalik faoliyatida o'tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda erishilgan hamda kelgusida erishiladigan moliyaviy natijalar hamda moliyaviy holatga har tomonlama baho berishdan iborat»¹³.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlardan farqli ravishda iqtisodchi olim M.Yu.Raximov «Moliyaviy tahlil – moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida firma va kompaniyalarning moliyaviy holatiga iqtisodiy tashxis qo'yishni tavsiflaydi. Moliyaviy tahlilda firma va kompaniyalar mulki, kapitali va majburiyatlarining holatiga, faoliyat natijaviyligiga, asosiy va aylanma kapital holatiga va samaradorligiga, pul mablag'lari va xususiy mablag'larning holatiga baho beriladi»¹⁴ deb ta'kidlangan holda uning predmetini «Moliyaviy tahlilning

¹⁰ А.И.Алексеева, Ю.В.Васильев, А.В.Малеева, Л.И.Ушвицкий Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.: «Финансы и статистика», 2006 г., - 16 с.

¹¹ Л.Е.Басовский, А.М.Лунёва, А.Л.Басовский Экономический анализ. М.: «ИНФРА-М», 2008 г., - 7 с.

¹² Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Sam.: «Zarafshon», 2001 y., - 183 b.

¹³ Ergeshev E. Davlyatov X.M. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. –T.: «Adolat», 2010. – 101 b.

¹⁴ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. -31 b.

predmeti (obyekti) deb – firma va kompaniyalarni moliyaviy holatini yakuniy hisobot shakllarida ifodalangan axborotlarga tayangan holda aniq ko‘rsatkichlar tizimida, ichki va tashqi omillarga bog‘liq ravishda davriy o‘rganishga aytiladi»¹⁵ deb ta’riflaydi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida moliyaviy tahlilga yondashuvlarini e‘tiborga loyiqligini ta’kidlagan holda, o‘z fikrimizni quyidagicha bayon qilamiz: *Moliyaviy tahlil* – xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga va samaradorligiga baho berish hamda yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari asosida o‘tkaziladigan tahlildir.

Shunday qilib, moliyaviy tahlil fanining predmetiga quyidagicha ta’rif berish mumkin. «*«Moliyaviy tahlil» fanining predmeti* deganda buxgalteriya hisobi va hisobotida ifodalangan ko‘rsatkichlar asosida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga va ularning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar ta’sirini o‘rgangan holda baho berish va yaxshilash imkoniyatlarini ishlab chiqishni o‘rganishga aytiladi».

Fanning predmeti ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy tahlil fani xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini o‘rganar ekan. Bu jarayonda fan buxgalteriya hisobi va hisobotlarida ifodalangan ko‘rsatkichlarga tayanadi. Bu ko‘rsatkichlar esa axborot manbalarida o‘z aksini topadi. Shu bilan birga, berilgan ta’rifga ko‘ra moliyaviy tahlil fani predmetining markazida obyektiv va subyektiv omillarni o‘rganish lozimligi qayd qilinishi bejiz emas, chunki iqtisodiy jarayonlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Balki, ular ma’lum ichki va tashqi omillar ta’siri ostida ro‘y beradi. Shu bois, tahlilda xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo‘jalik faoliyati natijasiga ta’sir qilgan ijobiy va salbiy omillarni o‘rganmasdan turib, unga to‘g‘ri baho berib bo‘lmaydi. Chunki, tahlildan maqsad mavjud natijaga to‘g‘ri baho berish bilan

¹⁵ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. -31 b.

birgalikda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf qilish va shu orqali tahlil qilinayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Shu sababli, «Moliyaviy tahlil» fani moliya-xo‘jalik faoliyatining natijasiga ijobiy va salbiy o‘zgarishlarga omillar ta’sirini aniqlab, to‘g‘ri baho berish va xo‘jalik faoliyatini yaxshilash bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar faqat tahlilga xos bo‘lganligi uchun ham uning predmetida natijaga va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatgan obyektiv va subyektiv omillarga to‘g‘ri baho berish va yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish lozimligi ko‘rsatilgan.

Boshqa fanlar singari moliyaviy tahlil fanini ham obyekt bo‘lishi lozim. Har qanday fanning obyektini uning predmeti qayerlarda amalga oshirishini ko‘rsatib beradi. «Moliyaviy tahlil» fanini predmeti hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mulkchilikka asoslangan barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatida mujassam. Shu sababli, moliyaviy tahlil fanini obyektiga davlat, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, agrofirma va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik jarayonlari kiradi. Bu obyektlar mulkchilik shakliga ko‘ra davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabilarga bo‘linadi. Shu bilan bir qatorda moliyaviy tahlilning subyektlari ham bo‘lib, tahlil obyektini kim tomonidan o‘rganilishiga qarab belgilanadi, ya’ni hozirgi vaqtda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini juda ko‘p mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari xodimlari tahlil qilib o‘rganadilar. Tahlil ishlarini amalga oshiruvchi tahlil subyektlari tarkibiga xo‘jalik yurituvchi subyektlarning boshqaruv xodimlari, buxgalterlar, iqtisodchilar, menejerlar, auditorlar, statistika idoralari, moliya tashkilotlari, texnik xizmat, marketing xizmati, bank va birjalar xodimlari kabilari kiradi.

1.3. Moliyaviy tahlilning maqsadi, vazifalari va asosiy prinsiplari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning faoliyatini yaxshilash va samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish xo‘jalik subyektlarining ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yordam beradi, mavjud foydalanilmagan ichki resurslarni aniqlab, subyektning kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Moliyaviy tahlilning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari orqali o‘tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda erishilgan hamda kelgusida erishiladigan moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari va moliyaviy holatiga har tomonlama baho berish hamda mavjud kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo‘yicha to‘g‘ri xulosalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifasi sifatida xo‘jalik faoliyatida yo‘l quyilgan kamchiliklar sabablarini o‘rgangan holda ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga yordam berishdan iborat. Binobarin, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish lozim:


- o‘rganilayotgan obyektga to‘g‘ri va xolisona baho berish;
- o‘rganilayotgan natija ko‘rsatkichiga ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash va ularning sabablarini o‘rganish;
- ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlash va ularning ta’sirini hisob-kitob qilish;
- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- moliyaviy ko‘rsatkichlarni yaxshilanishi uchun mavjud ichki va tashqi

imkoniyatlarni o'rganish va samaradorlikni oshirishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish;

- o'rganilayotgan subyektning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni subyekt faoliyatini yaxshilashga jalb qilish;

- xo'jalik yurituvchi subyektning rivojlanishi uchun joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirgan holda kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun oqilona va to'g'ri xulosalar berish.

Moliyaviy tahlil ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda bir qancha prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar tahlil fanining obyektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va boshqa shu kabi jihatlarni tavsiflab, real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi. Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan bir qator prinsiplari mavjud (1.3.1-rasm). Ya'ni, quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tmoqchimiz:



1.1-rasm. Moliyaviy tahlil fanining prinsiplari

- *tizimlilik prinsipi*. Bunda tahlil etilayotgan obyekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaraladi;

- *ishonchlilik prinsipi*. Axborotlarda jiddiy xatolar va taxminlar bo'lmasa

hamda unga foydalanuvchilar asoslanishsa ishonchli bo'ladi. Ya'ni tahlil qilinayotgan ma'lumotlar xatolardan xoli va haqqoniy deb qaraladi;

- *taqqoslanuvchanlik prinsipi*. Bunda ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligiga, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish tushuniladi;

- *betaraflilik prinsipi*. Bu prinsip tahlil ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhining manfaatini qondirishning o'rinsizligini anglatadi;

- *davriylik prinsipi*. Bu olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i ya'ni, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqtida ta'minlab turish;

- *mazmunning shakldan ustunligi prinsipi*. Agar hisob-kitob hujjatlarida va moliyaviy hisobotda axborot operasialar va voqealarning mazmunini ishonchli darajada aks ettirsa, bunday axborot uning huquqiy shakli bilangina emas, balki mohiyati va iqtisodiy realligi bilan muvofiq holda hisobga olinishi va taqdim etilishi zarur;

- *aniq baholash prinsipi*. Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi tushuniladi;

- *pulli baholash prinsipi*. Barcha xo'jalik operasialari, voqealar, aktivlar va passivlar bir xil birlikda o'lchanishi – pul bilan baholanishi lozim;

- *hisobga olish prinsipi*. Bu prinsipga muvofiq aktivlar, passivlar, o'z sarmoyasi, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik operasialari va voqealar buxgalteriya hisobida bu harakatlar yuzasidan pul mablag'lari yoki ekvivalentlari olingan yoxud to'langan vaqtda emas, balki shu harakatlar sodir etilgan paytda aks ettiriladi;

- *uzluksizlik prinsipi*. Korxonada xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlar o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishini anglatadi.

1.4. Moliyaviy tahlilning shakllari va xususiyatlari

Yuqorida bayon qilganimizdek, moliyaviy tahlil – xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga va samaradorligiga baho berish hamda yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish

maqsadida buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari asosida o'tkaziladigan tahlildir. Bu tahlilni xo'jalik subyektining xodimlari tomonidan o'tkaziladi, biroq moliyaviy hisobot ochiq bo'lganligi uchun soliq, moliya, bank, statistika va boshqalar tomonidan ham o'tkaziladi hamda subyektning moliyaviy holatiga baho beradi. Moliyaviy tahlilning maqsadi va uning yo'nalishini e'tiborga olsak, u har xil shaklda bo'lishi mumkin: *tarmoqlararo, tarmoq ichida, korxonalar miqyosida, joriy va istiqbolli, tezkor, tugallangan* kabi shakllarda bo'lishi mumkin.

Tarmoqlararo moliyaviy tahlilda tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni nazarda tutgan holda, tahlil qilinayotgan xo'jalik subyektining moliyaviy holati o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi.

Tarmoq ichida o'tkazilayotgan moliyaviy tahlilda, tahlil qilinayotgan xo'jalik subyektlarining moliyaviy ko'rsatkichlari shu tarmoqdagi boshqa korxonalar hamda ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar mustaqil ravishda faoliyat olib borar ekan, moliyaviy tahlilning eng asosiy shakli alohida *korxonalar miqyosida* moliyaviy holatini tahlil qilish hisoblanadi.

Joriy moliyaviy tahlil choraklik va yarim yillik moliyaviy hisobotlar bo'yicha o'tkazilib, xo'jalik subyektining moliyaviy holatini yil davomida o'zgartirib, uni yaxshilash imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan har bir xo'jalik subyektini o'zining kelajagini ko'ra bilishi, ya'ni o'z istiqboliga ega bo'lishi zarur, buning uchun esa kelajakni o'ylagan holda kelgusida xo'jalikning moliyaviy holatining ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi uchun istiqbolli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Shu maqsadda xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holati *istiqbolini* ham tahlil qilib turish kerak.

Tezkor tahlil xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida doimo, uzluksiz bo'lishi kerak. Unda moliyaviy holatning alohida ko'rsatkichlari kuzatib boriladi va ularning o'zgarishiga qarab boshqaruv tadbirlari ishlab chiqilib amalga oshiriladi.

Tugallangan moliyaviy tahlilda xo‘jalik subyektining butun moliyaviy holati tahlil qilinadi.

Moliyaviy tahlilning yo‘naltirilganligi nuqtai nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

- *gorizontal tahlil*. Gorizontal tahlil hisobot davridagi ko‘rsatkichlar o‘tgan davrdagi hamda rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar va turdosh korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi, ya‘ni o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- *vertikal tahlil*. Vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o‘rganiladi. Masalan, korxonalar mablag‘larining yoki mablag‘lar manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o‘tgan davrga nisbatan o‘zgarishi ifodalanadi;

- *nisbiy ko‘rsatkichlar tahlili*. Bunday tahlilda moliyaviy holat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aloqa o‘rganiladi. Masalan, korxonalar mablag‘lari va o‘z mablag‘lar manbalari o‘rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o‘rtasidagi aloqa ifodalanadi;

- *taqqoslash tahlili*. Taqqoslash tahlilida korxonalar bo‘yicha moliyaviy holat uning alohida bo‘limlari moliyaviy holati bilan taqqoslandi, bu korxonaning moliyaviy holati boshqa korxonalarining moliyaviy holati bilan solishtiriladi;

- *omilli tahlil*. Omilli tahlilda tahlil natijalariga bir qancha omillarning ta‘siri hisoblanib, mavjud imkoniyatlar aniqlanadi va kelgusida ulardan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi;

- *dinamik tahlil*. Bunday tahlilda ko‘rsatkichlarning bir qancha yillar mobaynida o‘zgarishi o‘rganiladi. Bu istiqbolli rejalarni tuzish, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni oldindan belgilash uchun o‘tkaziladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan moliyaviy tahlilning shakllaridan tashqari yana amaliyotda *ichki* va *tashqi* moliyaviy tahlil shakllari qo‘llaniladi.

Ichki moliyaviy tahlil xo‘jalik subyektining xodimlari tomonidan o‘tkazilib, kelgusida boshqaruv tizimini takomillashtirish va moliyaviy holatini yaxshilash

maqsadida o‘tkaziladi.

Tashqi moliyaviy tahlil xo‘jalik subyekti xodimlari tomonidan emas, balki boshqa organlar, tashkilotlar va korxonalar xodimlari tomonidan o‘tkaziladi. Bu tahlil xo‘jalik subyektining murojaati bo‘yicha yoki yuqori tashkilot, korxonalar va davlat organlari xodimlari tomonidan nazorat sifatida o‘tkazilishi mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bir tomondan korxonalarining mustaqil faoliyati uchun imkoniyat yaratib bersa, ikkinchi tomondan ularning mas‘uliyatini oshiradi. Shu bois, korxonalar o‘zining moliya-xo‘jalik faoliyatini chuqur tahlil qilib o‘rganishlari lozim. Bunda moliyaviy tahlil va boshqaruv tahlili shakllaridan keng foydalanish talab etiladi. Moliyaviy tahlil va boshqaruv tahlili shakllari bir-biri bilan bog‘liq, ammo bajaradigan vazifalari va xususiyatlari turlicha hisoblanadi. Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning yakunlari ochiq bo‘lib, tahlil ma‘lumotlaridan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibi keng hisoblanadi;
- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma‘lumotlariga asoslanadi;
- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini yechish uchun o‘tkaziladi;
- moliyaviy tahlilning yo‘nalishi moliyaviy hisobot ma‘lumotlari bilan cheklangan bo‘lib, unda aniq vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqa ko‘rsatkichlardir.

1.5. Moliyaviy tahlilning boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi

«Moliyaviy tahlil» fani iqtisodiy fan bo‘lib boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar va tartiblarga amal qiladi. Ya‘ni ko‘pgina fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Jumladan, «Moliyaviy tahlil» fani bevosita «Iqtisodiyot nazariyasi» fani bilan bog‘liq. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatda sodir bo‘layotgan

iqtisodiy jarayonlarning ma'lum qonuniyatlarini, ularning xarakterlanish va amal qilish yo'llarini o'rgatadi. Moliyaviy tahlil esa shu qonunlarning korxonada, firma, birlashma va shu kabilar doirasida sodir bo'lish va amal qilish jarayonini o'rganadi. Bunda «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining ilmiy-metodologik jihatlaridan foydalaniladi. Moliyaviy tahlil o'z navbatida iqtisodiyotda sodir bo'layotgan jarayonlarni chuqur o'rganish bilan «Iqtisodiyot nazariyasi» fanining rivojlanishi uchun ham asos yaratib beradi. Shu bois, bu fanlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda deb hisoblaymiz.

Moliyaviy tahlil fani «Moliyaviy hisob» fani bilan ham uzviy bog'liq. Bu fanlar mazmun va mohiyati jihatidan aniq amaliy fanlar guruhiga kiradi. Tahlil moliyaviy hisobning navbatdagi bosqichi sifatida uning mantiqiy davomi bo'lib hisoblanadi. Moliyaviy hisobning vazifasi moliyaviy hisobotni tuzish, axborotlarini umumlashtirish bilan tugaydi. Shu hisobotlar va boshqa axborotlar asosida sodir bo'lgan va bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni o'rganish bilan moliyaviy tahlil shug'ullanadi. Tahlilda moliya-xo'jalik faoliyatining haqiqiy natijasi rejadagi, me'yorlardagi, o'tgan davrlardagi ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, o'zgarishlar aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajalari hisoblanadi hamda tahlil natijalaridan kelib chiqib to'g'ri xulosalar shakllantiriladi va foydalanilmayotgan mavjud ichki imkoniyatlar aniqlash orqali tahlil o'z vazifasini bajaradi.

Bizga ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zining moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilib va shu tahlil ma'lumotlariga asosan tegishli boshqaruv qarorlari qabul qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, moliyaviy tahlil «Boshqaruv hisobi» fani bilan ham o'zaro aloqador.

Moliyaviy tahlil «Statistika» fani bilan ham bevosita bog'liq. Statistika iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash usullari o'rgatilsa moliyaviy tahlilda shu ko'rsatkichlardan tahlil qilish uchun foydalaniladi. Statistik hisob va hisobot ma'lumotlari ham moliyaviy tahlil uchun axborot manbai bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy tahlil jarayonida ham statistik usulardan foydalaniladi.

Statistika ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosan makro darajada talqin qilsa, tahlil ularni mikro darajada o'rganadi. Ya'ni statistika yirik bir to'plamlar, guruhlarni o'rgansa, tahlil asosan bitta xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganish bilan cheklanadi. Demak, «Statistika» va «Moliyaviy tahlil» fanlari o'zaro uzviy aloqada bo'lishi bilan birga, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil «Pul va banklar» fani bilan ham uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy mablag' bilan ta'minlash, agarda o'z mablag'lari yetarli bo'lmasa qancha kredit olish va unga qancha foiz to'lash kabi pul munosabatlari bilan «Pul va banklar» fani shug'ullanadi. O'z mablag'lari va qarz mablag'laridan samarali foydalanganlik kabi muhim jihatlari bilan moliyaviy tahlil fani shug'ullanadi. Bu yerda ikki fanning ham o'rganish obyekti (moliyaviy mablag'lar) bir xil. Ammo birinchisida ushbu kategoriyaning mavjudligi va ta'minoti o'rganilsa, ikkinchisida undan foydalanish samaradorligi o'rganiladi.

Shuningdek, «Moliyaviy tahlil» fani «Audit» fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Audit va auditorlik faoliyati tushunchalari mustaqilligimizning dastlabki yillaridan kirib keldi va qo'llanila boshladi. Bugungi kunda «Audit» mustaqil fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitilib kelinmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday holda ham audit moliyaviy hisobotda ifodalangan ko'rsatkichlarning to'g'ri shakllantirilganligiga baho berishi uchun ularni tahlil qilib o'rganishi lozim bo'ladi. Chunki, asosli auditorlik xulosasi tahlil natijalariga asoslangan holda shakllanadi. Bundan audit va tahlil bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, tahlil juda ko'p hollarda fanlar o'rtasida ko'prik vositasini bajaradi. Biz yuqorida «Moliyaviy tahlil» faniga yaqin bo'lgan iqtisodiy fanlarga to'xtalib o'tdik. Bundan tashqari moliyaviy tahlil huquqga doir va tabiiy fanlar bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tahlil fanining vujudga kelishi va fan sifatida rivojlangunga qadar qanday evolyusion yo'lni bosib o'tgan?
2. Tahlil fani Respublikamizda qachondan shakllana boshlagan va fan sifatida vujudga kelgan?
3. Moliyaviy tahlilning zarurligi va muhimligini aytib bering?
4. Moliyaviy tahlil fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
5. Moliyaviy tahlil obyektlariga nimalar kiradi?
6. Moliyaviy tahlil subyektlari kimlar?
7. Moliyaviy tahlil maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
8. Moliyaviy tahlil fanining qanday prinsiplari bor?
9. Moliyaviy tahlilning qanday shakllari bor?
10. Moliyaviy tahlil qaysi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi?

NAZORAT TESTLARI

1. O'zbekiston Respublikasida tahlil fanining yaratilish davrlari va ularning yillari hamda davrlarning nomlanishi qaysi javobda to'liq hamda ketma-ketlikda berilgan?

- A) 5 ta davrga bo'linib: 1-davr XX-asrning 50-yillariga to'g'ri kelib, fanning tashkil topish davri deb nomlangan; 2-davr XX-asrning 60-yillariga to'g'ri kelib, sobiq ittifoq ichida o'z o'rniga ega bo'lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri deb nomlangan; 3-davr 70-yillarga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperasiyasi tahlili sohasini egallash davri deb nomlangan; 4-davr 80-yillarning boshlariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning o'zbek tilida yozilishi va vujudga kelish davri deb nomlangan; 5-davr 90-yillarga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari, iqtisodiy tahlil bo'yicha asarlarning ko'plab vujudga kelishi va chop etilishi hamda bu bo'yicha turli qarashlarning paydo bo'lish davri hisoblangan
- B) 4 ta davrga bo'linib: 1-davr XX-asrning 70-yillariga to'g'ri kelib, sobiq ittifoq ichida o'z o'rniga ega bo'lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri

deb nomlangan; 2-davr 80-yillarga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri deb nomlangan; 3-davr 90-yillarning boshlariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning o'zbek tilida yozilishi va vujudga kelish davri deb nomlangan; 4-davr Mustaqillik yillariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari, iqtisodiy tahlil bo'yicha asarlarning ko'plab vujudga kelishi va chop etilishi hamda bu bo'yicha turli qarashlarning paydo bo'lish davri hisoblangan

C) 5 ta davrga bo'linib: 1-davr XX-asrning 60-yillariga to'g'ri kelib, shakllanish davri deb nomlangan; 2-davr XX-asrning 70-yillariga to'g'ri kelib, sobiq ittifoq ichida o'z o'rniga ega bo'lish va iqtisodiy tahlil maktabining shakllanish davri deb nomlangan; 3-davr 80-yillarga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri deb nomlangan; 4-davr 90-yillarning boshlariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning o'zbek tilida yozilishi va vujudga kelish davri deb nomlangan; 5-davr Mustaqillik yillariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari, moliyaviy tahlil bo'yicha asarlarning ko'plab vujudga kelishi va chop etilishi hamda bu bo'yicha turli qarashlarning paydo bo'lishi davri hisoblangan

D) 3 ta davrga bo'linib: 1-davr XX-asrning 60-70-yillariga to'g'ri kelib, shakllanish davri deb nomlangan; 2-davr 80-90-yillarga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlil maktabining yaratilish va ittifoq miqyosida matlubot kooperatsiyasi tahlili sohasini egallash davri deb nomlangan; 3-davr Mustaqillik yillariga to'g'ri kelib, iqtisodiy tahlilning rivojlanish yillari, moliyaviy tahlil bo'yicha asarlarning ko'plab vujudga kelishi va chop etilishi hamda bu bo'yicha turli qarashlarning paydo bo'lish davri hisoblangan

2. Tahlil fanining O'zbekiston Respublikasida vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot jarayonida atalgan nomlari qaysi javobda to'g'ri ketma-ketlikda aks ettirilgan?

A) Balansni tahlil qilish, Hisobot tahlili, Iqtisodiy tahlil, Xo'jalik faoliyati tahlili, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy va boshqaruv tahlili

- B) Balansshunoslik, Balans talqini, Balansni tahlil qilish, Hisobot tahlili, Iqtisodiy tahlil, Sosial-iqtisodiy tahlil, Xo‘jalik faoliyati tahlili, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy va boshqaruv tahlili, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy tahlil
- C) Balansshunoslik, Balansni tahlil qilish, Hisobot tahlili, Sosial-iqtisodiy tahlil, Xo‘jalik faoliyati tahlili, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy va boshqaruv tahlili
- D) Hisobot tahlili, Balans talqini, Balansni tahlil qilish, Iqtisodiy tahlil, Xo‘jalik faoliyati tahlili, Iqtisodiy tahlil, Moliyaviy va boshqaruv tahlili

3. Moliyaviy tahlil – bu...

- A) xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga va samaradorligiga baho berish hamda yaxshilash imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlari asosida o‘tkaziladigan tahlildir
- B) xo‘jalik yurituvchi subyektning statistik ma’lumotlari asosida o‘tkaziladigan tahlildir
- C) xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqaruv hisobi ma’lumotlariga asoslanib o‘tkaziladigan tahlildir
- D) Soliq hisobotlari asosida o‘tkaziladigan tahlildir

4. Moliyaviy tahlil fanining predmetiga qaysi javobda to‘g‘ri ta’rif berilgan?

- A) Moliyaviy tahlil fanining predmeti deganda hisobot davridagi ko‘rsatkichlar o‘tgan davrdagi hamda rejalashtirilgan ko‘rsatkichlar va turdosh korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslab, ya’ni o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlarning dinamikasi tahlil qilish tushuniladi
- B) Moliyaviy tahlil fanining predmeti deganda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining hisob va hisobotlar hamda hisobdan tashqari ma’lumotlar asosida, biznes rejaning asoslanganligi, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish natijasida ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashni, bularning barchasini iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimida ifodalash orqali ularni tizimli o‘rganishni, barcha omillarning ta’sirini hisoblashni ta’minlash tushuniladi
- C) Moliyaviy tahlil fanining predmeti deganda buxgalteriya hisobi va hisobotida

ifodalangan ko'rsatkichlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga, moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillar ta'sirini o'rgangan holda baho berish va yaxshilash imkoniyatlarini ishlab chiqishni o'rganishga aytiladi

D) Moliyaviy tahlil fanining predmeti deganda iqtisodiy ko'rsatkichlarni bir qancha yillar mobaynida o'zgarishini tahlil qilib, istiqbolli rejalarini tuzish, kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni oldindan belgilash uchun o'tkazilishi tushuniladi

5. Moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?

A) O'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish; korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to'lovga qobiliyatligiga baho berish hamda bu natijaga tezkor chora-tadbirlarni qo'llash yo'llarini ishlab chiqish, korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash; korxonalarining xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash; tahlil uchun kerakli axborot manbalarini to'plash va ularning to'g'riligini tekshirish.

B) Moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish; korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni korxonani faoliyatini yaxshilashga jalb qilish; korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan hodisaga qo'llash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib berish.

C) Xo'jalik yurituvchi subyektning rivojlanishi uchun joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirgan holda kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun oqilona va to'g'ri xulosalar berish, korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan hodisaga qo'llash yo'l-yo'riqlarini ko'rsatib berish, tegishli axborotlar manbaini yetkazib berish.

D) O'rganilayotgan obyektga to'g'ri va xolisona baho berish, o'rganilayotgan

natija ko'rsatkichiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni aniqlash va ularning sabablarini o'rganish, ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisob-kitob qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish, moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilanishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni o'rganish va samaradorlikni oshirishni yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish, o'rganilayotgan subyektning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka ko'rsata bilish va tashqi investorlarni subyekt faoliyatini yaxshilashga jalb qilish, xo'jalik yurituvchi subyektning rivojlanishi uchun joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini shakllantirgan holda kelgusida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun oqilona va to'g'ri xulosalar berish.

6. Tahlilning eng asosiy prinsiplari qaysi javobda to'liq aks ettirilgan?

- A) Ishonchlilik, betarafllilik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, pulli baholash, hisobga olish, aniq baholash;
- B) Tizilmalilik, ishonchlilik, betarafllilik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, pulli baholash, hisobga olish, mazmunning shakldan ustunligi, aniq baholash, uzluksizlik;
- C) Tahlil dasturini tuzib olishlik, tizilmalilik, ishonchlilik, betarafllilik, davriylik, taqqoslanuvchanlik;
- D) Tizilmalilik, ishonchlilik, betarafllilik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, mazmunning shakldan ustunligi, aniq baholash, uzluksizlik.

7. Moliyaviy tahlil maqsadi va uning yo'nalishini e'tiborga olgan holda qanday shakllarda bo'lishi mumkin?

- A) Tarmoqlararo, tarmoq ichida, korxonalar miqyosida, joriy va istiqbolli, tezkor, tugallangan
- B) Tarmoqlararo, taqqoslama, ichki va tashqi
- C) Tezkor, korxonalar miqyosida, ichki va tashqi, solishtirma
- D) Joriy, istiqbolli, tashqi, gorizantal, vertikal va balansli bog'lanish

8. Moliyaviy tahlilning yo‘naltirilganligi nuqtai nazardan moliyaviy tahlil qanday shakllarda o‘tkazilishi mumkin?

- A) Gorizonttal tahlil, vertikal tahlil, nisbiy ko‘rsatkichlar tahlili, taqqoslash tahlili, omilli tahlil, dinamik tahlil
- B) Tarmoqlararo, tarmoq ichida, korxonalar miqyosida
- C) Joriy va istiqbolli, tezkor, tugallangan
- D) Joriy, istiqbolli, tashqi, gorizonttal, vertikal

9. Qaysi javobda moliyaviy tahlil obyektlari keltirilgan?

- A) Davlat, jamiyat tashkilotlari, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari, agrofimlar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik jarayonlari kiradi
- B) Mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari
- C) Buxgalterlar, iqtisodchilar, menejerlar, boshqaruv idorasi xodimlari, statistika idoralari xodimlari, auditorlar, moliya tashkilotlari xodimlari, texnik xizmati xodimlari, mehnat birjasi xodimlari, marketing xizmati xodimlari, bank va birjalar xodimlari kabilar kiradi
- D) Davlat, jamiyat tashkilotlari, korxonalar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari va ularning rahbar xodimlari kiradi

10. Moliyaviy tahlil fani qaysi iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganiladi?

- A) Iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi, satatistika, moliya va kredit, audit va boshqa iqtisodiy fanlar
- B) Iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi, satatistika, moliya va kredit, audit, biologiya, mehnat muhofazasi va boshqa iqtisodiy fanlar
- C) Iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi, moliya, paxtachilik, dehqonchilik asoslari va boshqa iqtisodiy fanlar
- D) Iqtisodiy nazariya, buxgalteriya hisobi, satatistika, moliya, moliya va kredit, ipakchilik asoslari, chorvachilik asoslari va boshqa iqtisodiy fanlar

II BOB. MOLIYAVIY TAHLILDA QO‘LLANILADIGAN KO‘RSATKICHLAR

2.1. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tasniflash belgilari

Iqtisodiy ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotida sodir bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar, hodisalar va ularning natijasini miqdor va sifat jihatdan ifodalab beradi. Shu sababli, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari, jumladan uchunchi iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, belgilab olingan ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha erishilgan yutuqlar, yo‘l quyilgan kamchiliklar, milliy iqtisodiyotda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarda aks etadi. Ushbu ma’lumotlar asosida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning holatiga baho beriladi, ularning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar hisob-kitob qilingan holda yaxshilash imkoniyatlari bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu esa, iqtisodiy ko‘rsatkichlar iqtisodiy jarayonlarni baholashda, ularning o‘zgarishlarini aniqlashda, ayniqsa tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.


Bugungi kunda iqtisodiy ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri talqin qilgan holda foydalanish moliya-xo‘jalik faoliyatini boshqarishda oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, tahlilni tashkil etish va o‘tkazishda iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning tasnifi to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lish lozim.

Iqtisodchi olimlarning o‘quv-uslubiy va ilmiy asarlarida iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning tasniflanishi yoritilgan bo‘lib, jumladan iqtisodchi olim M.Q.Pardaev “Iqtisodiy ko‘rsatkichlar deganda, iqtisodiy jarayonlar, hodisalar va ularning natijasini miqdor va sifat jihatidan ifodalaydigan nomi va o‘lchamlarga ega bo‘lgan birliklar tushuniladi”¹⁶ deb ta’riflaydi.

¹⁶ Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. “Zarafshon”, 2001. – 67 b.

Ushbu ta'rifdan ko'rinadiki, iqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini miqdor va sifat jihatdan ifodalaydigan nomiga hamda o'lchamlarga ega bo'lishi lozim ekan. Haqiqatdan ham iqtisodiy ko'rsatkich iqtisodiy jarayonni miqdor yoki sifat jihatdan ifodalovchi nomga va ma'lum bir o'lchamga ega bo'lishi kerak. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot davridagi moliya-xo'jalik faoliyati yakunini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sof foyda yoki ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq iqtisodiy jarayonni ifodalovchi ko'rsatkich mahsulot hajmi hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu iqtisodchi olim iqtisodiy ko'rsatkichlarni quyidagi belgilari bo'yicha tasniflaydi (2.1-rasm):




2.1-rasm. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning tasniflash belgilari¹⁷

2.2. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazmuni bo'yicha tasniflanishi

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini miqdor va sifat jihatdan o'rganishda, ularni ifodalovchi ko'rsatkichlarni mazmuni bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'lib o'rganiladi (2.2-rasm):

¹⁷ Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. "Zarafshon", 2001. – 56 b.




2.2-rasm. Ko'rsatkichlarning mazmuni bo'yicha tasniflanishi

Miqdor ko'rsatkichlarga bevosita ko'rsatkichlar tizimida hajmni ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar kiradi. Xususan, mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) hajmi, yer maydoni, xodimlar soni, aholi soni kabi umumiy hajmni ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi.

Sifat ko'rsatkichlariga esa moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Bular jumlasiga mehnat unumdorligi, rentabellik, daromadlilik, hosildorlik, samaradorlik kabi sifat ko'rsatkichlari kiradi.

2.3. Ko'rsatkichlarni foydalanish doirasi bo'yicha tasniflash

Iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi foydalanish doirasi bo'yicha ham tasniflanadi. Chunki, shunday ko'rsatkichlar borki, ular faoliyat turidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda bitta iqtisodiy ko'rsatkichni ifoda etadi. Shuningdek, ayrim ko'rsatkichlar ham borki, ular faqat ma'lum bir sohada qo'llaniladi. Shu bois, ko'rsatkichlarni foydalanish doirasi bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin (2.3-rasm):




2.3-rasm. Ko'rsatkichlarni foydalanish doirasi bo'yicha tasniflanishi

Umumiy ko'rsatkichlarga tannarx, foyda, rentabellik, samaradorlik, mehnat unumdorligi, ishchi kuchi, daromad, xarajat, yalpi tushum, sof tushum kabi ko'rsatkichlar kiradi. Chunki, bu ko'rsatkichlardan iqtisodiyotning barcha bo'g'in va sohalarida foydalaniladi. Jumladan, tannarx, foyda, rentabellik, mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar sanoatda, qishloq xo'jaligida, qurilish, savdo faoliyatida ham foydalanilishi mumkin.

Maxsus ko'rsatkichlar esa iqtisodiyotning faqat bitta sohasiga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlar kiradi. Masalan, hosildorlik, mahsuldorlik, yalpi hosil, sut miqdori, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni kabilar agrar sohada foydalaniladigan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlardan sanoatda, savdoda yoki qurilishda foydalanilmaydi. Shu bois, ushbu ko'rsatkichlar maxsus ko'rsatkichlar tizimiga kiradi.

2.4. Ko'rsatkichlarning ifodalanish shakli bo'yicha tasnifi

Iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lum bir qiymatda yoki ularni solishtirish natijasida nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin. Chunki, tahlilning maqsadidan kelib chiqqan holda natija ko'rsatkichi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Shu sababli, ko'rsatkichlar ifodalanish shakli bo'yicha quyidagicha tasniflanadi (2.4-rasm):



2.4-rasm. Ko'rsatkichlarning ifodalanish shakli bo'yicha tasniflanishi

Shu o'rinda mutloq ko'rsatkichlar qanday o'lchovda ifodalanishiga qarab quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- *natural (miqdor) ko'rsatkichlar*. Ushbu guruh ko'rsatkichlariga biror bir predmetning uzunligi, og'irligi, maydoni yoki kengligi kabi o'lchovlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar kiradi. Masalan: tonna, gektar, sentner, kilometr.

- *qiymat ko'rsatkichlar*. Bu ko'rsatkich natural (miqdor) ko'rsatkichini pulda baholangan shakli hisoblanadi. Bunga mahsulot bahosi, yalpi tushum, sof tushum, tannarx, ish haqi kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.


O'z navbatida nisbiy ko'rsatkichlar turli mutloq ko'rsatkichlarni bir-biriga yoki turli davrlardagi hajmini bir-biriga taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar indeksda, koeffitsiyentda yoki foizda ko'rsatilishi mumkin. Biroq, tahlilning maqsadi, obykti va sohasiga qarab bu ko'rsatkichlar tizimiga son va

sifat jihatidan o'zgarishlar kiritilishi mumkin. Jumladan, qishloq xo'jalik korxonalarini faoliyati tahlil qilinayotgan bo'lsa, nisbiy ko'rsatkich sifatida hosildorlik olinishi mumkin. Uni yalpi hosil miqdorini ekin maydoniga bo'lish orqali aniqlaymiz. Boshqa sohalarga ham shu tartibda yondashish mumkin.

2.5. Ko'rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash

Iqtisodiy ko'rsatkichlar umumlashtirish darajasi bo'yicha ham tasniflanadi. Chunki, iqtisodiy jarayonlar har bir sohada va bo'g'inlarda hamda bosqichlarda turlicha bo'ladi. Xususan, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi uni ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning umumiy hajmini ifodalaydi. Ya'ni bu umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. Biroq uning bir qismi sarf bo'lgan moddiy resurslarni, yana bir qismi mehnat resurslari hajmidan iborat. O'z navbatida sarf bo'lgan moddiy resurslarning miqdori va bahosi kabi ko'rsatkichlar ular to'g'risida qo'shimcha xulosalar beradigan yordamchi ko'rsatkichlardir. Shu sababli, iqtisodiy ko'rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo'yicha tasniflash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning mazkur belgisi bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin (2.5-rasm).



2.5-rasm. Ko'rsatkichlarni umumlashganlik darajasi bo'yicha tasniflanishi

Umumlashgan ko'rsatkichlarga xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining biror bir natijasini umumiy holatda ifoda etadigan ko'rsatkichlar kiradi. Masalan, fermer xo'jaligining mahsulot sotishdan olingan sof tushumi. Bu umumlashgan ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, u fermer xo'jaligida yetishtirilgan barcha mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumini ifoda etadi. Shuningdek, fermer xo'jaligida paxta, bug'doy yoki sabzavot yetishtirishdan olingan sof pul tushimi kabi ko'rsatkichlar natijaning bir qismini ifodalaydigan ko'rsatkichlar

hisoblanadi. Demak, qisman ko'rsatkichlar o'rganilayotgan ko'rsatkichning u yoki bu jihatini alohida ifoda etadigan ko'rsatkichlar hisoblanar ekan.

Shu bilan birga, mazkur guruhga yordamchi ko'rsatkichlar ham kiradi. O'z nomi bilan ushbu ko'rsatkichlar umumlashgan va qisman ko'rsatkichlarni batafsil ifoda etishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardir. Jumladan, mahsulot sotishdan olingan sof tushumni (SST) aniqlash uchun sotilgan mahsulot miqdorini (M) bir sentner mahsulotning o'rtacha sotish bahosiga (B) ko'paytirish kerak. Bu yerda mahsulot sotishdan olingan sof tushum (SST) umumlashgan ko'rsatkich bo'lsa, mazkur ko'rsatkichning qanday shakllanganligini yordamchi ko'rsatkichlar sifatida sotilgan mahsulot miqdori (M) va bir sentner mahsulotning o'rtacha sotish bahosining ko'paytmasi ko'rsatib beradi. Ya'ni, mahsulot sotishdan olingan sof tushumga (SST) ushbu ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida ham qaraladi.


2.6. Ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha tasniflash

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jarayonlarni boshqarilishi uchun ularga har bir bosqichda alohida yondashishni talab qiladi. Xususan, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning reja tannarxi xo'jalik yurituvchi subyektning biznes rejasida o'z aksini topadi. Ishlab chiqarish davri yakunlangandan so'ng, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning haqiqiy tannarxi hisob-kitob qilib aniqlanadi. Shundan keyingina reja tannarxi va haqiqiy tannarx o'rtasida tafovut aniqlanadi. Mazmunan ikki ko'rsatkich bir ko'rsatkichni, ya'ni tayyor mahsulot tannarxini ifodalaydi. Biroq, biri reja tannarxi, ikkinchisi haqiqiy tannarx hisoblanadi. Shu sababli, ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha ham tasniflash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ko'rsatkichlarni shakllanish usuli bo'yicha besh guruhga ajratish mumkin (2.6-rasm).

Me'yoriy ko'rsatkichlarga xarajatlar va sarflarning ma'lum birlikka nisbatan me'yorda ifodalangan miqdori kiradi. Masalan, mamlakat aholisining, ya'ni bir

kishining yog‘, go‘sh, tuxum va non kabi mahsulotlarning iste‘mol qilish me‘yori. Bu ko‘rsatkich mamlakatning o‘z aholisini ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabini qondirish uchun ma‘lum bir davrga yetarli zaxira yaratish uchun zarur bo‘ladi.



2.6-rasm. Ko‘rsatkichlarning shakllanish usuli bo‘yicha tasnifi

Reja ko‘rsatkichlariga xo‘jalik yurituvchi subyektning rivojlanish istiqbolini belgilovchi biznes rejasida ifoda etilgan ko‘rsatkichlar kiradi. Jumladan, xo‘jalik subyekti biznes rejasida ko‘rsatilgan sof foyda ko‘rsatkichiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu ko‘rsatkich oldindan belgilanishi va barcha faoliyat shu rejadagi miqdorga erishishga qaratilishi lozim. Chunki, rejada belgilangan sof foyda miqdoriga erishilishidan barcha manfaatdor hisoblanadi. Xususan, sof foyda miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, ta‘sischilar oladigan dividend miqdori, davlat byudjetiga to‘lanadigan soliqlar miqdori va subyekt faoliyatini kengaytirish uchun yo‘naltiriladigan mablag‘ miqdori shuncha ko‘p bo‘ladi.

Yana bir muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlardan biri bu hisob ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Unga buxgalteriya, statistik va tezkor hisob ma‘lumotlarida ifoda etilgan ko‘rsatkichlar kiradi.

Amalda sodir bo‘lgan xo‘jalik operatsiyalari tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan holda uzluksiz hisobga olib borilishi lozim. Bu hisob ko‘rsatkichlarining haqiqiyliги va qonuniyligini ta‘minlaydi. Masalan, xaridorga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot yuklab jo‘natildi. Mazkur operatsiya albatta tegishli hujjat bilan rasmiylashtirilgan holda hisobga olinadi va hisobdan chiqariladi. Bundan ko‘rinadiki, hisob ko‘rsatkichlari har bir ko‘rsatkichning haqiqiy natija ko‘rsatkichi ekanligini ifoda etadi.

Hisob ko‘rsatkichlari ma‘lum bir davr yakunida jamlangan holda

hisobotlarda aks etadi. Shu tariqa hisobot ko'rsatkichlari shakllanadi. Demak, buxgalteriya, statistik va tezkor hisobotlarda ifoda etilgan ko'rsatkichlar hisobot ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish va yuritishda oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish maqsadida hisob-kitob qilib o'rganiladigan ko'rsatkichlar tahliliy ko'rsatkichlardir. Umuman olganda, barcha ko'rsatkichlardan tahlil qilish jarayonida foydalaniladi. Shu orqali tahliliy ko'rsatkichlar tizimi shakllanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiy ko'rsatkichlar deganda nima tushuniladi?
2. Ko'rsatkichlar qaysi belgilari bo'yicha tasniflanadi?
3. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha qanday tasniflanadi?
4. Ko'rsatkichlar foydalanish doirasi bo'yicha qanday guruhlariga bo'linadi?
5. Umumiy ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz?
6. Maxsus ko'rsatkichlar qanday ko'rsatkichlar? Fikringizni misollar yordamida asoslab bering.
7. Ko'rsatkichlar ifodalanish shakli bo'yicha qanday tasniflanadi?
8. Ko'rsatkichlarni umumlashtirish darajasi bo'yicha qanday guruhlariga ajratiladi?
9. Shakllanish usuli bo'yicha ko'rsatkichlar qanday guruhlariga bo'linadi?
10. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaiy-xo'jalik faoliyati bo'g'inlari bo'yicha ko'rsatkichlar qanday tasniflanadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Ko'rsatkichlar qanday belgilari bo'yicha tasniflanadi?

- A) Mazmuni, foydalanish doirasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo'jalik yurituvchi subyekt bo'g'inlari va shakllanish usuli bo'yicha
- B) Mazmuni, foydalanish doirasi, ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi,

- xo'jalik yurituvchi subyekt bo'g'inlari va yuzaga kelish tartibi bo'yicha
- C) Ifodalanish shakli, umumlashtirish darajasi, xo'jalik yurituvchi subyekt bo'g'inlari, hisobga olish joyi va yuzaga kelish tartibi bo'yicha
- D) Mazmuni, foydalanish doirasi, ifodalanish shakli, risklilik darajasi, xo'jalik yurituvchi subyekt bo'g'inlari va shakllanish usuli bo'yicha

2. Ko'rsatkichlar tizimi mazmuni bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?

- A) Umumiy va maxsus ko'rsatkichlar
- B) Miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- C) Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar
- D) Umumlashgan, qisman va yordamchi ko'rsatkichlar

3. Ko'rsatkichlar tizimi foydalanish doirasi bo'yicha qanday guruhlarga ajratiladi?

- A) Umumiy va maxsus ko'rsatkichlar
- B) Miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- C) Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar
- D) Umumlashgan, qisman va yordamchi ko'rsatkichlar

4. Ko'rsatkichlar ifodalanish shakli bo'yicha qanday ko'rsatkichlarga bo'linadi?

- A) Umumiy va maxsus ko'rsatkichlar
- B) Miqdor va sifat ko'rsatkichlar
- C) Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar
- D) Umumlashgan, qisman va yordamchi ko'rsatkichlar

5. Ko'rsatkichlar umumlashtirish darajasi bo'yicha qanday guruhlarga bo'linadi?

- A) Umumiy va maxsus ko'rsatkichlar
- B) Me'yoriy, reja, hisob, hisobot va tahliliy ko'rsatkichlar
- C) Mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar
- D) Umumlashgan, qisman va yordamchi ko'rsatkichlar

6. Ko‘rsatkichlar shakllanish usuli bo‘yicha qanday tasniflanadi?

- A) Umumiy va maxsus ko‘rsatkichlar
- B) Me‘yoriy, reja, hisob, hisobot va tahliliy ko‘rsatkichlar
- C) Mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar
- D) Umumlashgan, qisman va yordamchi ko‘rsatkichlar

7. Maxsus ko‘rsatkichlar berilgan to‘g‘ri javobni belgilang?

- A) Yalpi ichki mahsulot, mehnat unumdorligi, tannarx, foyda, rentabellik, samaradorlik
- B) Hosildorlik, mahsuldorlik, yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni
- C) Mehnat unumdorligi, tannarx, foyda, rentabellik, yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni
- D) Yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni, tannarx, foyda, rentabellik

8. Umumiy ko‘rsatkichlar berilgan to‘g‘ri javobni belgilang?

- A) Yalpi ichki mahsulot, mehnat unumdorligi, tannarx, foyda, rentabellik, samaradorlik
- B) Hosildorlik, mahsuldorlik, yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni
- C) Mehnat unumdorligi, tannarx, foyda, rentabellik, yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni
- D) Yalpi hosil, yalpi sut, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni, tannarx, foyda, rentabellik

9. Mutloq ko‘rsatkichlarga qanday ko‘rsatkichlar kiradi?

- A) Natural (miqdor) va nisbiy ko‘rsatkichlar
- B) Natural (miqdor) va qiymat ko‘rsatkichlar
- C) Qiymat va nisbiy ko‘rsatkichlar
- D) Miqdori va sifat ko‘rsatkichlar

III BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

3.1. Omilli tahlil va uning asosiy elementlari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘ladigan iqtisodiy hodisa va jarayonlar ma‘lum bir omillar ta‘sirida ro‘y beradi. Shu sababli, xo‘jalik subyekti faoliyatini yaxshilash uchun uning natijasiga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatganligi o‘rganiladi. Shu tariqa omilli tahlil qilish orqali natijaga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan omillar ko‘chaytirish, salbiy ta‘sir ko‘rsatgan omillarni bartaraf qilish imkoniyatlari aniqlanib, aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tomonidan “Omilli tahlil deganda, natija ko‘rsatkichining o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi turli omillarning ta‘sirini iqtisodiy tahlilning an‘anaviy, matematik va boshqa usullari orqali aniqlash yo‘llari tushuniladi”¹⁸ deb ta‘rif berilgan.

Iqtisodchi olim E.A.Akramov esa “Omilli tahlil korxonalar faoliyatini moliyaviy yakuni natijasi foyda tahlilining zaruriy qismidir”¹⁹ deb ta‘riflaydi. Bunda omilli tahlil korxonalar faoliyatining yakuniy natijasi va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganishning bir usuli sifatida qaralmoqda.

Iqtisodchi olimlar E.E.Ergeshev va X.M.Davlyatovlar “Omilli tahlilda natijalarga bir qancha omillarning ta‘siri hisoblanib, mavjud imkoniyatlar aniqlanadi va kelgusida ulardan samarali foydalanish yo‘llari belgilab beriladi”²⁰ deb ta‘kidlaganlar. Bunda omilli tahlil tushunchasiga emas, balki omilli tahlil qilish va uning natijasida aniqlanadigan imkoniyatlar va samarali foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov tomonidan esa “Omilli tahlil – natijaviy ko‘rsatkichga ta‘sir etuvchi birliklarni va hisob-kitob qilish mumkin bo‘lgan birliklarda aniqlash usulidir”²¹ deb ta‘rif beriladi. Bu yerda natijaga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar, ta‘sir etuvchi birliklar sifatida keltirilgan. Fikrimizcha

¹⁸ Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. “Zarafshon”, 2001. – 66 b.

¹⁹ Akramov E.A. Korxonalar moliyaviy holati tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T., 2007. – 89 b.

²⁰ Ergeshev E.E., Davlyatov X.M. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. –T.: “Adolat”, 2010. – 101 b.

²¹ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 41 b.

bunday talqin qilish o'quvchida tushunchaga nisbatan noto'g'ri yondashishga olib kelishi mumkin. Chunki, birlik deganda sanash, o'lchash, hisoblash, qiyos qilish uchun mezon sifatida qabul qilingan kattalik tushuniladi.

Fikrimizcha omilli tahlilga iqtisodchi olim M.Q.Pardaev tomonidan berilgan ta'rif eng sodda, oddiy va tushunarli yondashilgan. Shu sababli, ushbu iqtisodchi olimning fikriga to'liq qo'shilamiz. Ta'rifdan ko'rinadiki, omilli tahlilda asosan ikkita element: natija va omil ishtirok etadi.

Bu yerda natija asosiy iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, iqtisodiy jarayonlar natijasini ma'lum bir miqdorda ifoda etadi. Xususan, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni natijasi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyati yakunining natijasi qilingan xarajatlar va olingan daromadlar yoki ko'rilgan foyda va zararlar kabi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Omillar esa, shu natija ko'rsatkichi miqdorining ko'payishi (oshishi) yoki kamayishi (pasayishi)ga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Masalan, fermer xo'jaligida paxta yetishtirishdan olingan yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni va hosildorlik kabi ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, ekin maydoning ko'payishi yoki hosildorlik darajasining ko'tarilishi yalpi hosilning oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, ekin maydoni ko'payganligi bilan hosildorlik darajasi kamayib kesa ko'zda tutilgan yalpi hosilga erishib bo'lmaydi. Bundan ko'rinadiki, natija bilan unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, omillar esa bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlarda ifodalangan natija va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik matematik modellar ko'rinishida ifodalangan holda o'rganiladi.

Bugungi kunda tahlilda natija va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishda quyidagi matematik modellar qo'llanilib kelinmoqda:

- additiv model;
- multiplikativ model;
- kasrli model.

Additiv model. Bu model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Masalan, natijani "Y" bilan, omillarni "X" bilan ifodalaydigan bo'lsak, agarda "Y" natija bir nechta omillar " $X_1, X_2 \dots X_n$ " yig'indisidan iborat deb faraz qiladigan bo'lsak, u holda additiv modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \sum_{i=1}^n X_i = X_1 + X_2 + X_3 + \dots + X_n, \quad (3.1)$$

Bu yerda, Σ yig'indi belgisi; i – omillarning tartib soni; n – omillarning umumiy soni; X_i – omil nomi.

Ushbu model amaliyotda ko'p qo'llaniladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning davr xarajatlari sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari va boshqa operasion xarajatlardan iborat. Ushbu xarajatlarning yig'indisi davr xarajatlari umumiy summasini tashkil etadi. Uni aniqlash uchun additiv modeldan foydalanganda quyidagi formulaga ega bo'linadi:

$$DX = CX + MBX + BX, \quad (3.2)$$

Bunda DX – davr xarajatlari; SX – sotish xarajatlari; MBX – ma'muriy-boshqaruv xarajatlari; BX – boshqa operasion xarajatlar.

Multiplikativ model. Bu natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda qo'llaniladigan modeldir. Aytaylik, "Y" natija bir qancha omillar ($X_1, X_2 \dots X_n$) ko'paytmasidan iborat deb faraz qilamiz. U holda multiplikativ modelning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \prod_{i=1}^n X_i = X_1 \times X_2 \times X_3 \times \dots \times X_n, \quad (3.3)$$

Bu yerda, Π – ko'paytirish belgisi; i – omillarning tartib soni; n – omillarning umumiy soni; X_i – omil nomi.

Bu model ham amaliyotda keng qo'llaniladi. Chunki, juda ko'p natija ko'rsatkichi omillarning ko'paytmasidan iborat bo'ladi. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotni sotishdan olingan pul tushumini ko'rsatish

mumkin. Unga sotilgan mahsulot hajmi va bir birlik mahsulotning o'rtacha sotish bahosi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning ko'paytmasi natija ko'rsatkichini, ya'ni pul tushumi summasini keltirib chiqaradi. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni multiplikativ model ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$PT = SM \times B, \quad (3.4)$$

Bunda PT – mahsulot sotishdan olingan pul tushumi; SM – sotilgan mahsulot hajmi; B – bir birlik mahsulotning o'rtacha sotish bahosi.

Kasrli model. Bu esa natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalanganda qo'llaniladi. Bunda bir vaqtning o'zida hamma model turlari qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda kasrli model turli ko'rinishga ega bo'ladi. Umuman olganda kasrli modelni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$Y = \frac{X_1}{X_2}, \quad (3.5)$$

Ushbu modelni qo'llanilishi bo'yicha ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotni hosildorlik darajasini olaylik. Uni aniqlash uchun xo'jalikda yetishtirilgan jami mahsulot hajmini ekin maydoniga bo'lish lozim. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kasrli model ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$H = MH / M, \quad (3.6)$$

Bunda H - hosildorlik; MH – yetishtirilgan mahsulot hajmi; M – ekin maydoni.

3.2. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tasnifi

Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni to'g'ri talqin qilish va o'rganish uchun ularni ma'lum bir belgilari bo'yicha tasniflash lozim. Xususan, iqtisodchi olim M.Q.Pardaev²² tomonidan ular quyidagi belgilari bo'yicha tasniflanadi: omillarning mohiyati bo'yicha; ta'sir ko'rsatish vaqti bo'yicha; ta'sir qilish darajasi

²² Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. "Zarafshon", 2001. – 68 b.

bo'yicha; ta'sir ko'rsatish xarakteri bo'yicha; hodisa va jarayonlarni ifoda etish bo'yicha; o'lchash mumkinligi jihatidan; detallashtirish darajasi bo'yicha; korxonada faoliyatiga bog'liqligi jihatidan.

Omillarni mohiyati bo'yicha tasniflashda natijaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosiy va yordamchi omillarga bo'linadi (3.1-rasm).



3.1-rasm. Omillarning mohiyati bo'yicha tasniflanishi

Asosiy omillarga natijaning o'zgarishiga bevosita birlamchi ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi. Masalan, fermer xo'jaligida 1 kishi – soat hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmining (BMH) o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillar sifatida 1 gektar ekin maydoni hisobiga olingan hosil (H) va 1 gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfini (MC) oladigan bo'lsak, ular o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$BMH = H / MS, \quad (3.7)$$


Yordamchi omillarga asosiy omillarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni kiritish mumkin. Jumladan, 1 gektar ekin maydoni hisobiga olingan hosil (H) o'z navbatida xo'jalikda yetishtirilgan mahsulot hajmini (MH) ekin maydoniga (M) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi:

$$H = MH / M, \quad (3.8)$$

Bunda "H" – natija ko'rsatkichi bo'lib, "MH" va "M" unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Bunga 1 kishi – soat hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, unda "H" – asosiy omil, "MH" va "M" yordamchi omillar hisoblanadi.

Xuddi shunday holatni 1 gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan mehnat sarfi bo'yicha ham keltirib o'tish mumkin.

Yuqoridagi tasnifga ko'ra omillar ta'sir ko'rsatish vaqti bo'yicha ham tasniflanadi. Mazkur belgisi bo'yicha ham omillar ikki guruhga bo'linadi (3.2.-rasm).



3.2-rasm. Omillarning ta'sir ko'rsatish vaqti bo'yicha tasniflanishi

Doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar shunday omillarki, ular iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lib turgan vaqtda ta'sir ko'rsatib, ma'lum bir ko'rsatkichni o'zgartirib turadi. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot hajmining oshishi foydaning ko'payishi, xodimlar manfaatdorligining ortishi va iqtisodiy samaradorlikning oshishi kabi ko'rsatkichlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, u doimiy ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, ba'zi omillar ham borki, ular iqtisodiy jarayonlarga va ularni ifodalovchi ko'rsatkichlar hajmiga ta'sir ko'rsatishi vaqtincha bo'ladi. Jumladan, agrar sohada iqlimning mavsumiy o'zgarishi fermer xo'jaligida mahsulot yetishtirish hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklaridan olingan kreditlar xo'jalik yurituvchi subyektning oyoqqa turishiga, moliyaviy resurslarga bo'lgan talabining qondirilishiga, ishlab chiqarish hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Omillar ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha ikki guruhga bo'lib o'rganiladi (3.3-rasm).



3.3-rasm. Omillarning ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha tasnifi

Umumiy omillarga barcha sohaning iqtisodiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiradi. Jumladan, xodimlar soni, ish vaqti, yalpi tushum, daromad, xarajat va boshqa omillarni aytib o'tish mumkin. Bu omillar xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyat sohasidan qat'iy nazar bo'lishi tabiiy. Shu bois, mazkur omillar umumiy tegishli omillar sifatida qaraladi.

O'ziga xos omillar ayrim sohalarga tegishli bo'lgan omillar hisoblanadi.

Masalan, ekin maydoni, chorva mollari bosh soni, hosildorlik, mahsuldorlik, yalpi hosil va boshqa shu kabi omillar agrar sohaga tegishli bo'lgan o'ziga xos omillardir. Tovar oboroti, ulgurji baho, muomala xarajatlari, savdo ustamasi va savdo chegirmasi kabi omillar esa savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli omillar hisoblanadi.

Omillar ta'sir qilish xarakteri bo'yicha ham tasniflanadi. Omillar ushbu belgisi bo'yicha quyidagicha guruhlanadi (3.4-rasm).


Ekstensiv omillarga miqdorning ortishi bilan bog'liq, ya'ni qo'shimcha resurslarni jalb qilish hisobiga natijani o'zgartiruvchi omillar kiradi. Masalan, agrar sohada yalpi hosil natija ko'rsatkichi bo'lib, uning miqdorini o'tgan yilga (biznes rejaga) nisbatan ortishini ta'minlash uchun ekin maydonini ko'paytirish chorasi qo'llanilsa, unda yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi ekstensiv omil bu ekin maydoni hisoblanadi. Bundan tashqari bu guruh omillariga tahlil qilinayotgan obyektga, tahlilning maqsad va vazifalariga, tahlil qilinayotgan sohaga ko'ra ko'plab misollar keltirish mumkin.



3.4-rasm. Omillarning ta'sir qilish xarakteri bo'yicha tasnifi

Natijaning o'zgarishiga miqdor ko'rsatkichini ko'paytirish hisobiga emas, balki sifat ko'rsatkichini oshirish evaziga erishish bugungi kunning qat'iy talabi hisoblanadi. Shu sababli, mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga natijani o'zgartiruvchi omillar intensiv omillardir. Ular jumlasiga hosildorlik, mahsuldorlik, mehnat unumdorligi kabi ko'plab omillarni kiritish mumkin. Albatta, ushbu omillar hisobiga iqtisodiy o'sishga erishish subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining umumiy samaradorligini oshiradi.

Omillar ta'sirini o'lchash mumkinligi jihatidan ham tasniflanadi. Mazkur belgisi bo'yicha omillar ikki guruhga bo'linadi (3.5-rasm).




3.5-rasm. Omillarning o'lchash mumkinligi jihatidan tasniflanishi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar turli hisobotlarda aks ettiriladi. Shu sababli ham natijaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sirini hisob-kitob qilish orqali o'lchash mumkin. Masalan, yalpi hosilning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekin maydoni va hosildorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydonining yoki hosildorlik darajasining qanday ta'sir ko'rsatganligini aniq hisob-kitob qilgan holda aniqlashimiz mumkin. Demak, bu yerda ekin maydoni va hosildorlik ko'rsatkichlari hisoblanadigan omillardir.

Bunda hosildorlik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisoblash qiyin hisoblanadi. Chunki, hosildorlik darajasining o'zgarishiga ekin maydoni tuprog'ining tarkibi, tabiiy iqlim, agrotexnik tadbirlar va boshqa ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni o'lchash yoki birorta ko'rsatkich bilan ifodalash qiyin. Ular hisob va hisobotlarda ham aks ettirilmaydi. Shu bois, bunday omillar hisoblash qiyin (mumkin bo'lmagan) omillar hisoblanadi.

Shu bilan birga, omillarni detallashtirish darajasi bo'yicha ham tasniflash mumkin. Mazkur belgisi bo'yicha omillar quyidagicha guruhlanadi (3.6-rasm).



3.6-rasm. Omillarning detallashtirish darajasi bo'yicha tasniflanishi

Oddiy detallashtirilmaydigan omillarga natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va ularning ta'sir darajalarini o'lchash mumkin bo'lgan omillar kiradi.

Detallashtiriladigan omillar shunday omillarki, o'zida asosiy omillarni kelib

chiqishini ifoda etadi. Masalan, mahsulot sotishdan yalpi foyda ko'rsatkichini aniqlash uchun mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasidan sotilgan mahsulotlar tannarxini ayirish lozim. Ya'ni, uni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$YAF = SST - IT, \quad (3.9)$$

Bu yerda mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (YAF) natija ko'rsatkichi bo'lib, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni mahsulot sotishdan olingan sof tushum (SST) va sotilgan mahsulot tannarxi (IT) ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Ushbu ikki omilni detallashtirish mumkin. Jumladan, mahsulot sotishdan olingan sof tushum (SST) bevosita sotilgan mahsulot miqdoriga (M) mahsulot birligini sotish bahosini ko'paytirish bilan aniqlanadi:

$$SST = M \times B, \quad (3.10)$$

O'z navbatida sotilgan mahsulot tannarxi (IT) ko'rsatkichi sotilgan mahsulot miqdoriga (M) bir birlik sotilgan mahsulot tannarxini (T) ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$IT = M \times T, \quad (3.11)$$


Agarda yuqoridagi 3.9-formulani ikki omilning detallashtirilgan ko'rinishida ifoda etadigan bo'lsak, u quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$YAF = (M \times B) - (M \times T), \quad (3.12)$$

Demak, 3.9-formuladagi SST va IT omillari detallashtiriladigan omillar bo'lib, undan kelib chiqqan 3.12-formulada ifoda etilgan M, B va T omillar detallashtirilmaydigan omillar hisoblanadi.

Omillar korxonaga faoliyatiga bog'liqligi jihatidan ham uch guruhga bo'lingan holda tasniflanadi (3.7-rasm).

Korxonaga faoliyatiga bevosita bog'liq omillarga korxonaga moliya-xo'jalik faoliyati ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillar kiradi. Masalan, korxonaga rahbariyatining boshqaruv san'ati, xodimlarning malaka darajasi, moddiy-texnika bazasi, mavjud resurslardan samarali foydalanish darajasi kabi omillar.



3.7-rasm. Omillarni korxonaga faoliyatiga bog'liqligi jihatidan tasniflanishi

Ammo korxonaga moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi shunday omillar borki, ularning ta'sir darajalari sezilarli bo'lishi mumkin, ammo ularni oldini olish yoki bartaraf etishda korxonaga faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, agrar sohada qishloq xo'jalik ekinlari sel kelishi, do'l yog'ishi yoki sovuq urishi kabi iqlim o'zgarishlari borki, ularning qishloq xo'jalik ekinlariga katta ta'sir o'tkazadi. Shu sababli, ushbu omillar korxonaga faoliyatiga bog'liq bo'lmagan omillar hisoblanadi.

Yana shunday omillar borki, ular ham korxonaga faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, korxonaga tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan qoidalarni to'g'ri talqin qilolmasligi yoki o'z vaqtida bajarmasligi natijasida turli jarima va penyalar to'lashi mumkin. Jumladan, korxonaga to'laydigan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisob-kitob va to'lash muddatlariga amal qilinmasa, amaldagi soliq qonunchiligida belgilangan qoidalar buzildi deb e'tirof etgan holda korxonaga nisbatan jarima va qo'shimcha penyalarni to'lash majburiyati yuklanadi. Bu esa, ko'zda tutilmagan xarajatlar bo'lib, korxonaga foydasining kamayishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, korxonaga rahbariyati amaldagi qonunchilikda belgilangan qoidalarni to'g'ri talqin qilgan holda ish yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3.3. Moliya-xo'jalik faoliyatiga omillar ta'sirini aniqlash tartibi

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlar obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida ma'lum

bir natija ko'rsatkichini yuzaga keltiradi. Chunki, moliya-xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bunda bir ko'rsatkich natija deb qaralsa, shunga bog'liq bo'lib qolgan ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tahlilda natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini aniqlashda tahlil usullaridan keng foydalaniladi.

Iqtisodchi olimlarning asarlarida iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar shartli ravishda ikki guruhga ajratilib ko'rsatilmoqda:

- oddiy an'anaviy usullar;
- iqtisodiy-matematik usullar.

Hozir oddiy an'anaviy usullar guruhiga kiruvchi ko'rsatkichlar farqi usulining tahlilda qo'llanilishiga kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Ya'ni, natijaning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sirini ushbu usul yordamida qanday aniqlanishini ko'rib chiqamiz. Chunki, bu usul natijaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'sirini aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu usulning ahamiyatli jihati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi, qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab o'rganilayotgan davrlarning miqdori olinadi. Masalan, yalpi hosilga natija ko'rsatkichi deb qaralsa, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekin maydoni va hosildorlik o'rtasidagi bog'lanishni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$YAH = M \times H, \quad (3.13)$$

Bu yerda, YAH – yalpi hosil. Natija ko'rsatkichi; M – ekin maydoni, H – hosildorlik. Ekin maydoni va hosildorlik ko'rsatkichlari natijaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Yalpi hosil ko'rsatkichiga omillar ta'sirini ko'rsatkichlar farqi usuli bilan aniqlaydigan bo'lsak, birinchi omil, ya'ni ekin maydonining yalpi hosilga (ΔYAH_m) ta'sirini aniqlash uchun ushbu omilning farqini ($M_1 - M_0$), ikkinchi omil bo'lgan hosildorlikning o'tgan (reja) ko'rsatkichiga (H_0) ko'paytirish lozim:

$$\pm \Delta YAH_m = (M_1 - M_0) \times H_0$$

Ikkinchi omil, ya'ni hosildorlikning yalpi hosilning o'zgarishiga (ΔYAH_h)

ta'sirini aniqlash uchun ushbu omilning farqini ($H_1 - H_0$), birinchi omil – ekin maydonining hisobot davridagi miqdoriga (M_0) ko'paytirish zarur:

$$\pm \Delta YAH_h = (H_1 - H_0) \times M_0$$

Mazkur usulning amaliyotga qo'llanilishini quyidagi “Sharq” fermer xo'jaligi misolida ko'rib chiqish mumkin (3.1-jadval).

3.1-jadval

“Sharq” fermer xo'jaligida yalpi hosil (bug'doy) va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Ekin maydoni, ga	10	12	+2
2	Hosildorlik, s/ga	40	35	-5
3	Yalpi hosil, s	400	420	+20

3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida yalpi hosil (bug'doy) o'tgan yili 400 sentner bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 420 sentnerni tashkil qilgan. Demak, o'tgan yilga nisbatan fermer xo'jaligida yalpi hosil (bug'doy) miqdori 20 sentnerga ko'paygan.

Fermer xo'jaligida yalpi hosil (bug'doy)ning o'zgarishiga ikki omil ta'sir ko'rsatgan bo'lib, birinchi omil, ekin maydonining o'tgan yilga nisbatan 2 gektarga ko'payishi yalpi hosil (bug'doy) miqdorini 80 $((12-10) \times 40)$ sentnerga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan. Biroq, hisobot yilida fermer xo'jaligida hosildorlik darajasi 5 sentnerga pasayishi yalpi hosil (bug'doy) miqdorini 60 $((35-40) \times 12)$ sentnerga kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Natijada ekin maydonining ko'payishi hisobiga olinishi lozim bo'lgan yalpi hosil (bug'doy) miqdorini ham bir qismini qoplab ketgan. Shu sababli ham “Sharq” fermer xo'jaligida yalpi hosil miqdori o'tgan yilga nisbatan 20 sentnerga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, fermer xo'jaligida ekin maydonining o'zgarishi yalpi hosil (bug'doy) miqdorining o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, hosildorlik darajasining o'tgan yilga nisbatan pasayishi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, fermer xo'jaligi rahbariyati hosildorlik darajasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim.

Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatiga

bir qancha omillar ta'sir ko'rsatar ekan. Ushbu omillarni natijaning o'zgarishiga ta'sirini bir qancha tahlil usullaridan foydalangan holda hisob-kitob qilish orqali aniqlanadi. Biz birgina ko'rsatkichlar farqi usuliga to'xtalib o'tdik xolos. Iqtisodiy tahlilning boshqa usullari va ulardan foydalanish tartibiga keyingi bobda batafsil to'xtalib o'tamiz.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Omilli tahlil deganda nimani tushunasiz?
2. Tahlilda natija va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda qanday matematik modellardan foydalaniladi?
3. Moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanday tasniflanadi?
4. Omillar mohiyati jihatidan qanday tasniflanadi?
5. Omillarning ta'sir ko'rsatish vaqti bo'yicha tasniflanishi qanday guruhlarga bo'lib o'rganiladi?
6. Omillarning ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha tasniflanishini tushuntiring?
7. Ekstensiv va intensiv omillar qanday omillar hisoblanadi?
8. Omillarning ulchash mumkinligi jihatidan tasniflanishini tushuntirib bering?
9. Omillarning detallashtirish darajasi bo'yicha tasniflanishi qanday guruhlarga bo'lib o'rganiladi?
10. Moliya-xo'jalik faoliyatiga omillar ta'siri qanday aniqlanadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Omilli tahlil deb nimaga aytiladi?

- A) Omilli tahlil deganda, natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi turli omillarning ta'sirini iqtisodiy tahlilning an'anaviy, matematik va boshqa usullari orqali aniqlash yo'llari tushuniladi
- B) Omilli tahlil korxonalar faoliyatini moliyaviy yakuni natijasi daromadlar va xarajatlar, foyda hamda zararlar tahlilining zaruriy qismidir
- C) Omilli tahlil natijasida mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi va ulardan

samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi

D) Omilli tahlil – natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi ijobiy birliklarni va hisob-kitob qilish mumkin bo'lgan salbiy birliklarda aniqlash usulidir

2. Tahlilda natija va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishda qanday matematik modellar qo'llanilib kelinmoqda?

A) Umumiy va maxsus modellar

B) Additiv, multiplikativ va kasrli modellar

C) Umumiy va yordamchi modellar

D) Umumlashgan, additiv va qisman yordamchi modellar

3. Additiv model qaysi holatda tahlilda qo'llaniladi?

A) Bu natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ko'paytirish bilan ifodalanganda qo'llaniladi

B) Bu natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik bo'lish bilan ifodalanganda qo'llaniladi

C) Bu model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik qo'shuv bilan ifodalanganda qo'llaniladi

D) Bu model natija bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik ayirish bilan ifodalanganda qo'llaniladi

4. Omillarni mohiyati bo'yicha tasniflashda natijaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanday guruhlarga bo'linadi?

A) Asosiy va yordamchi omillar

B) Doimiy va vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi omillar

C) Umumiy va o'ziga xos omillar

D) Ekstensiv va intensiv omillar

5. Omillar ta'sir ko'rsatish vaqti bo'yicha tasniflanganda qanday guruhlarga ajratiladi?

A) Asosiy va yordamchi omillar

B) Doimiy va vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi omillar

C) Umumiy va o'ziga xos omillar

D) Ekstensiv va intensiv omillar

6. Omillar ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha tasniflanganda qanday guruhlarga bo'linadi?

A) Asosiy va yordamchi omillar

B) Doimiy va vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi omillar

C) Umumiy va o'ziga xos omillar

D) Ekstensiv va intensiv omillar

7. Omillar ta'sir ko'rsatish harakteri bo'yicha tasniflanganda qanday guruhlarga ajratiladi?

A) Asosiy va yordamchi omillar

B) Doimiy va vaqtinchalik ta'sir ko'rsatuvchi omillar

C) Umumiy va o'ziga xos omillar

D) Ekstensiv va intensiv omillar

8. Omillar detallashtirish darajasi bo'yicha tasniflanganda qanday guruhlarga bo'linadi?

A) Oddiy ta'sir qiluvchi detallashtirilmaydigan omillar va murakkab detallashtiriladigan omillar

B) Hisoblanadigan omillar va hisoblanishi qiyin bo'lgan omillar

C) Korxonada faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'lmagan omillar

D) Qonunlar va boshqa me'yoriy hujjat talablarini buzish bilan bog'liq omillar

9. O'ziga xos omillar sifatida qanday omillar e'tirof etiladi?

A) Bunga natijaning o'zgarishiga bevosita birlamchi ta'sir ko'rsatuvchi omillar kiradi

B) Bular shunday omillarki, ular iqtisodiy jarayonlar sodir bo'lib turgan vaqtda ta'sir ko'rsatib, ma'lum bir ko'rsatkichni o'zgartirib turadi

C) Bunga barcha sohaning iqtisodiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatadigan omillar kiradi

D) Bu omillar ayrim sohalarga tegishli bo'lgan omillar hisoblanadi


IV BOB. MOLIYAVIY TAHLILNI TASHKIL ETISH VA UNING AXBOROT MANBAI

4.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni tashkil etish

Bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror faoliyat yuritishi oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishni taqozo etadi. Buning uchun subyekt rahbariyati ichki va tashqi axborotlardan unumli foydalanishlari lozim. Bu esa, ulardan xo‘jalik subyektining moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini to‘liq tahlil qilib o‘rganishni va shu asosda kerakli axborotlarni shakllantirishni talab etadi. Chunki, tahlil natijalari asosiy xo‘jalik jarayonlarini boshqarish, talab va taklifni o‘rganish, pul muomalasi, raqobat muhitiga moslashish borasida asosli xulosalarni shakllantirish, mavjud ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish borasida tegishli qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Boshqaruv bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qilish xo‘jalik yurituvchi subyektning samarali faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta‘minlaydi.

Bugungi kunda moliyaviy tahlilni tashkil etish borasida rasmiy tartib-tamoyillar belgilanmaganligi sababli, uni tashkil etishda an‘anaviy usullardan foydalanish mumkin.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov moliyaviy tahlilni tashkil etish shakli bo‘yicha ichki moliyaviy tahlil va tashqi moliyaviy tahlil sifatida tarkiblashni tavsiya qilgan (4.1-rasm).



4.1-rasm. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakli bo‘yicha tarkiblanishi²³

Ichki moliyaviy tahlil xo‘jalik yurituvchi subyekt xodimlari tomonidan o‘tkazilib, o‘rganiladigan masalalar va foydalaniladigan axborot bazasining ko‘lami kengligi bilan tashqi moliyaviy tahlildan farqlanadi. Chunki, uning axborot bazasiga tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma‘lumotlaridan tashqari moliyaviy

²³ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 65 b.

hisobning barcha manbalarini kiritish mumkin. Shu bilan birga, uning quyidagi o'ziga xos jihatlari keltirish mumkin:

- ichki moliyaviy tahlil maqsadi va vazifalari ichki talablarga muvofiq belgilanganligi;
- oqilona boshqaruv qarorlarini tayyorlash borasida tahlilni o'tkazish imkoniyatining kengligi;
- xo'jalik subyekti rahbariyati talablaridan kelib chiqqan holda analitik ishni tashkil etish;
- ma'lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlarining yuqoriligi;
- moliyaviy tahlil natijalari asosida belgilangan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish imkonining mavjudligi.

Ichki moliyaviy tahlildan farqli ravishda tashqi moliyaviy tahlil vakolatli davlat organlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi moliyaviy tahlil faqat moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini o'rganishni xarakterlaydi. Ya'ni, xo'jalik subyektining aktivlari, o'z mablag'lari manbalari va majburiyatlarining o'zgarishiga, moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va rentabellik darajasiga, pul mablag'lari harakati va xususiy kapitalning o'zgarishiga, moliyaviy va iqtisodiy salohiyatini aniqlashga qaratiladi. Uning ahamiyatli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborotdan foydalanuvchilar va tahlil o'tkazish subyektlarining ko'pligi;
- tahlil qilib o'rganuvchi subyektlar maqsadining turli-tumanligi;
- tahlil faqat tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllari ma'lumotlariga asoslanishi sababli, o'rganiladigan masalalarning chegaralanganligi;
- axborotdan foydalanuvchilar uchun tahlil natijalaridan foydalanishning ochiqligi.

Umuman xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni tashkil etish tartib va qoidalari iqtisodiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Jumladan, iqtisodchi

olim M.Q.Pardaev²⁴ tomonidan moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlari quyidagicha tarkiblanadi:

- tahlil maqsadini aniqlash va unga yondashish yo'llarini belgilash bosqichi;
- tahlil uchun taqdim qilinadigan axborotlar sifatiga baho berish bosqichi;
- tahlil usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish bosqichi.

Mazkur moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlari iqtisodchi olim tomonidan umumlashtirilgan holda tarkiblanib ifoda etilgan.

Iqtisodchi olim E.A.Akramov²⁵ tomonidan esa moliyaviy tahlilni tayyorlash va o'tkazish bosqichlari quyidagilarni o'z ichiga olishi ko'rsatib o'tilgan:

- moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturini tuzish. Dasturda tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlanadi;
- tahlilni o'tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya'ni tahlil qiluvchilarning ro'yxatini tuzish;
- tahlil uchun foydalaniladigan iqtisodiy ma'lumotlarni to'plash;
- moliyaviy tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlar tizimini aniqlash;
- moliyaviy tahlil ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini aniqlash;
- tahlilda foydalanadigan ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni umumlashtirish;
- tahlil yakunlarini jadvallar va chizmalarda shakllantirish;
- moliyaviy tahlil natijasida xotima tayyorlab, unda tahlil yakunlari bo'yicha xulosalar chiqarib, kelgusida korxonaning moliyaviy holatini ko'tarishga bag'ishlangan tavsiyalar ishlab chiqish;
- moliyaviy tahlil yakunlarini maxsus yig'ilishda muhokama qilish;
- tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, korxonaning moliyaviy holatini ko'tarish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqib, ularni korxona

²⁴ M.Q.Pardaev Moliyaviy tahlil. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999. -11 bet.

²⁵ E.A.Akramov. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. – T., 2007. -18 bet.

rahbariyatining maxsus qarorida ifodalash.

Ushbu tarkiblashda moliyaviy tahlilni tashkil etish bosqichlari kichik birlik bosqichlariga bo'lib ko'rsatilgan. Biroq, ayrim ko'rsatilgan bosqichlarni o'zaro umumlashtirish lozim. Masalan, *“tahlilni o'tkazuvchilarning tarkibini aniqlash, ya'ni tahlil qiluvchilarning ro'yxatini tuzish”* bosqichini *“moliyaviy tahlilni o'tkazishning ishchi dasturini tuzish”* bosqichiga kiritish zarur. Chunki, ishchi dasturda bu bosqichda amalga oshiriladigan ishlar ko'rsatib o'tiladi.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov²⁶ moliyaviy tahlilni tashkil etishni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

1. Moliyaviy tahlil maqsadini belgilash va rejasini tuzish;
2. Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash;
3. Moliyaviy tahlilni bevosita o'tkazish bosqichi;
4. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi;
5. Qaror tayyorlash bosqichi;
6. Tahlil natijalarini realizasiya qilish bosqichi.

Yuqorida iqtisodchi olimlarning moliyaviy tahlilni tashkil etish tartibi bo'yicha yondashuvlari turlicha bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Biroq ularning yondashuvlari bitta maqsadga, ya'ni moliyaviy tahlilni tayyorlash va sifatli o'tkazishga qaratilganligini e'tirof etish kerak.

Bozor munosabatlari sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni sifatli tashkil etish va muvaffaqiyatli o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq (4.1-jadval):

²⁶ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 70 b.

Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

№	Moliyaviy tahlil bosqichi	Amalga oshiriladigan ishlar
1	Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi	Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish rejasi va dasturini tuzib olish. Unda quyidagilar aniq belgilangan va ko'rsatilgan bo'lishi shart: tahlilning maqsadi va vazifalari aniqlash; tahlil obyektni aniqlash; tahlil mazmunini izohlash; tahlil o'tkazuvchilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash; tahlil o'tkazish vaqti va muddatini belgilab olish; tahlil manbalari aniqlab olish; tahlil natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilash.
2	Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash bosqichi	Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: <ul style="list-style-type: none"> - tahlil uchun axborot manbalarini to'plash; - tahlil uchun foydalaniladigan qo'shimcha zarur ma'lumotlarni to'plash; - to'plangan ma'lumotlarni tahlilga mos holda soddalashtirish; - tahlil uchun zarur jadval, sxemalar va diagrammalar maketlarini tuzish; - tahlil usullarini aniqlab olish.
3	Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichi	Bu asosiy bosqich bo'lib, unda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: <ul style="list-style-type: none"> - mezon ko'rsatkichlarini aniqlash; - ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish va najjalarni baholash; - natijaning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajalarini hisoblash; - natijaga ta'sir ko'rsatgan har bir omilning kelib chiqish sabablarini o'rgangan holda baho berish; - natijalarni umumlashtirish va xulosa tayyorlash.
4	Moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash bosqichi	Bunda moliyaviy tahlil yakunlanadi va tahlil natijalari baholangan holda kerakli chora-tadbirlar belgilanadi. Ya'ni: <ul style="list-style-type: none"> - tahlil natijalari hisobot shaklida rasmiylashtiriladi; - tahlil natijalarini muhokama qilish; - tahlil natijalariga asoslangan holda yo'l quyilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi; - xo'jalik yurituvchi subyekt ichki imkoniyatlari o'rganilgan holda faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari belgilanadi.
5	Moliyaviy tahlil natijalarini amaliyotga tadbiq etish bosqichi	Bu bosqichda tahlil natijalari asosida belgilangan chora-tadbirlar va aniqlangan imkoniyatlar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatiladi. Ya'ni: <ul style="list-style-type: none"> - foydalanilmagan ichki imkoniyatlarni subyekt faoliyatiga qo'llash tartibi ko'rsatiladi; - faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha berilgan tavsiyalar joriy etiladi; - aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlari ko'rsatib beriladi; - belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi va ularning natijalari nazorat qilish tartibi belgilanadi.

4.2. Moliyaviy tahlil axborot manbalari va ularga quyiladigan talablar

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish sharoitida iqtisodiy jarayonlarga kirishishdan oldin har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy ahvolini tahlil qilib o‘rganishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tahlil natijalari asosida subyektning moliyaviy resurslarining holati, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasiga baho beriladi hamda yo‘l quyilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida mavjud moliyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Moliyaviy tahlil natijalarining to‘g‘ri, ishonchli va aniq bo‘lishi esa o‘z navbatida uning axborot manbalari bilan ta‘minlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Moliyaviy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari iqtisodchi olim M.Yu.Raximov²⁷ tomonidan quyidagicha tarkiblanadi:

1. Moliyaviy hisob va hisobot ma‘lumotlari;
2. Tanlab olingan ma‘lumotlar.

Ushbu tarkiblashni e‘tirof etgan holda shuni ta‘kidlab o‘tish mumkinki, iqtisodchi olim M.Yu.Raximov tomonidan axborot manbalari moliyaviy tahlil xususiyatidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri ifoda etilgan. Chunki, bevosita moliyaviy hisob va hisobot ma‘lumotlari asosida moliyaviy tahlil o‘tkaziladi. Moliyaviy tahlilning maqsadidan kelib chiqqan holda yana boshqa ma‘lumotlar tanlab olinishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning axborot manbalari va ularning tarkibiy tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin (4.2-jadval).

Shuni ta‘kidlash kerakki, moliyaviy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari quyidagi mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- axborot manbaida ifodalangan ko‘rsatkichlar ishonchliligi va xolis bo‘lishi lozim;
- axborot manbalaridagi ma‘lumotlarning taqqoslanuvchanligi.

²⁷ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. – 73 b.

Moliyaviy tahlilning axborot manbalari va uning tarkibiy tuzilishi

№	Axborot manbai	Tarkibiy tuzilishi
1	Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari	<ul style="list-style-type: none"> - dastlabki va yig'ma hujjatlar ma'lumotlari; - analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlari; - moliyaviy hisobot shakllari: <ul style="list-style-type: none"> ▪ Buxgalteriya balansi (1-shakl); ▪ "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot (2-shakl); ▪ "Pul oqimlari to'g'risida"gi hisobot (4-shakl); ▪ "Xususiy kapital to'g'risida"gi hisobot (5-shakl); ▪ Moliyaviy hisobotga berilgan izohlar, qo'shimchalar va ma'lumotlar.
2	Tanlab olingan ma'lumotlar	<ul style="list-style-type: none"> - biznes reja ma'lumotlari; - statistik hisob ma'lumotlari; - tezkor hisob ma'lumotlari; - vakolatli davlat organlarining taftish ma'lumotlari; - moliyaviy tahlil uchun zarur bo'ladigan boshqa hisob va hisobdan tashqari ma'lumotlar.

Ko'rsatkichlar bir xil, turli davrlardagi faoliyat natijalarini miqdor va sifat jihatdan to'g'ri baholash imkonini beradigan ma'lumotlardan foydalanish kerak;

- axborot manbalaridagi ko'rsatkichlar pul o'lchov birligi so'mda ifoda etilishi lozim.

- barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi saqlangan holda ulardagi axborotlar bir-birini to'ldirib turishi lozim;

- axborot manbalaridagi ko'rsatkichlarni aniqlash tartibi va aks ettiriladigan davrlari mosligi ta'minlanishi kerak.

Yuqoridagi talablarga javob beruvchi axborot manbalari va ulardan tahlilda foydalanish, moliyaviy tahlil natijalari ishonchligini ta'minlash imkonini beradi. Shu bois, moliyaviy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarida aks ettirilgan ko'rsatkichlarning aniq va to'g'ri shakllantirilganligini tekshirish lozim.

Axborot manbalarida ifodalangan ko'rsatkichlarni to'g'riligi va aniqligini tekshirishni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- axborot manbasining tuzilishini tekshirish;
- alohida bo'limlarining to'g'ri shakllantirilganligi va ular o'rtasidagi

nisbatni o'rganish;

- har bir moddada berilgan ko'rsatkichlarning to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish;

- axborot manbaidagi ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirib, ularning muvofiqligini tekshirish.

Umuman olganda, axborot manbalarini moliyaviy tahlilga tayyorlash bosqichida ularning qismlari, bo'limlari hamda har bir moddada berilgan ko'rsatkichlar yuqorida bayon etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshirish ularda ifoda etilgan ko'rsatkichlarning to'g'ri va aniq shakllantirilganligi to'g'risida xulosa qilishga yordam beradi. Axborot manbalarida berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi tasdiqlangandan so'ng, ularni moliyaviy tahlilda foydalanish uchun qabul qilib, xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilib o'rganishga kirishiladi.

4.3. Moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish

Iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulovlar "Odatda tahlil ma'lumotlari va ularning natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab, turli shaklda umumlashtirilishi mumkin"²⁸ deb ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligimizga qarab bajariladi. Agarda korxonalarining yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlillarning natijalari esa mutaxassislarining ma'ruzasi, korxonalar rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirilishi mumkin.

Iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlar²⁹ korxonalar yoki uning bo'limlari faoliyati bo'yicha qilingan analitik tadqiqotlarning turli xil natijalari tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi, deb ta'kidlagan holda tahlil

²⁸ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: «Sharq», 2005. - 68 b.

²⁹ Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil: O'quv qo'llanma. -T, 2017. -108 b.

natijalari hujjatlari tarkibini quyidagicha ko'rsatib o'tishgan:

- tushuntirish;
- ma'lumotnoma;
- xulosa.

Ushbu iqtisodchi olimlarning fikrlarini e'tirof etgan holda shuni aytish mumkinki, ular tomonidan tahlil natijalarini rasmiylashtirish tartibi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati natijalari ma'lumotlaridan tashqi foydalanuvchilar foydalanishi nazarda tutilgan holda tarkiblangan. Uylaymizki, bunday tartibda tahlil natijalarining rasmiylashtirilishi, undan foydalanuvchida to'liq tassavur shakllanishini ta'minlamaydi. Ya'ni, tahlil natijalaridan foydalanuvchi uni oddiy tushuntirish yoki ma'lumotnoma sifatida qaraydi. Bu esa, tahlil natijalari umumlashtirilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatning yuridik ahamiyatini pasaytiradi.

Fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan reja va dasturda belgilangan vazifalar bajarilgandan so'ng olingan natijalar umumlashtirib, xulosa va takliflar shakllantirilgan holda hisobot shaklida rasmiylashtirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Moliyaviy tahlil natijalari rasmiylashtirilgan hisobot shakli uch qismdan tashkil topadi (4.3-jadval).

Shuni ta'kidlab o'tish kerak-ki, moliyaviy tahlil natijalari to'g'risidagi hisobot tushunarli, ilmiy asoslangan, sodda va ravon, analitik jadvallar, grafiklar va diagrammalar bilan bog'langan holda bayon etilishi zarur. O'z navbatida u xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga taqdim etiladi va subyekt kengashida muhokama qilinib, bayonnoma orqali tasdiqlanadi. Bu esa, hisobotning yuridik ahamiyatini yanada oshiradi. Moliyaviy tahlil natijalarining bunday tartibda rasmiylashtirilishi axborotdan foydalanuvchida to'liq tahlil natijalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish orqali obyektiv baholash va kelgusida faoliyat samaradorligini oshirish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

Moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha hisobot tarkibi va mazmuni

№	Tarkibi	Bayon etiladigan ishlarning qisqacha mazmuni
1	Umumiy qoidalar	Umumiy qoidalar qismida o'tkazilgan moliyaviy tahlilning maqsadi va belgilangan vazifalar, tahlilni tashkil etilishi va o'tkazilishi bo'yicha belgilangan qoidalar, o'tkazish muddati hamda mas'ul bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlar bayon qilinadi.
2	Asosiy qism	Bu qismda moliyaviy tahlilning belgilangan maqsadidan kelib chiqqan holda o'rganilgan masalalarning hozirgi holati bayon qilinadi. Aniqlangan mavjud holat va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlangan holda ularning ta'sir darajalari hisob-kitobi turli analitik jadvallar, grafik va diagrammalar asosida yoritiladi. Bunda albatta erishilgan natijalar va yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniq raqamlar va faktlar bilan ko'rsatilishi lozim.
3	Xulosa va takliflar	Moliyaviy tahlil natijalarini umumlashtirish asosida xulosa shakllantiriladi va takliflar tayyorlanadi. Yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etishning mavjud imkoniyatlari hamda ulardan samarali foydalanish tartibi ko'rsatib o'tiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakli va o'ziga xos jihatlari bo'yicha tushuncha bering.
2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlarini aytib bering?
3. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
4. Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash bosqichida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
5. Moliyaviy tahlilni o'tkazish bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?
6. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari va ularning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering?
7. Moliyaviy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalari qanday mezonlar bo'yicha baholanadi?
8. Axborot manbalarida ifodalangan ko'rsatkichlarni to'g'riligi va aniqligini tekshirish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi?

9. Moliyaviy tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
10. Moliyaviy tahlil natijalari to'g'risidagi hisobot qaysi qismlardan iborat?

NAZORAT TESTLARI

1. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakli bo'yicha qanday tarkiblanadi?

- A) Omilli tahlil, joriy tahlil va tashqi moliyaviy tahlil
- B) Boshqaruv va moliyaviy tahlil
- C) Ichki moliyaviy tahlil va tashqi moliyaviy tahlil
- D) Omilli tahlil, joriy tahlil va ichki moliyaviy tahlil

2. Moliyaviy tahlilni tashkil etish qanday ketma-ketlikda o'tkaziladi?

- A) Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish, ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash, moliyaviy tahlilni o'tkazish, moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash, moliyaviy tahlil natijalarini amaliyotga tadbiq etish bosqichi
- B) Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish, ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash, moliyaviy tahlilni o'tkazish, moliyaviy tahlil natijalarini amaliyotga tadbiq etish bosqichi
- C) Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish, ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash, moliyaviy tahlilni o'tkazish, moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash
- D) Moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishning rejasi va dasturini tuzish, ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash, yechimini aniqlash, moliyaviy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va chora-tadbirlarni belgilash

3. Moliyaviy tahlil yuzasidan ma'lumotlar bazasini to'plash va qayta ishlash bosqichida qanday ishlar amalga oshiriladi?

- A) Tahlil uchun axborot manbalarini to'plash, tahlil uchun foydalaniladigan qo'shimcha zarur ma'lumotlarni to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlilga mos holda soddalashtirish, tahlil uchun zarur jadval, sxemalar va diagrammalar maketlarini tuzish; tahlil usullarini aniqlab olish

- B) Mezon ko'rsatkichlarini aniqlash, ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish va naijalarni baholash, natijaning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajalarini hisoblash, natijaga ta'sir ko'rsatgan har bir omilning kelib chiqish sabablarini o'rgangan holda baho berish, natijalarni umumlashtirish va xulosa tayyorlash
- C) Tahlil natijalari hisobot shaklida rasmiylashtiriladi, tahlil natijalarini muhokama qilish, tahlil natijalariga asoslangan holda yo'l quyilagan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilanadi
- D) Tahlil uchun axborot manbalarini to'plash, tahlil uchun foydalaniladigan qo'shimcha zarur ma'lumotlarni to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlilga mos holda soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyekt ichki imkoniyatlari o'rganilgan holda faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari belgilanadi, natijalarni umumlashtirish va xulosa tayyorlash

4. Moliyaviy tahlilning axborot manbalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari hamda tanlab olingan ma'lumotlar
- B) Boshqaruv va moliyaviy hisob hamda statistik hisob ma'lumotlari
- C) Joriy hisob, ichki hisob ma'lumotlari va yillik hisobot ma'lumotlari
- D) Biznes reja ma'lumotlari hamda boshqaruv va moliyaviy hisob ma'lumotlari

5. Moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlariga nimalar kiradi?

- A) Biznes reja ma'lumotlari, Dastlabki va yig'ma hujjatlar ma'lumotlari, analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlari statistik hisob ma'lumotlari
- B) Biznes reja ma'lumotlari, statistik hisob ma'lumotlari moliyaviy hisobot shakllari
- C) Biznes reja ma'lumotlari, statistik hisob ma'lumotlari, tezkor hisob ma'lumotlari, vakolatli davlat organlarining taftish ma'lumotlari, moliyaviy tahlil uchun zarur bo'ladigan boshqa hisob va hisobdan tashqari ma'lumotlar
- D) Dastlabki va yig'ma hujjatlar ma'lumotlari, analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlari, moliyaviy hisobot shakllari

6. Tanlab olingan ma'lumotlarga nimalar kiradi?

- A) Biznes reja ma'lumotlari, Dastlabki va yig'ma hujjatlar ma'lumotlari, analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlari statistik hisob ma'lumotlari
- B) Biznes reja ma'lumotlari, statistik hisob ma'lumotlari moliyaviy hisobot shakllari
- C) Biznes reja ma'lumotlari, statistik hisob ma'lumotlari, tezkor hisob ma'lumotlari, vakolatli davlat organlarining taftish ma'lumotlari, moliyaviy tahlil uchun zarur bo'ladigan boshqa hisob va hisobdan tashqari ma'lumotlar
- D) Dastlabki va yig'ma hujjatlar ma'lumotlari, analitik va sintetik schyotlar ma'lumotlari, moliyaviy hisobot shakllari

7. Moliyaviy tahlil natijalari qanday tartibda rasmiylashtiriladi?

- A) Jadval shaklida rasmiylashtiriladi
- B) Ma'lumotnoma va diagramma shaklida rasmiylashtiriladi
- C) Hisobot shaklida rasmiylashtiriladi
- D) Smetalar, kadastr hujjatlari va ma'lumotnomalar ko'rinishida rasmiylashtiriladi

8. Moliyaviy tahlil natijalari to'g'risidagi hisobot qaysi qismlardan iborat?

- A) Umumiy qoidalar, asosiy qism, xulosa va takliflar
- B) Kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar
- C) Umumiy qoidalar, ma'lumotnoma, xulosa va takliflar
- D) Kirish, smetalar, jadvallar, diagrammalar, xulosa va takliflar

V BOB. MOLIYAVIY TAHLIL FANINING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

5.1. Moliyaviy tahlil fanining metodi va usullarining turkumlanishi

Har bir fanning predmetini o‘rganish usullari, vositalari uning metodini tavsiflaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida metod atamasiga: “Metod [yun. methodos – tadqiqot usuli, yo‘li] 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. 2. q. Usul, uslub”³⁰ deb izoh berilgan. Demak, metod tabiat va jamiyatda sodir bo‘lgan va bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilib o‘rganish usulidir.

Moliyaviy tahlil fanining metodi - bu uning predmetini makon va zamonda, axborot manbalarida ifodalangan ko‘rsatkichlar asosida tizimli, kompleks tarzda o‘rganish, obyektning barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularni xo‘jalik faoliyatiga jalb qilish maqsadida qo‘llaniladigan usullar majmuidir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda, ma‘lumotlarni qayta ishlashda tahlilning turli usullari qo‘llaniladi. Tahlil usullarini qo‘llash o‘rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog‘liqligi, o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar va boshqa sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Bugungi kunda iqtisodchi olimlar o‘z asarlarida tahlilning usullarini shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko‘rsatishmoqda (5.1-rasm):


- oddiy-an‘anaviy (odatdagi) usullar;
- iqtisodiy-matematik usullar.

Oddiy-an‘anaviy (odatdagi) usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo‘lgandan buyon an‘anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo‘llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutloq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlashtirish, balansli bog‘lanish, zanjirli bog‘lanish, ko‘rsatkichlar farqi, qayta hisoblash, indeks va boshqa usullarni keltirish mumkin.

Iqtisodiy-matematik usullar guruhi usullari omilli tahlilda keng qo‘llaniladi.

³⁰ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.II, - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B 582.

Omili tahlilda iqtisodiy matematik usullarni qo'llash, tahlil qilinayotgan jarayonlarning murakkabligiga, hajmiga va o'rganish lozim bo'lgan vazifalariga bog'liqdir. Shu bilan birga mazkur usullar orqali ma'lum bir iqtisodiy hodisa va jarayonga ta'sir etuvchi bir nechta omillarning ta'sirini aniq miqdorlarda aniqlash imkoniyatining mavjudligidir. Iqtisodiy-matematik usullar guruhining tarkibiga integral, korrelyasion va regrasion tahlil, logorifmlar, determinantlar, matrisalar, chiziqli programmalashtirish, nazariy o'yin, iqtisodiy tashxis qo'yish, funksional qiymatli tahlil, grafikli, evrestik tahlil va boshqa usullar kiradi.



5.1-rasm. Tahlilda qo'llaniladigan usullar tasnifi

Oddiy-an'anaviy usullardan farqli ravishda xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda iqtisodiy-matematik usullarni qo'llaganda tahlilning bajarish muddati tezlashadi, o'zgarishlar va ularning ta'sirini aniq hisoblash mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, ko'p omilli ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib, har bir ta'sir ko'rsatuvchi omilni miqdor va sifat jihatlarini aniq ko'rsatib berish imkoniyati paydo bo'ladi va boshqa imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy tahlilni tashkil etish va o'tkazishda qo'llaniladigan moliyaviy tahlilning quyidagi maxsus usullari mavjud (5.2-rasm): moliyaviy hisobotni o'qish, gorizantal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlili, qiyosiy (taqqoslama) tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar va omilli tahlil hamda boshqa usullar.

№	Usullarning nomi	Izoh
1	Moliyaviy hisobotni o'qish	Subyektning moliyaviy hisobotini o'qish orqali faoliyat natijalarini baholashni dastlabki o'rganish usulidir
2	Gorizantal tahlil	Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mutloq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir
3	Vertikal tahlil	Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tarkibiy o'rganish usulidir
4	Trend tahlili	Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini bazis (asoC) ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir
5	Qiyosiy (taqqoslama) tahlil	Ko'rsatkichlarni turli obyektlar bo'yicha taqqoslash usulidir
6	Moliyaviy koeffitsiyentlar	Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko'rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir
7	Omilli tahlil	Natija ko'rsatkichining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisob-kitob qilish asosida ularning ta'sirini aniqlash usuli

5.2-rasm. Moliyaviy tahlil usullari tasnifi

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullarni moliyaviy tahlilda qo'llash tartibini bilish tahlilda ulardan foydalanishni yanada osonlashtiradi. Shu bois, mazkur usullarni moliyaviy tahlilda qo'llanilishiga kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz.

5.2. Oddiy-an'anaviy usullar

5.2.1. Taqqoslash usuli va uni qo'llashda amal qiladigan shartlar

Umuman tahlilda qo'llaniladigan oddiy-an'anaviy usullaridan eng ko'p va avvaldan qo'llanilib kelinayotgani bu taqqoslash usulidir. Bu usulni qo'llash bilan tahlil boshlanadi va o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning farqi aniqlanadi. Qolgan barcha usullar taqqoslash natijasida aniqlangan ko'rsatkichlar farqini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Taqqoslash usulida xo'jalik faoliyati bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro taqqoslanadi. Jumladan, haqiqatdagi ko'rsatkichlarni biznes-reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash natijasida biznes-rejaning bajarilish darajasi va sifati aniqlanadi, joriy yildagi amaldagi ko'rsatkichlarni o'tgan davr ko'rsatkichi bilan taqqoslash natijasida ishlab chiqarishning o'sish (pasayish) sur'atlari aniqlanadi, iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan korxonalar bilan o'rganilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali ilg'or ishlab chiqarish tajribalari o'rganiladi, shuningdek, korxonalar ishining yakuni,

o'tgan davr hisoboti, ayrim davrlarda qilingan ishlarning eng yaxshi natijalari taqqoslanadi.

Moliyaviy tahlilda ko'rsatkichlarni taqqoslab o'rganishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- taqqoslab o'rganilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarning aniqlanish usuli aynan bir xil bo'lishi kerak;
- bir xil bahoda hisoblangan ko'rsatkichlarga taqqoslanishi lozim;
- taqqoslab o'rganiladigan davrlar bir xil bo'lishi lozim;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning joylanishi va iqlim sharoiti teng darajada hisobga olinishi lozim;
- ko'rsatkichlari taqqoslanuvchi korxonalarining ixtisoslashuvi, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va xo'jalik yo'nalishlari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak;
- o'rganiladigan obyektlar soni ham mos bo'lishi zarur va boshqa shartlar ham taqqoslash usulini qo'llaganda nazarda tutilishi lozim.

Shunday qilib, moliyaviy tahlilda ko'rsatkichlar taqqoslash usuli yordamida o'rganilganda yuqoridagi talablarga rioya qilinishi moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish, tahlil natijalarni aniq va to'g'ri shakllantirish va ular asosida oqilona qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

5.2.2. Balansli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi

Balansli bog'lanish usuli xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan hodisa va jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanish funksional bo'lgan hollarda foydalaniladi. Ya'ni, o'rganilayotgan natija ko'rsatkichining o'zgarishi bevosita unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'zgarishiga bog'liq bo'lganda qo'llaniladi.

Tahlilda bu usul yordamida moddiy va mehnat resurslari, korxonalar pul mablag'lari kirimi va chiqimi, daromad va xarajatlarini tahlil qilib o'rganish mumkin. Masalan, sotilgan tovarlar hajmini tahlil qilib o'rganishda uning yil boshidagi qoldig'i, yil davomida olingani, me'yor doirasida va me'yordan ortiqcha

yo‘qotishlar hamda yil oxiriga qoldiqlarini o‘rganmasdan turib hisob-kitob qilish aniq natijani ta‘minlab bermaydi. Bu bog‘liqlikni quyidagicha matematik formula (tovar balansi) ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$TZ_{yb} + TK = TS + TCh + TZ_{yo}, \quad (5.1)$$

Bunda: TZ_{yb} – yil boshiga tovar zaxiralari qoldig‘i; TK – tovarlar kirimi; TS – tovarlar sotilishi; TCh – tovarlarning boshqa sabablar bilan chiqib ketishi; TZ_{yo} – yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig‘i.

Yuqoridagi formulaga asosan har bir miqdorni qolganlarining algebraik yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Masalan, sotilgan tovarlarning hajmini quyidagi funksional bog‘liqlikda ifodalash mumkin:

$$TS = TZ_{yb} + TK - TCh - TZ_{yo}, \quad (5.2)$$

Bu formuladan ko‘rinadiki, sotilgan tovarlar hajmiga to‘rtta omil ta‘sir ko‘rsatar ekan. Bunga yil boshiga tovar zaxiralari qoldig‘i va tovarlar kirimi ijobiy ta‘sir ko‘rsasa, tovarlarning har xil chiqimlari va tovar zaxiralarining yil oxiridagi qoldiq summasining ko‘payishi natijaga salbiy ta‘sir qiladi. Yuqoridagi omillarning sotilgan tovarlar hajmiga ta‘siri har bir omil bo‘yicha quyidagicha aniqlanadi:

birinchidan, tovarlarning yil boshidagi qoldig‘i o‘zgarishining sotilgan tovarlar hajmiga ta‘siri (ΔTZ_{yb}) ni topish uchun tovar zaxiralarining hisobot yilidagi miqdoridan, shu ko‘rsatkichning o‘tgan yildagi miqdorini ayirish lozim, ya‘ni:

$$\pm \Delta TZ_{yb} = TZ_{yb1} - TZ_{yb0}$$

ikkinchidan, tovarlar kirimining sotilgan tovarlar hajmiga ta‘sirini (ΔTK) topish uchun uning hisobot yilidagi miqdoridan, o‘tgan yildagi miqdori chegirib tashlanadi, ya‘ni:

$$\pm \Delta TK = TK_1 - TK_0$$

uchinchidan, tovarlarning turli sabablarga ko‘ra chiqib ketishining sotilgan tovarlar hajmiga ta‘sirini (ΔTCh) topish uchun uning hisobot davridagi miqdoridan, o‘tgan davrdagi miqdori ayirib tashlanadi, ya‘ni:

$$\pm\Delta TCh = TCh_1 - TCh_0$$

turtinchidan, tovar zaxirasi qoldig'ining hisobot davri oxiriga o'zgarishining sotilgan tovarlar hajmiga ta'sirini (ΔTZ_{yo}) topish uchun uning hisobot yilidagi miqdoridan, o'tgan yildagi miqdori ayiriladi, ya'ni:

$$\pm\Delta TZ_{yo} = TZ_{yo1} - TZ_{yo0}$$

Demak, barcha omillar ta'siri hisobining to'g'riligini aniqlash uchun hamma omillar ta'sirini qo'shish lozim. Bundan ko'rinadiki, sotilgan tovarlar hajmining o'tgan davrga nisbatan aniqlangan umumiy farqi barcha omillar ta'sirining yig'indisiga teng bo'lar ekan:

$$\pm\Delta TS = \Delta TZ_{yb} + \Delta TK + \Delta TCh + \Delta TZ_{yo}$$

Quyidagi jadvalda sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar ta'sirini hisoblash tartibi keltirilgan (5.1-jadval).

5.1-jadval
Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+;-)
1.	Yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'i, ming so'm	6844	6148	-696
2.	Tovarlar kirimi, ming so'm	40698	42500	+1802
3.	Tovarlarning boshqa sabablarga ko'ra chiqib ketishi, ming so'm	62	59	-3
4.	Yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'i, ming so'm	6148	6298	+150
5.	Sotilgan tovarlar hajmi, ming so'm	41332	42291	+959
Shu jumladan, sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri:				
	- tovarlarning yil boshidagi qoldig'i o'zgarishining hisobiga (ΔTZ_{yb})			-696
	- tovarlar kirimining o'zgarishi hisobiga (ΔTK)			+1802
	- tovarlarning turli sabablarga ko'ra chiqib ketishining hisobiga (ΔTCh)			+3
	- tovar zaxirasi qoldig'ining hisobot davri oxiriga o'zgarishi hisobiga (ΔTZ_{yo})			-150

5.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sotilgan tovarlar hajmi o'tgan yilga nisbatan 959 ming so'mga oshgan. Bu o'zgarishga tovarlar kirimining o'tgan yilga nisbatan 1802 ming so'mga oshishi va tovarlarning har xil chiqib ketishi o'tgan yilga nisbatan 3 ming so'mga kamayishi sotilgan tovarlar hajmining

o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan. Boshqa omillar esa sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, yil boshiga tovar zaxiralarining qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 696 ming so'mga kam bo'lishi hamda hisobot yilining oxirida tovar zaxiralarining qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 150 ming so'mga ko'payishi sotilgan tovarlar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, sotilgan tovarlar hajmining o'tgan yilga nisbatan 959 $(-696+1802+3-150)$ ming so'mga oshishi ijobiy holat hisoblanadi.

Albatta, tahlil natijalari sotilgan tovarlar hajmini yanada ko'paytirishning ichki imkoniyatlarini topish uchun asos bo'ladi. Agarda hisobot yilida tovar zaxiralarining boshlang'ich va oxirgi qoldiqlari me'yor darajasida bo'lganda edi sotilgan tovarlar hajmi yana 846 ming so'mga $(696+150)$ ko'paygan bo'lar edi. U holda hisobot yilidagi haqiqiy sotilgan tovarlar hajmi 42291 ming so'm emas, balki 43137 ming so'mni $(42291+846)$ tashkil qilgan bo'lar edi. Uning o'tgan yilga nisbatan farqi 959 ming so'm emas, balki 1805 ming so'mni $(959+846)$ tashkil qilgan bo'lar edi. Umuman sotilgan tovarlar hajmining ko'payishi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning ham yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatar ekan.

Balansli bog'lanish usuli moliyaviy tahlilda ham keng qo'llaniladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini, xususan to'lov qobiliyatini bevosita mazkur usul yordamida tahlil qilib o'rganiladi. (5.2-jadval).

5.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan "Sharq" fermer xo'jaligi hisobot davrida to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ya'ni, xo'jalikning jami to'lov mablag'lari 105646 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, jami to'lov qarzlari esa 22406 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, xo'jalikda to'lov qarzlariga nisbatan to'lov mablag'lari 83240 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa xo'jalikning mutloq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bunday natijani ijobiy baholagan holda xo'jalikning to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pul mablag'lari 54377 ming so'mni, tovar-moddiy zaxiralar 26584 ming so'mni va debitorlik qarzlari 24685 ming so'mni

tashkil etgan. To'lov qarzlari e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning asosini mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzar, olingan bo'naklar va boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaligi ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab berish lozim.

5.2-jadval

“Sharq” fermer xo'jaligi to'lov qobiliyati tahlili

To'lov mablag'lari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm	To'lov qarzlari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm
1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag'lari	54377	1. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar (qarzar)	4657
2. Tovar-moddiy zaxiralari	26584	2. Olingan bo'naklar	4945
3. Debitorlik qarzlari	24685	3. Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari	4614
		4. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzar	3890
		5. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzar	3395
		6. Boshqa kreditorlik qarzlari	905
Jami to'lash uchun mablag'lar	105646	Jami to'lov qarzlari	22406
To'lov mablag'laridan to'lov qarzlarning ko'pligi	-	To'lov qarzlardan to'lov mablag'larining ko'pligi	83240
Balans	105646	Balans	105646

Shunday qilib, tahlil natijalari xo'jalikning to'lov qobiliyatini yanada oshirishning ichki imkoniyatlarini topish uchun asos bo'ladi. Ya'ni fermer xo'jaligi rahbariyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarni sotish va debitorlik qarzlarni undirib olish hamda to'lov qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab berish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz.

5.2.3. Zanjirli bog'lanish usuli va uning tahlilda qo'llanilishi

Zanjirli bog'lanish usuli ham moliyaviy tahlilda keng qo'llaniladigan usullardan biridir. Undan o'rganilayotgan natija ko'rsatkichining o'zgarishiga uch va undan ortiq omillar ta'sir ko'rsasa, ular o'rtasida bog'liqlik funksional bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Bunda har bir ta'sir etuvchi omilning o'rganilayotgan natija

ko'rsatkichga ta'sirini topish uslubiy ketma-ketlikka ega. Ya'ni, bu usulning mohiyatini uni tahlilda amaliy qo'llash orqali to'liq tushunish mumkin. Masalan, ish vaqti fondining (IVF) o'zgarishi ishchilar soni (I_s), bir ishchining ishlagan kishi kunlari (K_k) va ish kunining davomiyligi (K_d) ko'rsatkichlari bilan funksional bog'liqdir. Bu bog'liqlikni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$IVF = I_s \times K_k \times K_d, \quad (5.3)$$

Bu yerda, I_s - ishchilar soni, K_k – bir ishchining ishlagan kishi kunlari, K_d – ish kunining davomiyligi.

Yuqoridagi formuladan ko'rinadiki, ish vaqti fondining o'zgarishiga uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni:

- ishchilar sonining o'zgarishi;
- bir ishchining ishlagan kishi kunlarining o'zgarishi;
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi.

Mazkur omillarning natija ko'rsatkichiga ta'sirini aniqlashdan oldin, zanjirli bog'lanish usulidan foydalanadigan bo'lsak, bazis davridagi natijani har bir omil hisobiga ketma-ket almashtirib quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinadi:

1. $IVF_0 = I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0}$ – bazis davridagi ish vaqti fondi;
2. $IVF_{sh1} = I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0}$ – 1-shartli ish vaqti fondi;
3. $IVF_{sh2} = I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0}$ – 2-shartli ish vaqti fondi;
4. $IVF_1 = I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}$ – hisobot davridagi ish vaqti fondi.

Ish vaqti fondining umumiy o'zgarishi hisobot davridagi ish vaqti fondidan bazis davridagi ish vaqti fondini chegirish orqali aniqlanadi:

$$\pm \Delta IVF = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}) - (I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

Bu ko'rsatkichlarni quyidagi jadval ko'rinishida ham ifodalash mumkin (5.3-jadval).

Shundan so'ng, ish vaqti fondining o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitob qilinib aniqlanadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- ishchilar sonining o'zgarishi ish vaqti fondining o'zgarishiga qanday ta'sir

ko'rsatganligi aniqlash uchun 1-shartli ish vaqti fondi ko'rsatkichidan bazis davridagi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm\Delta I_s = (I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0}) - (I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

5.3-jadval

Ish vaqti fondi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni zanjirli bog'lanish usuli yordamida hisob-kitob qilish tartibi

№	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Bazis davri	Hisobot davri	Zanjirli almashtirish		
					1	2	3
1	Ishchilar soni, kishi	I_s	I_{s0}	I_{s1}	I_{s1}	I_{s1}	I_{s1}
2	Bir ishchining ishlagan kishi kunlari, kishi-kuni	K_k	K_{k0}	K_{k1}	K_{k0}	K_{k1}	K_{k1}
3	Ish kunining davomiyligi, soat	K_d	K_{d0}	K_{d1}	K_{d0}	K_{d0}	K_{d1}
4	Ish vaqti fondi, kishi-soat	IVF	IVF_0	IVF_1	IVF_{sh1}	IVF_{sh2}	IVF_1

- bir ishchining ishlagan kishi kunlarining o'zgarishini ish vaqti fondiga ta'sirini aniqlash uchun 2-shartli ish vaqti fondidan 1-shartli ish vaqti fondi ko'rsatkichini chegirish kerak:

$$\pm\Delta K_k = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0}) - (I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

- ish kuni davomiyligining o'zgarishini ish vaqti fondiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi ish vaqti fondidan 2-shartli ish vaqti fondi ko'rsatkichini chegirish lozim:

$$\pm\Delta K_d = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}) - (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0})$$

Ushbu omillarning ta'sir ko'rsatish natijalarining yig'indisi natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\pm\Delta IVF = (\pm\Delta I_s) + (\pm\Delta K_k) + (\pm\Delta K_d)$$

Zanjirli bog'lanish usulidan tahlilda shu tarzda foydalanilib, natija ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi va tahlil natijalari umumlashtirilib, natijaning o'zgarishiga baho beriladi hamda yaxshilash imkoniyatlari ko'rsatiladi.

5.2.4. Ko'rsatkichlar farqi usuli va uni tahlilda qo'llanilishi

Tahlilda ko'rsatkichlar farqi usuli natijaga omillar ta'sirini hisoblashda keng qo'llaniladi. Xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bunda bir ko'rsatkich natija deb qaralsa, shunga bog'liq bo'lgan qolgan ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qaraladi.

Bu usulning mohiyati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun hisoblanayotgan omilning farqi olinib, qolgan omillarning joylashish tartibiga qarab o'tgan davrdagi yoki hisobot davridagi miqdori olinadi. Bu usulning mohiyatini aniq amaliy misolda yaqqolroq ko'rish mumkin. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot (bug'doy), yalpi hosili (YaH) natija ko'rsatkichi deb olinsa, uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar bevosita ekin maydonining miqdori (M) va o'rtacha hosildorlik (H) hisoblanadi. Demak, natija ko'rsatkichi bilan unga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$YaH = M \times H, \quad (5.4)$$

Ko'rsatkichlar farqi usuli bilan ushbu formuladagi omillarning ta'sirini aniqlaydigan bo'lsak, birinchi omil, ya'ni ekin maydoni miqdorining (ΔM) olingan yalpi hosil miqdoriga ta'sirini hisoblash uchun shu omilning farqini ikkinchi omil, ya'ni o'rtacha hosildorlikning o'tgan yildagi ko'rsatkichiga ko'paytirish kerak. Ya'ni:

$$\pm \Delta YaH_m = (M_1 - M_0) \times H_0$$

Ikkinchi omil, ya'ni o'rtacha hosildorlikning (ΔH) olingan yalpi hosil hajmi o'zgarishiga ta'sirini topish uchun shu omilning farqi birinchi omilning, ya'ni ekin maydoni miqdorining hisobot yilidagi miqdoriga ko'paytirish lozim. Ya'ni:

$$\pm \Delta YaH_h = (H_1 - H_0) \times M_1$$

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi omillar ta'sirining yig'indisi natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\pm \Delta YAH = (\pm \Delta YAH_m) + (\pm \Delta YAH_h)$$

Yuqoridagi bog'lanishlarni aniq amaliy misollar yordamida ko'rib chiqish

mumkin (5.4-jadval). Bu esa, tavsiya qilinayotgan nazariy hisob-kitoblarning amaliyotga qo‘llanilishidan ham dalolat beradi.

5.4-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida yalpi hosil (bug‘doy) dinamikasining omilli tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Shartli belgi	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+;-)	shu jumladan	
						ekin maydoni hisobiga	hosildorlik hisobiga
1	Ekin maydoni, ga	M	215	220	5	x	x
2	Hosildorligi, s/ga	H	40	35	-5	x	x
3	Yalpi hosili, s	YaH	8600	7700	-900	+200	-1100

5.4 – jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bug‘doy yalpi hosili o‘tgan yilga nisbatan 900 sentnerga kamaygan. Bunday o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan:

birinchi omil, xo‘jalikda bug‘doy ekilgan ekin maydoni o‘tgan yilga nisbatan 5 gektarga ko‘payganligi olingan yalpi hosil hajmini 200 sentnerga ko‘paytirgan:

$$5 \times 40 = + 200 \text{ s}$$

ikkinchi omil, o‘tgan yilga nisbatan xo‘jalikda bug‘doy hosildorligi 5 sentnerga pasayishi olingan yalpi hosil hajmining 1100 sentnerga kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$-5 \times 220 = - 1100 \text{ s}$$

Demak, yuqorida ta’kidlangandek, ikki omil ta’siri yalpi hosil hajmining umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim:

$$+200 + (-1100) = - 900 \text{ s}$$

Ushbu tahlil natijalari olingan yalpi hosil hajmini oshirish bo‘yicha xo‘jalikda mavjud ichki imkoniyatlarni izlab topish va uni joriy qilishga doir kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishga asos bo‘ladi.

Tahlil natijalarini o‘rgangan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, xo‘jalikda yetishtirilgan bug‘doydan olingan yalpi hosilning o‘tgan yilga nisbatan kamayishiga asosan o‘rtacha hosildorlikning pasayishi hisobiga bo‘lgan. Shu bois, fermer xo‘jaligi rahbariyati o‘rtacha hosildorlikni oshirish bo‘yicha tegishli amaliy

choralarni ko‘rishi kerak. Agarda fermer xo‘jaligida hisobot yilida ekin maydoni 5 gektarga ko‘paymaganda edi, olingan yalpi hosil 200 sentnerga kamaygan bo‘lar edi. Shu bilan birga, hisobot yilida o‘rtacha hosildorlik o‘tgan yilga nisbatan 5 sentnerga kamaymaganda edi, olingan yalpi hosil hajmi 1100 sentnerga ko‘paygan bo‘lar edi.

5.2.5. Qayta hisoblash usuli va uning tahlilda qo‘llanilishi

Bugungi kunda qayta hisoblash usulidan ham omilli tahlilda keng qo‘llanilmoqda. U natijaga bitta yoki ikkita omil ta‘sir qilgan paytlarda qo‘llanilishi mumkin. Bu usul orqali umumiy natijaga ta‘sir qiluvchi omillar va ularning ta‘sir darajalari aniqlanadi. Shuni e‘tirof etish kerakki, tahlil natijalari korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash bo‘yicha ichki imkoniyatlarni izlab topish uchun asos bo‘ladi. Ushbu usulning mohiyati reja (o‘tgan yil)dagi natijani birinchi omilning haqiqiy miqdori bilan qayta hisoblab olinishidan iboratdir. Qayta hisoblash usulining mohiyatini aniq amaliy misolda batafsil ko‘rib chiqamiz. Masalan, yalpi mahsulot hajmining o‘zgarishiga asosiy vositalar va ulardan foydalanish samaradorligining ta‘sirini ushbu usul orqali tahlil qilib o‘rganishimiz mumkin. Demak, bu yerda olingan yalpi mahsulot (YaM) natija ko‘rsatkichi deb olinsa, uning o‘zgarishiga ta‘sir qiluvchi omillar bevosita asosiy vositalarning o‘rtacha qiymati (A) va ulardan foydalanish samaradorligi (fond qaytimi) (Fq) hisoblanadi. Shunday qilib, natija ko‘rsatkichi bilan unga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$YaM = A \times Fq, \quad (5.5)$$

Ushbu bog‘lanishdan ko‘rinib turibdiki, natijaga ikkita omil ta‘sir ko‘rsatar ekan. Har bir omilning ta‘sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olish lozim. Buning uchun birinchi omilning haqiqiy (hisobot yili) miqdorini (A_1) ikkinchi omilning reja (o‘tgan yil)dagi miqdoriga (Fq_0) ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. Ya‘ni:

$$YaM_{qh} = A_1 \times Fq_0$$

Yalpi mahsulot hajmiga yuqoridagi ikki omilning ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim. Ya'ni:

- yalpi mahsulot hajmining asosiy vositalarning o'rtacha qiymatining o'zgarishi hisobiga o'zgariganligini (ΔYaM_A) aniqlash uchun yalpi mahsulotning qayta hisoblangan hajmidan (YaM_{qh}) uning reja (o'tgan yil) dagi hajmini (YaM_0) ayirish lozim:

$$\pm \Delta YaM_A = YaM_{qh} - YaM_0 = (A_1 \times Fq_0) - (A_0 \times Fq_0)$$

- yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy vositalar samaradorligi (fond qaytimi) ning ta'sirini (ΔYaM_{Fq}) aniqlash uchun yalpi mahsulotning haqiqiy (hisobot yil) summasidan (YaM_1) uning qayta hisoblangan miqdorini (YaM_{qh}) ayirish lozim:

$$\pm \Delta YaM_{Fq} = YaM_1 - YaM_{qh} = (A_1 \times Fq_1) - (A_1 \times Fq_0)$$

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ikki omilning ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\pm \Delta YAM = (\pm \Delta YAM_A) + (\pm \Delta YAM_{Fq})$$

Fikrimizning isboti sifatida quyidagi jadval ma'lumotlarini keltirib o'tamiz (5.5-jadval).

5.5-jadval

“Sharq” fermer xo'jaligining yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga asosiy vositalar hajmi va ulardan foydalanish samaradorligi ta'sirining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Qayta hisoblangan	Farqi (+;-)	shu jumladan	
						Asosiy vositalar-ning o'zgarishi hisobiga	Fond qaytimining o'zgarishi hisobiga
1	Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	88154	101991	97217	+13837	x	x
2	Fond qaytimi, ming so'm	7,411	6,699	6,880	-0,712	x	x
3	Yalpi mahsulot hajmi, ming so'm	653350	683292	668820	+29942	+15470	+14472

5.5 – jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yalpi mahsulot hajmi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 29942 ming so'mga ko'paygan. Bunday

ko'payishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ularning ta'sir darajalari quyidagicha bo'lgan:

- birinchi omil, asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining o'tgan yilga nisbatan 13837 ming so'mga ko'payishi yalpi mahsulot hajmining 15470 ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$668820 - 653350 = + 15470 \text{ ming so'm}$$

- ikkinchi omil, asosiy vositalar samaradorligi (fond qaytimi)ning hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 712 so'mga kamayganligi olingan yalpi mahsulot hajmini 14472 ming so'mga oshirgan:

$$668820 - 683292 = + 14472 \text{ ming so'm}$$

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, agarda asosiy vositalar samaradorligini hisobot davrida hech bo'lmaganda o'tgan yil hajmida qolganda edi, yalpi mahsulot yana 72617,6 ming so'mga ($0,712 \times 101991$) ko'paygan bo'lar edi. U holda hisobot yilidagi haqiqiy yalpi mahsulot hajmi 683292 ming so'm emas, balki 755909,6 ming so'mni ($683292 + 72617,6$) tashkil qilgan bo'lar edi. Shuningdek, yalpi mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan 104,6 % ga emas, balki 116 % ga oshgan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, tahlilda qayta hisoblash usulidan foydalanish natijaga omillar ta'sirini aniqlash va natija ko'rsatkichini yanada yaxshilash bo'yicha mavjud bo'lgan ichki rezervlarni aniqlash imkonini beradi.

5.3. Iqtisodiy-matematik usullar

5.3.1. Integral usuli va uni tahlilda qo'llanilishi

Iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniq o'lchangan va hisoblangan bo'lishi lozim. Bunga integral usulini qo'llash orqali erishish mumkin. Shu bois, iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish va bilish uchun ko'rsatkichning o'zgarishiga ikkita va undan ortiq omillar ta'sirini hisoblashda integral usulidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Integral usulining ahamiyatliligi shundaki, agarda zanjirli bog'lanish yoki ko'rsatkichlar farqi usullarida omillar ketma-ketligi o'zgarsa, ularning natija o'zgarishiga ta'siri har xil

bo‘ladi. Bu usulda esa omillar ta’sirini hisoblashda ketma-ketlikka rioya qilishni talab qilmaydi. Omillarning ketma-ketligi o‘zgarishidan qat’iy nazar omillar ta’siri doimo bir xil, ya’ni eng muhimi to‘g‘ri topiladi. Integral usuli bilan bog‘liq tegishli hisob-kitoblar bir tomondan matematik tahlil asoslarini bilishni talab esa, ikkinchi tomondan zanjirli almashtirish usuliga nisbatan tegishli hisob-kitoblarni bajarishni talab etadi. O‘rganilayotgan natija ko‘rsatkichiga omillar ta’sirini hisoblashning turli shakllari mavjud bo‘lib, agarda natijaga ikkita omil ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, u holda natijaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar bog‘liqligi quyidagi matematik formula ko‘rinishida bo‘ladi:

$$U = X_1 \times X_2, \quad (5.6)$$

Demak, o‘rganilayotgan natijaga ikkita omil ta’sir ko‘rsatarkan va bu omillarning ta’sir darajalari integral usulida quyidagi tartibda o‘rganiladi:

- o‘rganilayotgan natijaning o‘zgarishiga birinchi omilning ta’siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\pm \Delta U_{X_1} = (X_2^0 \times \Delta X_1) + ((\Delta X_1 \times \Delta X_2) / 2);$$

- natija o‘zgarishiga ikkinchi omilning ta’siri esa quyidagicha aniqlanadi:

$$\pm \Delta U_{X_2} = (X_1^0 \times \Delta X_2) + ((\Delta X_1 \times \Delta X_2) / 2).$$

Aniqlangan bu ikki ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning yig‘indisi o‘rganilayotgan natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi tavsiya qilinayotgan nazariy hisob-kitoblarning amaliyotga qo‘llanilishini aniq amaliy misol yordamida ko‘rsatib o‘tamiz. Aytaylik, fermer xo‘jaligida mahsulotlar (bug‘doy)ni sotishdan olingan pul daromadi hajmining o‘sishi yoki kamayishiga ta’sir qiluvchi omillar ta’sirini, ya’ni sotilgan mahsulot miqdori va bir-birlik mahsulotning o‘rtacha sotish bahosining ta’sirini integral usulidan foydalanib aniqlashimiz mumkin (5.6-jadval).

5.6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaligida hisobot yilida jami bug‘doy sotishdan olingan pul tushumi o‘tgan yilga nisbatan 5330 ming so‘mga ko‘paygan. Pul tushumining o‘tgan yilga nisbatan oshishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan, ya’ni:

5.6-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida bug‘doy sotishdan olingan pul daromadining tahlili uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar

№	Ko‘rsatkichlar	Shartli belgi	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)
1	Sotilgan bug‘doy miqdori, s	M	8600	7700	-900
2	1 s bug‘doyning o‘rtacha sotish bahosi, so‘m	B	20600	23700	+3100
3	Jami bug‘doy sotishdan olingan pul tushumi, ming so‘m	MB	177160	182490	+5330

- birinchi omil, bu sotilgan bug‘doy miqdorining o‘zgarishi hisoblanib, uning natijaga ta’siri yuqoridagi formula asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta MB_m = (B_0 \times \Delta M) + ((\Delta B \times \Delta M) / 2) = (20600 \times (-900)) + ((3100 \times (-900)) / 2) = (-18540000) + ((-2790000) / 2) = (-18540000) + (-1395000) = -19935000 \text{ so‘m};$$

- ikkinchi omil, bu 1 sentner bug‘doyning o‘rtacha sotish bahosining o‘zgarishi hisoblanib, uning natijaga ta’siri ham yuqoridagi formula bo‘yicha quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta MB_B = (M_0 \times \Delta B) + ((\Delta B \times \Delta M) / 2) = (8600 \times 3100) + ((3100 \times (-900)) / 2) = (26660000) + ((-2790000) / 2) = 26660000 - 1395000 = 25265000 \text{ so‘m}.$$

Bajarilgan hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, ikki omil ta’sirining yig‘indisi jami pul tushumining umumiy farqiga teng bo‘larkan:

$$\pm \Delta MB = (\pm \Delta MB_m) + (\pm \Delta MB_B) = 25265000 + (-19935000) = +5330000 \text{ so‘m}.$$

Demak, tahlil ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, sotilgan bug‘doy miqdorining o‘tgan davrga nisbatan 900 sentnerga kamayishi, sotishdan olingan jami pul tushumini 19935 ming so‘mga kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, 1 sentner bug‘doyning sotish bahosi o‘tgan yilga nisbatan 3100 so‘mga oshishi jami pul tushumini 25265 ming so‘mga ko‘paytirgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, o‘tgan yilga nisbatan bug‘doy sotishdan olingan jami pul tushumining 5330 ming so‘mga ko‘payishi 1 sentner bug‘doy bahosining oshishi hisobiga sodir bo‘lgan. Agarda sotilgan bug‘doy miqdori o‘tgan davrga nisbatan 900 sentnerga kamaymaganda edi, sotishdan olingan jami pul tushumi 203820 (8600×23700) ming so‘mni tashkil qilar edi. Bu esa, o‘z navbatida xo‘jalikning o‘tgan yilga nisbatan bug‘doy sotishdan olingan jami pul tushumining 26660 (203820-177160)

ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi.

Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning xo'jalik faoliyatini tahlil qilishdan asosiy maqsad, uni rivojlantirish va foydani ko'paytirish uchun mavjud ichki imkoniyatlarni axtarib topishdan iboratdir.

5.3.2. Logarifmlash usuli va uni tahlilda qo'llashning afzalliklari

Logarifmlash usuli asosan multiplikativ modellarda aniqlangan natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Bu usulda ham hisob-kitob natijasi omillarning modelda joylashuviga bog'liq emas. Shu bilan birga, boshqa usullarga qaraganda omillar ta'sirini aniqroq hisoblash imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu usulning asosiy kamchiligi uni qo'llash sohasi cheklanganligidadir.

Logarifmlash usulida ko'rsatkichlarning mutlaq o'sishi emas, balki ularning o'sish (yoki pasayish) indeksi qo'llaniladi. Masalan, natija ko'rsatkichi z ikki omil, ya'ni x va y omillarning ko'paytmasining hosilasi ko'rinishida ($z=x \times y$) aniqlanadigan bo'lsa, ushbu usul yordamida natija ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'sirini quyidagicha aniqlaymiz. Ya'ni, tenglikning ikkala qismini logarifmlash orqali quyidagi hisob-kitoblar aniqlanadi:

$z=x \times y$	Tenglikning ikkala qismini logarifmlash orqali quyidagini hosil qilamiz:
	$\lg z = \lg x + \lg y$ $\lg \Delta z = \lg z_1 - \lg z_0 = (\lg x_1 - \lg x_0) + (\lg y_1 - \lg y_0)$
	Ko'rsatkichlar o'zgarishlari indeksleri o'rtasida ham ko'rsatkichlarning o'zi o'rtasidagi bog'lanish saqlanishi hisobga olgan holda ularning mutlaq qiymatlarini indeksga aylantiramiz:
	$\lg(z_1 : z_0) = \lg(x_1 : x_0) + \lg(y_1 : y_0)$ $\lg z_1 = \lg x_1 + \lg y_1; \quad \lg z_0 = \lg x_0 + \lg y_0.$
	z natija ko'rsatkichining o'zgarishi x va u omillarning ta'siri quyidagicha aniqlanadi:
x	$\Delta z_x = \Delta z_{\text{umum}} \frac{\lg(x_1 : x_0)}{\lg(z_1 : z_0)}$
y	$\Delta z_y = \Delta z_{\text{umum}} \frac{\lg(y_1 : y_0)}{\lg(z_1 : z_0)}$

Endi, quyidagi "Sharq" fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida sut ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni logarifmlash usuli yordamida tahlil qilib o'rganamiz (5.7-jadval).

5.7-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida sut ishlab chiqarish hajmining omilli tahlili uchun birlamchi ma’lumotlar

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)
1	Sigirlar bosh soni, bosh (B)	1400	1380	-20
2	Mahsuldorlik, s (M)	30	32	+2
3	Yalpi sut miqdori, s (YaS=B×M)	42000	44160	+2160

5.7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida o‘tgan yili olingan yalpi sut miqdori 42000 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich hisobot yilida 44160 sentnerga teng bo‘lgan. Demak, fermer xo‘jaligida yalpi sut miqdori hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 2160 sentner ko‘paygan.

“Sharq” fermer xo‘jaligida yalpi sut miqdorining bunday o‘zgarishiga ikki omil, ya’ni sigirlar bosh sonining o‘zgarishi va mahsuldorlik darajasining o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalarini “Logarifmlash usuli” yordamida quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

- birinchi omil, ya’ni sigirlar bosh soni ($B_1 - B_0$) o‘zgarishining ta’siri quyidagicha aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \Delta YaS_b &= \Delta YaS_{umum} \times (\lg(B_1:B_0) / \lg(YaS_1:YaS_0)) = \\ &= (+2160) \times \lg(1380:1400) / \lg(44160:42000) = -620 \text{ s.} \end{aligned}$$

Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, fermer xo‘jaligida hisobot yilida sigirlar bosh sonining o‘tgan yilga nisbatan 20 boshga kamayishi, yalpi sut miqdorini 620 sentnerga pasayishiga ta’sir ko‘rsatgan.

- ikkinchi omil, mahsuldorlik darajasi ($M_1 - M_0$) o‘zgarishining ta’siri quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \Delta YaS_m &= \Delta YaS_{umum} \times (\lg(M_1:M_0) / \lg(YaS_1:YaS_0)) = \\ &= (+2160) \times \lg(32:30) / \lg(44160:42000) = +2780 \text{ s.} \end{aligned}$$

Demak, fermer xo‘jaligida mahsuldorlik darajasi o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 2 sentnerga oshishi, yalpi sut miqdorini 2780 sentnerga ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatgan.

Shunday qilib, yuqoridagi ikki omilning ta’siri natijasida “Sharq” fermer xo‘jaligida hisobot yilidagi yalpi sut miqdori o‘tgan yilga nisbatan

2160 ((-620) + 2780) sentnerga ko'paygan. Bunday natijani fermer xo'jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

5.3.3. Korrelyasion-regression tahlil usuli va uni tahlilda qo'llash tartibi

Ma'lumki, iqtisodiy-matematik usullar vujudga kelgan yoki rejalashtirilgan iqtisodiy sharoitlarda belgilangan boshqaruv qarorlarini tahlil qilish va eng maqbul variantni tanlash uchun qo'llaniladi.

Iqtisodiy-matematik usullardan tahlilda keng qo'llaniladigani korrelyasion-regression tahlil usulidir. Mazkur usul funksional ravishda bir-biri bilan bog'lanmagan ko'rsatkichlar orasidagi o'zaro bog'liqligini o'rganishda qo'llaniladi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik to'g'ri chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lganda korrelyasiya koeffitsiyenti va egri chiziqli bog'liqlik mavjud bo'lsa korrelyasiya munosabatlari bilan o'lchanadi.

Ushbu usulni qo'yidagi shartli misol orqali tahlilda qo'llash tartibini ko'rib chiqamiz. Aytaylik, ikkita iqtisodiy ko'rsatkichlar qatori mavjud. Ya'ni, ikki turdagi mahsulot rentabelligi (%) ko'rsatkichi:

- sutishlab chiqarish rentabelligi;
- gusht ishlab chiqarish rentabelligi.

Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik zichligini aniqlash va regressiya tenglamasini tuzish lozim.

5.8-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, birinchi navbatda ko'rsatkichlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik zichligini aniqlash uchun o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasida chiziqli bog'liqlik mavjud degan farazda korrelyasiya koeffitsiyenti aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikdagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

Dastlab, har bir mahsulot turi bo'yicha o'rtacha rentabellik ko'rsatkichi aniqlanishi zarur. Uni quyidagicha hisob-kitob qilish orqali aniqlaymiz:

$$\bar{x} = \sum x_i : n = 95,8 : 6 = 16,0 \%$$

$$\bar{y} = \sum y_i : n = 88,7 : 6 = 14,8 \%$$

5.8-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida sut va gusht ishlab chiqarish rentabelligi ko‘rsatkichi to‘g‘risida ma‘lumot

Ko‘rsatkichlar	Yillar						Umumiy yig‘indisi
	1	2	3	4	5	6	
1. Sut ishlab chiqarish rentabelligi, % (x_i)	17,7	20,5	12,1	18,6	14,0	13,0	$\sum x_i = 95,8$
2. Gusht ishlab chiqarish rentabelligi, % (y_i)	16,0	19,4	10,8	17,4	13,1	12,0	$\sum y_i = 88,7$

Endi, hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ma‘lumotlarni 5.9-jadval ko‘rinishida quyidagicha ifodalaymiz.

Korrelyasiya koeffisienti quyidagi matematik formula orqali aniqlanadi:

$$r = \frac{\delta_{xy}^2}{\delta_x \delta_y} \quad (5.7)$$

5.9-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi ma‘lumotlari asosida amalga oshirilgan hisob-kitob

$(x_i - \bar{x})$	$(x_i - \bar{x})^2$	$(y_i - \bar{y})$	$(y_i - \bar{y})^2$	$(x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y})$
1,7	2,9	1,2	1,5	2,1
4,5	20,2	4,7	21,6	20,9
-3,9	15,0	-4,0	16,0	15,5
2,6	6,9	2,6	6,8	6,9
-2,0	4,1	-1,7	2,8	3,4
-2,9	8,7	-2,8	7,8	8,2
	$\sum (x_i - \bar{x})^2 = 57,8$		$\sum (y_i - \bar{y})^2 = 56,4$	$\sum (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) = 56,9$

Korrelyasiya koeffisientini aniqlash uchun kerakli bo‘lgan ko‘rsatkichlarni quyidagi tartibda hisob-kitob qilish asosida aniqlab olamiz:

$$\delta_x = \sqrt{\frac{\sum_i (x_i - \bar{x})^2}{n}} = \sqrt{\frac{57,8}{6}} = 3,10 ;$$

$$\delta_y = \sqrt{\frac{\sum_i (y_i - \bar{y})^2}{n}} = \sqrt{\frac{56,4}{6}} = 3,07 ;$$

$$\delta_{xy}^2 = \frac{1}{n} \sum_i (x_i - \bar{x})(y_i - \bar{y}) = \frac{56,9}{6} = 9,49 ;$$

$$r = \frac{9,49}{3,10 \times 3,07} = 0,996$$

Shundan so‘ng, chiziqli bog‘lanish formulasini ($y = a_0 + a_1 x$) hisoblashdan oldin sut ishlab chiqarish rentabelligining gusht ishlab chiqarish rentabelligiga bog‘liqligini quyidagi matematik formulalar orqali aniqlaymiz:

$$na_0 + a_1 \sum x_i = \sum y_i \quad (5.8)$$

$$a_0 \sum x_i + a_1 \sum x_i^2 = \sum x_i y_i \quad (5.9)$$

Yuqoridagi formulalar asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarni quyidagi 5.10-jadvalda keltirib o'tamiz.

5.10-jadval

Tahlil uchun zarur hisob-kitob ma'lumotlari

x_i^2	312,2	418,6	146,2	346,0	194,6	169,5	$\sum x_i^2 = 1587,1$
y_i^2	255,9	377,8	116,4	302,4	172,0	143,9	$\sum y_i^2 = 1368,4$
$x_i y_i$	282,6	397,7	130,4	323,5	182,9	156,2	$\sum x_i y_i = 1473,4$

Endi, yuqoridagi (5.8) formuladan foydalanib, a_0 miqdorni quyidagicha aniqlab olamiz:

$$6a_0 + 95,8a_1 = 88,7$$

$$a_0 = (88,7 - 95,8a_1) / 6 = 14,78 - 15,97a_1$$

a_0 miqdor aniqlab olingandan so'ng, (5.9) formuladan foydalanib a_1 miqdorni quyidagicha aniqlaymiz:

$$95,8a_0 + 1587,1a_1 = 1473,4$$

$$95,8 \times (14,78 - 15,97a_1) + 1587,1a_1 = 1473,4$$

$$57,17a_1 = 57,48$$

$$a_1 = 1,01$$

a_1 miqdor aniqlab olingandan keyin, yuqoridagi a_0 miqdor qanchaga teng bo'lishi aniq hisob-kitob qilib aniqlay olamiz:

$$a_0 = 14,78 - 15,97a_1 = 14,78 - 15,97 \times (1,01) = -1,35$$

Yuqoridagi hisob-kitoblar to'liq bajarilgandan so'ngina regressiya tenglamasini tuzishimiz mumkin. Bizning bajargan hisob-kitoblarimiz asosida regressiya tenglamasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$y = a_0 + a_1 \bar{x}$$

$$y = -1,35 + 1,01\bar{x}$$

5.4. Moliyaviy tahlilning maxsus usullari

5.4.1. Moliyaviy hisobotni o'qish

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining (yangi tahriri) 22-moddasiga ko'ra moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- buxgalteriya balansi (1-shakl);
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl);
- pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl);
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl);
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Xalqaro standartlar bo'yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobi subyekti moliyaviy hisobotni tuzishda mustaqil balansga ajratilgan o'z vakolatxonalarining, filiallarining va boshqa tarkibiy bo'linmalarining buxgalteriya balanslarini hamda boshqa hisobot shakllarini kiritishi kerak.

Moliyaviy hisobot hisobot yili boshidan ortib boruvchi yakun bilan tuziladi.

Moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy hisobot shakllari amalda qo'llaniladi.

Moliyaviy hisobotlarni o'qish moliyaviy hisobot shakllarini manzil qismini, ya'ni korxonalar, tashkilotning to'liq nomi (KTUT), korxonalar, tashkilot tarmog'i (XXTUT), tashkiliy-huquqiy shakli (THShT), mulkchilik shakli (MShT), buyisunuvchi vazirlik, idora va boshqa organ nomi (DBIBT), soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR), hududi (MHOBT) va yuridik manzilini o'rganishdan

boshlanadi.

Shundan so'ng, moliyaviy hisobot shakllari va ularda aks ettirilgan ko'rsatkichlar o'rganiladi. Jumladan, buxgalteriya balansini (1-shakl) o'qish birinchi navbatda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- buxgalteriya balansi to'g'ri tuzilganligini o'rganish;
- balans bo'limlarining to'g'ri shakllantirilganligi va ular o'rtasidagi nisbatni o'rganish;
- balansning har bir moddasida berilgan ko'rsatkichlarni to'g'ri aks ettirilganligini o'rganish;
- balansdagi ko'rsatkichlarning moliyaviy hisobotning boshqa shakllaridagi ko'rsatkichlar bilan o'zaro muvofiqligini o'rganish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha buxgalteriya balansini o'qish moliyaviy tahlilni o'tkazuvchida xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari to'g'ri va aniq shakllantirilganligi to'g'risida xulosa qilishga yordam beradi. Shuningdek, xo'jalik mablag'lari va mablag'lar manbalarining joylashuvi, mol-mulkining o'ziga va qarzga olingan qismlarga bo'linishi hamda ularning nisbati o'rganilishi moliyaviy barqaror yoki moliyaviy qaram xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida baholash imkonini beradi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl) ko'rsatkichlari o'rganilayotganda dastlab, moliyaviy natijalarning to'g'ri shakllantirilganligi tekshiriladi. Shundan so'ng, xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo'yicha qilingan xarajatlari va daromadlari tarkibi o'rganiladi. Bunda amalga oshirilgan har bir xarajat xarajatlarni guruhiga to'g'ri olib borilganligi va olingan daromadlar faoliyat turlari bo'yicha to'g'ri tan olinganligi hamda yakuniy moliyaviy natija ko'rsatkichini buxgalteriya balansi (1-shakl)da to'g'ri aks ettirilganligi, ya'ni ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqligi o'rganilgan holda baho beriladi.

Pul oqimlari haqidagi hisobotda (4-shakl) xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar pul mablag'lari nuqtai-nazaridan aks

ettiriladi. Mazkur hisobotda pul oqimlari asosan to'rtta jarayon bo'yicha sodir bo'ladi:

- operasion faoliyatida pul mablag'larining sof kirimi va chiqimi;
- investisiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi va chiqimi;
- moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larining sof kirimi va chiqimi;
- soliqqa tortish (to'langan soliqlar).

Ushbu hisobotda aks ettirilgan ko'rsatkichlarning to'g'riligini baholashda birinchi navbatda unda aks ettirilgan yil boshidagi pul mablag'lari qoldig'i va yil oxiridagi pul mablag'lari qoldig'i buxgalteriya balansining 270-satrida aks ettirilgan pul mablag'lari summasiga muvofiqligi o'rganiladi. Keyin esa, yil boshidagi pul mablag'lari qoldig'iga faoliyat turlari bo'yicha kirim qilingan mablag'larni qo'shish va chiqim qilingan pul mablag'larni ayirish orqali yil oxiriga pul mablag'larining qoldig'i to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi. Shuningdek, pul mablag'lari kirimi bo'yicha manbalarning, chiqimi bo'yicha pul mablag'lari harakatlarining tarkibi ham o'rganilgan holda pul mablag'larining kirimi va chiqimi faoliyat turlari bo'yicha to'g'ri aks ettirilganligiga baho beriladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda (5-shakl) aks ettirilgan yil boshidagi qoldiq (010-satr) va yil oxiridagi qoldiq (110-satr) summalari buxgalteriya balansida aks ettirilgan ko'rsatkichlar bilan mosligini o'rganishdan boshlanadi. Shundan so'ng, yil boshidagi qoldiqdan kelib chiqqan holda yil oxiridagi qoldiq summasi to'g'ri shakllantirilganligi tekshiriladi. Bunda yil boshidagi qoldiq summasi qaysi manbalar hisobiga o'zgarganligiga o'rganiladi.

Umuman olganda, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini o'qiy olishi va ularning moddalarini tushunishi hamda o'rganish natijalaridan kelib chiqqan holda tegishli xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi lozim.

5.4.2. Gorizontal va vertikal tahlil

Bugungi kunda iqtisodiyotning rivojlanishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Chunki, har bir tadbirkorlik subyektining asosiy maqsadi o'z mulkini ko'paytirish va ko'proq foyda olishdan iborat. Buning uchun xo'jalik subyektini to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishi, tadbirkorlik, izchillik, oldindan ko'ra bilishi va oqilona ish yuritishi lozim. Bu esa, o'z navbatida tadbirkorlik subyektlarini mulki, kapitali, majburiyatlarining umumiy va tarkibiy o'zgarishlarini tahlil qilib o'rgangan holda xolisona baho berishni talab etadi. Mazkur vazifalar moliyaviy tahlilda gorizontal va vertikal yo'nalishlarda tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bunday tahlilda moliyaviy hisobotning «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlil qilish I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov, B.I.Isroilov, E.A.Akramov, A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov va M.Yu.Raximovlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida o'rganilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlar gorizontal va vertikal tahlilni iqtisodiy tahlilning asosiy shakllari sifatida ko'rsatgan holda quyidagicha:

“Gorizontal tahlil – hisobot davrini o'tgan davr ko'rsatkichlari bilan solishtirish”³¹ tahlilidir hamda “Vertikal tahlil – tarkibiy tahlil. Tahlil qilinayotgan obyektning barcha qismlari bo'yicha o'rganiladi”³² deb ta'kidlab o'tganlar.

Iqtisodchi olim E.A.Akramov fikricha “Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganlik nuqtai nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontal tahlilda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;

- vertikal tahlilda moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning

³¹ Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil: O'quv qo'llanma. –T, 2017. 37 b.

³² Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil: O'quv qo'llanma. –T, 2017. 37 b.

tarkibiy-tuzilmasi o'rganiladi. Masalan, korxonalarining mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarining hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi"³³.

Ushbu iqtisodchi olimning fikrining iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlar tomonidan bildirilgan fikrdan farqli jihatini taqqoslash bazasi bo'yicha ko'rish mumkin. M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlar hisobot davri ko'rsatkichlarini o'tgan davr ko'rsatkichlari bilan taqqoslasa, E.A.Akramov tomonidan uning dinamik yoki bazis davriga nisbatan o'zgarishlarini taqqoslashga e'tibor qaratilgan. Fikrimizcha, dinamik tahlil gorizontaldan alohida farqlanadi. Bu farqlanish M.Q.Pardaev, J.I.Isroilov va B.I.Isroilovlar tomonidan ham alohida tarkiblantirilgan, biroq ularni o'tkazish tartibi amaliy misollar yordamida to'liq ochib berilmagan.

Iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulov³⁴lar gorizontaldan va vertikal tahlil yuzasidan E.A.Akramov tomonidan bildirilgan fikrni to'liq takrorlaydi.

Buxgalteriya balansining gorizontaldan va vertikal tahlili bo'yicha iqtisodchi olim M.Yu.Raximov tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni alohida e'tirof etish mumkin. Uning fikriga ko'ra "Moliyaviy hisobotni gorizontaldan tahlili deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutloq va nisbiy ifodalarda, hisobot davri boshiga yoki o'tgan yilga nisbatan qiyosiy o'rganishga aytiladi.

Vertikal tahlil deganda – moliyaviy hisobot elementlari va moddalarini mutloq va nisbiy ifodalarda tarkibiy o'rganishga aytiladi"³⁵.

Ushbu iqtisodchi olim o'z fikrini amaliy misollar yordamida asoslashga harakat qilgan, biroq gorizontaldan va vertikal tahlil turlarini bir-biridan ajratmagan holda ko'rsatilishi natijasida ular o'rtasidagi farq sezilmaydi. Bu esa, o'quvchida gorizontaldan va vertikal tahlilni farqlay olmaslik, ular faqat gorizontaldan (yonlamasiga) va vertikal (bo'ylamasiga) tahlil qilish demakdir degan tushunchaning hosil

³³ Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. – T., 2007. 16 b.

³⁴ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. –T.: "Sharq", 2005. - 195 b.

³⁵ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: "Iqtisod - moliya", 2013. -122 b.

bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Fikrimizcha, buxgalteriya balansini gorizontal tahlil qilish – bu buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarining o'rganilayotgan davrda o'sish (pasayish) sur'atlarini baholashdan iborat. Gorizontal tahlil uchun mutloq ko'rsatkichlar nisbiy ko'rsatkichlarga aylantiriladi. Buning uchun balans aktiv va passivining har bir moddasi hisobot davri boshiga 100 % deb olinadi, shundan kelib chiqqan holda har bir moddani hisobot davri oxiriga o'zgarishi hisoblab chiqariladi.

Vertikal tahlilning imkoniyati esa buxgalteriya balansining tarkibiy elementlari orqali tahlil qilishni ta'minlashdan iborat. Ya'ni, vertikal tahlil natijalarini o'rganish balans har bir moddasining umumiy summadagi ulushini bilish, mablag'lar va ular manbalarining tuzilmasini hamda ularda sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib, buxgalteriya balansining vertikal tahlili balans aktivi va passivining u yoki bu guruhlarining umumiy summadagi ulushlarini aniqlashdan iborat ekan.

Shu o'rinda buxgalteriya balansini gorizontal va vertikal tahlili qanday o'tkazilishiga amaliy ma'lumotlar asosida to'xtalib o'tmoqchimiz. Birinchi navbatda buxgalteriya balansining gorizontal tahlilini keltirib o'tamiz (5.11-jadval).

5.11-jadval ma'lumotlariga ko'ra, balans umumiy summasi yil boshiga (132870839 ming so'm) nisbatan yil oxirida (196149323 ming so'm) 147,6 foizga ko'paygan.

Balans aktiv moddalari tarkibida uzoq muddatli aktivlar yil boshiga nisbatan 81 foizga ko'paygan. Bunga yil boshiga nisbatan uzoq muddatli investisiyalarning 765 foizga oshishi ta'sir ko'rsatgan. Joriy aktivlar esa yil boshiga nisbatan 29,5 foizga ko'paygan. Bunday natija yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zaxiralarning 196 foizga, debitor qarzlarning 363,5 foizga va pul mablag'larining 765,3 foizga oshishi hisobiga yuzaga kelgan.

Buxgalteriya balansini gorizontal tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Yil boshiga		Yil oxiriga	
	Summa, ming so'm	Foiz, %	Summa, ming so'm	Foiz, %
A K T I V				
I. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR				
Asosiy vositalar	39606443	100	30970415	78
Uzoq muddatli investisiyalar	6985319	100	53447883	765
I bo'lim jami	46591762	100	84418298	181
II. JORIY AKTIVLAR				
Tovar-moddiy zaxiralar	13320349	100	26121772	196
Kelgusi davr xarajatlari	14286020	100	14287413	100,01
Kechiktirilgan xarajatlar	0	0	28997033	100
Debitor qarzlari	11022301	100	40072145	363,5
Pul mablag'lari	258037	100	1974662	765,3
Qisqa muddatli investisiyalar	47392370	100	278000	0,6
II bo'lim jami	86279077	100	111731025	129,5
BALANS AKTIVI JAMI	132870839	100	196149323	147,6
P A S S I V				
I. O'Z MABLAG'LARI MANBALARI				
Ustav kapitali	800000	100	800000	-
Rezerv kapitali	22520077	100	22504162	99,9
Taqsimlanmagan foyda	74012372	100	79016717	106,8
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	5884739	100	5884739	-
I bo'lim jami	103217188	100	108205618	104,8
II. MAJBURIYATLAR				
2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar	16505708	100	31413006	190,3
2.2. Joriy majburiyatlar, jami	13147943	100	56530699	430
Mol yetkazib beruvchilar qarzi	7430870	100	90701	1,2
Olingan bo'naklar	2457750	100	23634548	962
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz	563278	100	993138	176,3
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	17368	100	36718	211,4
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz	155636	100	131115	84,2
Qisqa muddatli bank kreditlari	1666666	100	30000000	1800
Boshqa kreditorlik qarzlari	856375	100	1644479	192
II bo'lim jami	29653651	100	87943705	296,6
BALANS PASSIVI JAMI	132870839	100	196149323	147,6

Balans passivida esa, yil boshiga nisbatan deyarli barcha moddalarida o'sish kuzatilgan. Faqat yil boshiga nisbatan mol yetkazib beruvchi va pudratchilardan bo'lgan qarzdorlik 1,2 foizga hamda mehnat haqi bo'yicha qarzdorlik 84,2 foizga kamaygan. Albatta, balans passivining, ayniqsa majburiyatlarning yil boshiga nisbatan ko'payishini ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Shu bois, xo'jalik

yurituvchi subyekt rahbariyati majburiyatlarni to'lov imtizomiga rioya qilgan holda qisqartirish choralari ko'rishi lozim.

Endi moliyaviy tahlilda buxgalteriya balansini vertikal tahlil qilish qanday tartibda o'tkazilishini amaliy ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tamiz. Ya'ni buxgalteriya balansini aktiv va passiv tomonlarini tarkibiy jihatdan quyidagicha tarkiblash va vertikal tahlilni o'tkazish mumkin (5.12-jadval).

5.12-jadval

Buxgalteriya balansini vertikal tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Yil boshiga		Yil oxiriga	
	Summa, ming so'm	Foiz, %	Summa, ming so'm	Foiz, %
A K T I V				
I. UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR				
Asosiy vositalar	39606443	30	30970415	16
Uzoq muddatli investisiyalar	6985319	5	53447883	27
I bo'lim jami	46591762	35	84418298	43
II. JORIY AKTIVLAR				
Tovar-moddiy zaxiralar	13320349	10	26121772	13,4
Kelgusi davr xarajatlari	14286020	11	14287413	7
Kechiktirilgan xarajatlar	0	0	28997033	15,3
Debitor qarzlari	11022301	8	40072145	20,2
Pul mablag'lari	258037	0,2	1974662	1
Qisqa muddatli investisiyalar	47392370	35,8	278000	0,1
II bo'lim jami	86279077	65	111731025	57
BALANS AKTIVI JAMI	132870839	100	196149323	100
P A S S I V				
I. O'Z MABLAG'LARI MANBALARI				
Ustav kapitali	800000	0,6	800000	0,6
Rezerv kapitali	22520077	17	22504162	11,4
Taqsimlanmagan foyda	74012372	56	79016717	40
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar	5884739	4,4	5884739	3
I bo'lim jami	103217188	78	108205618	55
II. MAJBURIYATLAR				
2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar, jami	16505708	12	31413006	16
2.2. Joriy majburiyatlar, jami	13147943	10	56530699	29
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	7430870	5,6	90701	0,05
Olingan bo'naklar	2457750	1,89	23634548	12,11
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz	563278	0,4	993138	0,51
Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	17368	0,01	36718	0,02
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz	155636	0,12	131115	0,07
Qisqa muddatli bank kreditlari	1666666	1,28	30000000	15,4
Boshqa kreditorlik qarzlari	856375	0,7	1644479	0,84
II bo'lim jami	29653651	22	87943705	45
BALANS PASSIVI JAMI	132870839	100	196149323	100

5.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, balans umumiy summasi hisobot yili boshiga 132870839 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich yil oxirida 196149323 so'mga teng bo'lgan.

Hisobot davri boshiga aktivlar tarkibida uzoq muddatli aktivlar 46591762 ming so'mni yoki 35 foizni tashkil qilgan. Hisobot davri oxirida esa 84418298 ming so'mni yoki 43 foizga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, yil boshiga nisbatan yil oxirida uzoq muddatli aktivlar 8 foizga ko'paygan.

Bunday o'zgarish uzoq muddatli investisiyalarning yil boshiga nisbatan ko'payishi hisobiga yuzaga kelgan. Bu holatni ijobiy baholagan holda joriy aktivlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u hisobot davri boshiga 86279077 ming so'mni yoki 65 foizni tashkil qiladi.

Bu ko'rsatkich yil oxirida 111731025 ming so'mni yoki 57 foizga teng bo'lgan. Bu esa, joriy aktivlar ulushining yil boshiga nisbatan 8 foizga kamayganligini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishga qisqa muddatli investisiyalarning yil boshiga nisbatan 35,7 foizga kamayishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Balans passiviga e'tibor qaratadigan bo'lsak, umumiy manbalar tarkibida o'z mablag'lari manbalari yil boshida 78 foiz bo'lgan bo'lsa, yil oxirida 55 foizni tashkil etmoqda. Bundan farqli ravishda, majburiyatlar yil boshiga (22 foiz) nisbatan yil oxirida (45 foiz) 23 foizga oshgan. Bunday o'zgarishga qisqa muddatli majburiyatlarning yil boshiga nisbatan 29 foizga ko'payishi katta ta'sir ko'rsatgan.

Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati balans aktivda joriy aktivlarni ulushini oshirish, passivda esa majburiyatlar ulushini kamaytirish choralarini ko'rishi lozim. Chunki, joriy aktivlar ulushining oshishi subyektning moliyaviy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Majburiyatlar ulushini kamaytirishiga albatta to'lov intizomiga rioya qilgan holda muddati kelgan majburiyatlarni to'lash orqali erishiladi. Bu esa, moliyaviy jarima va penyalarning ortishini va ularning qo'shimcha to'lanishini oldini oladi.

Umumlashgan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlari va ularning manbalari tuzulmasidagi sifat o'zgarishlari hamda

ularning dinamikasi to'g'risida umumiy tasavvurga, xulosa shakllantirish va qaror qabul qilishga buxgalteriya balansini gorizontaal va vertikal tahlil qilish yordamida erishiladi.

Shu bilan birga, gorizontaal va vertikal tahlil usullarini moliyaviy tahlilda moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari va xususiy kapital tahlilida ham qo'llash mumkin.

5.4.3. Trend tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini tahlil qilib o'rganishda qo'llaniladigan moliyaviy tahlil usullaridan yana biri trend tahlili usulidir.

Trend tahlili usulini tahlilda qo'llanilishi E.A.Akramov, M.M.Tulaxodjaeva, A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov va M.Yu.Raximovlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida bayon qilingan. Jumladan, iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulovlar trend tahlili korxonalar moliyaviy natijalarini tahlil qilib o'rganishning bir usuli sifatida ko'rsatgan holda quyidagicha: "Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar bo'yicha o'zgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi"³⁶ deb ta'kidlab o'tganlar. Biroq, trendli tahlil usulining moliyaviy natijalar tahlilida qo'llanilish tartibi ko'rsatib berilmagan. Shu bilan birga, trend tahlili faqat moliyaviy natijalar tahlilida emas balki, moliyaviy tahlilning boshqa obyektlari tahlilida ham qo'llanilishi mumkin.

Iqtisodchi olim M.M.Tulaxodjaevaning ta'riflashicha "trend tahlili – korxonalar moliyaviy holatini ifodalovchi alohida ko'rsatkichlarning o'zgarish yo'nalishlari tahlili"³⁷. Ushbu ta'rifda trend tahlili yordamida o'rganilayotgan ko'rsatkichni o'zgarish dinamikasi davriyligi bayon qilinmagan.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov esa "trend tahlili – asos ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir"³⁸ deb ta'riflaydi. "Ushbu usul yordamida

³⁶Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. –T.: "Sharq", 2005. - 241 b.

³⁷Akramov E.A. Korxonalar moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. – T., 2007.24 b.

³⁸Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: "Iqtisod - moliya", 2013. -40 b.

yaqin va uzoq davriylikdagi o'zgarishlarga mutloq va nisbiy ifodalarda baho beriladi. Trend tahlilidan ko'pincha aktivlar o'zgarishini baholashda, foyda va uning oshishini baholashda, investisiyalar hajmini baholashda foydalaniladi"³⁹ degan holda tushuntirish berib o'tgan. Shuningdek, trend tahlili usulini qo'llash tartibining uslubiy jihatlarini bayon qilib o'tgan. Biroq, aniq bir xo'jalik yurituvchi subyekt ma'lumotlari asosida mazkur usulni qo'llagan holda tahlil qilib ko'rsatib o'tilmagan.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikrlarini e'tiborga loyiqqligini ta'kidlagan holda, trend tahlilini quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi: "Trend tahlili bu iqtisodiy ko'rsatkichlarni bazis va o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini dinamik o'rganish usulidir". Shu bois, ushbu usul yordamida tahlil qilib o'rganilayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning ma'lum davrlardagi (3 yil, 5 yil, 10-yil) o'zgarishlariga mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali baho beriladi.

Ushbu ta'rifning ahamiyatini va amalda qanday qo'llanilish tartibini moliyaviy hisob va hisobot ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan quyidagi 5.13-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

5.13-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, xo'jalik yurituvchi subyektda 2017 yilda aktivlari summasi 68699697 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'tgan 2016-yilda 74208167 ming so'mga teng bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Demak, subyekt aktivlari 2016 yilga nisbatan 5508470 ming so'mga yoki 8 % ga kamaygan.

5.13-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlarini trend tahlili

Ko'rsatkich	Yillar	Summa, ming so'm	O'zgarishi (+;-)			
			O'tgan yilga nisbatan		Bazis davriga nisbatan	
			Summa	%	Summa	%
Aktivlar	2010	28875016	x	x	x	x
	2011	39828229	10953213	138	10953213	138
	2012	56606446	16778217	142	27731430	196
	2013	77070687	20464241	136	48195671	267
	2014	78516062	1445375	102	49641046	272
	2015	71032683	-7483379	90	42157667	246
	2016	74208167	3175484	104	45333151	257
	2017	68699697	-5508470	92	39824681	238

³⁹Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: "Iqtisod - moliya", 2013. - 47 b.

Albatta, aktivlarning bunday kamayishi qaysi aktivlar hisobiga yuzaga kelganligi o'rganiladi va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Biroq, xo'jalik subyektining bazis davri hisoblangan 2010-yilga nisbatan aktivlari summasi 2017 yilda 39824681 ming so'mga yoki 238 % ga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, 2017 yilda 2016 yilga nisbatan aktivlar summasida kamayish kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bazis davriga nisbatan o'sish darajasiga ega bo'lgan. O'rganilgan qolgan davrlarda ham aktivlar summasini o'tgan yilga va bazis davriga nisbatan o'zgarishlariga baho berishimiz mumkin bo'ladi (5.3- rasm).



5.3-rasm. Xo'jalik yurituvchi subyekt aktivlarining o'zgarish tendensiyasi.

Xulosa qilib aytganda, trend tahlili usuli yordamida xo'jalik subyekt aktivlari qiymatining o'rganilayotgan yillar davomida va bazis yilga nisbatan o'zgarish tendensiyasi to'g'risida ma'lumot berib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun aniq xulosalar shakllanishini ta'minlaydi. Bu esa, moliyaviy imkoniyatlarga to'la baho berish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

5.4.4. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili – bu moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko‘rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir. Amalda aniqlangan moliyaviy koeffitsiyentlar nisbiy ko‘rsatkichlarda ifoda etiladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili ham iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida bayon qilingan. Jumladan, iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulovlar⁴⁰ moliyaviy koeffitsiyentlar tahlilida quyidagi beshta ko‘rsatkichni tahlil qilib o‘rganishni va ularni buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida aniqlash tartibini keltirib o‘tishgan:

- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- qarz va o‘z mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat koeffitsiyenti;
- zaxira va xarajatlarni o‘z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti;
- mablag‘larni chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti.

Mazkur iqtisodchi olimlardan farqli ravishda T.Qudratov va N.Fayzievalar tomonidan quyidagicha bayon qilingan: “Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda mutlaq ko‘rsatkichlarga qaraganda nisbiy ko‘rsatkichlar keng qo‘llaniladi. Nisbiy ko‘rsatkichlar amaliyotda moliyaviy koeffitsiyentlar deb ataladi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblashda mutloq ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishda quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlar ko‘proq ishlatiladi.

1. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti
2. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti
3. To‘lovga qodirlik koeffitsiyenti
4. O‘z va qarz mablag‘larining o‘zaro nisbati koeffitsiyenti
5. O‘z aylanma mablag‘lari bilan ta’minlanish koeffitsiyenti
6. Moddiy aylanma mablag‘lar hissasi koeffitsiyenti
7. Jami aylanma mablag‘larning jami mulk qiymatidagi hissasi

⁴⁰ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. –T.: “Sharq”, 2005. - 221 b.

koeffitsiyenti.”⁴¹

Yuqoridagi ikki guruh iqtisodchi olimlar tomonidan ham moliyaviy tahlilda o‘rganiladigan moliyaviy ko‘rsatkichlari sifatida aynan shu ko‘rsatkichlardan foydalanish lozimligi va ular qo‘llashning mantiqiy ketma-ketligi ko‘rsatib berilmagan.

Iqtisodchi olim M.Yu.Raximov “Korxonalar faoliyatiga baho berishda mutlaq ifodalar moliyaviy holatning barcha qirralarini ochib bera olmaydi. Shu sababli ko‘p hollarda nisbiy ifodalardan ham foydalaniladi.

Nisbiy ifodalar fanda moliyaviy ko‘rsatkichlar deb nomlanib ularning har biri korxonalar moliyaviy holatining muhim jihatlari o‘zida ifoda etishi bilan farqlanadi”⁴² deb izohlagan holda “Moliyaviy ko‘rsatkichlarning, odatda tarkibiy va muvofiqlashtiruvchi turlari xarakterlanadi. Tarkibiy moliyaviy ko‘rsatkichlar bir xil asosli jamlangan qatorlarda birlik qatorlarning salmog‘ini harakterlasa, muvofiqlashtiruvchi ko‘rsatkichlar esa har xil asosli ko‘rsatkichlarni o‘zaro nisbatlash orqali hisoblanadi”⁴³ deya ta’kidlab o‘tgan.


Ushbu iqtisodchi olim tomonidan bayon qilingan fikrlarning e’tiborga loyiqligini ta’kidlagan holda shuni aytish mumkin-ki, iqtisodchi olim moliyaviy ko‘rsatkichlarni ikki guruhga ajralishi va nima sababdan bunday nomlanishi va qanday aniqlanish tartibiga to‘xtalgan holda to‘liq tushuntirish berib o‘tgan. Biroq, fikrimizcha ikkinchi guruh moliyaviy ko‘rsatkichlarini muvofiqlashtiruvchi ko‘rsatkichlari deb emas, balki nisbat ko‘rsatkichlari deb nomlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, iqtisodchi olim tomonidan ham o‘zaro nisbatlash orqali hisoblanadi deb ta’kidlanmoqda.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlilida ko‘rsatkichlar ikki guruhga bo‘lingan holda tasniflanadi (5.4-rasm).

⁴¹ Qudratov T, Fayzieva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik. – T.: “Voris-nashriyot”, 2012. – 134 b.

⁴² Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: “Iqtisod - moliya”, 2013. - 50 b.

⁴³ Shu yerda



5.4-rasm. Moliyaviy koeffitsiyentlar tasnifi

Birinchi guruh tarkibiy koeffitsiyentlar deb nomlab, ular bir xil asosli jamlangan qatorlarda birlik qatorlarning salmog'ini tavsiflaydi. Tarkibiy koeffitsiyentlarga balans jami aktivi tarkibida uzoq muddatli va joriy aktivlarning salmog'i, joriy aktivlar tarkibida likvid aktivlar (tovar moddiy zaxiralar, debitorlik majburiyatlari va pul mablag'lari)ning salmog'i, balans jami passivi tarkibida o'z va qarz mablag'lari salmog'i, majburiyatlar tarkibida uzoq va qisqa muddatli majburiyatlar salmog'i va boshqa koeffitsiyentlar kiradi.

Ikkinchi guruhi esa nisbat koeffitsiyentlari bo'lib, ular har xil asosli ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatlash orqali hisob-kitob qilingan holda aniqlanadi. Nisbat koeffitsiyentlariga moliyaviy mustaqillik, qaramlik, barqarorlik, to'lov qobiliyati, rentabellik ko'rsatkichlari va boshqa koeffitsiyentlar kiradi.

Moliyaviy tahlilda moliyaviy koeffitsiyentlar tahlilini yuqoridagi kabi tasniflagan holda tahlil qilib o'rganish xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga xolisona baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moliyaviy tahlil metodi va uning usullari qanday turkumlanadi?
2. Tahlilda qo'llaniladigan usullar qanday tasniflab o'rganiladi?
3. Moliyaviy tahlilning qanday maxsus usullari bor?
4. Oddiy-an'anaviy usullar guruhiga qanday usullar kiradi?
5. Iqtisodiy-matematik usullarga qisqacha izoh bering?
6. Zanjirli bog'lanish usulining mohiyatini tushuntirib bering?
7. Ko'rsatkichlar farqi usulining o'ziga xos xususiyatini aytib bering?
8. Integral usul qanday afzalliklarga ega?
9. Moliyaviy hisobotni o'qish deganda nimani tushunasiz?
10. Gorizontal va vertikal tahlil qanday amalga oshirilishini tushuntiring?

NAZORAT TESTLARI

1. Moliyaviy tahlil fanining metodiga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating?

- A) Moliyaviy tahlil fanining metodi - bu uning predmetini makon va zamonda, axborot manbalarida ifodalangan ko'rsatkichlar asosida tizimli, kompleks tarzda o'rganish, obyektning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilish maqsadida qo'llaniladigan usullar majmuidir.
- B) Moliyaviy tahlil fanining metodi - bu moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratilgan usullar majmuidir.
- C) Moliyaviy tahlil fanining metodi - bu axborot manbalarida ifodalangan ko'rsatkichlar asosida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularni xo'jalik faoliyatiga jalb qilish maqsadida qo'llaniladigan usullar majmuidir.
- D) Moliyaviy tahlil fanining metodi - bu xo'jalik jarayonlarining holati va rivojlanishini dialektika uslubiga asosan o'rganadi. Bunga xo'jalikning ichki imkoniyatlarini topish va ish jarayoni samaradorligini oshirish yo'llarini

belgilash maqsadida ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy qonunlar tarkibiy qismlarini alohida-alohida ko‘rib chiqish orqali erishiladi.

2. Tahlilda qo‘llaniladigan usullar qanday tasniflangan holda o‘rganiladi?

- A) Omilli tahlil, joriy tahlil va tashqi moliyaviy tahlil usullariga ajratgan holda o‘rganiladi
- B) Oddiy an’anaviy va iqtisodiy matematik usullarga ajratgan holda o‘rganiladi
- C) Ichki moliyaviy tahlil va tashqi moliyaviy tahlil usullariga ajratgan holda o‘rganiladi
- D) Omilli tahlil, oddiy an’anaviy va iqtisodiy matematik usullarga ajratgan holda o‘rganiladi

3. Moliyaviy tahlil usullari berilgan to‘g‘ri javobni ko‘rsating?

- A) Taqqoslash, guruhlashtirish, zanjirli bog‘lanish, ko‘rsatkichlar farqi, qayta hisoblash va balansli bog‘lanish usullari
- B) Indeks, integral, matrisalar, logarifmlar, determinatlar va chiziqli programmalashtirish usullari
- C) Moliyaviy hisobotni o‘qish, gorizantal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlili, qiyosiy (taqqoslama) tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar va omilli tahlil usullari
- D) Mutloq va nisbiy farqlar, korrelasion tahlil, dinamik qatorlar, omilli tahlil, oddiy an’anaviy va iqtisodiy matematik usullar

4. Oddiy an’anaviy usullar guruhiga kiruvchi usullar berilgan to‘g‘ri javobni ko‘rsating?

- A) Moliyaviy hisobotni o‘qish, gorizantal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlili, qiyosiy (taqqoslama) tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar va omilli tahlil usullari
- B) Mutloq va nisbiy farqlar, korrelasion tahlil, dinamik qatorlar, omilli tahlil, oddiy an’anaviy va iqtisodiy matematik usullar
- C) Indeks, integral, matrisalar, logarifmlar, determinatlar va chiziqli programmalashtirish usullari
- D) Taqqoslash, guruhlashtirish, zanjirli bog‘lanish, ko‘rsatkichlar farqi, qayta hisoblash va balansli bog‘lanish usullari

5. Iqtisodiy-matematik usullar guruhiga kiruvchi usullar berilgan to'g'ri javobni ko'rsating?

- A) Taqqoslash usuli, guruhlashtirish usuli, balansli bog'lanish usuli, zanjirli bog'lanish usuli, ko'rsatkichlar farqi usuli, qayta hisoblash usuli va indeks usullari
- B) Moliyaviy hisobotni o'qish, gorizantal tahlil, vertikal tahlil, trend tahlili, qiyosiy (taqqoslama) tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar va omilli tahlil usullari
- C) Mutloq va nisbiy farqlar, korrelyasion tahlil, dinamik qatorlar, omilli tahlil, oddiy an'anaviy va iqtisodiy matematik usullar
- D) Integral, korrelyasion va regrasion tahlil, logorifmlar, determinantlar, matrisalar va chiziqli programmalashtirish usullari

6. Qaysi javobda moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan gorizantal tahlil usuliga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mutloq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir
- B) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tarkibiy o'rganish usulidir
- C) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini bazis (asoC) ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir
- D) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko'rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir

7. Qaysi javobda moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan vertikal tahlil usuliga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko'rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir
- B) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tarkibiy o'rganish usulidir
- C) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mutloq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir
- D) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini bazis (asoC) ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir

8. Qaysi javobda moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan trend tahlili usuliga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mutloq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir
- B) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tarkibiy o'rganish usulidir
- C) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko'rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir
- D) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini bazis (asoC) ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir

9. Qaysi javobda moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsiyentlar usuliga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini bazis (asoC) ko'rsatkichiga nisbatan dinamik o'rganish usulidir
- B) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlaridan foydalanib, moliyaviy koeffitsiyent ko'rsatkichlarini aniqlash asosida baholash usulidir
- C) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tarkibiy o'rganish usulidir
- D) Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini mutloq va nisbiy farqlash orqali o'zgarishlarini aniqlash usulidir

II BO‘LIM. MOLIYAVIY TAHLIL

VI BOB. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI TAHLILI

6.1. Korxonada moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlil maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash korxonalar moliyaviy holati tahlilining ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, korxonada moliyaviy faoliyatini tahlil qilish orqali moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga jalb etilmagan resurslarni o‘z vaqtida aniqlab, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Korxonada moliyaviy holati bu keng ko‘rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib, korxonalarining moliyaviy resurslari mavjudligi, holati, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini, ishlab chiqarish va xo‘jalik omillarining harakati, ularning o‘zaro aloqadorlik natijasini, xo‘jalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlanganligi va ulardan samarali foydalanishni hamda boshqa xo‘jalik subyektlari bilan o‘zaro aloqalarini ifodalaydi.

Korxonada moliyaviy holati tahlilining maqsadi bo‘lib, korxonada moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, mablag‘lari va ularning manbalarini joylashishi, o‘zaro hisob-kitoblarning o‘z muddatida bajarilishi va moliyaviy intizomga qanchalik amal qilinganligini aniqlab, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlash hamda moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda korxonada moliyaviy holati tahlilining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, uning holatiga

aniq va xolisona baho berish;

- mablag' va manbalarning joylashishini tekshirish, ularni to'g'ri yo'nalishda ishlatilganligini aniqlash;

- hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibini o'rganish;

- korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat va aylanma mablag'larni o'z mablag'lari manbalari bilan ta'minlanganligini o'rganish;

- moliyaviy intizomga amal qilishini aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;

- korxonaning mol-mulk va mablag'lar harakatchanlik darajasini o'rganish;

- aylanma mablag'lardan samarali foydalanish holatiga baho berish va korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur vazifalarning bajarilishi korxonada moliyaviy holatini har tomonlama o'rgangan holda uning holatiga aniq va xolisona baho berish imkonini beradi.


Korxonaning moliyaviy holati tahlilini asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- buxgalteriya balansi (1-shakl);
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl);
- pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl);
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl);
- buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schetlari ma'lumotlari.

6.2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi tahlili

Moliyaviy tahlilda korxonada moliyaviy holatini tahlil qilib o'rganishda asosiy axborot manbai bu buxgalteriya balansi hisoblanadi. Buxgalteriya balansi korxonada mulki, kapitali va majburiyatlari hajmini qiymat ifodasida ma'lum sanaga aks ettirib beruvchi moliyaviy hisobot shaklidir.

Bugungi kunda amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning zamonaviy ish yuritish sharoitlariga mos keluvchi buxgalteriya balansi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan (1-ilova). U ikki qismdan iborat bo‘lib, uning aktiv qismida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passiv qismida esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlar aks ettiriladi (6.1-rasm).



6.1-rasm. Buxgalteriya balansini tuzilishi

Buxgalteriya balansi aktiv va passiv jami summalari o‘zaro teng bo‘ladi.

Buxgalteriya balansining aktiv qismi ikki bo‘limdan iborat:

- balansning birinchi bo‘limi **“Uzoq muddatli aktivlar”** deb nomlanib, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar boshlang‘ich, amortizasiya va qoldiq qiymatda, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar, uzoq muddatli investisiyalar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar, kapital quyilmalar hamda uzoq muddatli debitorlik qarzlari va boshqa uzoq muddatli aktivlardan iboratdir.

- balans aktivining ikkinchi bo‘limi **“Joriy aktivlar”** deb nomlanib, tovar-moddiy zaxiralar (tovar-moddiy qiymatliklar, tugallanmagan ishlab chiqarish, ishlab chiqarishdagi yaroqsizliklar), kelgusi davr xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlar, olinadigan schyotlar (xaridor va buyurtmachilarning qarzi, alohida bo‘linmalarining qarzlari, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga berilgan avanslar, mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan avanslar, byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzlari, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari), pul mablag‘lari (kassadagi pul mablag‘lari, hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari, xorijiy valyutadagi pul

mablag‘lari, boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlar), qisqa muddatli investisiyalar va boshqa joriy aktivlardan iborat.

O‘z navbatida buxgalteriya balansining passiv qismi ham ikki bo‘limdan iborat:

- buxgalteriya balansi passiv qismining birinchi bo‘limi **“O‘z mablag‘lari manbalari”** deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushumlar hamda kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun rezervlar aks ettiriladi.

- buxgalteriya balansi passiv qismining ikkinchi bo‘limi esa **“Majburiyatlar”** deb nomlanib, u uzoq muddatli va joriy majburiyatlarga bo‘lib o‘rganiladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzar va shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi.

Joriy majburiyatlar tarkibiga: mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar, alohida bo‘linmalardan qarzar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan qarzarlar, muddati kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati o‘tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar, muddati o‘tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar, olingan avanslar, byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzarlar, sug‘urtalash bo‘yicha qarzarlar, davlatning maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzarlar, ta‘sischilarga qarzarlar, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzarlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzarlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari kiradi.

Moliyaviy tahlilda birinchi navbatda buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida korxonaning moliyaviy holatiga umumiy baho beriladi. Buning uchun buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismlarining moddalari tarkibi va tarkibiy tuzilishi hamda ularning o‘zgarishi tahlil qilib o‘rganiladi. Ya’ni, moliyaviy tahlilda buxgalteriya balansining aktiv va passiv qismlari moddalari, ulardagi umumiy va tarkibiy o‘zgarishlar har bir qism bo‘yicha alohida o‘rganiladi.

Moliyaviy tahlil usullaridan foydalanilgan holda buxgalteriya balansi aktiv

qismining har bir bo‘limi va moddasi bo‘yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga, passiv qismining ham har bir bo‘limi va moddasi bo‘yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, tarkibi bo‘yicha mutloq va nisbiy o‘zgarishlar aniqlanadi. Shu bilan birga, uning tarkibiy tuzilishi ham tahlil qilib o‘rganiladi. Bunda har bir bo‘lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog‘i aniqlanadi. Shundan so‘ng, yil oxiridagi salmog‘ini yil boshidagi salmog‘iga qiyoslanadi va tarkibiy tuzilishining o‘zgarishi o‘rganiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qoidaga ko‘ra “Sharq” fermer xo‘jaligini buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida aktiv moddalarini tahlil qilib o‘rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (6.1-jadval).

6.1-jadval

«Sharq» fermer xo‘jaligida buxgalteriya balansi aktiv moddalarining tahlili

Mablag‘larning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+, -)		
	summa ming so‘m	sal-mog‘i, %	summa ming so‘m	sal-mog‘i, %	summa ming so‘m	sal-mog‘i, %	Yil boshiga nisbatan o‘sishi %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
1. Uzoq muddatli aktivlar	48485	39	55732	34,5	+7247	-4,5	+15
2. Joriy aktivlar	76433	61	105646	65,5	+29213	+4,5	+38,2
shu jumladan:							
2.1 Tovar-moddiy zaxiralar	26190	21	26584	16,5	+394	-4,5	+1,5
2.2 Pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy investisiyalar	24729	19,7	54377	33,7	+29648	+14	+119,9
2.3 Debitorlar	25514	20,3	24685	15,3	-829	-5	-3,2
Balans aktivining jami	124918	100	161378	100	+36460	-	+29,2

6.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida o‘rganilayotgan davrda jami aktivlari summasi 36460 ming so‘mga yoki 29,2 % ga ko‘paygan. Fermer xo‘jaligining jami aktivlari ko‘payishini ijobiy baholagan holda jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, xo‘jalik aktivlarining ko‘payishi asosan joriy aktivlarning 29213 ming so‘mga ko‘payganligi hisobiga bo‘lgan. Fermer xo‘jaligining uzoq muddatli aktivlari ham 7247 ming so‘mga ortganligini

ham ijobiy baholamoq kerak.

Joriy aktivlar tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zaxiralar 394 ming so'mga yoki 1,5 %ga ko'paygan. Fermer xo'jaligining pul mablag'lari 29648 ming so'mga yoki 119,9 % ga ortganligini va debitorlik qarzlarning 3,2 % ga yoki 829 ming so'mga kamayishini ijobiy baholash mumkin. Chunki, fermer xo'jaligida pul mablag'larining bunday tartibda ortib borishi va debitorlik qarzlarning kamayib borishi xo'jalikning aylanma mablag'lari aylanishini tezlashtiradi, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga olib keladi. Shunday bo'lsada, fermer xo'jaligi rahbariyati mavjud aktivlardan samarali foydalanish choralarini ko'rishi lozim deb hisoblaymiz. Bu albatta, fermer xo'jaligining kelgusida moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Sharq" fermer xo'jaligining buxgalteriya balansi passiv moddalarini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (6.2-jadval).

6.2-jadval

«Sharq» fermer xo'jaligida buxgalteriya balansi passiv moddalarining tahlili

Mablag'lar manbalarining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+, -)		
	summa, ming so'm	sal-mog'i, %	summa, ming so'm	sal-mog'i, %	summa ming so'm	sal-mog'i, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6/2*100
1. O'z mablag'lari manbalari	57466	46	98790	61	+41324	+15	+72
2. Majburiyatlar	67452	54	62588	39	-4864	-15	-7,2
shu jumladan:							
2.1 Uzoq muddatli majburiyatlar	40182	32,2	40182	25	-	-7,2	-
2.2 Joriy majburiyatlar	27270	21,8	22406	14	-4864	-7,8	-7,2
Balans passivining jami	124918	100	161378	100	+36460	-	+29,2

6.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 36460 ming so'mga yoki 29,2 % ga ortgan. Fermer xo'jaligida mol-mulkni tashkil etuvchi

manbalarning bunday tartibda ko'payishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Albatta, mablag'lar manbalari qaysi manbalar hisobidan ko'payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni manbalarning ko'payishi, o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim.

O'z mablag'lari manbalari joriy yil oxiriga yil boshiga nisbatan 41324 ming so'mga yoki 15 % ga ortgan. Bunday natijani xo'jalik uchun ijobiy baholamoq lozim. Chunki, o'z mablag'lar manbalarining ko'payishi xo'jalikning moliyaviy mustaqilligining ortishiga, to'lov qobiliyati yaxshilanishiga va xo'jalikning rivojlanishiga olib keladi. O'z navbatida majburiyatlar joriy yil oxiriga yil boshiga nisbatan 4864 ming so'mga yoki 7,2 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning jami passivlarda tutgan salmog'ini 15 % ga kamaytirgan. Bundan ko'rinadiki, fermer xo'jaligining to'lov likvidligi bir oz ko'tarilgan. Fermer xo'jaligi buxgalteriya balansining passividagi moddalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosiy salmoqni 61 % ni o'z mablag'lari manbalari tashkil etmoqda. Bu fermer xo'jaligining moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, korxonaning moliyaviy holati tahlilida buxgalteriya balansini aktiv va passiv moddalarini tarkibi va tuzilishini tahlil qilib o'rganish, uning moliyaviy holatiga baho berish bilan bir vaqtda mavjud aktivlardan unumli foydalanish, o'z mablag'lari manbalarini ko'paytirish va majburiyatlarni kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi.

6.3. Moliyaviy barqarorlik tahlili

Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhim ko'rsatkichlardan biri bu uning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Shu bois, korxonaning moliyaviy holatini umumiy baholashdan keyingi moliyaviy tahlil bochqichi bo'lib, moliyaviy barqarorlik tahlili bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda korxonaning moliyaviy barqarorligi mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi va ular orqali tahlil qilinib, tegishli xulosalar

chiqariladi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi tahlili haqida soʻz borar ekan, iqtisodchi olim M.Q.Pardaev “Korxonaning moliyaviy barqarorligi deganda uning faoliyatini moliyaviy jihatdan bir maromda uzluksiz taʼminlab turishi tushuniladi. Moliyaviy jihatdan taʼminlanish faqatgina moliyaviy resurslar bilan taʼminlanish emas, balki uning juda koʻp qirralari, tomonlari mavjud. Chunki xoʻjalik faoliyatining uzluksiz sodir boʻlib turishi uchun birgina moliyaviy resurslar yetarli emas. Bu resurslarning taʼminlanishi uchun boshqa moddiy, mehnat kabi bir qancha resurslarning ham yetarli miqdorda boʻlishi lozim. Shu tufayli moliyaviy barqarorlikni baholash uchun koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq”⁴⁴ deb taʼkidlab oʻtganlar. Shu bilan birga, uning taʼkidlashicha moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi koʻrsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan beshta guruhga boʻlish mumkin:


- oʻz mablagʻlari bilan bogʻliq koʻrsatkichlar;
- chetdan jalb qilingan mablagʻlar bilan bogʻliq koʻrsatkichlar;
- harakatdagi mablagʻlar bilan bogʻliq koʻrsatkichlar;
- aylanma mablagʻlar bilan bogʻliq koʻrsatkichlar;
- asosiy vositalardan foydalanish bilan bogʻliq koʻrsatkichlar.

Bizning fikrimizcha ham korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilib oʻrganishda ushbu iqtisodchi olim tomonidan tavsiya qilingan korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi (6.2-rasm).

Yuqoridagi koʻrsatkichlar tizimiga kiruvchi har bir guruh koʻrsatkichlari oʻz navbatida bir qancha koʻrsatkichlarga boʻlinadi. Bunday koʻrsatkichlar tizimi amaliyotda foydalanish uchun juda qulaydir. Ammo har bir koʻrsatkich boʻyicha toʻliq xulosaga kelish uchun ularning har bir guruhini alohida oʻrganish lozim. Shu bois, yuqorida tavsiya qilingan koʻrsatkichlarni buxgalteriya balansi va boshqa moliyaviy hisobot shakllari maʼlumotlariga asosan hisoblash usullarini koʻrsatish

⁴⁴ Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil (maʼruza matni). Samarqand 2007 y. -275 b.

maqsadga muvofiqdir.



6.2-rasm. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Birinchi navbatda korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining birinchi guruhiga, ya'ni o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlilini ko'rib chiqamiz. Ushbu guruh o'z mablag'larining to'planish (konsentrasiyasi) koeffitsiyenti, moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti va o'z mablag'larining harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlardan iborat (6.3-jadval).

6.3-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

O'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar		
O'z mablag'larining to'planish (konsentrasiyasi) koeffitsiyenti (Ko'mt)	Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (Kmq)	O'z mablag'larining harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyenti (Ko'h)
$Ko'mt = O'm / B$	$Kmq = B / O'm$	$Ko'h = Uhm / O'm$
bunda: O'm - o'z mablag'lari, B-balans jami		bunda: Uhm - umumiy harakatdagi mablag'lar

O'z mablag'larining to'planishini (konsentrasiyasini) ifodalovchi koeffitsiyent (Ko'mt). Mazkur ko'rsatkich ushbu mablag'larning umumiy mablag'lardagi hissasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich o'z mablag'larining (xususiy kapital) umumiy summasini (Um) buxgalteriya balansi umumiy summasiga (B) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning umumiy mablag'larining qancha qismi o'z mablag'lari manbasini tashkil qilishini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlardan yana biri bu

moliyaviy qaramlik koeffitsiyentidir (Kmq). Bu ko'rsatkich balans umumiy summasini (B) o'z mablag'lari (Um) summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich hajmini tahlil qilganda uning kamayishiga e'tibor berilishi lozim. Bu ko'rsatkichning hajmi qancha kamayib borsa korxonaning o'z mablag'i shuncha ko'payib borayotganligidan va uning moliyaviy qaramligi kamayganligidan, ya'ni yaxshilanayotganligidan, dalolat beradi. Agarda ushbu ko'rsatkichning hajmi qancha ko'paysa, shunchalik korxonaning moliyaviy qaram bo'layotganligini ifodalaydi.

O'z mablag'larining harakatchanlik (manyovrlik) koeffitsiyentini (Ko'h) aniqlash uchun umumiy harakatdagi mablag'larning summasini (Uxm) o'z mablag'lari (O'm) summasiga bo'lish lozim. Bunda umumiy harakatdagi mablag'lar summasi (Uxm) buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan korxonaning o'z mablag'lariga (O'm) uzoq muddatli passivlarni qo'shish, asosiy vositalar va oborotda bo'lmagan aktivlarni ayirib tashlash orqali aniqlanadi.

Mazkur ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (6.4-jadval).

6.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida o'z mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar hajmi turli yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, o'z mablag'larining to'planishini (konsentrasiyasini) ifodalovchi koeffitsiyent yil boshida 0,460 koeffitsiyentdan yil oxiriga borib 0,612 koeffitsiyentgacha oshgan. Demak, ushbu miqdor fermer xo'jaligining 61,2 % mablag'i o'z mablag'i ekanligidan dalolat beradi. Hamda o'z mablag'larining to'planishini ifodalovchi koeffitsiyentning yil boshiga nisbatan o'zgarishi +0,152 ga yoki 33 % ga ko'paygan. Bu esa, fermer xo'jaligining o'z mablag'i o'sish sur'atining (172 %) umumiy mablag'i o'sish sur'atiga nisbatan (129,2 %) yuqori ekanligi hisobiga sodir bo'lgan. Fermer xo'jaligining moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti esa joriy yil boshida 2,174 koeffitsiyentdan yil oxiriga kelib 1,633 koeffitsiyentgacha kamaygan.

6.4 - jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi moliyaviy barqarorligi ifodalovchi o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	O‘zgarishi	
				Summada (+,-)	Foizda, %
Birlamchi ko‘rsatkichlar					
1	Balansdagi umumiy summa (B), ming so‘m	124918	161378	+36460	129,2
2	O‘z mablag‘lari (xususiy kapital) (O‘m), ming so‘m	57466	98790	+41324	172
3	Asosiy vositalar va oborotda bo‘lmagan aktivlar (Avot), ming so‘m	48485	55732	+7247	115
4	Uzoq muddatli passivlar (Ump), ming so‘m	40182	40182	-	-
5	Umumiy harakatdagi o‘z mablag‘lari (2+4-3) (Uxm), ming so‘m	49163	80240	+31077	163,2
Hisoblangan ko‘rsatkichlar					
6	O‘z mablag‘i (xususiy kapital) to‘planish (konsentrasiyasi) koeffitsiyenti (2q:1q:)	0,460	0,612	+0,152	133
7	Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti (1q:2q)	2,174	1,633	-0,541	75,1
8	O‘z mablag‘lari (xususiy kapital)ning harakatchanlik (manyovrlilik) koeffitsiyenti (5q:2q)	0,855	0,812	-0,043	95

Bundan ko‘rinadiki, ushbu ko‘rsatkich hajmi yil boshiga nisbatan 0,541 koeffitsiyent yoki 24,9 % ga kamaygan. Bunday ko‘rsatkich fermer xo‘jaligining o‘z mablag‘i shunchaga ko‘payganligidan va uning moliyaviy qaramligi kamayganligidan, ya‘ni moliyaviy barqarorligi yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, fermer xo‘jaligining o‘z mablag‘larining harakatchanlik koeffitsiyentini o‘rganganimizda, bu ko‘rsatkich hisobot yili boshida 0,855 koeffitsiyentni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 0,812 koeffitsiyentni tashkil qilgan. Demak, o‘z mablag‘larining harakatchanlik koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,043 koeffitsiyentga yoki 5 % ga kamaygan. Bu umumiy harakatdagi mablag‘lar o‘shish sur‘atining (163,2 %) o‘z mablag‘lari o‘shish sur‘atiga nisbatan (172 %) pastligi hisobiga yuzaga kelgan. Bunday natija aylanma mablag‘larda o‘z mablag‘lariga nisbatan chetdan jalb qilingan mablag‘larning hissasi oshganligini anglatadi.

Umuman olganda, “Sharq” fermer xo‘jaligining o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy barqarorligi hisobot davrida ancha yuqori bo‘lganligini

ijobiy baholash lozim.

Endi korxonaning moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimining keyingi guruhi, ya'ni chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlilini ko'rib chiqamiz. Ushbu guruh ko'rsatkichlari tizimiga chetdan jalb qilingan kapitalning to'planishini (konsentrasiyasini) ifodalovchi koeffitsiyent, chetdan jalb qilingan mablag'larning tarkibiy koeffitsiyenti, o'z mablag'larining umumiy qaramlik koeffitsiyenti, o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar kiradi (6.5-jadval).

6.5-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar			
Chetdan jalb qilingan kapital-ning to'planish (konsentrasiyasi) koeffitsiyenti (Kchjk)	Chetdan jalb qilingan kapitalning tarkibiy koeffitsiyenti (Kchjkt)	O'z mablag'larining umumiy qaramlilik koeffitsiyenti (Kuq)	O'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qaramlilik koeffitsiyenti (Kupq)
$Kchjk = Chjm / B$ bunda: Chjm – chetdan jalb qilingan mablag'	$Kchjkt = Uchm / Chjm$ bunda: Uchm- uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'	$Kuq = Chjm / O'm$	$Kupq = Ump / O'm$ bunda: Ump - uzoq muddatli passivlar

Chetdan jalb qilingan mablag'larning (kapitalning) to'planishi (konseptrasiyasini) ifodalovchi ko'rsatkich ularning umumiy mablag'lardagi xissasini (Kchjk) aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichni topish uchun chetdan jalb qilingan mablag'lar summasini (Chjm) umumiy mablag'lar summasiga (B) bo'lish lozim. Uning hajmi qancha kam bo'lsa korxonaga uchun shuncha yaxshi, chunki bu korxonaga o'z faoliyatida mablag'ni chetdan jalb qilmasdan amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

Chetdan jalb qilingan mablag'lar ichida uzoq muddatli qarzlar hissaning koeffitsiyenti ham moliyaviy barqarorlikni ifodalash uchun muhim ko'rsatkichdir. Chetdan jalb qilingan mablag'larning (kapitalning) tarkibiy koeffitsiyenti (Kchjkt) ni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larni (Uchm) korxonaning umumiy chetdan jalb qilingan mablag'iga (Chjm) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning uzoq muddatli chetdan jalb qilingan

mablag'ining umumiy chetdan jalb qilingan mablag'dagi hissasini ko'rsatadi. O'z mablag'i yetarli bo'lmay turgan vaqtda uzoq muddatli qo'yimalardan foydalanish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishda o'z mablag'larining uzoq muddatli passivlarga qaramlik koeffitsiyentini (Kupq) aniqlash va o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun uzoq muddatli chetdan jalb qilingan passivlarni (Ump) o'z mablag'lari umumiy summasiga (O'm) bo'lish yo'li bilan aniqlaymiz. Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'z mablag'larida chetdan jalb qilingan uzoq muddatli qo'yimalarning (passivlarning) hissasi qanchani tashkil qilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich hajmining yaxshi yoki yomonligi to'g'risida korxonaning faoliyatining holatiga qarab xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'lindi (6.6-jadval).

6.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Sharq" fermer xo'jaligi moliyaviy barqarorligining chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlari yil davomida kamaygan. Bu esa, fermer xo'jaligining moliyaviy barqarorligi ko'tarilganligidan dalolat beradi. Jumladan, chetdan jalb qilingan mablag'lar to'planishini ifodalovchi koeffitsiyent hisobot yilining oxirida 0,314 koeffitsiyentni tashkil qiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaligining umumiy moliyaviy potensialining 31,4 % chetdan jalb qilingan mablag'lardir. Bu ko'rsatkichning hissasi hisobot yilining boshiga nisbatan -0,069 koeffitsiyentga yoki 18 % ga kamaygan. Bu esa, fermer xo'jaligi o'z mablag'larining umumiy mablag'lardagi ulushi ko'payib borayotganligini anglatadi.

Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag'larining o'z mablag'laridagi ulushi esa fermer xo'jaligida yil boshidagiga nisbatan 0,292 koeffitsiyentga yoki 41,8 % ga kamaygan holda yil oxirida 40,7 % ni tashkil qilgan. Shuningdek, uning ulushi chetdan jalb qilingan barcha mablag'lar tarkibida hissasi ham kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

6.6 - jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligini ifodalovchi chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi	
				Summada (+,-)	Foizda, %
Birlamchi ko‘rsatkichlar					
1	Balansdan umumiy summa (B), ming so‘m	124918	161378	+36460	129,2
2	Chetdan jalb qilingan mablag‘lar (kapital) jami (Chjm), ming so‘m	47850	50689	+2839	106
3	Shu jumladan uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar (Uchm), ming so‘m	40182	40182	-	-
4	O‘z mablag‘lari (O‘m), ming so‘m	57466	98790	+41324	172
Hisoblangan ko‘rsatkichlar					
5	Chetdan jalb qilingan kapitalning to‘planish (konsentrasiyasi) koeffitsiyenti (Kchjk) (2q:1q)	0,383	0,314	-0,069	82
6	Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti (Kchjkt) (3q:2q)	0,839	0,793	-0,046	94,5
7	O‘z mablag‘larining umumiy qaramlik koeffitsiyenti (Kuq) (2q:4q)	0,833	0,513	-0,32	61,6
8	Uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larga (kapitalga) qaramlik koeffitsiyenti (Kupq) (3q:4q)	0,699	0,407	-0,292	58,2

O‘z mablag‘larining umumiy qaramlik koeffitsiyenti fermer xo‘jaligining umumiy moliyaviy qaramligini ifodalaydi. Tahlil qilinayotgan fermer xo‘jaligida har bir so‘m o‘z mablag‘lariga yil boshida 0,83 so‘m to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yil oxiriga kelib 0,51 so‘mni tashkil qilgan. Ya’ni, yil boshiga nisbatan 38,5 % kamaygan. Bu fermer xo‘jaligida chetdan jalb qilingan mablag‘larga qaramligi sezilarli ravishda pasayganligidan dalolat beradi.

Ushbu ko‘rsatkichlar tahlili ham shuni ko‘rsatdiki “Sharq” fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligi yuqori bo‘lgan. Bu birinchi guruh ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil natijasida qilingan xulosani yana bir bor isbotlab turibdi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimining keyingi yana bir guruhi, ya’ni korxonaning harakatdagi mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar hisoblanadi va endi mazkur ko‘rsatkichlar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarga umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti, harakatdagi mablag‘larning

harakatchanlik koeffitsiyenti, sof harakatchanlik koeffitsiyenti va harakatdagi mablag‘larining faollik koeffitsiyenti kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Mazkur ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash tartibi quyidagi 6.7-jadvalda keltirilgan.

6.7-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Harakatdagi o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar			
Umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti (Kuh)	Harakatdagi mablag‘larning harakatchanlik koeffitsiyenti (Khh)	Sof harakatchanlik koeffitsiyenti (Ksh)	Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsiyenti (Kf)
$Kuh = O'hm / O'm$	$Khh = O'hm / B$	$Ksh = Shm / B$	$Kf = Shm / O'xm$
bunda: $O'hm$ - umumiy harakatdagi o‘z mablag‘lari		bunda: Shm - sof harakatdagi o‘z mablag‘lari	

6.7-jadvalda keltirilgan harakatdagi o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning birinchi ko‘rsatkichi, ya‘ni umumiy harakatchanlik koeffitsiyentini (Kuh) aniqlash uchun umumiy harakatdagi o‘z mablag‘lari summasi ($O'hm$)ni jami o‘z mablag‘lari summasiga ($O'm$) bo‘lish lozim. Bu hisob-kitobni amalga oshirishdan oldin umumiy harakatdagi o‘z mablag‘lari summasini aniqlab olish kerak. Bu ko‘rsatkich buxgalteriya balansi ma‘lumotlariga asosan quyidagicha aniqlanadi:

$$O'hm = O'm + Umchjm - Avot$$

Bunda: $O'm$ - korxonaning o‘z mablag‘i, $Umchjm$ - uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar summasi, $Avot$ - asosiy vositalar va oborotdan tashqari aktivlar.

Mazkur ko‘rsatkich o‘z mablag‘larining qancha qismi harakatdagi mablag‘dan iborat ekanligini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichning hajmi qanchalik oshib borsa, korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini yaxshilanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Harakatdagi mablag‘larning harakatchanlik koeffitsiyenti (Khh) esa harakatdagi o‘z mablag‘larining umumiy mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkich harakatdagi o‘z mablag‘lari summasini ($O'hm$) umumiy mablag‘lar summasiga (B) bo‘lish orqali aniqlanadi. Uning miqdori qancha oshib borsa

korxonaga uchun shunchalik muhim hisoblanadi, chunki bu korxonaning harakatdagi o'z mablag'i umumiy mablag'i tarkibida ko'payib borayotganligidan dalolat beradi.

Korxonaga moliyaviy barqarorligini ifodalovchi harakatdagi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlardan yana biri bu sof harakatchanlik koeffitsiyentidir. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof harakatdagi o'z mablag'lari summasini (Shm) umumiy mablag'lar summasiga (B) bo'lish kerak. Buning uchun birinchi navbatda sof harakatdagi o'z mablag'lari summasi aniqlab olinadi. Bu ko'rsatkich umumiy harakatdagi mablag'lardan joriy majburiyatlar va muddati o'tgan debitorlik qarzlari miqdorini ayirish orqali aniqlanadi.

Sof harakatchanlik koeffitsiyenti umumiy aylanma mablag'larning qancha qismi tez harakat qiladigan aylanma mablag'larga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlarning miqdori ham qancha yuqori bo'lsa korxonaga moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanayotganligidan, uning moliyaviy barqarorligi ta'minlanayotganligidan dalolat beradi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimining so'nggi ko'rsatkichi bu sof harakatdagi mablag'larning faollik koeffitsiyentidir (Kf). Ushbu ko'rsatkich sof harakatdagi o'z mablag'lar summasini (Shm) umumiy harakatdagi o'z mablag'lari summasiga (O'hm) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Bu ko'rsatkichning hajmi tovar zaxiralari va pul mablag'larida ishtirok etayotgan o'z mablag'ining umumiy harakatdagi mablag'laridagi hissasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichning maksimal hajmi birga teng. Agar uning miqdori birga teng bo'lsa korxonaning harakatdagi barcha mablag'lari o'z mablag'idan ekanligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi harakatdagi o'z mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (6.8-jadval).

6.8-jadval

**“Sharq” fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligini ifodalovchi
harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili**

№	Ko‘rsatkichlar	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi	
				Summada (+,-)	Foizda,%
Birlamchi ko‘rsatkichlar					
1	Balansning umumiy summasi (B), ming so‘m	124918	161378	+36460	129,2
2	O‘z mablag‘lari (Um), ming so‘m	57466	98790	+41324	172
3	Aylanma mablag‘lar (Am), ming so‘m	76433	105646	+29213	138
4	Umumiy harakatdagi o‘z mablag‘lari (O‘xm), ming so‘m	49163	83240	+34077	169
5	Muddati o‘tgan umidsiz debitorlar, ming so‘m	-	-	-	-
6	Joriy majburiyatlar, ming so‘m	27270	22406	-4864	82
7	Sof harakatdagi mablag‘lari (Sxm), ming so‘m (4q-5q-6q)	21893	60834	+38941	278
Hisoblangan ko‘rsatkichlar					
8	Umumiy harakatchanlik (manyovrlilik) koefi-sienti (Kux) (4q:2q)	0,855	0,842	-0,013	98,5
9	Harakatdagi mablag‘larning harakatchanlik koeffitsiyenti (Kx) (4q:1q)	0,393	0,516	+0,123	131,3
10	Sof harakatchanlik koeffitsiyenti (Ksx) (7q:1q)	0,175	0,377	+0,202	215,4
11	Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsiyenti (Kf) (7q:4q)	0,445	0,731	+0,286	164,3

6.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Sharq” fermer xo‘jaligining harakatdagi mablag‘i bilan bog‘liq moliyaviy barqarorligi yaxshilangan. Faqatgina umumiy harakatchanlik koeffitsiyenti 0,013 koeffitsiyentga yoki 1,5 % ga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa ko‘rsatkichlar esa yil boshiga nisbatan ancha yaxshilangan. Xususan, harakatdagi mablag‘larning harakatchanlik koeffitsiyenti yilning boshida 0,393 dan yilning oxirida 0,516 gacha ko‘paygan. Bu esa, harakatdagi mablag‘larning harakatchanlik koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,123 koeffitsiyentga yoki 31,3 % ga ko‘payganligini bildiradi. Demak, umumiy mablag‘lar tarkibida harakatdagi o‘z mablag‘lari ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, fermer xo‘jaligining sof harakatchanlik koeffitsiyenti ham yil boshiga nisbatan 0,202 koeffitsiyentga yoki 115,4 % ga oshgan. Ushbu guruhda sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsiyenti 0,286 koeffitsiyentga yoki 64,3 % ga oshgan. Bu esa harakatdagi mablag‘lar faolligining oshganligidan dalolat beradi. Sof harakatdagi mablag‘larning faollik koeffitsiyenti tovar-moddiy

zaxiralar va pul mablag‘larida ishtirok etayotgan sof harakatdagi mablag‘lari umumiy harakatdagi mablag‘larning qancha qismini tashkil qilganligini ko‘rsatadi. Fermer xo‘jaligida yil boshida barcha umumiy harakatdagi mablag‘larning 44,5 % ni tovar-moddiy zaxiralari va pul mablag‘larida ishtirok etayotgan o‘z mablag‘lari manbaini tashkil qilingan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar yil oxiriga borib 73,1 % ga ko‘paygan.

Umuman olganda, yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib aytishimiz mumkinki, hisobot yilida fermer xo‘jaligining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yaxshilanayotganligidan, uning moliyaviy barqarorligi ta‘minlanayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar ham korxonaning moliyaviy barqarorligini ifodalovchi eng muhim ko‘rsatkichlardir. Bu ko‘rsatkichlar guruhiga quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi:

- asosiy vositalarning umumiy mablag‘lardagi hisyasi;
- o‘z mablag‘lar manbaining kapitallashganlik koeffitsiyenti;
- asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi;
- asosiy vositalar jamg‘arilishining umumiy koeffitsiyenti.

Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash tartibi quyidagi 6.9-jadvalda keltirilgan.

6.9-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar			
Asosiy vositalar jami mulkdagi hisyasi (Kavh)	O‘z mablag‘ining kapitallashganlik koeffitsiyenti (Ko‘mk)	Asosiy vositalar jamg‘arilishi intensivligi koeffitsiyenti (Kin)	Asosiy vositalar jamg‘arilishi umumiy koeffitsiyenti (Kavju)
$Kavh = Av / B$ bunda: Av - asosiy vositalar	$Ko‘mk = (Av - Umkq) / O‘m$ bunda: Umkq-uzoq mudatli kapital quyilmalar	$Kin = Avje / Av$ bunda: Avje-asosiy vositalar joriy yilagi eskirish summasi	$Kavju = Ave / Av$ bunda: Ave - asosiy vositalar eskirishi

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan biri ularning butun mulkdagi hissasidir (Kavh). Ushbu

ko'rsatkichni hisoblash uchun asosiy vositalar summasini (Av) aktivlar jami summasiga (B) bo'lish lozim. Ushbu ko'rsatkich korxonaning aktivida asosiy vositalarning ulushi qancha ekanligini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlardan yana biri bu o'z mablag'lar manbaining kapitallashganlik koeffitsiyentidir. Bu ko'rsatkichni (Ko'mk) aniqlash uchun asosiy vositalar (Av) summasidan uzoq muddatli kapital qo'yimalarni (Umkq) ayirib, natijani o'z mablag'lari summasiga (O'm) bo'lish kerak. Mazkur ko'rsatkich o'z mablag'lari manbaining qancha qismi asosiy vositaga sarf qilinganligi yoki asosiy vositalarning qancha qismi o'z mablag'lari evaziga shakllanganligini ko'rsatib beradi.

Keyingi ko'rsatkich bu asosiy vositalar jamg'arilishining intensivligi (Kin) ko'rsatkichi bo'lib, uni aniqlash uchun asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasini (Avje) asosiy vositalarning umumiy summasiga (Av) bo'lish lozim. Bu ko'rsatkich umumiy asosiy vositalarning qancha qismi bir joriy yilda jamg'arilganligini ko'rsatadi.

Mazkur guruhga kiruvchi yana bir muhim ko'rsatkich asosiy vositalar jamg'arilishining umumiy koeffitsiyentidir (Kavju). Ushbu ko'rsatkich asosiy vositalarning jamg'arilgan eskirish summasini (Ave) umumiy asosiy vositalar qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning miqdori asosiy vositalar umumiy qiymatining qancha qismi jamg'arilganligini ifodalaydi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog'liq mazkur ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda qo'yidagi natijalarga ega bo'lindi (6.10-jadval).

6.10 - jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy vositalar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+, -)	
				So‘mmada (+,-)	Foizda %
Birlamchi ko‘rsatkichlar					
1	Asosiy vositalar (kapital) qiymati (Av), ming so‘m	48485	55732	+7247	115
2	Uzoq muddatli kapital qo‘yilmalari (Umkk), ming so‘m	-	-	-	-
3	O‘z mablag‘lari manbai (O‘m), ming so‘m	57466	98790	+41324	172
4	Xo‘jalik mablag‘lari umumiy summasi (B), ming so‘m	124918	161378	+36460	129,2
5	Asosiy vositalarning joriy yildagi eskirish summasi, ming so‘m	4969	6532	+2627	138
6	Asosiy vositalarning jamg‘arilgan eskirish summasi, ming so‘m	39669	46259	+6590	116,6
Hisoblangan ko‘rsatkichlar					
7	Uzoq muddatli qo‘yilmalarning tarkibiy koeffitsiyenti (2q:1q)	-	-	-	-
8	O‘z mablag‘lari manbaining kapitallashganlik koeffitsiyenti [(1q-2q) : 4q]	0,844	0,564	-0,28	67
9	Asosiy vositalarning umumiy mablag‘lardagi hissasini ifodalovchi koeffitsiyent (1q:5q)	0,388	0,345	-0,043	89
10	Asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi (Kin) (6q:1q)	0,102	0,117	+0,015	115
11	Asosiy vositalar jamg‘arilishining umumiy koeffitsiyenti (Kavju) (7q:1q)	0,818	0,830	+0,012	101,5

6.10-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida o‘z mablag‘lari manbaining kapitallashganlik koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,28 koeffitsiyentga yoki 33 % ga kamaygan. Demak, bundan ko‘rinadiki, fermer xo‘jaligi asosiy vositalarining yil boshida 84,4 %, yil oxirida esa 56,4 % qismi o‘z mablag‘lari hisobidan shakllanganligidan dalolat beradi. Hamda fermer xo‘jaligi asosiy vositalarining umumiy mablag‘lardagi hissasi yil boshiga nisbatan 0,043 koeffitsiyentga yoki 11% ga kamaygan. Bu esa, fermer xo‘jaligi aktivida aylanma mablag‘lar hissasining oshganligini anglatadi.

Asosiy vositalar jamg‘arilishining intensivligi ko‘rsatkichi fermer xo‘jaligida yil oxirida 0,117 koeffitsiyentni tashkil etgan bo‘lib, bu asosiy vositalarning joriy yilda jamg‘arilishi 11,7 % ni tashkil qilganligidan dalolat beradi. Demak, mavjud asosiy vositalar miqdori 8,5 yilda (100:11,7) to‘la

jamg'arilib bo'lar ekan. Shuningdek, asosiy vositalar jamg'arilishining umumiy koeffitsiyenti yil boshida 0,818 koeffitsiyentni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil oxirida 0,830 koeffitsiyentni tashkil etgan. Bu esa, yil oxirida asosiy vositalar qiymatining 83 % yaratilgan mahsulotga qo'shilganligidan, uning qiymatining shuncha qismi qaytadan jamg'arilganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, aylanma mablag'lardan qanchalik samarali foydalanilsa, korxonaning moliyaviy barqarorligi shuncha yaxshi ta'minlanadi, to'lov qobiliyati yaxshilanadi, rentabelligi oshadi. Shu sababli, moliyaviy tahlilda moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash, baholash va tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Korxonada moliyaviy barqarorligini ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi 6.11-jadvalda keltirilgan.

6.11-jadval

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar				
Aylanma mablag'larning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kao't)	Aylanma mablag'larning jami mulkdagi hissasi (Kamh)	Aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyenti (Kaq)	Aylanma mablag'larning qisqa muddatli bank kreditiga qaramlilik koeffitsiyenti (Kqbk)	Aylanma mablag'larning tez harakatdagi aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Khmt)
Kao't=O'm/Aym bunda: O'm-o'z mablag'lari	Kamh=Aym/B bunda: Aym-aylanma mablag'	Kaq=Chjm/Aym bunda: Chjm-chetdan jalb qilingan mablag'lar	Kqbk=Qbk/Aym bunda: Qbk-qisqa muddatli bank krediti	Khmt=O'aym/Aym bunda: O'aym-aylanma mablag'lardagi o'z mablag'lari summasi

6.11-jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxonada moliyaviy barqarorligining aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tizimiga beshta ko'rsatkich kirar ekan. Ulardan biri aylanma mablag'larning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyentidir (Kao't). Ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun korxonaning aylanma mablag'larda ishtirok etayotgan o'z mablag'larini (O'xm) aylanma mablag'lar summasiga (Aym) bo'lish lozim. Bu ko'rsatkichlar 1 so'm aylanma

mablag‘lar summasiga qancha aylanma mablag‘lardagi o‘z mablag‘lari summasi to‘g‘ri kelishini ifodalaydi. Shuni ta‘kidlash lozimki, ushbu ko‘rsatkich o‘zi alohida biror moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida to‘liq xulosa berishi qiyin. Ammo u ko‘rsatkichlar tizimida bo‘lishi shart, chunki aylanma mablag‘larning harakatdagi aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanish darajasini aniqlaganda bu ko‘rsatkichlar bir-birini to‘ldirib turadi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardan yana biri aylanma mablag‘larning (Aym) butun mulkdagi (B) hissasidir (Kamh). Ushbu ko‘rsatkich barcha mulkda aylanma mablag‘larning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkichlar guruhiga aylanma mablag‘ning chetdan jalb qilingan mablag‘larga qaramlik koeffitsiyenti (Kaq) ham kiradi. Bu ko‘rsatkichni topish uchun chetdan jalb qilingan barcha mablag‘lar summasini (Chjk) aylanma mablag‘larning umumiy summasiga (Aym) bo‘lish lozim. Bu ko‘rsatkich aylanma mablag‘larda chetdan jalb qilingan mablag‘larning hissasi qancha ekanligidan dalolat beradi. Uning hajmi qancha kamaysa korxonaga uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ko‘rsatkichlardan yana biri aylanma mablag‘larning qisqa muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsiyentidir (Kqbk). Bu ko‘rsatkich qisqa muddatli bank kreditining umumiy aylanma mablag‘lardagi hissasini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun qisqa muddatli bank krediti summasini (Qbk) aylanma mablag‘larning umumiy summasiga (Aym) bo‘lish kerak.

Mazkur ko‘rsatkichlar guruhiga kiruvchi so‘nggi ko‘rsatkich bu aylanma mablag‘larning tez harakatdagi aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanish koeffitsiyentidir (Khmt). Buni aniqlash uchun aylanma mablag‘lardagi o‘z mablag‘lari (harakatdagi mablag‘lar) summasini (O‘hm) aylanma mablag‘lar hajmiga (Aym) bo‘lish kerak.

Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq

ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligi moliyaviy hisoboti ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda qo'yidagi natijalarga ega bo'lindi (6.12-jadval).

6.12 - jadval

"Sharq" fermer xo'jaligi moliyaviy barqarorlikning aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili

№	Ko'rsatkichlar nomi	Yil boshida	Yil oxirida	Farqi (+, -)	
				Summada (+,-)	Foizda %
Birlamchi ko'rsatkichlar					
1	Korxonaning barcha mulki (B), ming so'm	124918	161378	+36460	129,2
2	Aylanma mablag'lar (Aym), ming so'm	76433	105646	+29213	138
3	Harakatdagi o'z mablag'lari (O'hm), ming so'm	49163	83240	+34077	169
4	Chetdan jalb qilingan kapital (Chjk), ming so'm	47850	50689	+2839	106
5	Umumiy bank krediti (Bk), ming so'm	40182	40182	-	-
6	Qisqa muddatli bank krediti (Qbk), ming so'm	-	-	-	-
7	O'z mablag'lari (O'm), ming so'm	57466	98790	+41324	172
Hisoblangan ko'rsatkichlar					
8	Aylanma mablag'larning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kao't) (7q:2q)	0,752	0,935	+0,183	124
9	Aylanma mablag'larning butun mulkdagi hissasi (Kamh) (2q:1q)	0,612	0,655	+0,043	107
10	Aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyenti, (Kaq) (4q:2q)	0,626	0,480	-0,146	77
11	Aylanma mablag'larning qisqacha muddatli bank kreditiga qaramlik koeffitsiyenti, (Kqbk) (6q:2q)	-	-	-	-
12	Aylanma mablag'larning tez harakatdagi aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, (Khmt) (3q:2q)	0,643	0,788	+0,145	122,5

6.12-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aylanma mablag'larning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti yil boshida 0,752 koeffitsiyentni tashkil qilgan bo'lsa, yil oxirida bu ko'rsatkich 0,935 koeffitsiyentgacha ko'paygan, ya'ni bu o'zgarish 24 % ni tashkil qiladi. Demak, aylanma mablag'larning o'z mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi hisobot davri oxirida ko'paygan. Bu esa, aylanma mablag'larning qaramlik koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,146 koeffitsiyentga yoki 23 % ga kamayishiga sabab bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, aylanma mablag'lar tarkibida chetdan jalb qilingan mablag'lar ulushi yil boshidagi 62,6 % o'rniga yil oxiriga kelib 48 % gacha kamaygan. Fermer xo'jaligida hisobot davrida qisqa muddatli bank kreditlari mavjud bo'lmaganligi sababli, aylanma mablag'lar tarkibida qisqa muddatli bank kreditining hissasini

aniqlay olmaymiz.

Aylanma mablag‘larning harakatdagi o‘z mablag‘lari bilan ta‘minlanish koeffitsiyentining hajmi yil boshida 0,643 koeffitsiyentni tashkil qilgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib 0,788 koeffitsiyentni tashkil qilmoqda. Bu harakatdagi o‘z mablag‘larining aylanma mablag‘lar tarkibida ko‘payganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, “Sharq” fermer xo‘jaligining moliyaviy barqarorligining aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili natijalari ham hisobot davrida fermer xo‘jaligining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining yaxshilanayotganligidan, uning moliyaviy barqarorligi ta‘minlanayotganligidan dalolat beradi.

Umumlashgan xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilib o‘rganishda yuqoridagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish qulayligi shundaki, u o‘rganilayotgan obyektни har jihatdan qamrab oladi. To‘g‘ri ba‘zi ko‘rsatkichlar o‘zi alohida unchalik muhim ahamiyatga kasb etmasligi mumkin. Lekin, ular shu obyektни qaysidir jihatini to‘liq baholash imkonini beradi. Natijada har bir ko‘rsatkich va uning o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni hisoblash hamda yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish uchun tegishli ma‘lumotlarga ega bo‘linadi va tegishli chora-tadbirlarni ko‘rish imkoniyati paydo bo‘ladi.

6.4. Korxonalar balansi likvidligi tahlili

Korxonaning to‘lov qarzlarini to‘lashga to‘lov mablag‘larining yetarli yoki yetishmasligi yoxud qay darajada qoplay olishi to‘lov qobiliyati va likvidlik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayrim iqtisodchi olimlar mazkur tushunchalarni bir xil tushuncha sifatida baholaydi. Tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkinki, moliyaviy holat tahlilida likvidlik va to‘lov qobiliyati tushunchalari bir xil emas, bir-biridan farqli alohida tushunchalar sifatida o‘rganilishi lozim. Bu esa, mazkur tushunchalar va ularni farqli jihatlari bo‘yicha

o‘quvchida to‘g‘ri bilim va ko‘nikmaning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, to‘lov qobiliyati va likvidlik tushunchalari, ularning farqli jihatlarini to‘g‘ri talqin etgan holda ularni ifodalovchi ko‘rsatkichlarni tahlil qilib o‘rganish xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatini haqqoniy baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida likvidlik tushunchasiga quyidagi yondashuvlar mavjud (6.13-jadval).

6.13-jadval

Likvidlik tushunchasiga iqtisodchi olimlarning yondashuvlari

Asar nomi va muallifi	Ta‘rif
1. Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: –T.: “Sharq”, 2005. – 224 b	Likvidlik deganda , avvalo, mablag‘larning joylanishi, ularning pulga aylanish darajasi, yaqin va uzoq davriylikdagi to‘lov majburiyatlarining oqlanishi , joriy aktivlar va passivlarning o‘zaro farqlanishidagi zaruriy shartlarning saqlanishiga aytiladi.
2. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: “Iqtisod - moliya”, 2013. -302 b.	Likvidlik –deganda xo‘jalik yurituvchi subyekt nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslarning (aktivlarning) harakatchanligiga, muddatli moliyaviy majburiyatlarni yaqin kelajakda qoplash yuzasidan mablag‘larning mavjudligiga aytiladi.
3. Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O‘quv qo‘llanma. – T., 2007. – 50 b.	Balans likvidligi — balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag‘lar bilan shu davrda qaytariladigan majburiyatlarni solishtirish demakdir.
4. Qudratov T., Fayzieva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. –T.: “Voris - nashriyoti”, 2012. -140 b	Korxonaning joriy aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlarga bo‘lish orqali balansning likvidlik darajasi aniqlanadi, ya‘ni to‘lovga qodirlik ko‘rsatkichi aniqlanadi.
5. Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil. Sam ISI – 2007. -50 b. www/ziyonet/uz	Likvidlilik korxonaning o‘z joriy (aylanma) aktivlari hisobidan qisqa muddatli (joriy) majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko‘rsatadi.
6. Shog‘iyosov T. Kompleks iqtisodiy tahlil. T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. -185 b.	Balans likvidligi – xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivdagi moddalarining pulga aylanishi orqali to‘lov majburiyatlarini qoplay olishi, aniqrog‘i – to‘lov majburiyatlarining muddati, aktivdagi moddalarning pulga aylanish muddatiga mos kelishiga aytiladi.

Ushbu keltirilgan yondashuvlar mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, turlicha bayon qilingan. Jumladan, birinchi ta‘rifda joriy aktivlar to‘lov mablag‘lari va balans passiv moddalari esa to‘lov majburiyatlari sifatida aytib o‘tilgan. Vaholanki, balans passiv qismi birinchi bo‘limi bu o‘z mablag‘lar manbalari hisoblanadi.

Uchinchi ta'rifda esa, balans aktiv moddalarining bir davrga borib naqd pulga aylanishi orqali to'lov mablag'larning vujudga kelishi keltirilgan.

To'rtinchi ta'rifda likvidlik va to'lovga qodirlik ko'rsatkichlari bir xil tushunchalar sifatida keltirilgan. Shu bilan birga, joriy aktivlarning pulga aylanish muddati va to'lov majburiyatlarini to'lash muddati hisobga olinmagan.

Beshinchi ta'rifda, o'z joriy (aylanma) aktivlari hisobidan to'lov majburiyatlarining bajarilishi ko'rsatilgan. Biroq, likvidlik darajasi o'rganilganda joriy aktiv moddalaridan foydalanilgan. Fikrimizcha, joriy aktiv va o'z joriy (aylanma) aktiv ko'rsatkichlari bir biridan farqlanadi.

Likvidlik tushunchasiga yuqoridagi iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini e'tiborga loyiqqligini hisobga olgan holda uni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: **Likvidlik** deganda xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov muddati kelgan majburiyatlarni to'lash uchun mablag'lar mavjudligi tushuniladi.

Likvidlikni baholashda balans aktiv va passiv qismi moddalari odatda to'lov muddatlari bo'yicha quyidagicha tarkiblanadi (6.14-jadval).

6.14-jadval

Balans moddalarining to'lov muddatlari bo'yicha tarkiblanishi

Ko'rsatkichlar	Aktiv moddalari	Muddati	Ko'rsatkichlar	Passiv moddalari	Muddati
Eng likvid aktivlar (A1)	Pul mablag'lari va qisqa muddatli investisiyalar	2 oygacha	To'lov muddati kelgan majburiyatlar (P1)	Joriy kreditorlik qarzlari	2 oygacha
Tez likvid bo'ladigan aktivlar (A2)	Debitorlik qarzlari	2 oydan 6 oygacha	Qisqa muddatli majburiyatlar (P2)	Qisqa muddatli kreditlar va qarzlari	2 oydan 6 oygacha
Sekin likvid bo'ladigan aktivlar (A3)	Tovar moddiy zaxiralar	6 oydan 1 yilgacha	Uzoq muddatli majburiyatlar (P3)	Uzoq muddatli kredit va qarzlari	6 oydan 1 yilgacha
Qiyin likvid bo'ladigan aktivlar (A4)	Uzoq muddatli aktivlar	1 yildan ortiq	Doimiy passivlar (P4)	O'z mablag'lari manbalari	1 yildan ortiq

Buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismi moddalarini to'lov muddatlari

bo'yicha tarkiblangandan so'ng, ularni o'zaro taqqoslash asosida balans likvidligi holatiga baho berish mumkin. Balans likvidligini baholash tartibi iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulov⁴⁵, M.Q.Pardaev⁴⁶ va M.Yu.Raximovlar⁴⁷ asarlarida atroflicha yoritilgan. Ularning tavsiyalariga ko'ra balans likvidligi quyidagi farqlanishlarni tahlil qilib o'rgangan holda, uning holatiga baho beriladi (6.15-jadval).

6.15-jadval

Buxgalteriya balansi likvidlik holati bo'yicha tarkiblanishi

Likvidlik holati	Farqlanishdagi o'zgarishlar			
Mutloq likvid balans	$A1 \geq P1$	$A2 \geq P2$	$A3 \geq P3$	$A4 \leq P4$
Likvid balans	$A1 < P1$	$A2 \geq P2$	$A3 \geq P3$	$A4 \leq P4$
Nolikvid balans	$A1 < P1$	$A2 < P2$	$A3 \geq P3$	$A4 \leq P4$
Nochorlik holatidagi balans	$A1 < P1$	$A2 < P2$	$A3 < P3$	$A4 \leq P4$

Korxonaning moliyaviy ahvolini tahlil qilib o'rganganda, birinchi navbatda, buxgalteriya balansining likvidlik holati yuqoridagi kabi tarkiblangan holatda o'rganilishi va shundan so'ng uning to'lov qobiliyati darajasi tahlil qilinishi lozim. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, to'lov qobiliyati bilan likvidlik bir-biridan farqlanadi. Ya'ni, to'lov qobiliyati muddati kelgan qarzlarni to'lash imkoniyati borligini ko'rsasa, likvidlik ularni to'lash uchun mablag'lar mavjudligini ko'rsatadi.

Nazariy hisob-kitoblarimizning amaliy isbotini quyidagi "Sharq" fermer xo'jaligi buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan foydalangan holda keltirib o'tamiz. Birinchi navbatda, fermer xo'jaligi mablag'larining likvidligini tahlil qilgan holda qarzlarni qaytarishga yetarli yoki yetishmasligini o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (6.16-jadval).

6.16-jadvalda buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismi moddalari tarkiblangan bo'lib, ularni o'zaro taqqoslash asosida fermer xo'jaligi mablag'larining likvidligiga baho berish mumkin.

⁴⁵ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: -T.: "Sharq", 2005. - 224 b

⁴⁶ Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil. Sam ISI - 2007. -50 b. www/ziyonet/uz

⁴⁷ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. - T.: "Iqtisod - moliya", 2013. -302 b.

6.16-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	Balans aktiv moddalar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga	Ko‘rsatkichlar	Balans passiv moddalar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
Eng likvid aktivlar (A1)	Pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalar	1131	4201	To‘lov muddati kelgan majburiyatlar (P1)	Joriy kreditorlik qarzlari	107519	74097
Tez likvid aktivlar (A2)	Debitor-lik qarzlari	484735	559923	Qisqa muddatli majburiyatlar (P2)	Qisqa muddatli kredit va qarzar	-	-
Sekin likvid bo‘ladigan aktivlar (A3)	Tovar-moddiy zaxiralar	802711	463285	Uzoq muddatli majburiyatlar (P3)	Uzoq muddatli kredit va qarzar	692848	363820
Qiyin likvid bo‘ladigan aktivlar (A4)	Uzoq muddatli aktivlar	1605340	2107582	Doimiy passivlar (P4)	O‘z mablag‘-lari manba-lari	2093550	2697074

Fermer xo‘jaligi mablag‘larining likvidlik holatini 6.16-jadval ma‘lumotlari asosida 6.15-jadvalda ko‘rsatilgan farqlanish shartlarini bajarilishini tekshirib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotga ega bo‘lindi (6.17-jadval).

6.17-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi mablag‘lari likvidlik holati tahlili

Likvidlik holati	Farqlanish sharti	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
Likvid balans	$A1 < P1$	1131 < 107519	4201 < 74097
	$A2 \geq P2$	484735 > 0	559923 > 0
	$A3 \geq P3$	802711 > 692848	463285 > 363820
	$A4 \leq P4$	1605340 < 2093550	2107582 < 2697074

6.17-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligi hisobot davri boshida ham hisobot davri oxirida ham buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari bo‘yicha likvid xo‘jalik hisoblanadi. Ya‘ni, fermer xo‘jaligi qarz majburiyatlarini to‘lash uchun mablag‘lari yetarli ekanligini bildiradi. Bu esa, uning moliyaviy ahvolini ijobiy deb baholash imkonini beradi. Biroq, fermer xo‘jaligining mablag‘lari yetarli bo‘lganligi bilan qarz majburiyatlarini to‘lashga yo‘naltira olmasligi mumkin. Chunki, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni sotish

jarayonining qiyinligi, debitorlarning to'lovga qobiliyatli emasligi, muddati o'tgan debitorlik qarzlari summasining kattaligi sababli fermer xo'jaligi to'lov qobiliyatiga ega bo'lmasligi mumkin.

Demak, korxonaning moliyaviy holati tahlil qilib o'rganilganda, birinchi navbatda uning balans likvidligi holati o'rganilishi va shundan so'ng to'lov qobiliyati darajasiga baho berilishi kerak. Chunki, fermer xo'jaligining balans likvidligini hamda moliyaviy holatini ijobiy baholagan holda boshqaruv qarorlarining qabul qilinishi, uning to'lov qobiliyatiga ega emasligi natijasida o'z samarasini bermasligi mumkin. Shu bois, keyingi paragrafda to'lov qobiliyati tushunchasi, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi hamda tahliliga kengroq to'xtalib o'tamiz.

6.5. Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida mulk egalarini ko'proq korxonaga kapitali va moliya-xo'jalik faoliyatining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qiziqtiradi. Bunday ko'rsatkichlarning biri sifatida to'lov qobiliyati ko'rsatkichini keltirish mumkin. Shu sababli ham korxonaning moliyaviy holatini baholashda mazkur ko'rsatkich tahlil qilib o'rganiladi. Chunki, korxonalar o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyati davomida boshqa korxonaga, tashkilot va muassasalar bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Bunday iqtisodiy aloqalar belgilangan muddatlarda hisob-kitoblarni amalga oshirish, to'lov intizomiga rioya qilishni talab etadi. Bu esa, to'lov qobiliyati ko'rsatkichida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar o'rganilganda to'lov qobiliyati atamasi turlicha: *to'lov qobiliyati*, *to'lovga qodirlik*, *to'lovga qobillik*, *to'lov layoqati* va *balans likvidligi* kabi atamalar qo'llanilib kelayotganini ko'rish mumkin. Jumladan, iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov va N.F.Ishonqulovlar **“To'lov qobiliyati deyilganda**, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun

zarur bo‘lgan mablag‘larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi”⁴⁸ deb ta’riflaganlar. Shu bilan birga, “korxonaning **to‘lov layoqatini** baholashda odatda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- mutloq to‘lov layoqati koeffitsiyenti;
- oraliq to‘lov layoqati koeffitsiyenti;
- joriy to‘lov layoqati koeffitsiyenti”⁴⁹ deb ta’kidlab o‘tganlar.

Yuqoridagi olimlar tomonidan mazkur atama to‘lov qobiliyati sifatida ta’riflanib, uni baholashda esa to‘lov layoqati atamasi qo‘llanilgan.

Iqtisodchi olim M.Raximov esa “Firma va kompaniyalarda kredit resurslarini jalb etishda asosiy ko‘rsatkich bu – **to‘lovga qobillik** ko‘rsatkichidir. To‘lovga qobillik korxonaga to‘lov imkoniyatlarini, ya’ni uning o‘z majburiyatlarini to‘lashga qodirligini xarakterlaydi.”⁵⁰ deb yozadi. Shuningdek, “Firma va kompaniyalarni **to‘lov layoqati** deganda – to‘lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag‘larining yetarliligi yoki yetishmovchiligi tushuniladi”⁵¹ deb ta’riflaydi. Ushbu iqtisodchi olim to‘lovga qobillik ko‘rsatkichi deb atab, to‘lov layoqati sifatida ta’riflagan.

T.Qudratov va N.Fayzievalar to‘lov qobiliyatini quyidagicha tushunish lozimligini ta’kidlashadi: “Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, **to‘lov qobiliyatini** ifodalovchi koeffitsiyent hisoblanadi.

Balans bo‘yicha xo‘jalikning to‘lov qobiliyatiga aylanma aktivlarning likvidlik ko‘rsatkichlari orqali baho beriladi.

Xo‘jalikning o‘z joriy aktivlari bilan qisqa muddatli majburiyatlarini qoplay olish quvvati **balans likvidligi** deyiladi. Boshqacha aytganda, balans likvidligi qarzlarni to‘lashga bo‘lgan qurbining darajasini ifodalaydi.

Korxonaning joriy aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlarga bo‘lish orqali

⁴⁸ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili: Darslik. –T.: “Sharq”, 2005. - 222 b.

⁴⁹ shu manba. -224 b

⁵⁰ Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: “Iqtisod - moliya”, 2013. -302 b.

⁵¹ shu manba. -303 b.

balansning likvidlik darajasi aniqlanadi, ya'ni *to'lovga qodirlik* ko'rsatkichi aniqlanadi. **To'lovga qodirlik** – majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olish qobiliyatini anglatadi.”⁵² Ushbu iqtisodchi olimlar tomonidan to'lov qobiliyati, to'lovga qodirlik va balans likvidligi kabi atamalar bir xil atama sifatida qo'llanilgan. Fikrimizcha, likvidlik bilan to'lov qobiliyati tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Ya'ni, yuqorida keltirilgan to'lov qobiliyati, to'lovga qodirlik, to'lovga qobillik va to'lov layoqati ma'nodosh atamalar hisoblanadi. Likvidlik esa ulardan farqlanadi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan mazkur atamalarga berilgan ta'riflar va ularni baholashda foydalaniladigan ko'rsatkichlarga yondashuvlar quyidagi jadvalda keltirilgan (6.18-jadval).

Bizning fikrimizcha, *to'lov qobiliyati, to'lovga qodirlik, to'lovga qobillik va to'lov layoqati* kabi ma'nodosh atamalarni har doim bir xil *to'lov qobiliyati* atamasini qo'llagan holda ifodalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, o'zbek tilining izohli lug'atida “*Qobiliyat*” so'zining etimologiyasi arabcha bo'lib, lug'aviy ma'nosi – “layoqat, qobillik, qodirlik”⁵³ degan ma'nolarni bildiradi deyilgan.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida to'lov qobiliyati va uni baholashda tavsiya etgan ko'rsatkichlarni e'tiborga loyiqligini ta'kidlagan holda, to'lov qobiliyatini quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi: **To'lov qobiliyati** deganda xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov muddati kelgan majburiyatlarni o'z vaqtida mablag'lar bilan qoplay olish darajasi tushuniladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining to'lov qobiliyatiga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu ko'rsatkich korxonaning o'z vaqtida to'lov muddati kelgan qarzlarni qaytarish imkoniyatini belgilaydi. Korxonaning buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida uning to'lov qobiliyati qanday darajada ekanligini aniqlash uchun birinchi navbatda uning to'lash uchun

⁵² Qudratov T, Fayzieva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik. – T.: “Voriz-nashriyot”, 2012. – 134 b.

⁵³ O'zbek tilining izohli lug'ati, 5-jild, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. -317 b.

zarur bo'lgan mablag'lari bilan to'lov qarzlari solishtiriladi (6.19-jadval).

6.18-jadval

To'lov qobiliyati, to'lovga qodirlik, to'lovga qobillik hamda to'lov layoqati atamalariga iqtisodchi olimlarning yondashuvlari

Asar nomi va muallifi	Ta'rif	Ko'rsatkichlari
A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov Moliyaviy va boshqaruv tahlili: –T.: “Sharq”, 2005. – 222 b	To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi.	- mutloq to'lov layoqati ko'effitsiyenti; - oraliq to'lov layoqati ko'effitsiyenti; - joriy to'lov layoqati ko'effitsiyenti.
Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – T.: “Iqtisod - moliya”, 2013. -302 b.	Firma va kompaniyalarni to'lov layoqati deganda – to'lov muddati kelgan majburiyatlarni qoplashga joriy mablag'larining yetarliligi yoki yetishmovchiligi tushuniladi.	- mutloq to'lov layoqati; - oraliq to'lov layoqati; - joriy to'lov layoqati.
Yergeshev E.Ye. Davlyatov X.M. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. –T.: “Adolat”, 2010. – 126 b.	Quvvatlilik ko'effitsiyenti ko'rsatkichlari, korxonaning o'z qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish yoki bajara olmaslik (to'lash va to'lay olmaslik) qobiliyatini bildiradi.	- joriy quvvatlilik ko'effitsiyenti; - tez quvvatlilik ko'effitsiyenti; - mutloq quvvatlilik ko'effitsiyenti; - sof aylanma kapital.
Qudratov T, Fayzieva N. Korxonalar faoliyati-ning tahlili va nazorati. Darslik. – T.: “Vorish-nashriyat”, 2012. – 140 b	Korxonaning joriy aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish orqali balansning likvidlik darajasi aniqlanadi, ya'ni to'lovga qodirlik ko'rsatkichi aniqlanadi. To'lovga qodirlik – majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olish qobiliyatini anglatadi.	- mutloq likvidlik (mutloq to'lovga qodirlik ko'effitsiyenti); - tezkor likvidlik (oraliq to'lovga qodirlik ko'effitsiyenti); - joriy likvidlik ko'effitsiyenti (joriy to'lovga qodirlik ko'effitsiyenti).
Xasanov N., Najbiddinov S. Korxonalar moliyaviy holatini baholash: Muammolar va ularni hal qilish. 8-chiqarilish. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1999. -4 b.	To'lovga qobillik deganda korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari bo'yicha o'z vaqtida va to'liq hajmda hisob-kitoblarni amalga oshirishga qodirligi tushuniladi.	- joriy likvidlik ko'effitsiyenti; - muddatli likvidlik ko'effitsiyenti; - mutloq likvidlik ko'effitsiyenti; - sof oborot sarmoyasi; - sof tushum ko'effitsiyenti.
Pardaev M.Q. Moliyaviy tahlil. Sam ISI – 2007. - 56 b. www/ziyonet/uz	To'lov qobiliyati xo'jalik yurituvchi subyektda belgilangan muddatlarda to'lashni talab qiluvchi kreditorlik qarzlari yuzasidan hisob-kitob qilish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari borligini anglatadi.	- eng shoshilinch majburiyatlarni to'lash qobiliyati; - qisqa muddatli passivlarni to'lov ko'effitsiyenti; - uzoq muddatli passivlarni to'lov ko'effitsiyenti.

Bu orqali korxonaning to'lov mablag'larining to'lov qarzlaridan ortiqchaligi yoki yetishmasligi aniqlanib, korxonaning to'lov qobiliyatiga umumiy baho beriladi.

6.19-jadval

«Sharq» fermer xo'jaligi to'lov qobiliyatining tahlili

To'lov mablag'lari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm	To'lov qarzlari	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm
1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag'lari	54377	1. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar (qarzar)	4657
2. Tovar-moddiy zaxiralar	26584	2. Olingan bo'naklar	4945
3. Debitorlik qarzlari	24685	3. Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzar	4614
		4. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzar	3890
		5. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzar	3395
		6. Boshqa kreditorlik qarzlari	905
Jami to'lash uchun mablag'lar	105646	Jami to'lov qarzlari	22406
Jami to'lash uchun mablag'lardan to'lov qarzlarining ko'pligi		Jami to'lov qarzlaridan jami to'lash uchun mablag'larning ko'pligi (ortiqchaligi)	83240
Balans	105646	Balans	105646

6.19-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "Sharq" fermer xo'jaligi hisobot davrida to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ya'ni, fermer xo'jaligining jami to'lov mablag'lari 105646 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, jami to'lov qarzlari esa 22406 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida to'lov qarzlariga nisbatan to'lov mablag'lari 83240 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa, fermer xo'jaligining mutloq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Fermer xo'jaligining to'lash uchun mablag'lar tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, pul mablag'lari 54377 ming so'mni, tovar-moddiy zaxiralar 26584 ming so'mni va debitorlik qarzlari 24685 ming so'mni tashkil etgan. Shu bilan birga, to'lov qarzlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning asosini mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan qarzar, byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzar,

olingan bo‘naklar va boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaligi ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to‘lab berish lozim. Shu bois, fermer xo‘jaligi rahbariyati mavjud qarzlarni qisqa muddatlarda to‘lab berish choralarini ko‘rishi kerak. Aks holda, bu fermer xo‘jaligiga nisbatan qo‘shimcha jarima va penylar hisoblanishiga olib keladi. Bunday moliyaviy sanksiyalarning fermer xo‘jaligiga nisbatan qo‘llanilishi uning to‘lov qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Korxonaning to‘lov qobiliyatini baholashda odatda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- mutloq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti. Mutloq to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi xo‘jalik subyekting joriy aktivlarida harakatchan aktivlarning to‘lov qarzlarni qoplashiga yetarliligi yoki yetishmasliligini aniqlaydi;

- oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti. Oraliq to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to‘lov qarzlarni qoplashga yetarliligi yoki yetishmasliligini aniqlaydi;

- joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti. Joriy to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to‘lov qarzlarni to‘lashga yetarliligi yoki yetishmasliligini aniqlaydi.

Mazkur ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi 6.20-jadvalda keltirilgan.

6.20-jadval

To‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

To‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar		
Mutloq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti	Oraliq to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti	Joriy to‘lov qobiliyati koeffitsiyenti
$K_m = (PM+QI) / JM$ <p>Bunda: PM – pul mablag‘lari, QI – qisqa muddatli investisiyalar, JM – joriy majburiyatlar</p>	$K_o = (PM+QI+DQ) / JM$ <p>Bunda: DQ – debitorlik qarzlari</p>	$K_j = (PM+QI+DQ+TMZ) / JM$ <p>Bunda: TMZ – tovar-moddiy zaxiralar</p>

Yuqoridagi to‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni “Sharq” fermer xo‘jaligi buxgalteriya balansi ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘rganganimizda

quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (6.21-jadval).

6.21-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida to‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)
1	Mutloq to‘lov qobiliyati	0,90	2,43	+1,53
2	Oraliq to‘lov qobiliyati	1,84	3,53	+1,69
3	Joriy to‘lov qobiliyati	2,80	4,71	+1,91

6.21-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligi o‘tgan yilda mutloq to‘lov qobiliyatiga (0,90 koeffitsiyent) ega bo‘lmagan, biroq hisobot yilida u mutloq to‘lov qobiliyatiga (2,43 koeffitsiyent) ega hisoblanadi. Ya’ni, fermer xo‘jaligining mutloq to‘lov qobiliyati darajasi o‘tgan yilga nisbatan 1,53 koeffitsiyentga ko‘tarilgan. Bunday natija fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Fermer xo‘jaligida boshqa to‘lov qobiliyatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ham o‘tgan yilga nisbatan yaxshilanganligini jadval ma'lumotlaridan ko‘rish mumkin.

Shunday qilib, “Sharq” fermer xo‘jaligini hisobot yilida mutloq to‘lov qobiliyatiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida baholash mumkin. Chunki, bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaligida hisobot yilida 2,43 koeffitsiyentni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaligida 1 so‘mlik to‘lov qarzlarni qoplash uchun 2,43 so‘m pul mablag‘lari mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, korxonaning to‘lov qobiliyatini tahlil qilib o‘rganishda uning holatiga yuqoridagi kabi baho berilishi, uning moliyaviy ahvoli to‘g‘risida aniq xulosalar shakllantirish va zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

6.6. Aylanma mablag‘lar aylanishining tahlili

Korxonada moliyaviy holatini tahlil qilib o‘rganishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalaridan biri bu aylanma mablag‘lar va ulardan foydalanish samaradorligini o‘rganish hisoblanadi. Bunda aylanma mablag‘lar ayniqsa, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik

qarzlari, pul va valyuta mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar harakatini tahlil qilib o‘rganish lozim. Shu boisdan, korxonaning aylanma mablag‘lari aylanishi va uning o‘zgarishining korxonada moliyaviy holatiga ta‘sirini tahlil qilib o‘rganish korxonada moliyaviy holati tahlilida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Aylanma mablag‘lar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Agarda korxonada aylanma mablag‘lar aylanishi tezlashgan bo‘lsa, bu uning ma‘lum bir qismi tejalganini va qo‘shimcha foyda olinganligini anglatadi. Aksincha, aylanma mablag‘lar aylanishi sekinlashgan bo‘lsa, bu aylanma mablag‘lar yetishmasligini va xo‘jalik faoliyatni davom ettirish uchun tashqi manbalardan foydalanib, aylanma mablag‘larini to‘ldirish lozimligini bildiradi.

Odatda aylanma mablag‘lar aylanishining tahlilida quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- aylanma mablag‘lar aylanish koeffitsiyenti;
- aylanma mablag‘lar aylanish davri;
- aylanma mablag‘lar aylanish salmog‘i koeffitsiyenti.

Mazkur ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini quyidagi jadvalda keltirib o‘tamiz (6.22-jadval).

6.22-jadval

Aylanma mablag‘lar aylanishining tahlilida o‘rganiladigan ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

No	Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Aylanma mablag‘lar aylanish koeffitsiyenti	$K_a = SST / UAM$	Bunda: SST – mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum, UAM – aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymati
2	Aylanma mablag‘lar aylanish davri	$K_d = UAM \times D / SST$	Bunda: D – hisobot davridagi kunlar soni
3	Aylanma mablag‘lar aylanish salmog‘i koeffitsiyenti	$K_s = UAM / SST$	-

6.22-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, aylanma mablag‘lar aylanishini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga quyidagi omillar ta‘sir ko‘rsatar ekan:

- mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum summasining o‘zgarishi;

- aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi.

“Sharq” fermer xo‘jaligi moliyaviy hisobot ma‘lumotlaridan foydalangan holda fermer xo‘jaligi aylanma mablag‘lari aylanishining tahlili yuqoridagi ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilib o‘rganilganda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (6.23-jadval).

6.23-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi aylanma mablag‘lari aylanishining tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so‘mda	653350	683292	+29942
2. Aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda	26190	26584	+394
3. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti (1/2)	24,946	25,703	+0,757
4. Aylanma mablag‘larning aylanish davri, kun hisobida	14,43	14,01	-0,42
5. Aylanish salmog‘i koeffitsiyenti (2/1)	0,040	0,039	-0,001
6. Aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag‘larning bo‘shaganligi (-) yoki qo‘shimcha (+) jalb qilinganligi:			
- kun hisobida	x	x	-0,42
- summada, ming so‘mda	x	x	797,2

6.23-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida joriy yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 29942 ming so‘mga ko‘paygan. Bunga mos ravishda aylanma mablag‘larning qiymati ham 394 ming so‘mga ortgan. Bularning natijasida aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti o‘tgan yilgi 24,946 koeffitsiyentdan hisobot yiliga kelib 25,703 koeffitsiyentga ko‘tarilgan. Aylanish davri esa, o‘tgan yilga nisbatan 0,42 kunga qisqargan. Fermer xo‘jaligining aylanma mablag‘lari aylanishining tezlashishi natijasida xo‘jalik oborotidan mablag‘larning bo‘shashi 797,2 ming so‘mni tashkil etgan. Bunday ko‘rsatkichlarni fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Korxonada moliyaviy holati tahlilining maqsadi nima va uning asosiy vazifalarini ayting?
2. Korxonada moliyaviy holati tahlilining axborot manbalarini aytib bering?
3. Buxgalteriya balansini tuzilishini tushuntiring?
4. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi qanday tahlil qilinadi?
5. Korxonada moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
6. Korxonada moliyaviy barqarorligini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlar bor?
7. Korxonada balansning likvidligi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
8. Korxonaning to'lov qobiliyati deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilib o'rganiladi?
9. To'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini tushuntirib bering?
10. Aylanma mablag'lar aylanishining tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini tushuntiring?

NAZORAT TESTLARI

1. Korxonaning moliyaviy holati tahlilining asosiy axborot manbalari qaysi javobda berilgan?

- A) Buxgalteriya balansini (1-shakl); moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl); pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl); xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl); buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schetlari ma'lumotlari
- B) Uzoq muddatli aktivlar va pul mablag'lari to'g'risida ma'lumot; schyot-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, bosh daftar ma'lumotlari
- C) Buxgalteriya balansini (1-shakl); pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl); xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl); Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar

to'g'risida ma'lumotnoma

- D) Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl); pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl); xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl); statistik hisobot; boshqaruv hisobi ma'lumotlari

2. Korxonalar aktivlari tarkibiga nimalar kiradi?

- A) Asosiy vositalar va joriy majburiyatlar
B) Uzoq muddatli aktivlar va xususiy kapital
C) Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar
D) Joriy aktivlar va majburiyatlar

3. Korxonaning majburiyatlari tarkibiga nimalar kiradi?

- A) Qisqa va uzoq muddatli kreditlar, debitorlik qarzlari
B) Qisqa, o'rta va uzoq muddatga olingan qarz mablag'lar, tovar moddiy zaxiralar
C) Qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar va pul mablag'lari
D) Uzoq muddatli majburiyatlar va joriy majburiyatlar

4. Korxonaning to'lov qobiliyatini baholashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?

- A) Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, joriy to'lov qobiliyati koeffitsiyenti
B) Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti, joriy to'lov qobiliyati koeffitsiyenti
C) O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyenti, oraliq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti
D) O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsiyenti, Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti, Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti

5. Mutloq to'lov qobiliyati koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini jami pul mablag'lariga bo'lish lozim
B) Jami pul mablag'lariga qisqa muddatli investisiyalarni qo'shib, qisqa muddatli to'lov majburiyatlariga bo'lish kerak
C) Jami pul mablag'lariga qisqa muddatli investisiyalarni va debitorlik

majburiyatlarini qo‘shib, qisqa muddatli to‘lov majburiyatlariga bo‘lish kerak

D) Qisqa muddatli to‘lov majburiyatlarini pul mablag‘lari va debitorlik majburiyatlari jamiga bo‘lish lozim

6. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) O‘z mablag‘lari manbalari ko‘rsatkichiga balans jami ko‘rsatkichini bo‘lish orqali

B) Balans jami ko‘rsatkichini o‘z mablag‘lari manbalari ko‘rsatkichiga bo‘lish orqali

C) Majburiyatlarni balans jami ko‘rsatkichiga bo‘lish orqali

D) Balans jami ko‘rsatkichini jami majburiyatlarga bo‘lish orqali

7. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum ko‘rsatkichini aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali

B) Aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymati ko‘rsatkichini mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum ko‘rsatkichiga bo‘lish orqali

C) Yalpi foyda ko‘rsatkichini aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymati ko‘rsatkichiga bo‘lish orqali

D) Aylanma mablag‘lar o‘rtacha yillik qiymati ko‘rsatkichini yalpi foyda ko‘rsatkichiga bo‘lish bilan

8. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Balans jami summasini o‘z mablag‘lari manbasi jami summasiga bo‘lish orqali

B) O‘z mablag‘lari manbasi summasini balans jami summasiga bo‘lish orqali

C) Balans jami summasini majburiyatlar jami summasiga bo‘lish orqali

D) Balans jami summasini uzoq muddatli aktivlar summasiga bo‘lish orqali

9. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimiga qanday ko‘rsatkichlar kiradi?

A) O‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, asosiy vositalardan foydalanish

bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar

- B) O‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, aylanma mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, to‘lov qobiliyati va balans likvidligi ko‘rsatkichlari
- C) Chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, harakatdagi mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, moliyaviy mustaqillik va moliyaviy qaramlik ko‘rsatkichlari
- D) Moliyaviy mustaqillik, moliyaviy qaramlik, to‘lov qobiliyati, balans likvidligi, aylanma mablag‘lar aylanishi va moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar

10. Buxgalteriya balansi likvidlik holati bo‘yicha tarkiblanishini ko‘rsating?

- A) Mutloq likvid balans, moliyaviy barqaror balans, nolikvid balans, nochorlik holatidagi balans
- B) Mutloq likvid balans, likvid balans, nolikvid balans, moliyaviy qaram balans
- C) Mutloq likvid balans, likvid balans, nolikvid balans, nochorlik holatidagi balans

VII BOB. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI

7.1. Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

«Asosiy vositalar» nomli 5-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMC) ning 3a-bandiga asosan, “asosiy vositalar - korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlardir” deyilgan.

Shuningdek, ushbu BHMSning 4-bandiga asosan, asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;
- bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid payti)da belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar.

Asosiy vositalar hisobini yuritishda korxonada rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini mustaqil ravishda nisbatan kamroq miqdorda belgilashga haqlidir. Albatta asosiy vositalar qiymatining eng kam chegarasi “Hisob siyosati”da belgilab qo‘yishi kerak.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari M.Q.Pardaev, I.T.Abdukarimov, B.I.Isroilov, A.Vahobov, A.T.Ibrohimovlar N.F.Ishonqulov, T.Qudratov va N.Fayzievalarning ilmiy-uslubiy asarlarida asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlili o‘rganilgan bo‘lib, ular tomonidan asosiy vositalar tushunchasiga mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan turlicha yondoshuvlar keltirilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar A.Vahobov va A.T.Ibrohimovlar “Asosiy vositalar deb ishlab chiqarish siklida bir necha bor qatnashib, o‘zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman-qisman

o‘tkazuvchi hamda fizik shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalariga aytiladi”⁵⁴ deb ta’rif berganlar.

Iqtisodchi olimlar M.Q.Pardaev, I.T.Abdukarimov, B.I.Isroilovlar esa “Asosiy vositalar mehnat jarayonida mulkiy shaklini saqlab qolib, har bir bosqichdan keyin ishlab chiqarish sohasini tark etmaydi. Ularning qiymati mahsulotga darhol emas, qismlarga bo‘lingan holda bosqichma-bosqich o‘tib boradi. Xo‘jalik subyekti aniq baholangan aktivdan iqtisodiy foyda olishiga ishonchi bo‘lgan taqdirdagina asosiy vositalarni aktiv sifatida tan oladi”⁵⁵ deb ta’kidlab o‘tishgan.

Iqtisodchi olimlar A.V.Vahobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulovlar “Asosiy fondlar deb, ishlab chiqarish siklida bir necha bor qatnashib, o‘zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman o‘tkazuvchi hamda jismoniy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalariga aytiladi”⁵⁶ deb ta’rif berishgan.

Mazkur ta’riflarda asosiy vositalar faqat ishlab chiqarish siklida qatnashishi e’tirof etilgan. Biroq, xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan noishlab chiqarish jarayonida ham asosiy vositalardan foydalaniladi. Shu bois, fikrimizcha quyidagicha ta’rif berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi: “Asosiy vositalar – bu mehnat vositalari bo‘lib, moddiy ishlab chiqarish sohasida ham, noishlab chiqarish sohasida ham ishtirok etadigan va korxonada uzoq muddat davomida xizmat qiladigan, eskirish hisoblanadigan hamda natural shaklini saqlab qoluvchi moddiy aktivlarga aytiladi”.

Bugungi kunda barcha sohalarda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini asosiy vositalarning ishtirokisiz tashkil etib bo‘lmaydi. Chunki, asosiy vositalar faoliyatni tashkil etishda muhim omillardan biri bo‘lib katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilib o‘rganish muhim hisoblanadi. Tahlil natijasida asosiy vositalar holatini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish darajasini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.

⁵⁴ Vahobov A.V., Ibragimov A.T “Moliyaviy tahlil”. T.: ”Sharq” 2002 yil -113 b.

⁵⁵ Pardaev M.Q., Abdukarimov I.T., Isroilov B.I “Iqtisodiy tahlil”. T.: ”Mehnat” 2004 yil – 139 b.

⁵⁶ Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Ishonqulov N.F “Moliyaviy va boshqaruv tahlili”. T.: ”Sharq” 2005 yil – 287 b.

Asosiy vositalar tahlilining maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar holatini o‘rganish asosida ular bilan ta‘minlanish darajasini yaxshilash va foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berish hisoblanadi.

Asosiy vositalar tahlilidan ko‘zlangan maqsadga quyidagi vazifalarni hal qilish orqali erishiladi:

- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlariga baho berish;
- asosiy vositalar bilan ta‘minlanish darajasiga baho berish uning holatini yaxshilash bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash;
- asosiy vositalarning texnik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularga baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- asosiy vositalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar ta‘sirini aniqlash va samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni ko‘rsatib berish va hokazo.

Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlilining asosiy axborot manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma‘lumotlari;
- buxgalteriya balansi (1-shakl);
- moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl);
- statistik hisobot shakllari;
- buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schyotlari ma‘lumotlari.

7.2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili

Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilida birinchi navbatda xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlil qilib o‘rganiladi.

Asosiy vositalar tarkibiga yer, binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va asbob uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar kiradi. Mazkur asosiy vositalarni moliyaviy tahlilda ma’lum bir xususiyatlari bo‘yicha tasniflab ham o‘rganish mumkin (7.1-jadval).

7.1-jadval

Asosiy vositalarning tasniflanishi

No	Tasniflash belgisi	Ko‘rsatkichlar
1	Asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuni bo‘yicha	-yer - binolar - inshootlar - uzatuvchi moslamalar - mashina va asbob uskunalar - mebel va ofis jihozlari - kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi - transport vositalari - ishchi va mahsuldor hayvonlar - ko‘p yillik ekinlar - ishlab chiqarish inventarlari va boshqa asosiy vositalar
	Asosiy vositalarning ishlab chiqarishda qatnashishi bo‘yicha	- ishlab chiqarish faoliyatidagi asosiy vositalar - noishlab chiqarish faoliyatidagi asosiy vositalar
2	Asosiy vositalardan foydalanish jarayonida qatnashuviga ko‘ra	- foydalanishdagi asosiy vositalar - foydalanishdan olib qo‘yilgan (konservasiya qilingan) asosiy vositalar
3	Asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonidagi qatnashishi bo‘yicha	- aktiv asosiy vositalar - passiv asosiy vositalar
4	Asosiy vositalarning mulkiy egaligiga ko‘ra	- o‘ziga tegishli asosiy vositalar - ijaraga olingan asosiy vositalar

Bundan tashqari yana boshqa xususiyatlari bo‘yicha ham asosiy vositalarni tasniflash mumkin.

Asosiy vositalar tarkibi ko‘rib chiqilgandan so‘ng, uning tarkibiy tuzilishiga baho beriladi. Ya’ni, asosiy ishlab chiqarish faoliyatida foydalanyotgan asosiy vositalarning jami asosiy vositalardagi salmog‘i, noishlab chiqarish faoliyatida foydalanilayotgan asosiy vositalar salmog‘i, ularning tarkibida mavjud bo‘lgan asosiy vosita turlari bo‘yicha har birining salmog‘i o‘rganiladi.

O‘z navbatida asosiy vositalarning tarkibi, ularning tuzilishini o‘rganish bilan bir qatorda dinamik o‘zgarishlariga ham baho berib boriladi. Asosiy

vositalarning dinamikasi deganda ularning davrlar (yillar) bo'yicha o'zgarishlari tushuniladi. Dinamik o'zgarishlar asosida xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari yillar bo'yicha mutloq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi. Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida "Sharq" fermer xo'jaligining asosiy vositalari tarkibiga, tuzilishiga va dinamik o'zgarishiga baho berish mumkin (7.2-jadval).

7.2-jadval

"Sharq" fermer xo'jaligi asosiy vositalarining tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

Asosiy vositalarning tarkibi	O'tgan yili		Hisobot yili		O'zgarishi (+, -)	
	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Mutlaq, ming so'mda	Salmoqdagi, %
1. Yer	-	-	-	-	-	-
2. Bino	27485	31,2	27485	27	-	-4,2
3. Inshoot	4388	5	4388	4,3	-	-0,7
4. Uzatish moslamalari	-	-	-	-	-	-
5. Mashina va jihozlar	12388	14	16058	15,7	3670	1,7
6. Mebel va ofis jihozlari	2800	3,2	3138	3,1	338	-0,1
7. Kompyuter jihozlari va hisob-lash texnikasi	2462	2,8	4064	4	1602	1,2
8. Transport vositalari	28120	31,9	38270	37,5	10150	5,6
9. Ishlab chiqarish inventarlari	-	-	-	-	-	-
10. Xo'jalik inventarlari	-	-	-	-	-	-
11. Ishchi va mahsuldor hayvonlar	10511	11,9	8588	8,4	-1923	-3,5
12. Ko'p yillik ekinlar	-	-	-	-	-	-
13. Asbob uskunalar	-	-	-	-	-	-
14. Boshqa asosiy vositalar	-	-	-	-	-	-
Jami	88154	100	101991	100	+13837	-

7.2-jadval ma'lumotlaridan "Sharq" fermer xo'jaligida o'rganilayotgan davrda o'tgan yilga nisbatan jami asosiy vositalar hajmi 13837 ming so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Fermer xo'jaligida mavjud asosiy vositalarning asosiy salmog'ini bino, mashina va jihozlar, transport vositalari hamda ishchi va mahsuldor hayvonlar tashkil etgan. Ushbu asosiy vositalar jami


vositalarning 85-90 % ini tashkil qilmoqda. Joriy yilda xo‘jalikdagi asosiy vositalardan mashina va jihozlarning qiymati 3670 ming so‘mga, mebel va ofis jihozlari qiymati 338 ming so‘mga, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi qiymati 1602 ming so‘mga hamda transport vositalarining qiymati 10150 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lsa, ishchi va mahsuldor hayvonlar qiymati 1923 ming so‘mga kamaygan.

Joriy yilda mashina va jihozlar va transport vositalarining o‘sganligi xo‘jalikning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki, mashina va jihozlar hamda transport vositalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishda qatnashadigan vositalar qatoriga kiradi.

Tahlil natijalariga asoslangan holda shuni aytish mumkin-ki, “Sharq” fermer xo‘jaligida asosiy vositalarning dinamik o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, bu fermer xo‘jaligida asosiy vositalarning bosqichma-bosqich yangilanayotganligidan dalolat beradi.

7.3. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash yo‘llari

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar holatini va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilib o‘rganishda, asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodchi olimlar tomonidan asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi uch guruhga bo‘lib o‘rganilmoqda (7.1-rasm).



7.1-rasm. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimining birinchi guruhiga, ya‘ni asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar guruhiga asosiy

vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarni yangilanish koeffitsiyenti va asosiy vositalarni chiqib ketish koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar kiradi. Mazkur ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (7.3-jadval).

7.3-jadval

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

No	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi (Ka)	$Ka = AV / B$ Bu yerda: AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, B – balans aktivi jami	Bu asosiy vositalar qiymati umumiy mablag'larning qancha qismini tashkil etishini ko'rsatadi
2	Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti (Ke)	$Ke = AVe / AVb$ Bu yerda: AVe – asosiy vositalarning eskirish qiymati, AVb – asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	Bu asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining qancha qismi eskirib, xarajatlarga o'tkazilganligini bildiradi
3	Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti (Kyak)	$Kyak = AVq / AVb$ Bu yerda: AVq – asosiy vositalarning qoldiq qiymati, AVb – asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	Bu ko'rsatkich asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining qancha qismi xarajatlarga o'tkazilgan-ligini, ya'ni qoldiq qiymatini ifodalaydi
4	Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti (Kya)	$Kya = AVya / AVbyo$ Bu yerda: AVya – yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymati, AVbyo – asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich qiymati	Bu ko'rsatkich hisobot davrida yangidan qabul qilingan asosiy vositalarning yil oxiridagi umumiy asosiy vositalar qiymatidagi hissasini ifodalaydi
5	Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti (Kch)	$Kch = AVch / AVbyb$ Bu yerda: AVch – hisobot davrida chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati, AVbyb – asosiy vositalarning yil boshidagi boshlang'ich qiymati	Bu asosiy vositalarning hisobot davrida qancha qismi hisobdan chiqarilganligini ifodalaydi.

Mazkur ko'rsatkichlar barcha asosiy vositalar hamda ularning alohida turlari va guruhlari bo'yicha tahlil qilib o'rganiladi va o'zgarish sabablari ko'rib chiqilib, tegishli xulosalar shakllantiriladi.

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilib o'rganilar ekan, birinchi navbatda ularning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rgangan holda baho berib borish lozim. Chunki, asosiy vositalar tarkibida yil davomida o'zgarishlar ro'y beradi. Ya'ni yangi asosiy vositalarni qabul qilinishi tufayli asosiy vositalar turi va qiymati ortib boradi hamda eskirgan asosiy

vositalarni hisobdan chiqarish tufayli asosiy vositalar kamayishi mumkin. Bu esa, asosiy vositalar texnik holatini tahlil etishimizni taqozo etadi.

Asosiy vositalar texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi:

- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti.

Bu ko'rsatkichlarni aniqlash tartibi yuqoridagi 7.3-jadvalda keltirilgan.

Mazkur ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (7.4-jadval).

7.4-jadval

"Sharq" fermer xo'jaligi asosiy vositalarining texnik holatini tahlili

Yillar	Boshlang'ich qiymati, ming so'm	Eskirish qiymati, ming so'm	Qoldiq qiymati, ming so'm	Eskirish darajasi, %	Yaroqlilik darajasi, %
1. O'tgan yili	88154	39669	48485	44,9	55,1
2. Hisobot yili	101991	46259	55732	45,4	54,6
3. Farqi, (+,-)	+13837	+6590	+7247	0,5	-0,5

7.4-jadval ma'lumotlari asosida "Sharq" fermer xo'jaligining asosiy vositalarini texnik holatiga baho berish mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o'tgan yili 55,1 % ni, joriy yilda 54,6 % ni tashkil qilgan. Bu shundan dalolat beradiki, asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o'tgan yilga nisbatan -0,5 % ga pasaygan. Bu ko'rsatkichning past bo'lishi asosiy vositalar eskirish darajasi salmog'ining o'tgan yilga nisbatan oshganligidan dalolat beradi. Fermer xo'jaligida o'tgan yilga nisbatan eskirish darajasi 0,5 % ga ko'tarilishi va aksincha yaroqlilik darajasining 0,5 % ga pasayishi fermer xo'jaligi rahbariyatini o'yantiradigan holat hisoblanadi. Fermer xo'jaligida asosiy vositalarning eskirish summasi o'tgan yilda 39669 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yiliga kelib 6590 ming so'mga ko'paygan. Bunda asosiy vositalarning eskirish darajasi o'tgan yilda 44,9 % ni, hisobot yilida 45,4 % ni tashkil qilgan. Asosiy vositalarning eskirish darajasi yuqori bo'lishiga asosiy sabab bu jami asosiy vositalar tarkibida eski bino, inshoot,

mashina va uskunarlar hamda transport vositalari salmog‘ining yuqori ekanligidir.

Umuman olganda, xo‘jalik asosiy vositalarning umumiy texnik holati yetarli darajada deb baholay olmaymiz. Chunki, asosiy vositalarning teng yarmiga yaqini eskirganligi bu yaxshi natija emas. Shu sababli ham fermer xo‘jaligi rahbariyati asosiy vositalarini yanada ko‘proq qismini yangilab borish choralari izlab topishi lozim. Aks holda, bu fermer xo‘jaligining moliyaviy holati yomonlashuviga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ularning harakat ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosida to‘ldiriladi. Asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlariga quyidagi ko‘rsatkichlar kiradi:

- asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti.

Ushbu ko‘rsatkichlarni ham aniqlanish tartibi yuqoridagi 7.3-jadvalda keltirilgan.

Asosiy vositalar harakat ko‘rsatkichlarini “Sharq” fermer xo‘jaligi ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (7.5-jadval).

7.5-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlari tahlili

Asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil boshiga qoldig‘i	Yangidan qabul qilingan asosiy vositalar	Chiqib ketgan asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil oxiriga qoldig‘i	Yangilash koeffitsiyenti	Chiqib ketish koeffitsiyenti
O‘tgan yil	44416	8964	4895	48485	0,185	0,110
Hisobot yili	48485	24077	10240	55732	0,432	0,211
O‘zgarishi (+,-)	+4069	+15113	+5345	+7247	+0,247	+0,101

7.5-jadval ma’lumotlariga ko‘ra “Sharq” fermer xo‘jaligi asosiy vositalarining harakat ko‘rsatkichlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, hisobot davrida asosiy vositalarning yangilanish darajasi o‘tgan yilga nisbatan 0,247

koefitsiyentga o'sgan. Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi esa 0,101 koefitsiyentga ortgan.

Umuman olganda "Sharq" fermer xo'jaligida asosiy vositalarning yangilanish darajasini o'tgan yilga nisbatan yaxshilanganligini ijobiy baholashimiz mumkin bo'ladi. Bu esa, fermer xo'jaligi rahbariyati tomonidan eskirgan asosiy vositalarni yangilash bo'yicha tegishli amaliy choralarni amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Biroq, bunday sur'atdagi yangilanish darajasi bugungi kun talablariga mos kelmaydi. Chunki, bugungi kunda fan texnika taraqqiyotining rivojlanib borayotganligi xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalari to'liq bir marta yangilanish davri 4-5 yildan ortib ketmasligi lozim bo'ladi. Bunday natijaga esa, xo'jalik yurituvchi subyektlar har yili o'zining asosiy vositalarini 20-25 foizini yangilab borish orqali erishishi mumkin.

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilib o'rganish bilan bir qatorda asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ham tahlil qilib o'rganiladi. Shu sababli keyingi paragraflarda mazkur ko'rsatkichlar tahliliga batafsil to'xtalib o'tamiz.

7.4. Asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda mahsulot (ish, xizmat)lar ko'laminig oshishi ko'p jihatdan uning asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki, ishlab chiqarish jarayonining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanishi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish hajmini oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, xo'jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar holatini o'rganish bilan birga ular bilan ta'minlanish darajasi ham tahlil qilib o'rganiladi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib, asosiy vositalar bilan ta'minlanish koefitsiyenti va asosiy vositalar bilan qurollanish koefitsiyenti ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (7.6-jadval).

7.6-jadval

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Asosiy vositalarning bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (Kt)	$Kt = AV / TB$ Bu yerda: AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, TB – taqsimlash bazasi	Bu ko'rsatkich taqsimlash bazasi birligiga nisbatan to'g'ri keladigan asosiy vositalar hajmini ifodalaydi
2	Asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti (Kq)	$Kq = AV / X$ Bu yerda: AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, X – xodimlarning o'rtacha yillik soni	Bu ko'rsatkich bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan asosiy vositalar hajmini ifodalaydi

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'zgarishini tahlil qilish uchun hisobot yilidagi ko'rsatkichlarni o'tgan (reja) ko'rsatkichlari bilan solishtirilib, o'zgarishi aniqlanadi va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, hisob-kitob qilinadi hamda ta'minlanish darajasini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Mazkur ko'rsatkichlar tahlilini “Sharq” fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (7.7-jadval).

7.7-jadval

“Sharq” fermer xo'jaligini asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'mda	83432	101185	+17753
2	Ekin maydoni, ga	300	300	-
3	Ishlab chiqarish xodimlari soni, kishi	63	65	+2
4	Asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasi, ming so'm	278	337	+59
5	Asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi, ming so'm	1324	1557	+233

7.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “Sharq” fermer xo'jaligida asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasi o'tgan yili 278 ming so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 337 ming so'mni tashkil qilgan. Demak, hisobot yilida ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 59 ming so'mga ko'paygan.

Fermer xo'jaligida asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi esa o'tgan yili

1324 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, hisobot yilida 1557 ming so‘mga teng bo‘lgan. Ya’ni, o‘tgan yilga nisbatan bu ko‘rsatkich 233 ming so‘mga ko‘paygan.

Albatta, fermer xo‘jaligida asosiy vositalar bilan ta‘minlanish va qurollanish darajalarining o‘tgan yilga nisbatan ko‘payishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Biroq, ushbu o‘zgarishlarni sabablarini omilli tahlil qilish orqali aniqlash lozim. Chunki, bunday o‘zgarishga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatganini o‘rganish asosida ularning ta‘sir darajalarini aniqlash moliyaviy tahlilda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bois, ushbu ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi va uning o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatini xodimlarning o‘rtacha yillik soniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Aniqlangan natija bir xodim hisobiga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar hajmini ifodalaydi. Bu bog‘lanishni quyidagicha matematik formula ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$Kq = AV / X, \quad (7.1)$$

Bunda: Kq – asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti; AV – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati; X – xodimlarning o‘rtacha yillik soni.

Ushbu formuladan ko‘rinadiki, asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi (koeffitsiyenti)ning o‘zgarishiga quyidagi ikki omil ta‘sir ko‘rsatadi:

- asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi;
- xodimlarning o‘rtacha yillik sonining o‘zgarishi.

Mazkur omillarning ta‘sirini “Qayta hisoblash” usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun fermer xo‘jaligida shartli bir xodimga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymatini aniqlab olish zarur. Shartli ko‘rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi asosiy vositalar o‘rtacha yillik qiymatini o‘tgan yildagi xodimlar o‘rtacha yillik soniga bo‘lish kerak:

$$K_{qsh} = AV_1 / X_0 = 101185 / 63 = 1606 \text{ ming so‘m.}$$

Shundan so‘ng, asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi (koeffitsiyenti)ning o‘zgarishiga omillar ta‘sirini hisob-kitob qilib aniqlashimiz

mumkin. Ya'ni, fermer xo'jalikda asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi (koeffitsiyenti)ning o'zgarishiga asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli ko'rsatkichdan uning o'tgan yildagi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\Delta K_{AV} = (AV_1 / X_0) - (AV_0 / X_0) = 1606 - 1324 = +282 \text{ ming so'm.}$$

Demak, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'tgan yilga nisbatan 17753 ming so'mga ko'payishi bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini 282 ming so'mga ortishiga olib kelgan.

Ikkinchi omil xodimlar o'rtacha yillik sonining o'zgarishini ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ko'rsatkichdan shartli ko'rsatkichni chegirib tashlash lozim:

$$\Delta K_X = (AV_1 / X_1) - (AV_1 / X_0) = 1557 - 1606 = -49 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, xodimlar o'rtacha yillik sonining o'tgan yilga nisbatan 2 kishiga ko'payishi, bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini 49 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shunday bo'lsada, o'tgan yilga nisbatan asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'sish salmog'ining yuqori bo'lganligi, mazkur kamayish qiymatini to'liq qoplagan holda fermer xo'jaligida xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 233 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan. Bunday ko'rsatkichni fermer xo'jaligi faoliyati uchun ijobiy holat sifatida baholashimiz mumkin.

7.5. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi ularni samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Bu xo'jalik faoliyati mavjud asosiy vositalarga faqat miqdor ko'rsatkichlar bilan emas, balki uning sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish asosida baho beriladi. Chunki, xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlangan bo'lsada, biroq ulardan samarali foydalanilmasa, albatta uning xo'jalik faoliyati samaradorligi pasayishiga olib keladi. Shu bois, asosiy vositalardan foydalanish

samaradorligi darajasini o'rganish asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash moliyaviy tahlilda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar sifatida asosiy vositalar rentabelligi, fond qaytimi, fond sig'imi kabi ko'rsatkichlar o'rganiladi. Mazkur ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (7.8-jadval).

7.8-jadval

Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Fond qaytimi (FQ)	$FQ = YaM / AV$ Bu yerda: YaM – yalpi mahsulot, AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	Bu ko'rsatkich bir so'mlik asosiy vositalar hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini bildiradi
2	Fond sig'imi (FS)	$FS = AV / YaM$ Bu yerda: YaM – yalpi mahsulot, AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	Bu ko'rsatkich bir so'mlik yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy vositalar qiymatini ifodalaydi
3	Asosiy vositalar daromadliligi (AD)	$AD = SST / AV$ Bu yerda: SST – mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum, AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	Bu ko'rsatkich bir so'mlik asosiy vositalar hisobiga olingan sof tushum summasini bildiradi
4	Asosiy vositalar rentabelligi (AR)	$AR = SF / AV$ Bu yerda: SF – sof foyda, AV – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	Bu ko'rsatkich bir so'mlik asosiy vositalar hisobiga olingan foyda summasini bildiradi

Moliyaviy tahlilda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili ularning har bir turi bo'yicha hisobot yilidagi ko'rsatkichini o'tgan yildagi ko'rsatkichiga solishtirib o'zgarishini aniqlab o'rganishdan boshlanadi.

Xususan, mazkur ko'rsatkichlarni “Sharq” fermer xo'jaligi misolida tahlil qilib o'rganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (7.9-jadval).

7.9-jadvalda “Sharq” fermer xo'jaligida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili keltirilgan. Unga ko'ra fermer xo'jaligida fond qaytimi o'tgan yili 9,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 8,1 ming so'mga teng bo'lgan. Demak, hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan fond qaytimi darajasi, ya'ni 1000 so'mlik asosiy vosita hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi 1,3 ming so'mga yoki 14 foizga

kamaygan.

7.9-jadval

Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Yalpi mahsulot hajmi, ming so'm	784020	819950	+35930
2	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	653350	683292	+29942
3	Sof foyda, ming so'm	38746	41324	+2578
4	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'mda	83432	101185	+17753
5	Fond qaytimi, ming so'm	9,4	8,1	-1,3
6	Fond sig'imi, ming so'm	0,106	0,123	+0,017
7	Asosiy vositalar daromadliligi, ming so'm	7,83	6,75	-1,08
8	Asosiy vositalar rentabelligi, ming so'm	0,46	0,41	-0,05

Fond sig'imi ko'rsatkichi esa hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 0,017 ming so'mga ko'paygan. Ya'ni, 1000 so'mlik yalpi mahsulot hajmida asosiy vositalar qiymati o'tgan yilda 0,106 ming so'm bo'lgan bo'lsa, hisobot yilida bu ko'rsatkich 0,123 ming so'mgacha oshgan.

Albatta, fermer xo'jaligida o'tgan yilga nisbatan fond qaytimi darajasining kamayishi va fond sig'imi darajasining ko'payishini ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Bunday o'zgarishlarning vujudga kelishiga o'tgan yilga nisbatan yalpi mahsulot hajmining o'sishi (35930 ming so'm yoki 4,6 foiz)ga qaraganda asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'sish (17753 ming so'mga yoki 21,3 foiz) darajasi yuqori bo'lganligi bevosita ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, fermer xo'jaligi rahbariyati, asosiy vositalardan samarali foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish choralarini ko'rishi lozim.

O'z navbatida, fermer xo'jaligida asosiy vositalar daromadliligi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 1,08 ming so'mga kamaygan bo'lsa, asosiy vositalar rentabelligi ham mos ravishda 0,05 ming so'mga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zgarishlarning vujudga kelishiga ham bevosita asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'tgan yilga nisbatan oshishi ta'sir ko'rsatgan.

Biz "Sharq" fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlilini dinamik o'zgarishini ko'rib chiqdik. Endi, mazkur ko'rsatkichlardan biri bo'lgan asosiy vositalar rentabelligi

va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni omilli tahliliga to'xtalib o'tamiz.

7.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida asosiy vositalar rentabelligi o'tgan yili 0,46 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 0,41 ming so'mga teng bo'lgan. Ya'ni, o'tgan yilga nisbatan 0,05 ming so'mga kamaygan.

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'lgan:

- sof foyda summasining o'zgarishi;
- asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Mazkur omillarning ta'sirini "Qayta hisoblash" usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun fermer xo'jaligida shartli asosiy vositalar rentabelligini aniqlab olish lozim. Ushbu shartli ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi sof foyda summasini o'tgan yildagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish kerak:

$$K_{qsh} = SF_1 / AV_0 = 41324 / 83432 = 0,49 \text{ ming so'm.}$$

Endi, asosiy vositalar rentabelligi darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirini "Qayta hisoblash" usuli yordamida aniqlashimiz mumkin. Ya'ni, fermer xo'jalikda asosiy vositalar rentabellik darajasining o'zgarishiga sof foyda summasining o'zgarishini ta'sirini aniqlash uchun shartli ko'rsatkichdan uning o'tgan yildagi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\Delta K_{SF} = (SF_1 / AV_0) - (SF_0 / AV_0) = 0,49 - 0,46 = +0,03 \text{ ming so'm.}$$

Demak, fermer xo'jaligi sof foydasining o'tgan yilga nisbatan 2578 ming so'mga ko'payishi asosiy vositalar rentabelligi darajasini, ya'ni 1000 so'mlik asosiy vositalar hisobiga olingan sof foyda hajmini 0,03 ming so'mga ortishiga ta'sir ko'rsatgan.

Fermer xo'jaligida o'tgan yilga nisbatan asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining 17753 ming so'mga ko'payishini asosiy vositalar rentabelligi darajasiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ko'rsatkichdan shartli ko'rsatkichni chegirib tashlash lozim:

$$\Delta K_{AV} = (SF_1 / AV_1) - (SF_1 / AV_0) = 0,41 - 0,49 = - 0,08 \text{ ming so'm.}$$

Yuqoridagi hisob-kitobga ko'ra, mazkur omilning o'zgarishi asosiy vositalar rentabellik darajasini 0,08 ming so'mga pasaytirgan. Boshqacha qilib aytganda, 1000 so'mlik asosiy vositalar hisobiga olingan sof foyda summasi 0,08 ming so'mga kamaygan.

Shunday qilib, asosiy vositalar rentabelligi darajasi ikki omilning ta'siri natijasida o'tgan yilga nisbatan 0,05 ming so'mga kamaygan. Bunga asosan yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, o'tgan yilga nisbatan asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining oshishi, sof foyda summasining o'sishiga qaraganda yuqori bo'lganligi katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim. Chunki, asosiy vositalardan samarali foydalanish mahsulot hajmini ortishiga, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi arzonlashishiga ta'sir ko'rsatadi va natijada rentabellik ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Asosiy vositalari deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilining maqsadi va asosiy vazifalarini tushuntiring?
3. Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilida qaysi axborot manbalaridan foydalaniladi?
4. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday tahlil etiladi?
5. Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi necha guruhga bo'lib o'rganiladi va ularning mazmunini aytib bering?
6. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar qanday ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini tushuntiring?
7. Asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini tushuntiring?

8. Asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar mazmuni va ularni aniqlash tartibini tushuntiring?
9. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga nimalar kiradi va ular qanday tahlil etiladi?
10. Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlari va ularni tahlil qilib o'rganish tartibini tushuntiring?

NAZORAT TESTLARI

1. Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish samaradorligi tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" (1-shakl), "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-shakl), statistik hisobot shakllari, buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schetlari ma'lumotlari
- B) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" (1-shakl) va "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot (2-shakl) ma'lumotlari
- C) Biznes reja ma'lumotlari, "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot (2-shakl) va "Xususiy kapital to'g'risida"gi hisobot (5-shakl) ma'lumotlari
- D) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" (1-shakl), "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi hisobot (2-shakl) va "Pul oqimlari to'g'risida"gi hisobot (4-shakl) ma'lumotlari

2. "Buxgalteriya balansi" (1-shakl)ga ko'ra asosiy vositalarning qoldiq qiymati qanday aniqlanadi?

- A) Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan (010-satr) eskirish summasini (011-satr) ayirish orqali
- B) Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga (010-satr) eskirish summasini (011-satr) qo'shish orqali
- C) Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini (010-satr) eskirish summasiga (011-satr) bo'lish orqali
- D) Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini (010-satr) eskirish summasiga

(011-satr) ko'paytirish orqali

3. Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qanday ko'rsatkichlar kiradi?

- A) Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti
- B) Asosiy vositalar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti
- C) Fond qaytimi, fond sig'imi, asosiy vositalar daromadliligi, asosiy vositalar rentabelligi
- D) Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti, fond qaytimi, fond sig'imi

4. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarga qaysi ko'rsatkichlar kiradi?

- A) Fond qaytimi, fond sig'imi, asosiy vositalar daromadliligi, asosiy vositalar rentabelligi
- B) Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti, fond qaytimi, fond sig'imi
- C) Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti
- D) Asosiy vositalarning bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti

5. Qaysi ko'rsatkichlar asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar hisoblanadi?

- A) Asosiy vositalarning bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti
- B) Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalar eskirish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti
- C) Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti, asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti, asosiy vositalar bilan qurollanish koeffitsiyenti, fond qaytimi, fond sig'imi
- D) Fond qaytimi, fond sig'imi, asosiy vositalar daromadliligi, asosiy vositalar rentabelligi

6. Asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi qanday aniqlanadi?

- A) Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning eskirish qiymatiga bo'lish orqali;
- B) Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali
- C) Asosiy vositalarning eskirish qiymatini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali
- D) Ishlab chiqarishga yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymatiga bo'lish orqali

7. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish bilan
- B) Asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning eskirish qiymatiga bo'lish bilan
- C) Ishlab chiqarishga yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymatiga bo'lish bilan
- D) Asosiy vositalarning eskirish qiymatini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish bilan

8. Fond qaytimi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) Yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali
- B) Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini yalpi mahsulot hajmiga bo'lish orqali
- C) Sof foydani asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali
- D) Yalpi mahsulot hajmini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali

9. Fond sig'imi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) Yalpi mahsulot hajmini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi
- B) Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatini yalpi mahsulot hajmiga bo'lish bilan aniqlanadi
- C) Sof foydani asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi
- D) Yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish bilan aniqlanadi

VIII BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING TAHLILI

8.1. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar bilan o‘zaro turli hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Subyektning moliyaviy holatining mustahkamligini ta‘minlashning asosiy shartlaridan biri bu mazkur hisob-kitoblarni to‘g‘ri tashkil etgan holda to‘lov imtizomiga rioya qilish hisoblanadi. Chunki, o‘zaro hisob-kitoblarning belgilangan muddatlarda amalga oshirilmasligi natijasida debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzaga keladi. Ushbu qarzlarning katta hajmda to‘planib qolishi bevosita subyekt moliyaviy holatining yomonlashuviga ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, debitorlik qarzlarning katta hajmda paydo bo‘lishi mavjud mablag‘larni muomaladan chiqarilishi natijasida o‘z aylanma mablag‘larining yetishmovchiligi yuzaga keladi, bu esa kreditorlik qarzining oshishiga olib keladi, bunday holat esa, subyektning moliyaviy ahvoriga salbiy ta‘sir qiladi. Shu bois, debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog‘liq jarayonni uzluksiz tahlil qilib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlil qilib o‘rganilar ekan, birinchi navbatta debitorlik va kreditorlik qarzlari deganda qanday qarzlari ekanligini tushunib olishimiz lozim. Ya‘ni, *debitorlik qarzlari* bu xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqa korxonalar va tashkilotlardan olishi lozim bo‘lgan majburiyatlaridir. *Kreditorlik qarzlari* esa xo‘jalik subyektining boshqa korxonalar va tashkilotlarga to‘lashi lozim bo‘lgan majburiyatlaridir.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik va kreditorlik qarzlarning mavjud holatini o‘rganish orqali ularning aylanish davrini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash asosida moliyaviy holatini yaxshilash debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holatiga va ular o'rtasidagi tenglik nisbatiga baho berish;
- debitorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- kreditorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi va uning o'zgarishiga baho berish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning mavjudligini aniqlash va ularni tugatish yo'llarini o'rganish;
- debitorlik qarzlarni undirish va kreditorlik qarzlari to'lash bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili tegishli axborot manbalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Bunday axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi buxgalteriya hisobining tegishli schyotlar ma'lumotlari.

8.2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holati tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlil qilib o'rganilar ekan, birinchi navbatta mazkur qarzlarning umumiy holatiga baho berib o'rganishdan boshlanadi. Bunda muayyan davrga bo'lgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi, ularni o'zaro solishtirish orqali ortiqchaligi va aksincha holatlari o'rganilgan holda baho beriladi. Shu bilan birga, ularning vujudga kelish sabablari ham o'rganiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holatiga baho berishda asosiy axborot manbalaridan biri bu buxgalteriya balansi (1-sonli shakl) hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27 dekabrda 140-sonli

buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya balansi"ga muvofiq debitorlik va kreditorlik qarzlari qatoriga quyidagilar kiritiladi (8.1-jadval).

8.1-jadval

Buxgalteriya balansiga ko'ra debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibi

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Ko'rsatkichlar	Satr raqami
Debitorlik qarzlari		Kreditorlik qarzlari	
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610
Alohida bo'linmalarining qarzlari (4110)	230	Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz (6120);	630
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120)	240	Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	Olingan bo'naklar (6300)	670
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400)	680
Byudjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400)	270	Sug'urtalar bo'yicha qarz (6510)	690
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520)	700
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290	Ta'sischilarga bo'lgan qarzlari (6600)	710
Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi (4700)	300	Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700)	720
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	760

Shu ta'kidlab o'tish kerak-ki, kreditorlik qarzlari ikki guruhga, ya'ni uzoq muddatli kreditorlik qarzlari va joriy kreditorlik qarzlari bo'linadi. Biz 8.1-jadvalda joriy kreditorlik qarzlari tarkibini keltirib o'tdik. Uzoq muddatli kreditorlik qarzlari tarkibiga ham yuqoridagi axborot manbaiga ko'ra quyidagi qarzlari kiritilgan:

- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000);
- sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120);
- soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240);
- xaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300);

- boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900).

Mazkur axborot manбайдan foydalangan “Sharq” fermer xo‘jaligining debitorlik va kreditorlik qarzlariga baho berishda ularni balans holatiga keltirib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (8.2-jadval).

8.2-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligining debitorlik va kreditorlik qarzlarini balansli bog‘lanish usulida tahlil qilish

Debitorlik qarzlari	Summa, ming so‘m	Kreditorlik qarzlari	Summa, ming so‘m
Xaridorlar va buyurtmachilar-ning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	11401	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	4657
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	620	Olingan bo‘naklar (6300)	4945
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	6891	Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	4614
Byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	-	Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	-
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	1835	Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	3890
Ta‘sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	-	Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz (6700)	3395
Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo‘yicha qarzi (4700)	-	Ta‘sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	3938	Boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	905
Jami	24685	Jami	22406
Kreditorlik qarzlarining debitorlik qarzlaridan ortiqchaligi	-	Debitorlik qarzlarining kreditorlik qarzlaridan ortiqchaligi	2279
BALANS	62588	BALANS	62588

8.2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida o‘rganilayotgan davrda jami debitorlik qarzlari 24685 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, jami kreditorlik qarzlar esa 22406 ming so‘mni tashkil etgan. Ya‘ni, debitorlik qarzlari kreditorlik qarzlaridan 2279 ming so‘mga ko‘p bo‘lgan. Shu bilan birga, ushbu qarzlar tarkibida muddati o‘tgan qarzlar o‘rganilayotgan davrda mavjud emas. Bunday natijalarni nisbatan ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Fermer xo‘jaligining debitorlik qarzlari asosiy qismi “Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi” 11401 ming so‘mni, “Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar” 6891 ming so‘mni va “Boshqa debitorlik qarzlari” 3938 ming so‘mni tashkil etmoqda. Shuningdek, kreditorlik qarzlari tarkibiga ham e‘tibor beradigan bo‘lsak, uning asosiy qismini “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari” 4657 ming so‘mni, “Olingan bo‘naklar” 4945 ming so‘mni, “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzi” 4614 ming so‘mni, “Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzi” 3890 ming so‘mni va “Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzi” 3395 ming so‘mni tashkil qilmoqda.

Bu shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaligida to‘lov imtizomi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Ayniqsa, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlari, davlat byudjeti oldida soliq va yig‘imlar, maqsadli davlat fondlariga to‘lovlar va mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlari yetarli darajada amalga oshirilmagan. Buning oqibatida fermer xo‘jaligiga nisbatan kelgusida iqtisodiy jarima va moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishi mumkin. Bu esa, fermer xo‘jaligining moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, “Sharq” fermer xo‘jaligi rahbariyati debitorlik qarzlarni kamaytirish, ya‘ni undirish, ularni nazorat qilish choralarini va kreditorlik majburiyatlarni qisqartirish, ya‘ni to‘lash choralarini ko‘rishi lozim. Aks holda, bu fermer xo‘jaligining moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Xo‘sh debitorlik va kreditorlik qarzlari qanday yuzaga keladi. Ularning kelib chiqish sabablari nima?

To‘g‘ri yuqorida debitorlik va kreditorlik qarzlari bevosita xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan boshqa xo‘jalik subyekt o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblardan kelib chiqadi deb ta‘kidlab o‘tdik. Endi, ushbu o‘zaro hisob-kitob muomalalariga kengroq to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ya‘ni, debitorlik va kreditorlik qarzlarning qanday yuzaga kelishini bayon qilamiz.

Debitorlik qarzlari xo‘jalik yurituvchi subyekt bilan xaridor va buyurtmachilar o‘rtasida mahsulot (ishlar, xizmatlar)lar yetkazib berish yoki

xizmat ko'rsatish munosabatlarida, alohida bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari bilan o'zaro hisob-kitob munosabatlarida, xodimlar bilan berilgan mehnat haqi ko'rinishidagi, xizmat safari, umumxo'jalik xarajatlari uchun hisobdor shaxslarga va xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar ko'rinishidagi o'zaro hisob-kitob munosabatlarida, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga tovar-moddiy zaxiralar, uzoq muddatli aktivlar uchun berilgan bo'nak to'lovlari ko'rinishida, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha bo'nak to'lovlari hamda maqsadli davlat jamg'armalariga va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari ko'rinishida, ustav kapitaliga ta'sisчилarning ulushlari bo'yicha qarzi ko'rinishidagi, xodimlarning kreditga sotilgan tovarlar, berilgan qarzlarni, moddiy zararni qoplash va boshqa xodimlarning qarzlari ko'rinishida hamda boshqa turli debitorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi.

Kreditorlik qarzlari esa, xo'jalik yurituvchi subyekt bilan mol yetkazib beruvchi va pudratchilar o'rtasida yetkazib berilgan mahsulotlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lash bo'yicha hisob-kitob munosabatlarida, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari bilan o'zaro hisob-kitob munosabatlarida, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha hisob-kitob munosabatlari, xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha o'zaro munosabatlarda va turli kreditorlar bilan hisob-kitob munosabatlari orqali vujudga keladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning kelib chiqish bo'yicha quyidagi asosiy sabablarni keltirish mumkin:

- o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov qobiliyatiga ega emasligi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarda mulk va unga egalik qilish hissining pastligi;
- o'zaro hisob-kitoblarda shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;
- hisob-kitob muomalalari o'z vaqtida hisobga olinmaganligi;
- tomonlardan birining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan

qoidalarini to'g'ri talqin qilolmasligi;

- hisob-kitoblar zamonaviy shakllari cheklanganligi.

Shuningdek, moliyaviy tahlilda muddati uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga kelishiga ham alohida ahamiyat beriladi. Chunki, muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligining buzilishiga, moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra debitorlik va kreditorlik qarzlarni undirib olish muddati 3 oy yoki 90 kalendar kun qilib belgilangan. Ushbu belgilangan muddatdan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlari nazoratga olinishi hamda ularning holati bo'yicha qonunchilikda ko'zda tutilgan javobgarlik shartlari (ma'muriy va moliyaviy) belgilanishi zarur.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarish muddati sifatida xo'jalik yurituvchi subyekt bilan boshqa yuridik shaxslar o'rtasida ham, jismoniy shaxslar o'rtasida ham 3 yil muddat qilib belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan yoki undirib olinmagan qarzlarning xo'jalik yurituvchi subyektning foyda va zararlariga olib boriladi. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni foyda va zararlar qatoriga olib borish shartlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda qat'iy belgilangan.

8.3. Debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va aylanuvchanligining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bilan uning haqini to'lash o'rtasida ma'lum bir vaqt o'tishi natijasida debitorlik va kreditorlik qarzlari vujudga keladi. Moliyaviy tahlilda debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi, tashkil topish muddatlari va aylanuvchanligiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Debitorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishini tahlil qilib o'rganish uchun, avvalo debitorlik qarzlari tarkibiga kiruvchi har bir qarz turi hajmi va hissasi aniqlanadi. Debitorlik qarzlarning hissasi shu qarz summasini 100

ga ko‘paytirib, jami qarz summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi. Shundan so‘ng taqqoslash usuli yordamida tahlil amalga oshiriladi. Ya‘ni, hisobot yilidagi qarzlarning hajmini o‘tgan yildagi qarzlarning hajmiga taqqoslagan holda o‘zgarishi aniqlanadi. Mazkur o‘zgarishlar mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Debitorlik qarzlari bo‘yicha mutloq o‘zgarish hisobot yilidagi qarz summasidan o‘tgan yildagi qarz summasini chegirish orqali aniqlanadi. Nisbiy o‘zgarishni aniqlash uchun esa mutloq o‘zgarish summasini 100 ga ko‘paytirib, natijani o‘tgan yildagi qarz summasiga bo‘lish lozim.

Mazkur qoidalarga asoslangan holda “Sharq” fermer xo‘jaligining debitorlik qarzlari tarkibi va tuzilishini tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (8.3-jadval).

8.3-jadval

Debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishining tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil		Hisobot yili		O‘zgarishi (+;-)	
		Summasi, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summasi, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summasi, ming so‘m	Salmog‘i, %
1	Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari	13857	54,3	11401	46,2	-2456	18,0
2	Xodimlarga berilgan bo‘naklar	758	3,0	620	2,5	-138	18,2
3	Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	7158	28,1	6891	27,9	-267	3,7
4	Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari	1385	5,4	1835	7,4	+450	32,5
5	Boshqa debitorlik qarzlari	2356	9,2	3938	16,0	+1582	67,0
	Jami debitorlik qarzlari	25514	100	24685	100	-829	3,2

8.3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida jami debitorlik qarzlari o‘tgan yili 25514 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich hisobot yilida 24685 ming so‘mga teng bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, o‘tgan yilga nisbatan debitorlik qarzlari 829 ming so‘mga kamaygan. Bunday o‘zgarishni nisbatan ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Shu bilan birga, debitorlik qarzlari tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak,

asosiy qismini o‘rganilayotgan davrlarda xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari tashkil etmoqda. Mazkur qarzlarning hajmi ham o‘tgan yilga nisbatan 2456 ming so‘mga yoki 18 foizga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolgan qarz turlari asosini berilgan bo‘naklar tashkil etmoqda. Bunday holatni bir tomondan fermer xo‘jaligi to‘lov imtizomiga rioya qilmoqda deb baholash mumkin. Biroq, to‘lov muddati kelmagan majburiyatlarni bajarish uchun oldindan bo‘nak tariqasida mablag‘larning o‘tkazilishi, xo‘jalik faoliyatida mablag‘larning yetishmovchiligiga olib keladi. Bu esa, fermer xo‘jaligining moliyaviy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, biror bir xulosaga kelishdan oldin debitorlik qarzlari vujudga kelish muddatlari bo‘yicha ham tahlil qilib o‘rganish lozim.

“Sharq” fermer xo‘jaligining hisobot yilida debitorlik qarzlari vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (8.4-jadval).

8.4-jadval
“Sharq” fermer xo‘jaligida debitorlik qarzlarning vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tahlili

(hisobot yili)

Debitorlik majburiyatlari moddalari	Davri oxiriga jami	Shu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo‘yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	2 oydan 3 oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi	11401	5690	5711	-	-	-
Xodimlarga berilgan bo‘naklar	620	620	-	-	-	-
Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo‘naklar	6891	3098	1983	1810	-	-
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari	1835	658	1177	-	-	-
Boshqa debitorlik qarzlari	3938	672	570	2696	-	-
Jami	24685	10738	9441	4506	-	-

8.4-jadval ma‘lumotlari ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligining jami debitorlik qarzlari hisobot yilida 24685 ming so‘mni tashkil qiladi. Uning asosiy qismini, ya‘ni 10738 ming so‘mligi yoki 43,5 % bir oygacha bo‘lgan debitorlik qarzlardir. Bir oydan ikki oygacha bo‘lgan debitorlik qarzlari 9441 ming so‘mni yoki 38,3 % ni tashkil qilmoqda. Ikki oydan uch oygacha bo‘lgan debitorlik

qarzlari 2790 ming so‘mni yoki 18,2 % ni tashkil qilgan. Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari hisobot yilida mavjud bo‘lmagan.

Shuningdek, moliyaviy tahlilda debitorlik qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e‘tibor beriladi. Chunki, debitorlik qarzlari aylanuvchanlik darajasi xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligiga baho berishda ularning aylanuvchanlik koeffitsiyenti va aylanish davri ko‘rsatkichlari tahlil qilib o‘rganiladi. Mazkur ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (8.5-jadval).

8.5-jadval

Debitorlik qarzlari aylanuvchanligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Ko‘rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (Ka)	$Ka = CCT / DQ$ SST – mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum; DQ – debitorlik qarzlari	Bu ko‘rsatkich debitorlik qarzlarni likvidligini ifodalaydi
Debitorlik qarzlarning aylanish davri (Ad)	$Ad = DQ \times 360 / SST$	Bu ko‘rsatkich debitorlik qarzlarni necha kundan keyin aylanma mablag‘ tarkibiga o‘tishini ifodalaydi

Ushbu ko‘rsatkichlarni “Sharq” fermer xo‘jaligining debitorlik qarzlarni aylanuvchanligiga baho berish uchun tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotga ega bo‘lindi (8.6-jadval).

8.6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida debitorlik qarzlarning summasi hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 829 ming so‘mga kamaygan. Bunday o‘zgarishni fermer xo‘jaligi uchun biroz ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Shuningdek, fermer xo‘jaligida hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi 29942 ming so‘mga o‘sganligini kuzatish mumkin. Mazkur o‘zgarishlar natijasida debitorlik qarzlarning undirish davri o‘tgan yilga nisbatan 1 kunga qisqargan.

8.6-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida debitorlik qarzlari aylanuvchanligining tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili	O‘zgarishi (+,-)
1. Jami debitorlik qarzlari, ming so‘m	25514	24685	-829
2. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	653350	683292	+29942
3. Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari, ming so‘m	-	-	-
4. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2/1)	25,607	27,680	+2,073
5. Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida (1*360/2)	14	13	-1
6. Muddati o‘tgan debitorlik qarzlari ulushi, % (4/1*100)	-	-	-

Fermer xo‘jaligida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o‘tgan yili 25,607 koeffitsiyentni tashkil qilgan bo‘lsa, bu koeffitsiyent hisobot yilida 27,680 koeffitsiyentga ya‘ni, 2,073 koeffitsiyentga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin. Bunday natijalarni fermer xo‘jaligi uchun nisbatan ijobiy holat deb baholash mumkin.

Yuqorida fermer xo‘jaligi debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davrlarini aniqlab, ularning o‘zgarishini taqqoslash usuli orqali o‘rgangan holda umumiy baho berildi. Endi, debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davrlarining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz. Chunki, mazkur ko‘rsatkichlar qaysi omillar hisobiga o‘zgarganligi va ularning ta‘sir darajalari qanday bo‘lganligini o‘rganish moliyaviy tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ularning o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilib o‘rganiladi. Masalan, debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyentining o‘zgarishiga yuqoridagi 8.5-jadvalda keltirilgan aniqlash tartibiga ko‘ra ikki omil ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni:

- mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasining o‘zgarishi;
- debitorlik qarzlari summasining o‘zgarishi.

Ushbu omillarning debitorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentiga ta‘sirini “Qayta hisoblash” usuli orqali tahlil qilib o‘rganish mumkin. Buning uchun shartli

aylanish koeffitsiyentini aniqlab olish lozim. Uni aniqlash uchun hisobot yilidagi mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushumni (SST) o'tgan yildagi debitorlik qarzlari (DQ) bo'lish kerak:

$$K_{a_{sh}} = SST_1 / DQ_0 = 683292 / 25514 = 26,781 \text{ ming so'm.}$$

Xuddi shunday tartibda debitorlik qarzlarning ham shartli aylanish davri aniqlab olinadi.

Mazkur bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlangandan so'ng, ularning o'zgarishi va omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi (8.7-jadval).

8.7-jadval

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davri o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli hisobot yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)	shu jumladan	
					sotishdan olingan sof tushum summasi o'zgarishi hisobiga	debitorlik qarzlari summasi o'zgarishi hisobiga
1. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	25,607	26,781	27,680	+2,073	+1,174	+0,899
2. Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida	14	13,4	13	-1	-0,6	-0,4

8.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davrining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan.

Fermer xo'jaligida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan 2,073 koeffitsiyentga oshgan. Bu o'zgarishda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi ta'sirida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti 1,174 koeffitsiyentga, debitorlik qarzlari hajmining o'zgarishi hisobiga esa aylanish koeffitsiyenti 0,899 koeffitsiyentga oshgan. Har ikkala omil ta'sirida aylanish koeffitsiyenti 2,073 koeffitsiyentga o'zgargan.

Debitorlik qarzlari aylanish davrini esa, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan

olingan sof tushumning o'zgarishi 0,6 kunga, debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi 0,4 kunga qisqarishiga ta'sir ko'rsatganligini kuzatish mumkin.

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati debitorlik qarzlari yanada kamaytirish bo'yicha tegishli amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va xo'jalik faoliyatiga tatbiq etishi lozim. Buning natijasida xo'jalik faoliyatida foydalanilmayotgan aylanma mablag'lardan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, fermer xo'jaligining moliyaviy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

8.4. Kreditorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va aylanuvchanligining tahlili

Kreditorlik qarzlari xo'jalik yurituvchi subyektning to'lashi lozim bo'lgan qarzlari xarakterlaydi. Moliyaviy holatning yomonlashishi ko'p jihatdan ushbu qarzlarning katta miqdorda to'planib qolishiga bog'liq bo'ladi. Kreditorlik qarzlarning to'planishi o'zaro hisob-kitob ishlari to'g'ri yo'lga quyilmaganligi va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilinmasligi oqibatida paydo bo'ladi. Natijada mavjud qarzдорlikdan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan qo'shimcha penya va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi mumkin. Bu esa, uning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kreditorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi, tashkil topish muddatlari va aylanuvchanligi tahlil qilib o'rganiladi.

Biz yuqorida kreditorlik qarzlarning tarkibiga nimalar kirish, qanday yuzaga kelishi va ularning kelib chiqish sabablari to'g'risida to'xtalib o'tdik. Endi, birinchi navbatda ularning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishini tahlil qilib o'rganish holda baho beramiz.

Kreditorlik qarzlarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishini tahlil qilib o'rganish uchun avvalo debitorlik qarzlari kabi uning tarkibiga kiruvchi har bir qarz turi hajmi va hissasi aniqlanadi. Kreditorlik qarzlarning hissasi aniqlash uchun har bir qarz summasini 100 ga ko'paytirib, jami qarz summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin taqqoslash usuli orqali tahlil amalga oshiriladi. Ya'ni, hisobot yilidagi qarzlar hajmini o'tgan yildagi qarzlar hajmiga taqqoslagan holda

o'zgarishi aniqlanadi. Mazkur o'zgarishlar ham mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Mutlaq o'zgarishni aniqlash uchun kreditorlik qarzlarning hisobot yilidagi summasidan o'tgan yildagi summasini chegirish kerak. Nisbiy o'zgarishni aniqlash uchun esa mutloq o'zgarish summasini 100 ga ko'paytirib, natijani o'tgan yildagi qarz summasiga bo'lish lozim.

Yuqoridagi qoidalarga asoslangan holda "Sharq" fermer xo'jaligining kreditorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (8.8-jadval).

8.8-jadval

Kreditorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)	
		Summasi, ming so'm	Salmog'i, %	Summasi, ming so'm	Salmog'i, %	Summasi, ming so'm	Salmog'i, %
1	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	2935	10,8	4657	20,8	+1722	58,7
2	Olingan bo'naklar	4428	16,2	4945	22,1	+517	11,7
3	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz	11552	42,4	4614	20,6	-6938	60,0
4	Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	3767	13,8	3890	17,4	+123	3,3
5	Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz	4283	15,7	3395	15,1	-888	20,7
6	Boshqa kreditorlik qarzlari	305	1,1	905	4,0	+600	196,7
	Jami kreditorlik qarzlari	27270	100	22406	100	-4864	17,8

8.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida jami kreditorlik qarzlari o'tgan yili 27270 ming so'm bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 22406 ming so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, o'tgan yilga nisbatan kreditorlik qarzlari 4864 ming so'mga kamaygan. Ushbu o'zgarishni nisbatan ijobiy holat sifatida baholash lozim.

Fermer xo'jaligida kreditorlik qarzlari tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz" 1722 ming so'm yoki 58,7 foizga, "Olingan bo'naklar" 517 ming so'm yoki 11,7 foizga, "Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz" 123 ming

so‘m yoki 3,3 foizga va “Boshqa kreditorlik qarzlari” 600 ming so‘m yoki 196,7 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, fermer xo‘jaligi qisqa muddatlarda mazkur qarzlarni qaytarish choralarini ko‘rishi lozim. Aks holda, fermer xo‘jaligiga nisbatan qo‘shimcha penya va moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishi mumkin.

Shuningdek, “Sharq” fermer xo‘jaligining hisobot yilidagi kreditorlik qarzlarini vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (8.9-jadval).

8.9-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida debitorlik qarzlari vujudga kelish muddatlari bo‘yicha tahlili

(hisobot yili)

Kreditorlik majburiyatlari moddalari	Davri oxiriga jami, ming so‘m	Shu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo‘yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	2 oydan 3 oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	4657	2388	1985	284	-	-
2. Olingan bo‘naklar	4945	4945	-	-	-	-
3. Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz	4614	1255	2622	737	-	-
4. Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz	3890	1675	855	1360		
5. Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz	3395	2600	795	-	-	-
6. Boshqa kreditorlik qarzlari	905	425	480	-	-	-
Jami	22406	13288	6737	2381	-	-

8.9-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida jami kreditorlik qarzlarining hisobot davri oxiriga bo‘lgan holati 22406 ming so‘mni tashkil qilgan. Shundan, 1 oygacha bo‘lgan kreditorlik qarzlari 13288 ming so‘mni, 1 oydan 2 oygacha bo‘lgan kreditorlik qarzlari summasi 6737 ming so‘mni, 2 oydan 3 oygacha bo‘lgan kreditorlik qarzlari summasi 2381 ming so‘mni tashkil etadi.

Mazkur jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, fermer xo‘jaligida muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari mavjud bo‘lmagan. Bunday natijani fermer xo‘jaligi uchun

ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Chunki, muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning paydo bo'lishi fermer xo'jaligining iqtisodiy jarimalar to'lashiga olib keladi va uning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Fermer xo'jaligining kreditorlik qarzlarning holatiga ularning aylanish darajalarini o'rganish asosida to'liq baho berish mumkin bo'ladi. Chunki, kreditorlik qarzlari aylanuvchanlik darajasi ham fermer xo'jaligining moliyaviy holatiga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligiga baho berishda ularning aylanuvchanlik koeffitsiyenti va aylanish davri ko'rsatkichlari tahlil qilib o'rganiladi. Mazkur ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (8.10-jadval).

8.10-jadval

Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (Ka)	$Ka = IT / KQ$ Bu yerda: IT – sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxi; KQ – kreditorlik qarzlari	Bu ko'rsatkich kreditorlik qarzlarni pulga aylanish darajasini ifodalaydi
Kreditorlik qarzlarning aylanish davri (Ad)	$Ad = KQ \times 360 / IT$	Bu ko'rsatkich kreditorlik qarzlarni necha kundan keyin aylanma mablag' tarkibiga o'tishini ifodalaydi

“Sharq” fermer xo'jaligining kreditorlik qarzlarni aylanuvchanligiga baho berish uchun ushbu ko'rsatkichlarni tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (8.11-jadval).

8.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “Sharq” fermer xo'jaligida kreditorlik qarzlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4864 ming so'mga qisqargan. Biroq, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi esa hisobot yilida 36740 ming so'mga ko'paygan. Bunday o'zgarishlarning natijasida fermer xo'jaligida kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilgi 20,0 koeffitsiyentdan hisobot yiliga kelib 26,0 koeffitsiyentgacha ko'tarilgan. Ya'ni, kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi tezlashgan.

8.11-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida kreditorlik qarzlari aylanuvchanligining tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili	O‘zgarishi (+,-)
1. Jami kreditorlik qarzlari, ming so‘m	27270	22406	-4864
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m	546908	583648	+36740
3. Kreditorlik qarzlarning muddati o‘tgan qismi, ming so‘m	-	-	-
4. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2/1)	20,0	26,0	+6
5. Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida (1*360/2)	18	14	-4
6. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari ulushi, % (4/1*100)	-	-	-

Bunday holat fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, kreditorlik qarzlarning aylanish davri o‘tgan yilgi 18 kundan hisobot yiliga kelib 14 kungacha qisqarganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday natijalar bir qator omillar ta‘sirida yuzaga kelgan bo‘lib, endi mazkur ko‘rsatkichlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga to‘xtalib o‘sak.

Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentini yuqoridagi 8.10-jadvalda keltirilgan aniqlash tartibiga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkichning o‘zgarishiga ikki omil ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni:

- sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi summasining o‘zgarishi;
- kreditorlik qarzlari summasining o‘zgarishi.

Kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyentiga omillar ta‘sirini “Qayta hisoblash” usuli orqali tahlil qilib o‘rganish mumkin. Buning uchun shartli aylanish koeffitsiyentini aniqlab olish lozim. Uni aniqlash uchun hisobot yilidagi sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini (IT) o‘tgan yildagi kreditorlik qarzlarga (KQ) bo‘lish kerak:

$$Kkq_{sh} = IT_1 / KQ_0 = 583648 / 27270 = 21,4 \text{ ming so‘m.}$$

Mazkur tartibda kreditorlik qarzlarning ham shartli aylanish davri aniqlab olinadi.

Ushbu bog‘lanish ko‘rsatkichlari aniqlangandan so‘ng, ularning o‘zgarishi

va omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi (8.12-jadval).

8.12-jadval

Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davri o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Shartli hisobot yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)	shu jumladan	
					Sotilgan mahsulotlar tannarxining o'zgarishi hisobiga	Kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi hisobiga
1. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	20,0	21,4	26,0	+6	+1,4	+4,6
2. Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida	18	16,8	14	-4	-1,2	-2,8

8.12-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Sharq" fermer xo'jaligida kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6 koeffitsiyentga oshgan. Bu o'zgarishda sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining ta'siri 1,4 koeffitsiyentga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa 4,6 koeffitsiyentga teng bo'lgan. Shu bilan birga, kreditorlik qarzlarning to'lash muddati o'tgan yilga nisbatan 4 kunga tezlashgan. Bu o'zgarishda sotilgan mahsulotlar tannarxining o'zgarishi ta'siri 1,2 kunga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa 2,8 kunga teng bo'lgan. Bunday natijalar fermer xo'jaligini to'lov intizomiga rioya qilinayotganligidan va to'lov qobiliyati yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil qilishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning qanday vujudga kelish sabablari?
4. Debitorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil etiladi?
5. Kreditorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil qilinadi?

6. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning paydo bo'lish muddatlari bo'yicha qanday davrlarga bo'lib o'rganiladi?
7. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanish koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
8. Debitorlik va kreditorlik qarzlari aylanish davri deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
9. Debitorlik qarzlari aylanuvchanligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?
10. Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

NAZORAT TESTLARI

1. Debitorlik qarzlari deganda nima tushuniladi?

- A) Qarshi tomonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- B) Qarshi tomondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- C) Qarshi tomonga 90 kalendar kun ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- D) Qarshi tomondan 90 kalendar kun ichida olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi

2. Kreditorlik qarzlari deganda nima tushuniladi?

- A) Qarshi tomonga to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- B) Qarshi tomondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- C) Qarshi tomonga 90 kalendar kun ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi
- D) Qarshi tomondan 90 kalendar kun ichida olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar tushuniladi

3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A) Buxgalteriya balansi (1-shakl) hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarni aks

ettiruvchi tegishli schyot ma'lumotlari

- B) Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl) va buxgalteriya balansi (1-shakl);
- C) Buxgalteriya balansi (1-shakl) va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)
- D) Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl) va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl)

4. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddati necha oy yoki kun ?

- A) 1 oy yoki 30 kun
- B) 3 oy yoki 90 kun
- C) 2 oy yoki 60 kun
- D) 1 yil

5. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / kreditorlik qarzlari
- B) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami kreditorlik qarzlari
- C) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / jami debitorlik qarzlari
- D) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami debitorlik qarzlari

6. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami kreditorlik qarzlari
- B) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / kreditorlik qarzlari
- C) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami debitorlik qarzlari
- D) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / jami debitorlik qarzlari

7. Debitorlik qarzlarning aylanish davri qanday aniqlanadi?

- A) Jami debitorlik qarzlarni $\times 360 /$ Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum
- B) Jami debitorlik qarzlari $\times 360 /$ Sotilgan mahsulot (ish,xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi
- C) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / majburiyatlar
- D) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum $\times 360 /$ Jami debitorlik qarzlari

8. Kreditorlik qarzlarning aylanish davri qanday aniqlanadi?

- A) Jami debitorlik qarzlarni $\times 360 /$ Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum
- B) Jami kreditorlik qarzlari $\times 360 /$ Sotilgan mahsulot (ish,xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi
- C) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / majburiyatlar
- D) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi $\times 360 /$ Jami kreditorlik qarzlari

9. Debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / majburiyatlar
- B) Hisobot yilidagi mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / o'tgan yildagi debitorlik qarzlari
- C) Hisobot yilidagi sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / o'tgan yildagi kreditorlik qarzlari
- D) Hisobot yilidagi mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / o'tgan yildagi debitorlik majburiyatlari

IX BOB. PUL OQIMLARI TAHLILI

9.1. Pul oqimlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

9-sonli “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ga muvofiq pul mablag‘lari – bu kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek, bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lardir.

Bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy muammolaridan biri bu zarur miqdordagi pul mablag‘lariga ega emasligi va pul oqimlarini tahlil qilib o‘rganmasligi hamda boshqara olmasligidir. Buning natijasida xo‘jalik yurituvchi subyekt sotib olingan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun ularni yetkazib beruvchilar (xizmat ko‘rsatuvchilar) bilan, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha davlat byudjeti bilan, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan va boshqa hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshira olmaydi. Bularning barchasi kreditorlik qarzlarning ko‘payishiga, penyalar hisoblanishi va turli moliyaviy sanksiyalar qo‘llanilishiga olib keladi. Bu esa, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoli yomonlashishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati ko‘p jihatdan pul mablag‘larining mavjudligi va ularning harakatiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, xo‘jalik yurituvchi subyektlar pul mablag‘lari manbalarini izlab topishi, mablag‘lardan samarali foydalanishi, pul mablag‘lari harakatini kuzatib borishi va umuman ularning harakatini to‘g‘ri boshqarishlari uchun pul oqimlarini tahlil qilib o‘rganishlari lozim.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt pul mablag‘lari harakatiga to‘g‘ri, aniq va xolisona baho berish orqali uning sof pul oqimlarida ijobiy saldoni ko‘paytirish imkoniyatlarini aniqlash asosida moliyaviy holatini yaxshilash pul oqimlari tahlilining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda pul oqimlari tahlilining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo‘jalik subyektining pul mablag‘larining harakatiga to‘g‘ri, aniq va

- xolisona baho berish;
- operasion faoliyatdagi pul mablag‘larining harakatiga baho berish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning investisiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlari bo‘yicha pul mablag‘larining sof kirimini va chiqimini aniqlash hamda baho berish;
- pul mablag‘lari kirimi bo‘yicha manbalarini, chiqimi bo‘yicha harakatlarining tarkibini chuqur o‘rganish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektning valyuta mablag‘lari harakatini o‘rganish va unga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;
- xo‘jalik subyektini sof pul oqimlarida ijobiy saldoni ko‘paytirish imkoniyatlarini aniqlash.

Pul oqimlari tahlilining asosiy axborot manbalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- “Buxgalteriya balansi” ma’lumotlari;
- “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” ma’lumotlari;
- pul mablag‘larini hisobga oluvchi tegishli schyot ma’lumotlari.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati samaradorligi va moliyaviy holatining barqarorligi ko‘p jihatdan real pul aylanmasiga bog‘liq. Shu sababli, har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati pul mablag‘lari oqimini bilish uchun asosiy axborot manbai hisoblangan “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot”da keltirilgan ma’lumotlarni o‘qiy olishi, pul tushadigan manbalarni belgilay olishi hamda ulardan samarali foydalanish tartibini bilishi lozim.

Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot – moliyaviy hisobotning shakli bo‘lib, unda joriy xo‘jalik faoliyati jarayonida pul mablag‘lari kelib tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig‘i, shuningdek, investisiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlariga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari aks ettiriladi.

Ushbu hisobotga ko‘ra pul oqimlari asosan to‘rtda jarayon bo‘yicha sodir bo‘ladi. Bular:

- asosiy faoliyatda pul mablag‘larining kirimi va chiqimi;

- investisiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi va chiqimi;
- moliyaviy faoliyatdagi pul mablag‘larining sof kirimi va chiqimi;
- soliqqa tortish (to‘langan soliqlar).

Yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlar bo‘yicha pul mablag‘lari oqimining tahlilini “Sharq” fermer xo‘jaligi misolida o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (9.1-jadval).

9.1-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi pul oqimining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Kirim		Chiqim	
	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %
1. Pul va unga tenglashtirilgan mablag‘larning hisobot yil boshiga qoldig‘i	24729	3,5	-	-
2. Operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘larining kirimi (+), chiqimi (-)	672375	99,3	627857	97
3. Investisiya faoliyati bo‘yicha pul mablag‘lari kirimi (+), chiqimi (-)	4630	0,7	-	-
4. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul mablag‘larining kirimi (+), chiqimi (-)	-	-	-	-
5. To‘langan soliqlar	-	-	19500	3
Jami pul mablag‘larining harakati:				
Sof ko‘payish yoki kamayish	54377	7,7	-	-

Pul mablag‘lari oqimi tahlil qilib o‘rganilganda pul mablag‘lari oqimini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarning holatiga alohida ahamiyat beriladi. Ya’ni ushbu ko‘rsatkichlar quyidagilardir:

- pul mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi summasi;
- kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘larining tuzilmasi;
- kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘larining o‘zaro saldos;
- kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘lari nisbatining koeffitsiyenti (pul mablag‘lari oqimi koeffitsiyenti).

9.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida mazkur ko‘rsatkichlar quyidagicha bo‘lgan. Ya’ni, fermer xo‘jaligida hisobot davrida kelib tushgan pul mablag‘lari 677005 ming so‘mni tashkil esa, sarflangan pul

mablag'lari summasi 647357 ming so'mni tashkil qiladi. Jami pul mablag'lari kiriminig 99,3 % operasion faoliyatga va qolgan 0,7 % investisiya faoliyat hisobiga to'g'ri kelgan. Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'larining kirimi kuzatilmagan. Fermer xo'jaligida pul mablag'larining 97 % operasion faoliyat uchun sarflangan bo'lsa, qolgan 3 % to'langan soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bularning natijasida fermer xo'jaligining pul mablag'lari qoldig'i yil boshidagi 24729 ming so'mdan, yil oxiriga kelib 54377 ming so'mga ko'paygan. Bunday ko'rsatkichlarni "Sharq" fermer xo'jaligi uchun ijobiy baholash mumkin. Shuningdek, fermer xo'jaligida kelib tushgan pul mablag'larining (677005 ming so'm) va sarflangan pul mablag'larining (647357 ming so'm) nisbati koeffitsiyenti 1,04 ($677005 / 647357$) koeffitsiyentni tashkil qiladi. Bunday natija fermer xo'jaligi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, hisobot davrida fermer xo'jaligida 1000 so'm sarflangan pul mablag'i hisobiga 1040 so'm pul mablag'i kirimi to'g'ri kelmoqda.

Shundan so'ng, pul oqimining tahlilida har faoliyat turi bo'yicha pul mablag'larining kirimi va sarflanishi tahlil qilib o'rganiladi. Ularning tahliliga keyingi paragraflarda to'xtalib o'tamiz.

9.2. Operasion faoliyat bo'yicha pul oqimining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimini tahlil qilib o'rganishda asosiy axborot manbai bo'lib, "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot" hisoblanadi. Ushbu hisobot shakli 9 – sonli "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot" nomli BHMS hamda "Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoidalari"da belgilangan talab va qoidalar bo'yicha tayyorlanadi. Mazkur me'yoriy – huquqiy hujjatlarga ko'ra pul oqimi to'g'risidagi hisobotda hisobot yili bo'yicha pul mablag'larining harakati operasion, investisiya va moliyaviy faoliyat bo'yicha guruhlangan holda aks ettirilishi lozim. Xususan, operasion faoliyat 9 – sonli BHMSda quyidagicha ta'riflanadi: "Operasiya faoliyati - xo'jalik yurituvchi subyektning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investisiya va moliya

faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyati”.

Demak, operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘larining harakati xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyati bilan bog‘liq muomalalarda yuzaga kelib, ular quyidagicha bo‘ladi (9.2-jadval).

9.2-jadval

Operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati

Pul tushumlari	Pul to‘lovlari
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari	Mol yetkazib beruvchilarga to‘lovlar
Operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari	Xaridorlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari
	Operasion faoliyat bilan bog‘liq boshqa to‘lovlar

Operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari oqimini “Sharq” fermer xo‘jaligi misolida tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (9.3-jadval).

9.3-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida operasion faoliyat bo‘yicha pul oqimining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Satr	Kirim		Chigim	
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	010	672375	100	-	-
2. Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	020	-	-	581753	93
3. Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	030	-	-	16423	2
4. Operasion faoliyat bo‘yicha boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	040	-	-	29681	5
JAMI:	-	672375	100	627857	100
Operasion faoliyat bo‘yicha sof pul kirimi yoki chiqimi	050	44518	7	-	-

9.3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra “Sharq” fermer xo‘jaligida operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘larining sof kirimi hisobot davrida 44518 ming so‘mni tashkil qilgan. Fermer xo‘jaligida operasion faoliyat bo‘yicha jami pul mablag‘larining kirimi 672375 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, u to‘liq mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri keladi. Sarflangan pul mablag‘lari esa 627857 ming so‘mni tashkil qilib, uning 581753

ming so‘mi yoki 93 foizi mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lariga, 16423 ming so‘mi yoki 2 foizi xodimlarga to‘langan pul mablag‘lari hisobiga, qolgan 29681 ming so‘mi yoki 5 foizi operasion faoliyat bo‘yicha boshqa pulli to‘lovlar uchun sarf qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, fermer xo‘jaligida operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘larining sof kirimi 44518 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich umumiy tushumning 7 % ni tashkil etadi. Albatta, fermer xo‘jaligi uchun bunday natijani ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Shunday bo‘lsada, fermer xo‘jaligi rahbariyati operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari sof kirimi hajmini ko‘paytirish choralarini ko‘rishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki, mazkur faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari sof kirimining ko‘payishi kelgusida fermer xo‘jaligi moliyaviy holatining barqarorligiga va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

9.3. Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliq to‘lashlardagi pul oqimining tahlili

Investisiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investisiya obyektlarini sotib olish va sotish. Boshqacha aytganda, pul mablag‘larining investision faoliyat bo‘yicha harakati uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish va qisqartirish hamda uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotib olish, sotish muomalalari natijasida yuzaga keladi (9.4-jadval).

9.4-jadval

Investision faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati

Pul tushumlari	Pul to‘lovlari
Asosiy vositalarni sotishdan olingan pul tushumlari	Asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq to‘lovlar
Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan pul tushumlari	Nomoddiy aktivlarni xarid qilish bilan bog‘liq to‘lovlar
Uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotishdan olingan tushumlar	Uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotib olish bo‘yicha pul to‘lovlari
Boshqa pul tushumlari	Investision faoliyatning boshqa pul to‘lovlari

Moliyaviy faoliyat - xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘lib, uning

natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin (9.5-jadval).

9.5-jadval

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati

Pul tushumlari	Pul to‘lovlari
Olingan foizlar va dividendlar	To‘langan foizlar va to‘langan dividendlar
Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to‘lovlari
Uzoq va qisqa muddatli qarzlarning olinishi	Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarning to‘lanishi
Uzoq va qisqa muddatli kreditlarning olinishi	Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo‘yicha pul to‘lovlari
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari	Moliyaviy faoliyatning boshqa pul to‘lovlari

Soliqqa tortish – xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan to‘langan foyda solig‘i va boshqa soliqlar hamda majburiy to‘lovlar summasining chiqib ketishi natijasida yuzaga keladi (9.6-jadval).

9.6-jadval

Soliqqa tortish bo‘yicha pul mablag‘larining harakati

Pul tushumlari	Pul to‘lovlari
Ortiqcha to‘langan foyda solig‘i bo‘yicha pul tushumlari	To‘langan foyda solig‘i
Ortiqcha to‘langan boshqa soliqlar bo‘yicha pul tushumlari	To‘langan boshqa soliqlar
Ortiqcha to‘langan majburiy to‘lovlar bo‘yicha pul tushumlari	To‘langan majburiy to‘lovlar

Mazkur faoliyat turlari bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag‘lari oqimini tahlil qilish uchun quyidagi 9.7-jadval ma’lumotlarini o‘rganishimiz lozim bo‘ladi.

9.7-jadval ma’lumotlari asosida “Sharq” fermer xo‘jaligida investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish faoliyatlaridan ko‘rilgan pul mablag‘larining harakatiga baho berishimiz mumkin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, har bir xo‘jalik yurituvchi subyektda pul mablag‘lari harakatining asosiy qismi, ya’ni 90-95 foizi asosiy xo‘jalik jarayonlariga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ham 9.7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaligining mazkur faoliyat turlari bo‘yicha pul mablag‘larining jami kirimi 4630 ming so‘mni tashkil etgan xolos.

9.7-jadval

Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish faoliyatlaridagi pul oqimining tahlili

Ko'rsatkichlar	Satr	Kirim		Chiqim	
		Summa, ming so'm	Salmog'i, %	Summa, ming so'm	Salmog'i, %
1. Operasion faoliyat bo'yicha pul mabalag'larining sof holati	050	44518	-	-	-
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	060-070	4630	100	-	-
3. Olingan va to'langan foizlar	110	-	-	-	-
4. Olingan va to'langan dividendlar	120	-	-	-	-
5. Investisiya faoliyati va moliyaviy faoliyatning boshqa jarayonlaridagi pul mablag'larining harakati	080-090, 130-170	-	-	-	-
6. Jami to'langan soliqlar	190-200	-	-	19500	100
Jami	-	4630	100	19500	100
Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliq solishdan so'ng sof pul oqimining natijasi	-	29648	-	-	-

Mazkur faoliyatlardan ko'rilgan jami pul mablag'larining chiqimi esa 19500 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, uning ulushi to'langan soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shuningdek, fermer xo'jaligida investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish faoliyatlaridan sof pul oqimi 29648 ming so'mni tashkil qilgan. Ya'ni, ushbu faoliyat natijalaridan so'ng fermer xo'jaligida sof pul mablag'larining kirimi birmuncha kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida mazkur faoliyatlar natijasida asosan pul mablag'larining kirimiga qaraganda pul mablag'larining chiqimining hissasi yuqori bo'lgan. Albatta bunday natijalarni fermer xo'jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi.

9.4. Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari oqimining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisobot davrida xorijiy valyuta ishtirokida operasiyalar sodir bo'lgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot"ga ilova qilinib, "Valyuta mablag'lari harakati

to'g'risidagi ma'lumotnoma" ham taqdim etiladi.

Mazkur ma'lumotnomada xo'jalik subyekting xorijiy valyuta bo'yicha pul mablag'larining harakati aks ettiriladi. Ya'ni, xorijiy valyutadagi pul mablag'lari kirimi va chiqimini quyidagicha tasniflash mumkin (9.8-jadval).

9.8-jadval

Xorijiy valyuta bo'yicha pul mablag'larining harakati

Pul tushumlari	Pul to'lovlari
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan xorijiy valyuta bo'yicha pul mablag'lari tushumi	Ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilgan xorijiy valyuta bo'yicha sarf xarajatlar
Konvertasiya hisobiga tushgan pul mablag'lari tushumi	Ishlab chiqarishni rivojlantirishga qilingan xorijiy valyuta bo'yicha sarf xarajatlar
Xorijiy valyuta ko'rinishida olingan kreditlar bo'yicha pul mablag'lari tushumi	Mahsulot yetkazib beruvchilarga xorijiy valyuta bo'yicha to'lovlar
Boshqa manbalar hisobiga kelib tushgan xorijiy valyuta bo'yicha pul mablag'lari tushumi	Kredit bo'yicha to'lovlar, shu jumladan foizlar
	boshqa maqsadlar uchun sarflangan xorijiy valyuta bo'yicha to'lovlar

Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari oqimi tahlil qilib o'rganilar ekan, birinchi navbatta xo'jalik yurituvchi subyekting mavjud bo'lgan valyuta mablag'larining yil boshiga qoldig'iga jami valyuta tushumlarini qo'shish va jami sarflangan valyuta mablag'lari ayirish orqali hisobot davri oxiridagi valyuta qoldig'iga tengligi tekshiriladi. Pul mablag'larining yil boshiga va yil oxiriga qoldiqlari "Buxgalteriya balansi"ning 320-satrida ko'rsatilgan pul mablag'lari summasiga ham o'zaro muvofiqligi o'rganiladi. Shundan so'ng, xorijiy valyuta mablag'lari qaysi manbalar hisobiga kelib tushganligi va qanday maqsadlarda sarflanganligiga baho beriladi. Tahlil yakunida xorijiy valyuta bo'yicha sof pul mablag'lari hajmini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, 9 – sonli "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot" nomli BHMSda belgilangan qoidalarga muvofiq xorijiy valyutadagi operatsiyalardan pul oqimlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo'yilgan almashtirish qiymatidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi.

Xorijiy sho'ba jamiyatining pul oqimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan pul oqimi kelib chiqqan vaqtdagi almashtirish kursi

bo'yicha qayta hisoblanishi kerak.

Xorijiy valyutaning almashtirish kursi o'zgarishidan kelib chiqadigan amalga oshirilmagan daromad va zarar pul mablag'i harakati hisoblanmaydi. Biroq almashtirish kursi stavkalari o'zgarishning xorijiy valyutada saqlanayotgan yoki to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'iga yoki ularning ekvivalentlariga ta'siri pul mablag'lari harakatini hisobot davri boshlanishi va oxirida bir-biriga muvofiqlashtirish uchun pul oqimi to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu miqdor operatsiya, investisiya va moliya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimidan alohida ko'rsatiladi va agar pul mablag'larining bu harakati hisobot davrining oxiridagi pul almashtirish kursida aks etadigan bo'lsa, tafovutga qo'shiladi.

9.5. Pul mablag'lari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimi, ya'ni operatsion faoliyat, investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish faoliyatlari bo'yicha pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi o'rganilib baho berilgandan so'ng, pul mablag'larining yil boshiga va yil oxiriga mavjud bo'lgan tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi va dinamikasi o'rganilgan holda baho beriladi.

Tahlilda mavjud pul mablag'lari tarkibi nimalardan tashkil topganligi, jami pul mablag'lari tarkibidagi hissasi va yil boshiga nisbatan o'zgarishi o'rganiladi. Tahlil natijalari asosida xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati uchun o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini uzishga mavjud mablag'larning yetarli yoki yetishmasligi, dividendlar to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsadlari uchun yetarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi.

Pul mablag'lari tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil qilishda "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlaridan axborot manbai sifatida foydalanish mumkin. Ushbu axborot manbaiga ko'ra pul mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiradi (9.9-jadval).

9.9-jadval

Pul mablagʻlari tarkibi

Koʻrsatkichlar	Satr raqami
Pul mablagʻlari, jami	320
Kassadagi pul mablagʻlari (5000)	330
Hisob-kitob schyotidagi pul mablagʻlari (5100)	340
Xorijiy valyutadagi pul mablagʻlari (5200)	350
Boshqa pul mablagʻlari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700)	360

“Sharq” fermer xoʻjaligi pul mablagʻlarining tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlil qilib oʻrganilganda quyidagi maʼlumotlarga ega boʻlindi (9.10-jadval).

9.10-jadval

“Sharq” fermer xoʻjaligi pul mablagʻlari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili

№	Koʻrsatkichlar	Hisobot davri boshiga		Hisobot davri oxiriga		Oʻzgarishi (+;-)	
		Summasi, ming soʻm	Sal-mogʻi, %	Summasi, ming soʻm	Sal-mogʻi, %	Summasi, ming soʻm	Sal-mogʻi, %
1	Kassadagi pul mablagʻlari, ming soʻm	-	-	-	-	-	-
2	Hisob-kitob schyotidagi pul mablagʻlari, ming soʻm	24729	100	54377	100	+29648	-
3	Xorijiy valyutadagi pul mablagʻlari, ming soʻm	-	-	-	-	-	-
4	Boshqa pul mablagʻlari va ekvivalentlari, ming soʻm	-	-	-	-	-	-
	Pul mablagʻlari, jami, ming soʻm	24729	100	54377	100	+29648	-

9.10-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, “Sharq” fermer xoʻjaligida jami pul mablagʻlari hisobot davri boshiga 24729 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich hisobot davri oxirida 54377 ming soʻmga teng boʻlgan. Demak, hisobot davri oxirida pul mablagʻlari hisobot davri boshiga nisbatan 29648 ming soʻmga yoki 120 foizga koʻpaygan. Bunday natija fermer xoʻjaligi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Chunki, bunday oʻzgarish fermer xoʻjaligining hisobot davri boshiga nisbatan toʻlov qobiliyati oshganligidan dalolat beradi.

Fermer xoʻjaligining pul mablagʻlari tarkibiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, hisobot davri boshida ham hisobot davri oxirida ham faqat hisob-kitob schyotidagi pul mablagʻlari mavjud boʻlgan xolos.

Shunday qilib, pul mablagʻlari oqimining tahlili xoʻjalik yurituvchi

subyektlarda moliya-xo‘jalik faoliyatini kengaytirishga pul mablag‘larini jalb qilish va moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatlarini belgilab olish imkonini beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Pul mablag‘lari deganda nima tushuniladi?
2. Pul oqimi atamasiga izoh bering?
3. Pul oqimi tahlilining maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Pul oqimini tahlil qilishda qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
5. Pul oqimi qanday jarayonlar bo‘yicha sodir bo‘ladi?
6. Pul oqimini ifodalovchi qanday asosiy ko‘rsatkichlarni bilasiz?
7. Operasion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari oqimi qanday tahlil qilib o‘rganiladi?
8. Investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliq to‘lashlardagi pul mablag‘lari oqimini tahlil qilib o‘rganish tartibini tushuntiring?
9. Xorijiy valyutadagi pul oqimlari qanday tahlil qilib o‘rganiladi?
10. Pul mablag‘lari tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday tahlil qilinadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Pul mablag‘lari deganda nimani tushunasiz?

- A) Pul mablag‘lari – bu kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek, bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lardir
- B) Pul mablag‘lari – bu tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o‘zgarishlar tufayli biroz xatari bo‘lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investisiyalar (moliyaviy qo‘yilmalar)
- C) Pul mablag‘lari – bu bankdagi hisob-kitob, valyuta va boshqa schyotlaridagi mablag‘lardir
- D) Pul mablag‘lari – bu tez va oson almashtiriladigan yuqori likvidli investisiyalar

(moliyaviy qo'yilmalar) va bankdagi hisob-kitob schyotidagi mablag'lardir

2. Pul mablag'lari oqimining tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A) "Buxgalteriya balansi", "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" va pul mablag'larini hisobga oluvchi tegishli schyot ma'lumotlari
- B) "Buxgalteriya balansi", "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" va "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari
- C) "Buxgalteriya balansi", "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" va pul mablag'larini hisobga oluvchi tegishli schyot ma'lumotlari.
- D) "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot", "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" va "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari

3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari oqimi qanday jarayonlarda sodir bo'ladi?

- A) Operasion faoliyat, investisiya faoliyati, soliqqa tortish va tashqi iqtisodiy faoliyatlarda
- B) Operasion faoliyat, investisiya faoliyati, moliyaviy faoliyat va soliqqa tortish
- C) Operasion faoliyat, investisiya faoliyati, soliqqa tortish va valyuta mablag'lar harakatida
- D) Operasion faoliyat, investisiya faoliyati, soliqqa tortish va ijara majburiyatlarida

4. Qanday ko'rsatkichlar pul mablag'lari oqimini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?

- A) Pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining o'zaro saldosi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbatining koeffitsiyenti (pul mablag'lari oqimi koeffitsiyenti)
- B) Pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishi summasi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining tuzilmasi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'larining o'zaro saldosi
- C) Asosiy faoliyatda pul mablag'larining kirimi va chiqimi, investisiya

faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi va chiqimi, moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larining sof kirimi va chiqimi, soliqqa tortish (to'langan soliqlar)

- D) Asosiy faoliyatda pul mablag'larining kirimi va chiqimi, investisiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi va chiqimi, moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'larining sof kirimi va chiqimi, kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari nisbatining koeffitsiyenti (pul mablag'lari oqimi koeffitsiyenti)

5. Qaysi manbalar hisobidan operasion faoliyat bo'yicha pul mablag'lari tushumi yuzaga keladi?

- A) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari, Ortiqcha to'langan foyda solig'i bo'yicha pul tushumlari, Ortiqcha to'langan majburiy to'lovlar bo'yicha pul tushumlari
- B) Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari, Uzoq va qisqa muddatli qarzlarning olinishi, Uzoq va qisqa muddatli kreditlarning olinishi va boshqa pul tushumlari
- C) Asosiy vositalarni sotishdan olingan pul tushumlari, Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan pul tushumlari, Uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotishdan olingan tushumlar
- D) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari va operasion faoliyatning boshqa pul tushumlari

6. Qaysi manbalar hisobidan investisiya faoliyati bo'yicha pul mablag'lari tushumi yuzaga keladi?

- A) Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari, Uzoq va qisqa muddatli qarzlarning olinishi, Uzoq va qisqa muddatli kreditlarning olinishi va boshqa pul tushumlari
- B) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari, Ortiqcha to'langan majburiy to'lovlar bo'yicha pul tushumlari
- C) Asosiy vositalarni sotishdan olingan pul tushumlari, Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan pul tushumlari, Uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni sotishdan olingan tushumlar va investisiya faoliyatining boshqa pul tushumlari

D) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari va investisiya faoliyatining boshqa pul tushumlari

7. Qaysi manbalar hisobidan moliyaviy faoliyat bo'yicha pul mablag'lari tushumi yuzaga keladi?

A) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari va moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari

B) Aksiyalarni chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari, Uzoq va qisqa muddatli qarzlarning olinishi, Uzoq va qisqa muddatli kreditlarning olinishi va boshqa pul tushumlari va moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari

C) Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar uchun xaridorlardan olingan pul tushumlari, Ortiqcha to'langan foyda solig'i bo'yicha pul tushumlari

D) Asosiy vositalarni sotishdan olingan pul tushumlari, Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan pul tushumlari

8. Pul mablag'lari tarkibiga qanday mablag'lar kiradi?

A) Kassadagi pul mablag'lari, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hamda boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar

B) Kassadagi pul mablag'lari, qisqa muddatli investisiyalar hamda boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar

C) Kassadagi pul mablag'lari, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, xorijiy valyutadagi pul mablag'lari hamda boshqa joriy aktivlar

D) Kassadagi pul mablag'lari, hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, qisqa muddatli investisiyalar va boshqa joriy aktivlar

X BOB. XUSUSIY KAPITAL TAHLILI

10.1. Xususiy kapital tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon hamjamiyatiga integrasiyalashib borishi, xorijiy investisiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilinishi va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilayotgan hozirgi sharoitda xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki, moliyaviy ahvoriga qarab xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarishda, moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini kengaytirishda va sherikchilik asosida xo‘jalik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli, xususiy kapital holati va undan foydalanish samaradorligini o‘rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xususiy kapital mazmuni va tarkibiga normativ-huquqiy hujjatlarda mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” gi Qonunining 19-moddasi “Xususiy kapitalni hisobga olish” deb nomlanib, “Xususiy kapital ustav fondidan (ustav kapitalidan), qo‘shilgan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi” deyilgan.

14-sonli “Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot” nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ning 6-bandiga muvofiq “Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o‘z aksiyalari, va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak” deb ta’kidlab o‘tilgan. Bundan ko‘rinadiki, xususiy kapital ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o‘z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlaridan iborat.

15-sonli “Buxgalteriya balansi” nomli BHMS ning 18-bandiga ko‘ra “Xususiy sarmoya bo‘limida ustav sarmoyasi, qo‘shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o‘z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar, hamda bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralari oshkor qilinishi kerak”

deb belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, xususiy kapital ustav sarmoyasi, qo‘shilgan sarmoya, zaxira sarmoya, sotib olingan o‘z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar, hamda bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar zaxiralaridan tashkil topadi.

Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalardan ko‘rinadiki, xususiy kapital mazmuni va tarkibi bir-biriga yaqin va ayrim farqlanishlar ham mavjud. Bu holat xususiy kapitalning huquqiy asoslarida bo‘shliq mavjudligidan dalolat beradi. Bizningcha, xususiy kapital tarkibi O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasida keltirilgan tarkibda yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni 7-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi” va 14-moddasida “Normativ-huquqiy hujjatlar bir-biriga to‘g‘ri kelmagan hollarda yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llaniladi” deb belgilab quyilgan.

Xususiy kapital tahlilining asosiy maqsadi xususiy kapital hajmini oshirish va undan foydalanish samaradorligini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish orqali erishish mumkin:

- xususiy kapital tarkibi va uning strukturasi bo‘yicha dinamik o‘zgarishini o‘rganish orqali umumiy holatiga baho berish;
- xususiy kapital o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning ta’sir darajalariga baho berish;
- xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish va baho berish;
- xususiy kapital hajmini ko‘paytirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatib berish.

Xususiy kapital tahlilini amalga oshirishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

- buxgalteriya balansi;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;
- xususiy kapitalni hisobga olish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari;
- boshqa ma'lumotlar (ustav, ta'sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlar).

10.2. Xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Buxgalteriya balansi"da xususiy kapital "O'z mablag'lari manbalari" bo'limida aks ettirilgan. Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, xususiy kapital ustav fondi (ustav kapitali), qo'shilgan kapital, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foydani o'z ichiga oladi.

Xususiy kapital tahlili uning tarkibi, strukturasi va dinamik o'zgarishini o'rganish asosida baho berishdan boshlanadi. Buning uchun xususiy kapital tarkibiga kiruvchi har bir kapital bo'yicha o'tgan yil va hisobot yiliga bo'lgan summasi hamda har birining jamiga nisbatan hissasi aniqlab olinadi. Shundan so'ng, xususiy kapitalning hisobot yilidagi summasi va salmog'ini, o'tgan yildagi summasi va salmog'iga solishtirib o'zgarishlari aniqlanadi va baho beriladi.

Yuqorida ta'kidlangan qoidalarga asoslangan holda "Sharq" fermer xo'jaligining xususiy kapitali tarkibi, strukturasi va dinamik o'zgarishini tahlil qilib o'rganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (10.1-jadval).

10.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligi xususiy kapitali tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u o'tgan yilda ham hisobot yilida ham ustav kapitali va taqsimlanmagan foydadan iborat bo'lgan. Ya'ni, o'rganilayotgan davrlarda fermer xo'jaligida qo'shilgan kapital va zaxira kapitali bo'yicha summalar bo'lmagan.

10.1-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligining xususiy kapital tarkibi, strukturasi va dinamikasi tahlili

№	Xususiy kapital tarkibi	O‘tgan yil		Hisobot yili		O‘zgarishi (+;-)	
		Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %
1	Ustav kapitali	18720	32,6	18720	19	-	-13,6
2	Qo‘shilgan kapital	-	-	-	-	-	-
3	Zaxira kapitali	-	-	-	-	-	-
4	Taqsimlanmagan foyda	38746	67,4	80070	81	+41324	+13,6
JAMI:		57466	100	98790	100	+41324	-

Endi, “Sharq” fermer xo‘jaligi xususiy kapitali dinamik o‘zgarishini o‘rganadigan bo‘lsak, uning hajmi hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 41324 ming so‘mga yoki 72 % ga oshgan. Ushbu o‘zgarish xususiy kapital tarkibidagi taqsimlanmagan foydaning 41324 ming so‘mga ko‘payishi natijasida sodir bo‘lgan. Shu bilan birga, uning strukturasi o‘rganilganda o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida ustav kapitali 13,6 foizga kamaygan bo‘lsa, taqsimlanmagan foydasi 13,6 foizga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa, xususiy kapital hajmining oshishi asosan taqsimlanmagan foyda hisobiga sodir bo‘lganligi, ya’ni, fermer xo‘jaligini hisobot yilidagi sof foydasining 41324 ming so‘mga oshishi ta’sir ko‘rsatgan. Bunday ko‘rsatkich fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat hisoblanadi. Ustav kapitali bo‘yicha yil davomidagi o‘zgarish kuzatilmagan.

Xususiy kapitalning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilinganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Xususiy kapital hajmining o‘zgarishiga omillar ta’sirini “Balansli bog‘lanish” usulidan foydalanib aniqlash mumkin. Buning uchun, birinchi navbatda xususiy kapital hajmi o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi birlamchi omillarni aniqlab olish lozim. Uning hajmining o‘zgarishiga quyidagi omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

- ustav kapitalining o‘zgarishi ($UK_1 - UK_0$);
- qo‘shilgan kapitalning o‘zgarishi ($QK_1 - QK_0$);
- rezerv kapitalining o‘zgarishi ($RK_1 - RK_0$);
- taqsimlanmagan foydaning o‘zgarishi ($TF_1 - TF_0$).

Ushbu omillar ta'sirini "Balansli bog'lanish" usulidan foydalangan holda quyidagicha aniqlash mumkin:

$$XK_{o'z} = (UK_1 - UK_0) \pm (QK_1 - QK_0) \pm (RK_1 - RK_0) \pm (TF_1 - TF_0).$$

Ushbu omillar ta'siri aniqlangandan so'ng, ularning ta'sir darajalari baholangan holda xulosa qilinadi.

Xususiy kapital hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va ularning o'zgarish sabablarini aniqlash va xususiy kapital hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish maqsadida ikkilamchi omillar ta'sirini tahlil qilib o'rganish lozim. Ya'ni, bunda xususiy kapital hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi har bir omil ko'rsatkichining o'ziga (har bir kapital hajmining o'zgarishiga) ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'siri o'rganiladi. Bunday tartibda tahlilning amalga oshirilishi har bir kapital turining o'zgarishi hisobiga xususiy kapital hajmining aniq o'zgarish sabablari aniqlanadi va uni oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.

10.3. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining tahlili

Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, xususiy kapital rentabelligi hisoblanadi.

Xususiy kapital rentabelligini topish uchun sof foyda summasini 100 foizga ko'paytirib, natijasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish lozim. Uni quyidagi matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$R_{xk} = (SF \times 100) / XK, \quad (10.1)$$

Bunda: R_{xk} – xususiy kapital rentabelligi; SF – sof foyda summasi; XK – xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati.

Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan sof foyda summasini ifodalaydi. Agarda ushbu ko'rsatkich o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan yuqori bo'lsa, u xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining oshganligini bildiradi.

Xususiy kapital rentabelligining tahlili uning hisobot yilidagi darajasini o'tgan yildagi darajasiga solishtirib, umumiy o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

Shundan so‘ng, uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar aniqlanib, ularning ta’sir darajalari hisob-kitob qilinadi.

Yuqoridagi xususiy kapital rentabelligini aniqlash formulasidan ko‘rinadiki, uning o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- sof foyda summasining o‘zgarishi;
- xususiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi.

Mazkur omillar ta’sirini “Qayta hisoblash” usulini qo‘llash orqali aniqlash mumkin. Buning uchun birinchi navbatda qayta hisoblangan ko‘rsatkichni aniqlab olish zarur. Bu ko‘rsatkich hisobot yilidagi sof foyda summasini 100 foizga ko‘paytirib, natijani o‘tgan yildagi xususiy kapitalning o‘rtacha yillik qiymatiga bo‘lish orqali aniqlanadi. Ya’ni:

$$R_{qh} = (SF_1 \times 100) / XK_0$$

Shundan keyin xususiy kapital rentabelligining omilli tahlili amalga oshiriladi.

Omilli tahlilda xususiy kapital rentabelligiga yuqoridagi ikki omilning ta’sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim:

- xususiy kapital rentabelligining sof foyda summasining o‘zgarishi hisobiga o‘zgarganligini (ΔR_{sf}) aniqlash uchun xususiy kapital rentabelligining qayta hisoblangan darajasidan (R_{qh}) uning o‘tgan yildagi darajasini (R_0) ayirish lozim:

$$\pm \Delta R_{sf} = R_{qh} - R_0 = ((SF_1 \times 100) / XK_0) - ((SF_0 \times 100) / XK_0)$$

- xususiy kapital o‘rtacha yillik qiymatining o‘zgarishi (ΔR_{xk}) ta’sirini aniqlash uchun xususiy kapital rentabelligi darajasining hisobot yilidagi summasidan (R_1) uning qayta hisoblangan darajasini (R_{qh}) ayirish lozim:

$$\pm \Delta R_{xk} = R_1 - R_{qh} = ((SF_1 \times 100) / XK_1) - ((SF_1 \times 100) / XK_0)$$

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ikki omilning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi kerak:

$$\pm \Delta R = (\pm \Delta R_{sf}) + (\pm \Delta R_{xk})$$

Xususiy kapital rentabelligi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni “Sharq” fermer xo‘jaligi ma’lumotlari asosida “Qayta hisoblash” usuli

yordamida omilli tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (10.2-jadval).

10.2-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida xususiy kapital rentabelligi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Qayta hisoblangan	O‘zgarishi (+;-)	shu jumladan	
						Sof foyda summasining o‘zgarishi hisobiga	Xususiy kapital qiymatini o‘zgarishi hisobiga
1	Sof foyda, ming so‘m	38746	41324	41324	+2578	x	x
2	Xususiy kapital o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	57466	98790	57466	+41324	x	x
3	Xususiy kapital rentabelligi, %	67	42	72	-25	5	-30

10.2 – jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, xususiy kapital rentabelligi darajasi hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga pasaygan. Bunday o‘zgarishga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalari quyidagicha bo‘lgan:

- birinchi omil, sof foyda summasining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 2578 ming so‘mga ko‘payishi xususiy kapital rentabellik darajasini 5 foizga oshishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$72 - 67 = 5 \text{ foiz}$$

- ikkinchi omil, xususiy kapital o‘rtacha yillik qiymatining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 41324 so‘mga ko‘payishi esa rentabellik darajasini 30 foizga pasayishiga olib kelgan:

$$42 - 72 = - 30 \text{ foiz}$$

Shunday qilib, “Sharq” fermer xo‘jaligida xususiy kapital rentabelligi darajasi ikki omilning ta’siri natijasida hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga pasaygan. Bunday natija fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Shu sababli, fermer xo‘jaligi rahbariyati xususiy kapital rentabelligi darajasini oshirish imkoniyatlarini ko‘rishi lozim.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Xususiy kapital deganda nimani tushunasiz?
2. Xususiy kapital tahlilining maqsadi va unda tahlilning vazifalari nimalardan iborat?
3. Xususiy kapital tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
4. Xususiy kapital tarkibiga nimalar kiradi?
5. Xususiy kapital tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlilini tushuntiring?
6. Xususiy kapital va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili qanday bajariladi?
7. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
8. Xususiy kapital rentabelligi deganda nimani tushunasiz?
9. Xususiy kapital rentabelligi qanday aniqlanadi va tahlil qilib o'rganiladi?
10. Xususiy kapital hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib bering?

NAZORAT TESTLARI

1. Xususiy kapital tarkibi berilgan to'g'ri javobni ko'rsating?

- A) Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)
- B) Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari
- C) Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezever kapitali, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari
- D) Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezever kapitali, sotib olingan o'z aksiyalari, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) va maqsadli tushumlar

2. Xususiy kapital tahlilida qaysi axborot manbalaridan foydalanamiz?

- A) Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot

- B) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot va pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot
- C) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot va boshqa ma’lumotlar (ustav, ta’sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to‘g‘risidagi ma’lumotlar).
- D) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapitalni hisobga olish uchun mo‘ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlari ma’lumotlari va boshqa ma’lumotlar (ustav, ta’sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to‘g‘risidagi ma’lumotlar).

3. Xususiy kapital “Buxgalteriya balansi”ning qaysi qismi va bo‘limida aks ettiriladi?

- A) Aktiv qismi, uzoq muddatli aktivlar bo‘limida
- B) Passiv qismi, o‘z mablag‘lari manbai bo‘limida
- C) Aktiv qismi, joriy aktivlar bo‘limida
- D) Passiv qismi, majburiyatlar bo‘limida

4. Xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A) Xususiy kapital o‘rtacha yillik qiymati
- B) Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti
- C) Xususiy kapital rentabelligi
- D) Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti

5. Xususiy kapital hajmining o‘zgarishi qanday aniqlanadi?

- A) Xususiy kapital hajmining hisobot yilidagi summasidan o‘tgan yildagi summasini chegirish orqali aniqlanadi
- B) Xususiy kapital hajmining hisobot yilidagi summasiga o‘tgan yildagi summasini qo‘shish orqali aniqlanadi
- C) Xususiy kapital hajmining hisobot yilidagi summasini o‘tgan yildagi

summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

- D) Xususiy kapital hajmining hisobot yilidagi summasini 100 foizga ko'paytirish va o'tgan yildagi summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

6. Xususiy kapital rentabelligi qanday aniqlanadi?

- A) Yalpi foyda summasini 100 foizga ko'paytirib, natijasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish lozim
- B) Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasini 100 foizga ko'paytirib, natijasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish lozim
- C) Sof foyda summasini 100 foizga ko'paytirib, natijasini xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish lozim
- D) Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati 100 foizga ko'paytirib, natijasini sof foyda summasiga bo'lish lozim

7. Xususiy kapital rentabelligi nimani ifodalaydi?

- A) Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan sof foyda summasini ifodalaydi
- B) Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan yalpi foyda summasini ifodalaydi
- C) Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan yalpi tushum summasini ifodalaydi
- D) Xususiy kapital rentabelligi bir yoki yuz so'mlik xususiy kapital hajmi hisobiga olingan sof tushum summasini ifodalaydi

8. Xususiy kapital hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) Ustav kapitalining o'zgarishi, qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishi
- B) Qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishi
- C) Ustav kapitalining o'zgarishi, qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishi va maqsadli tushumlar summasining o'zgarishi

D) Ustav kapitalining o'zgarishi, qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va maqsadli tushumlar summasining o'zgarishi

9. Xususiy kapital rentabelligining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) Ustav kapitalining o'zgarishi, qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va taqsimlanmagan foydaning o'zgarishi

B) Sof foyda summasining o'zgarishi va xususiy kapital o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi

C) Ustav kapitalining o'zgarishi, qo'shilgan kapitalning o'zgarishi, rezerv kapitalining o'zgarishi va sof foyda summasining o'zgarishi hamda xususiy kapital o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi

D) Yalpi foyda summasining o'zgarishi va xususiy kapital o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi

XI BOB. MOLIVAVIY NATIJALAR TAHLILI

11.1. Moliyaviy natijalar tahlilining ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Moliyaviy natijalar – bu xo‘jalik yurituvchi subyektning ma’lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘larning pirovard oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida faoliyat natijasi hisobot davridagi foyda (yoki zarar)larni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.

Bugungi kunda moliyaviy natija ko‘rsatkichlari, ularni hisoblash tartibi, daromadlar va xarajatlarning tasniflanishi quyidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi: “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar” nomli 2-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS), “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” nomli 3-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS), “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma” nomli 21-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMC) va “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarning tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” hamda boshqalar.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarga ko‘ra daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foyda (yoki zarar)ni o‘lchashga daxldor bo‘lgan elementlar hisoblanadi.

Daromadlar hisobot davrida aktivlarning kirimi yoki ko‘payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning o‘shishidir. Xarajatlar esa hisobot davridagi aktivlarning chiqimi yoki kamayishi yohud majburiyatlarning ortishi shaklida iqtisodiy nafning kamayishidir.

Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy natijalar tahlili axborotdan foydalanuvchilarga xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati samaradorligini, aktivlarning boshqarilish darajasini hamda ichki imkoniyatlarini baholashga va uning kelgusi istiqbolini taxmin qilishga yordam beradi.

Moliyaviy natijalarni tahlilining asosiy maqsadi moliyaviy natija ko'rsatkichlarini chuqur o'rgangan holda baho berish hamda omilli tahlil qilish orqali ularni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatib, faoliyat samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishishda moliyaviy tahlilning vazifalari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularning to'g'ri shakllantirilganligini o'rganish;
- moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- yalpi foyda (zarar) va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ta'siriga baho berish;
- asosiy faoliyat foydasi (zarari) va uning o'zgarishini omilli tahlil qilish;
- umumxo'jalik faoliyati foydasi (zarari) va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish;
- soliq to'langunga qadar olingan foyda (zarar)ning shakllanishiga va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga baho berish;
- sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish;
- sof foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilab berish.

Moliyaviy natijalarni tahlil etishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma'lumotlari;
- "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari;
- "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi tegishli schyot ma'lumotlari.

11.2. Moliyaviy natija ko'rsatkichlari va ularning shakllanishi

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish,

xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” va O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” shakliga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT,$$

bunda,

YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

- asosiy faoliyatdan olingan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi farq va plus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

- umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UFF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF - umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari.

- soliq to‘langunga qadar olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FF - FZ,$$

bunda,

STF - soliq to‘langunga qadar olingan foyda;

FF - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

- sof foyda, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langungacha olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - FS - BS,$$


bunda,

SF - sof foyda;

FS - foydadan to‘lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, yuqoridagi “... xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom” bilan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” shaklini qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagilarga ega bo‘lindi. Ya’ni, Nizomga ko‘ra xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq xarajatlar to‘rt guruhga bo‘linadi (11.1-rasm).



11.1-rasm. “... xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq xarajatlar tasnifi

Xarajatlarni bunday guruhlash ustun darajada soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadi nazarda tutiladi. Shuningdek, "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" (2-shakl)da esa xarajatlar 5 guruhga ajratiladi. Fikrimizcha, Nizomda soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadida xarajat guruhlari berilganligi bois, 2-shaklda berilgan soliq xarajatlari keltirilmagan. Shu bois, Nizom va "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalar"ning o'zaro muvofiqlikni ta'minlash uchun qo'shimcha o'zgartirishlar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Bu borada iqtisodchi olimlardan R.D.Do'smurotov va U.I.To'laevlarning tavsiyalari e'tiborga loyiqligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Ularning fikriga ko'ra "... xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom" ning "B. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliya xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ro'yxati" bo'limiga "5.Foydadan qoplanadigan soliq xarajatlari" bandini kiritib, unda moliyaviy natijalarni aniqlash vaqtida foydadan qoplanadigan soliq xarajatlari ro'yxatini quyidagicha belgilash kerak:

5.1. Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar

5.2. Foydadan hisoblab to'lanadigan boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha xarajatlar

5.3. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha to'lanadigan soliqlar bo'yicha xarajatlar:

5.3.1. Yagona soliq to'lovi

5.3.2. Yagona yer solig'i

5.3.3. Qat'iy belgilangan soliqlar bo'yicha xarajatlar"⁵⁷.

Chunki, soliq xarajatlari ham boshqa toifa xarajatlar kabi subyektning soliq to'langunga qadar olingan foydasi hisobidan qoplanib, sof foydasi kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Albatta, "... xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom" ning "B. Xo'jalik yurituvchi subyektning moliya xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar ro'yxati"

⁵⁷R.D.Do'smurotov, U.I.To'laev Moliyaviy hisobot: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari. –T.: «Extremum-Press», 2012, B. 64-65.

bo‘limiga bunday o‘zgartirishlarning kiritilishi korxonalarda soliqlarning qaysilari soliqa tortilgunga qadar foyda hisobidan qoplanishi aniq me‘yoriy asosga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobida 9800 – “Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishi” schyotida soliqlarning qaysilari aks ettirilishi bo‘yicha munozaralar yuzaga kelmaydi.

Moliyaviy natijalar tarkibi, shakllanish tartibi va dinamik o‘zgarishi tahlilini quyidagi 11.1-jadval ma’lumotlari asosida berish mumkin.

11.1-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligi moliyaviy natijalari tarkibi, shakllanish tartibi va dinamik o‘zgarishining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Satr	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)
1.Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	010	653350	683292	+29942
2.Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi, ming so‘m	020	546908	583648	+36740
3. Mahsulot sotishdan yalpi foyda, ming so‘m (satr 010-020)	030	106442	99644	-6798
4. Davr xarajatlari, ming so‘m	040	49556	43386	-6170
5.Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, ming so‘m	090	-	4630	+4630
6. Asosiy faoliyatning foydasi (zarari), ming so‘m (satr 030-040+090)	100	56886	60888	+4002
7. Moliyaviy faoliyatning daromadlari, ming so‘m	110	-	-	-
8. Moliyaviy faoliyat xarajatlari, ming so‘m	170	-	-	-
9.Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari), ming so‘m (satr 100+110-170)	220	56886	60888	+4002
10. Favqulodda foyda va zararlar, ming so‘m	230	-	-	-
11. Daromad solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar), ming so‘m (satr 220+/-230)	240	56886	60888	+4002
12. Foyda solig‘i	250	-	-	-
13. Foydadan boshqa soliqlar va yig‘imlar, ming so‘m	260	18140	19564	+1424
14. Hisobot davridagi sof foyda, ming so‘m (satr 240-250-260)	270	38746	41324	+2578

11.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligining sof foydasi hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 2578 ming so‘mga ko‘paygan. Bunday natijani fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Biroq, jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, fermer xo‘jaligida o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida sotilgan mahsulotlar tannarxi 36740 ming so‘mga yoki yoki

6,7 % ga hamda soliq xarajatlarining 1424 ming so‘mga yoki 7,8 % ga oshganligi sof foydaning kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan. Ya’ni, bu xarajatlar mahsulot sotishdan olingan sof tushumning 29942 ming so‘mga va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini 4630 so‘mga ortganligini ham qoplab yuborgan. Shu sababli, “Sharq” fermer xo‘jaligi rahbariyati birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini nazorat qilgan holda mahsulot tannarxini kamaytirish choralarini ko‘rishi lozim. Shu bilan birga, soliq xarajatlarining ham ko‘payishiga nima sabab bo‘lganligini ham o‘rganib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

11.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida sof foyda o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar bu mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum va sotilgan mahsulotlar tannarxi ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Shu bois, keyingi paragrafda mahsulotlarni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz.

11.3. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija bu yalpi foyda ko‘rsatkichi bo‘lib, u bozor munosabatlari sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli, moliyaviy natijalar tahlilida asosiy e’tibor mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda ko‘rsatkichi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahliliga qaratiladi.

Yalpi foyda ko‘rsatkichi mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasidan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali aniqlanadi. Uni quyidagi matematik formula ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$YaF = SST - IT, \quad (11.1)$$

Yuqoridagi formuladan ko‘rinib turibdiki, mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning o‘zgarishiga bevosita quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumning o'zgarishi;
- sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxining o'zgarishi.

Mazkur omillar ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalangan holda aniqlash mumkin. Bunda har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun qayta hisoblangan natija ko'rsatkichini aniqlab olish lozim. Bu ko'rsatkich birinchi omilning haqiqiy (hisobot yili) miqdoridan (SST_1) ikkinchi omilning reja (o'tgan yil)dagi miqdorini (IT_0) ayirish orqali aniqlanadi. Ya'ni:

$$YaF_{qh} = SST_1 - IT_0$$

Shundan so'ng, yalpi foydaning o'zgarishiga yuqoridagi ikki omilning ta'sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim:

- yalpi foydaning mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi hisobiga o'zgarganligini (ΔYaF_{sst}) aniqlash uchun yalpi foydaning qayta hisoblangan summasidan (YaF_{qh}) uning reja (o'tgan yil) dagi hajmini (YaF_0) ayirish lozim:

$$\pm \Delta YaF_{sst} = YaF_{qh} - YaF_0 = (SST_1 - IT_0) - (SST_0 - IT_0)$$

- yalpi foydaning o'zgarishiga sotilgan mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'sirini (ΔYaF_{it}) aniqlash uchun yalpi foydaning haqiqiy (hisobot yil) summasidan (YaF_1) uning qayta hisoblangan summasini (YaF_{qh}) ayirish lozim:

$$\pm \Delta YaF_{it} = YaF_1 - YaF_{qh} = (SST_1 - IT_1) - (SST_1 - IT_0)$$

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi ikki omilning ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\pm \Delta YaF = (\pm \Delta YaF_{sst}) + (\pm \Delta YaF_{it})$$

Mazkur hisob-kitoblarning amaliy isbotini "Sharq" fermer xo'jaligi ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (11.2-jadval).

11.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligining mahsulot sotishdan olgan yalpi foydasi o'tgan yili 106442 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 99644 ming so'mga teng bo'lgan. Demak, fermer xo'jaligi yalpi foydasi o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6798

ming so‘mga yoki 6,4 foizga kamaygan. Bunday natijani fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholab bo‘lmaydi.

11.2-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida yalpi foyda va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Qayta hisoblangan	Farqi (+;-)	shu jumladan	
						Sotishdan olingan sof tushum o‘zgarishi hisobiga	Sotilgan mahsulot tannarxi o‘zgarishi hisobiga
1	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	653350	683292	683292	+29942	x	x
2	Sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m	546908	583648	546908	+36740	x	x
3	Yalpi foyda, ming so‘m	106442	99644	136384	-6798	+29942	-36740

Fermer xo‘jaligida yalpi foydaning o‘tgan yilga nisbatan kamayishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalari quyidagicha bo‘lgan:

- birinchi omil, mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 29942 ming so‘mga ko‘payishi yalpi foyda summasini 29942 ming so‘mga oshishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$136384 - 106442 = + 29942 \text{ ming so‘m}$$

- ikkinchi omil, sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 36740 ming so‘mga ko‘payishi, yalpi foyda summasini 36740 ming so‘mga kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$99644 - 136384 = - 36740 \text{ ming so‘m.}$$

Ushbu omillarning ta’siri natijasida yalpi foyda summasi o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6798 ming so‘mga kamayib ketgan. Ya’ni, sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 36740 ming so‘mga ko‘payishi, mahsulot sotishdan olingan sof tushumning 29942 ming so‘mga ko‘payishini ham to‘liq qoplab ketgan holda yalpi foydaning o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Agarda sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi hisobot yilida ko'paymasdan, o'tgan yilgi ko'rsatkichni tashkil qilganda edi, yalpi foyda summasi mahsulot sotishdan olingan sof tushumning hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan ko'payishi hisobiga 29942 ming so'mga oshgan bo'lar edi.

Shundan so'ng, fermer xo'jaligida yetishtirilgan har bir mahsulot turi bo'yicha ham olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, fermer xo'jaligi rahbariyati to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun avvalo xo'jalikda yetishtirilgan qaysi mahsulot unga yuqori daromad keltirgani, ya'ni yuqori baholarda iste'molchilar tomonidan sotib olinganligi, qaysi mahsulot turining fizik miqdorining oshganligini va qaysi mahsulotni yetishtirish kam xarajatli ekanligi kabi savollarga javob topishi zarur bo'ladi. Buning uchun albatta fermer xo'jaligida har bir yetishtirilgan mahsulot turi bo'yicha olingan yalpi foyda ko'rsatkichini omilli tahlil qilib o'rganish lozim. Shu sababli, biz tahlil qilib o'rganayotgan "Sharq" fermer xo'jaligida mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahliliga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Fermer xo'jaligida mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda ko'rsatkichi ham yuqoridagi kabi aniqlanadi, biroq uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarga yordamchi omillarni kiritish orqali quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$YaF = SST - IT = (M \times B) - (M \times T), \quad (11.2)$$

bunda,

M – sotilgan mahsulot miqdori;

B – 1 s mahsulotni o'rtacha sotish bahosi;

T – 1 s mahsulotni o'rtacha ishlab chiqarish tannarxi.

Yalpi foyda ko'rsatkichini aniqlashda bunday yordamchi omillarni kiritish, tahlil natijalari samaradorligini oshiradi.

Mazkur formuladan ko'rinib turibdiki, mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning o'zgarishiga bevosita quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi;
- 1 s mahsulotning o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi;

- 1 s mahsulotning o'rtacha ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi.

Endi, "Sharq" fermer xo'jaligida yetishtirilgan va sotilgan bug'doy misolida 11.3-jadval ma'lumotlari asosida yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganamiz.

11.3-jadval

"Sharq" fermer xo'jaligida bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Sotilgan bug'doy miqdori, s	8600	7700	-900
2	1 s bug'doy sotish bahosi, so'm	20600	23700	+3100
3	1 s bug'doy tannarxi, so'm	16480	17775	+1295
4	1 s bug'doyni sotishdan olingan foyda, so'm	4120	5925	+1805
5	Yalpi foyda, ming so'm	35432	45622,5	+10190,5

11.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda o'tgan yili 35432 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 45622,5 ming so'm bo'lgan. Demak, fermer xo'jaligida bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda o'tgan yilga nisbatan 10190,5 ming so'mga yoki 29 foizga oshgan.

Bunday natijani fermer xo'jaligi uchun ijobiy holat sifatida baholagan holda, uning o'zgarishiga yuqorida keltirilgan omillar ta'sirini "Ko'rsatkichlar farqi" usuli orqali tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi natijalarga ega bo'lindi. Ya'ni, "Ko'rsatkichlar farqi" usulini qo'llash orqali birinchi omil, yalpi foyning o'zgarishiga sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi sotilgan bug'doy miqdoridan o'tgan yildagi miqdori o'rtasidagi farqni, o'tgan yildagi 1 s bug'doy sotishdan olingan foyda summasiga ko'paytirish lozim. Uni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$\pm\Delta_M = (M_1 - M_0) \times (B_0 - T_0) = (7700 - 8600) \times (20600 - 16480) = -900 \times 4120 = -3708 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, fermer xo'jaligida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan sotilgan bug'doy miqdorining 900 s pasayishi, bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda summasini 3708 ming so'mga kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Bunday natija fermer xo'jaligi uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Shu sababli,

fermer xo'jaligi rahbariyati o'tgan yilga nisbatan sotilgan bug'doy miqdorining kamayish sabablarini o'rgangan holda ularni bataraf etish, yetishtirilgan mahsulotning tovarlilik darajasini oshirish va sotish hajmini ko'paytirish choralarini ko'rishi lozim.

Yalpi foydaning o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni 1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi va o'tgan yildagi o'rtacha sotish baholari o'rtasidagi farqni, hisobot yilida sotilgan bug'doyning haqiqiy miqdoriga ko'paytirish kerak. Mazkur hisob-kitobni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\pm\Delta_B=(B_1-B_0)\times M_1=(23700-20600)\times 7700=+3100\times 7700=+23870 \text{ ming so'm.}$$

Demak, fermer xo'jaligida hisobot yilida 1 s bug'doyning o'rtacha sotish bahosining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 3100 so'mga oshishi, yalpi foyda summasini 23870 ming so'mga ko'paytirgan. Bundan ko'rinadiki, bug'doyning o'rtacha sotish bahosining oshishi yalpi foyda summasining o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Uchinchi omil, ya'ni yalpi foydaning o'zgarishiga 1 s bug'doy tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va o'tgan yillardagi 1 s bug'doy tannarxlari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan bug'doyning haqiqiy miqdoriga ko'paytirish zarur. Ushbu hisob-kitobni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$\pm\Delta_T=(T_1-T_0)\times M_1=(17775-16480)\times 7700=+1295\times 7700=-9971,5 \text{ ming so'm.}$$

Yuqoridagi hisob-kitobga ko'ra, fermer xo'jaligida 1 s bug'doy tannarxining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 1295 so'mga qimmatlashishi, yalpi foyda summasini 9971,5 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan. Demak, 1 s bug'doy tannarxining o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida oshishi, yalpi foyda summasining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinadiki "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati yalpi foyda summasini ko'paytirish uchun mahsulot ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, mavjud yer resurslaridan unumli foydalangan holda mahsulot yetishtirishning fizik miqdorini oshirish va yuqori daromad

keltiruvchi mahsulot turlarini yetishtirish bo'yicha ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishlari lozim deb o'ylaymiz.

11.4. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda foyda ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan "Asosiy faoliyat foydasi (zarari)" moddasi bo'yicha (100-satr) xo'jalik yurituvchi subyekt asosiy faoliyatining moliyaviy natijasi ko'rsatiladi. U "Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)" ko'rsatkichidan (030-satr) davr xarajatlari summalarini (040-satr) chegirish va asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar summalarini (090-satr) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi. Ya'ni bu ko'rsatkichni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$AFF = YaF - DX + BD, \quad (11.3)$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

YaF-yalpi foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Yuqoridagi formuladan ko'rinadiki, asosiy faoliyatning moliyaviy natijasining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatar ekan:

- yalpi foyda summasining o'zgarishi;
- davr xarajatlari summasining o'zgarishi;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar summasining o'zgarishi.

Mazkur omillar asosiy faoliyatning moliyaviy natijasiga bevosita o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi birinchi omil, yalpi foyda va uni aniqlash tartibi hamda uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlilini yuqoridagi paragraflarda ko'rib chiqdik. Shu sababli, endi ikkinchi omil davr xarajatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Davr xarajatlari deyilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga quyidagi xarajatlar

kiritiladi:

- sotish xarajatlari;
- ma'muriy-boshqaruv xarajatlari;
- boshqa operasion xarajatlar.

Bunda sotish xarajatlari qatoriga bevosita mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo'natish va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi. Ya'ni, sotuvchilarning ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, asosiy vositalar amortizasiyasi, reklama xarajatlari va boshqa xarajatlar.

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari qatoriga esa xo'jalik yurituvchi subyekt boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiritiladi: mehnat haqi va undan ajratmalar, ma'muriy binolar va xizmat mashinalari amortizasiyasi, material xarajatlari va boshqa.

Boshqa operasion xarajatlar qatoriga yuqoridagi sotish va ma'muriy-boshqaruv xarajatlari tarkibiga kiritilmagan xarajatlar kiradi. Ya'ni, bank xizmati xarajatlari, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash xarajatlari, to'langan jarima va penyalar, moddiy yordam va boshqa xarajatlar.

Shuningdek, asosiy faoliyatning moliyaviy natijasiga ta'sir ko'rsatuvchi uchinchi omil asosiy faoliyatning boshqa daromadlari bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar va penyalar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda;
- xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalarini va boshqa mulklarini sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operasion daromadlar.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi tahlilida birinchi navbatda ushbu

ko'rsatkich to'g'ri aniqlanganligi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniq shakllantirilganligi o'rganilgan holda baho beriladi. Shundan so'ng, uning o'zgarishi aniqlanadi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilib o'rganiladi.

Tahlil natijalari asosida asosiy faoliyat foydasini oshirishning ichki imkoniyatlari ko'rsatib beriladi va uni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasini "Sharq" fermer xo'jaligi misolida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (11.4-jadval).

11.4-jadval

"Sharq" fermer xo'jaligi asosiy faoliyatining moliyaviy natijasi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Yalpi foyda, ming so'm	106442	99644	-6798
2	Davr xarajatlari, ming so'm	49556	43386	-6170
3	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, ming so'm	-	4630	+4630
4	Asosiy faoliyat foydasi, ming so'm (1-2+3)	56886	60888	+4002

"Sharq" fermer xo'jaligida asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi o'rganilganda, u to'g'ri aniqlanganligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniq shakllantirilganligi ma'lum bo'ldi.

11.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligining asosiy faoliyat foydasi hisobot yilida 60888 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich o'tgan yili 56886 ming so'mga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4002 ming so'mga ko'paygan. Bunday natijani ijobiy baholagan holda uning o'zgarishiga omillar ta'sirini "Zanjirli bog'lanish" usuli yordamida hisoblaymiz. Ya'ni, fermer xo'jaligida yalpi foydaning o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6798 ming so'mga kamayishi, asosiy faoliyat foydasini 6798 ming so'mga pasayishiga ta'sir ko'rsatgan.

Davr xarajatlari summasining o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6170 ming so'mga kamayishi esa, asosiy faoliyat foydasini 6170 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatganligini ko'rish mumkin.

Fermer xo'jaligining hisobot yilida 4630 ming so'mlik boshqa operasion daromadlarining yuzaga kelishi, asosiy faoliyat daromadlarini 4630 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan.

Tahlil natijalariga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati asosiy faoliyat foydasini yanada oshirish uchun yalpi foyda summasini oshirish, davr xarajatlarini kamaytirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini ko'paytirish choralarini ko'rishi lozim.

11.5. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda ko'rsatkichi bu sof foyda hisoblanadi. Bugungi kunda har bir xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi sof foydaga erishish hisoblanadi. Shu sababli ham sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganish asosida moliya-xo'jalik faoliyatiga baho berish, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish mumkin bo'ladi. Chunki, sof foyda ko'rsatkichi yakuniy moliyaviy natija ko'rsatkichi bo'lib, bevosita moliya-xo'jalik faoliyati natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu ko'rsatkich moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda keltirilgan shakllanish tartibiga ko'ra soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda solig'i va boshqa soliq hamda ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Ya'ni, uni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$SF = STF - FS - BS, \quad (11.4)$$

bunda,
SF - sof foyda;
STF - soliq to'langunga qadar foyda;
FS - foydadan to'lanadigan soliq;
BS - boshqa soliqlar va to'lovlar.

Yuqoridagi formuladan ko'rinadiki, sof foyda summasi quyidagilar hisobiga o'zgarishi mumkin:

- soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda summasining o'zgarishi;

- foyda solig'i summasining o'zgarishi;
- boshqa soliq va to'lovlar summalarining o'zgarishi.

Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilib o'rganilar ekan, dastlab uning to'g'ri shakllanganligiga baho beriladi. Shundan so'ng, uning o'zgarishiga omillar ta'siri tahlil qilib o'rganiladi.

Biz tahlil qilib o'rganayotgan "Sharq" fermer xo'jaligida sof foyda summasi to'g'ri shakllantirilganligi o'rganganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (11.5-jadval).

11.5-jadval

"Sharq" fermer xo'jaligida sof foyda shakllanishi hisob-kitobi

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1	Soliq to'langunga qadar foyda, ming so'm	56886	60888	+4002
2	Foyda solig'i, ming so'm	-	-	-
3	Boshqa soliq va to'lovlar, ming so'm	18140	19564	+1424
4	Sof foyda, ming so'm	38746	41324	+2578

"Sharq" fermer xo'jaligining sof foyda summasi to'g'ri shakllantirilgan bo'lib, u o'tgan yili 38746 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilida 41324 ming so'm bo'lgan. Demak, fermer xo'jaligining sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 2578 ming so'mga yoki 7 foizga oshgan. Bunday natijani ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Agarda boshqa soliq va to'lovlar summalarining o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 1424 ming so'mga ko'paymaganda edi, fermer xo'jaligining sof foyda summasi yana 1424 ming so'mga yoki 4 foizga oshgan bo'lardi. Shu sababli, "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati boshqa soliq va to'lovlar summalarining ko'payish sabablarini o'rgangan holda ularni kamaytirish choralarini ishlab chiqishi zarur.

Tahlilning so'nggi bosqichida moliyaviy natijalarga umumiy baho berish bilan birga, uning shakllanish ketma-ketligiga asoslanib o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni bir tizimga keltirib tahlil qilib o'rganish mumkin (11.6-jadval).

11.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "Sharq" fermer xo'jaligida hisobot davrida sof foyda hajmi o'tgan yilga nisbatan 2578 ming so'mga ko'paygan. Uning

bunday o'zgarishiga har bitta ko'rsatkichning ta'sirini farq qatoriga qarab baholash mumkin. Masalan, mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum summasining o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 29942 ming so'mga ko'payishi, sof foyda summasini shuncha so'mga oshishiga olib kelgan. Biroq, sotilgan mahsulotlar tannarxining 36740 ming so'mga ko'payishi, sof foyda summasini shuncha so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida davr xarajatlari summasining 6170 ming so'mga kamayishi va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari summasining 4630 ming so'mga ko'payishi, sof foyda summasini 10800 ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, foydadan to'langan boshqa soliqlar va yig'imlar summasining 1424 ming so'mga ko'payishi, uning shuncha summaga kamayishiga olib kelgan.

11.6-jadval

“Sharq” fermer xo'jaligi sof foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)
1. Mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	653350	683292	+29942
2. Sotilgan mahsulotlarning tannarxi, ming so'm	546908	583648	+36740
3. Davr xarajatlari, ming so'm	49556	43386	-6170
4. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, ming so'm	-	4630	+4630
5. Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar, ming so'm	18140	19564	+1424
6. Hisobot davrining sof foydasi, ming so'm	38746	41324	+2578
Sof foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar:			
- mahsulot sotishdan olingan sof tushumning o'zgarishi			+29942
- sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi			-36740
- davr xarajatlari			+6170
- asosiy faoliyatning boshqa daromadlari			+4630
- foydadan boshqa soliqlar va yig'imlarning o'zgarishi			-1424

Barcha omillarning ta'siri natijasida sof foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 2578 ming so'mga ko'paygan. Demak, “Sharq” fermer xo'jaligi rahbariyati sof foyda summasini oshirish maqsadida mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum summasini ko'paytirish, sotilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va davr xarajatlari summasini yanada kamaytirishning ichki imkoniyatlarini aniqlagan holda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim.

11.6. Rentabellik ko'rsatkichlari tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyatining natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi. Rentabellik nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektning foydalilik darajasini ifodalaydi. Shu sababli, rentabellik va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodchi olimlarning ilmiy, o'quv-uslubiy asarlarida rentabellikning bir necha turlari hisob-kitob qilib o'rganilgan. Jumladan:

1. Sotilgan mahsulot tannarxi rentabelligi. Bu ko'rsatkich mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lib, bir so'mlik yoki ming so'mlik sotilgan mahsulot tannarxi hisobiga olingan foyda hajmini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (YaF) summasini sotilgan mahsulot tannarxiga (IT) bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}} \times 100\%$$

2. Sotish rentabelligi. Bu ko'rsatkich sotilgan mahsulotlarning foydalilik darajasini tavsiflaydi. Ya'ni, bir so'mlik yoki ming so'mlik sotilgan mahsulot hisobiga olingan foyda hajmini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Sotishdan olingan sof tushum}} \times 100\%$$

3. Asosiy vositalar rentabelligi. Bu ko'rsatkich asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda hajmini tavsiflaydi. U sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

4. Joriy aktivlar rentabelligi. Bu ko'rsatkich joriy aktivlarning har bir

soʻmiga toʻgʻri keladigan sof foyda hajmini ifodalaydi. Demak, ushbu koʻrsatkich sof foyda summasini joriy aktivlarning oʻrtacha yillik qiymatiga boʻlish va 100 foizga koʻpaytirish orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Joriy aktivlar oʻrtacha yillik qiymati}} \times 100\%$$

5. Xususiy kapital rentabelligi. Bu koʻrsatkich xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalovchi koʻrsatkich boʻlib, uning har bir soʻmiga toʻgʻri keladigan sof foyda hajmini tavsiflaydi. Uni aniqlash uchun sof foyda summasini xususiy kapital summasiga boʻlish va 100 foizga koʻpaytirish lozim:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapital qiymati}} \times 100\%$$

6. Qarz mablagʻlari rentabelligi. Bu koʻrsatkich har bir soʻmlik qarz mablagʻiga toʻgʻri keladigan sof foyda hajmini ifodalaydi. Ushbu koʻrsatkich sof foyda summasini qarz mablagʻlari summasiga boʻlish va 100 foizga koʻpaytirish asosida aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz mablagʻlari}} \times 100\%$$

7. Mol-mulk rentabelligi. Bu koʻrsatkich xoʻjalik yurituvchi subyekt mol-mulkingining foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy koʻrsatkich boʻlib, u har bir soʻmlik mol-mulk hisobiga toʻgʻri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi. Mazkur koʻrsatkich sof foyda summasini jami mol-mulk qiymatiga boʻlish va 100 foizga koʻpaytirish orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami mol-mulk qiymati}} \times 100\%$$

Yuqoridagi rentabellik koʻrsatkichlarini “Sharq” fermer xoʻjaligi maʼlumotlari asosida tahlil qilib oʻrganganimizda quyidagi maʼlumotlarga ega boʻlindi (11.7-jadval).

11.7-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida rentabellik ko‘rsatkichlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)
1	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	653350	683292	+29942
2	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘m	546908	583648	+36740
3	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so‘m	106442	99644	-6798
4	Sof foyda, ming so‘m	38746	41324	+2578
5	Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati (qoldiq qiymatda), ming so‘m	48485	55732	+7247
6	Joriy aktivlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘m	76433	105646	+29213
7	Xususiy kapital, ming so‘m	57466	98790	+41324
8	Qarz mablag‘lari, ming so‘m	67452	62588	-4864
9	Jami mol-mulk qiymati, ming so‘m	124918	161378	+36460
10	Sotilgan mahsulot tannarxi rentabelligi, %	19,5	17,1	-2,4
11	Sotish rentabelligi, %	16,3	14,6	-1,7
12	Asosiy vositalar rentabelligi, %	80,0	74,0	-6
13	Joriy aktivlar rentabelligi, %	51,0	39,0	-12
14	Xususiy kapital rentabelligi, %	67,4	42,0	-25,4
15	Qarz mablag‘lari rentabelligi, %	57,4	66,0	+8,6
16	Mol-mulk rentabelligi, %	31,0	27,0	-4

11.7-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida deyarli barcha rentabellik ko‘rsatkichlarida pasayish kuzatiladi. Bunday holat fermer xo‘jaligi moliya-xo‘jalik faoliyati samaradorligi pasayganligi va uning moliyaviy holati yomonlashayotganligidan dalolat beradi.

11.7-jadval ma’lumotlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum 29942 ming so‘mga ko‘paygan bo‘lsa, bunga mos ravishda sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi va boshqa turdagi aktivlar ham ko‘paygan. Faqat hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda summasi 6798 ming so‘mga va qarz mablag‘lari summasi 4864 ming so‘mga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Fermer xo‘jaligining sof foydasi esa o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 2578 ming so‘mga ortgan xolos.

Natijada aksariyat rentabellik ko‘rsatkichlarida o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Bunday o‘zgarishga mahsulot (ish,

xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum o'zgarishiga qaraganda sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining o'sishi yuqorili hamda sof foyda summasining oshishiga qaraganda boshqa aktivlar va manbalarning o'sishi ortganligi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, "Sharq" fermer xo'jaligi rahbariyati rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida mahsulot sotishdan olingan sof tushum hajmini oshirish va ishlab chiqarish tannarxi darajasini pasaytirish choralarini ko'rishi zarur. Aks holda fermer xo'jaligining moliyaviy holati bundanda yomonlashishi mumkin.

11.7. Sotish rentabelligi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Sotish rentabelligi sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$R = \frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Sotishdan olingan sof tushum}} \times 100\%$$

Yuqorida matematik formula ko'rinishida ifodalangan sotish rentabelligini aniqlash tartibidan ko'rinadiki, uni darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi. Ya'ni:

- mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi (SST);
- mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi (YaF).

Bunda ikkala omil bir-biridan mustaqil holda o'zgaradi deb faraz qilinadi.

Sotish rentabelligining o'zgarishiga omillar ta'sirini "Qayta hisoblash" usulidan foydalangan holda aniqlash mumkin. Bunda har bir omilning ta'sirini hisoblash uchun qayta hisoblangan natija ko'rsatkichini aniqlab olish lozim. Bu ko'rsatkich birinchi omilning haqiqiy (hisobot yili) summasini (YaF_1) ikkinchi omilning reja (o'tgan yil)dagi summasiga (SST_0) bo'lish va 100 foizga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Ya'ni:

$$R_{qh} = (YaF_1 : SST_0) \times 100 \%$$

Shundan so‘ng, sotish rentabelligining o‘zgarishiga yuqoridagi ikki omilning ta‘sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim:

- sotish rentabelligining yalpi foyda summasining o‘zgarishi hisobiga o‘zgarganligini (ΔR_{yaf}) aniqlash uchun sotish rentabelligining qayta hisoblangan darajasidan (R_{qh}) uning reja (o‘tgan yil) dagi darajasini (R_0) ayirish lozim:

$$\pm \Delta R_{yaf} = R_{qh} - R_0 = ((YaF_1 : SST_0) \times 100 \%) - ((YaF_0 : SST_0) \times 100 \%)$$

- sotish rentabelligining o‘zgarishiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasi o‘zgarishining ta‘sirini (ΔR_{sst}) aniqlash uchun uning haqiqiy (hisobot yil) darajasidan (R_1) qayta hisoblangan darajasini (R_{qh}) ayirish lozim:

$$\pm \Delta R_{sst} = R_1 - R_{qh} = ((YaF_1 : SST_1) \times 100 \%) - ((YaF_1 : SST_0) \times 100 \%)$$

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ikki omilning ta’siri natijaning umumiy farqiga teng bo‘lishi kerak:

$$\pm \Delta R = (\pm \Delta R_{yaf}) + (\pm \Delta R_{sst})$$

Mazkur hisob-kitoblarning amaliy isbotini “Sharq” fermer xo‘jaligi ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (11.8-jadval).

11.8-jadval

“Sharq” fermer xo‘jaligida sotish rentabelligi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Qayta hisoblangan	Farqi (+;-)	shu jumladan	
						Yalpi foyda summasi o‘zgarishi hisobiga	Sotishdan olingan sof tushum o‘zgarishi hisobiga
1	Yalpi foyda, ming so‘m	106442	99644	99644	-6798	x	x
2	Mahsulot sotishdan olingan sof tushum, ming so‘m	653350	683292	653350	+29942	x	x
3	Sotish rentabelligi, %	16,3	14,6	15,2	-1,7	-1,1	-0,6

11.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Sharq” fermer xo‘jaligida sotish rentabelligi darajasi o‘tgan yili 16,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich hisobot yilida 14,6 foizga teng bo‘lgan. Demak, sotish rentabelligi darajasi o‘tgan

yilga nisbatan hisobot yilida 1,7 foizga pasaygan. Bunday natija fermer xo‘jaligi uchun ijobiy holat hisoblanmaydi.

Fermer xo‘jaligida sotish rentabelligi darajasining o‘tgan yilga nisbatan pasayishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalari quyidagicha bo‘lgan:

- birinchi omil, yalpi foyda summasining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 6798 ming so‘mga kamayishi, sotish rentabelligi darajasini 1,1 foizga pasayishiga olib kelgan:

$$15,2\% - 16,3\% = - 1,1 \%$$

- ikkinchi omil, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasining hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 29942 ming so‘mga ko‘payishi, sotish rentabelligi darajasini 0,6 foizga pasayishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$14,6\% - 15,2\% = - 0,6 \%$$

Bunda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum summasining o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 4,58 foizga o‘sish darajasiga qaraganda, yalpi foyda summasining o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 6,4 foizga kamayish darajasi yuqori bo‘lganligi bois, uning ta’sir darajasi (0,6 foiz) salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur omillarning ta’siri natijasida sotish rentabelligi darajasi o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 1,7 foizga pasayib ketgan. Shu sababli, “Sharq” fermer xo‘jaligi rahbariyati sotish rentabelligini oshirish choralarini ko‘rishi lozim. Tahlil natijalariga ko‘ra, fermer xo‘jaligida sotish rentabelligi darajasini oshirishning asosiy imkoniyatlari bo‘lib, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, sifatini yaxshilash hisobiga sotish bahosini oshirish va ishlab chiqarish tannarxi darajasini pasaytirish hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini o‘rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Moliyaviy natijalarni o‘rganishda qanday ma’lumotlardan foydalaniladi?
3. Moliyaviy natija ko‘rsatkichlari va ularning shakllanishini tushuntirib bering?
4. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija qanday aniqlanadi?
5. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natijaning o‘zgarishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi va ularning ta’sir doirasi hajmi qanday aniqlanadi?
6. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi qanday tahlil qilinadi?
7. Sof foyda va unga ta’sir etuvchi omillar qanday tahlil qilinadi?
8. Rentabellik deb nimaga aytiladi? Rentabellik turlari, ularni aniqlash usullari va mazmunini ta’riflang?
9. Sotish rentabelligi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qanday tahlil qilib o‘rganiladi?
10. Sof foydani ko‘paytirish va rentabellik darajasini oshirish imkoniyatlarini aytib bering?

NAZORAT TESTLARI

- 1. Moliyaviy natijalar tahlilida qaysi axborot manbalaridan foydalaniladi?**
 - A) Biznes reja ma’lumotlari, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” ma’lumotlari, buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi tegishli schyot ma’lumotlari
 - B) Buxgalteriya balansi, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot va pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot
 - C) Buxgalteriya balansi, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot va boshqa ma’lumotlar (ustav, ta’sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to‘g‘risidagi ma’lumotlar).

D) Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, xususiy kapitalni hisobga olish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar (ustav, ta'sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlar).

2. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'ri berilgan javobni ko'rsating?

A) Korxonaning o'ziga tegishli mablag'lari, yalpi foyda, asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari), soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar) va hisobot davrining sof foydasi (zarari);

B) Yalpi foyda, asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari), soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar) va hisobot davrining sof foydasi (zarari);

C) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan yalpi foyda (zarar), asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari), umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari), soliq to'langunga qadar bo'lgan foyda (zarar) va hisobot davrining sof foydasi (zarari);

D) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan yalpi foyda (zarar), asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari), umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari), hisobot davrining daromad va xarajatlari.

3. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq yalpi foyda (zarar) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi (2-shakl, 020-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali;

B) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali;

C) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichiga asosiy faoliyatning boshqa daromadlari (2-shakl, 090-satr) ko'rsatkichini qo'shish orqali;

D) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan foyda solig'i (2-shakl, 250-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali.

4. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (zarari) ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi (2-shakl, 020-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali;

B) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatning boshqa operasion xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish orqali;

C) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr) ko'rsatkichini ayirib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (2-shakl, 090-satr) qo'shish orqali;

D) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan foyda solig'i (2-shakl, 250-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali.

5. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq umumxo'jalik faoliyatining foydasi qanday aniqlanadi?

A) Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr) ko'rsatkichidan sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning tannarxi (2-shakl, 020-satr) ko'rsatkichini ayirish orqali;

B) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatning boshqa operasion xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish orqali;

C) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr) ko'rsatkichini ayirib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (2-shakl, 090-satr) qo'shish orqali;

D) Asosiy faoliyatning foydasiga (2-shakl, 100-satr) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (2-shakl, 110-satr) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni (2-shakl, 170-satr) ayirib tashlash orqali.

6. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga ko'ra soliq to'langunga qadar foyda (zarar) qanday aniqlanadi?

A) Umumxo'jalik faoliyatining foydasiga (2-shakl, 220-satr) favqulodda yuzaga kelgan foydani qo'shish va favqulodda yuzaga kelgan zararni chegirib tashlash orqali;

B) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatning boshqa operasion xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish orqali;

C) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr) ko'rsatkichini ayirib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini (2-shakl, 090-satr) qo'shish orqali;

D) Asosiy faoliyatning foydasiga (2-shakl, 100-satr) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (2-shakl, 110-satr) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni (2-shakl, 170-satr) ayirib tashlash orqali.

7. "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga asosan hisobot davrining sof foydasi (zarari) qanday aniqlanadi?

A) Umumxo'jalik faoliyatining foydasiga (2-shakl, 220-satr) favqulodda yuzaga kelgan foydani qo'shish va favqulodda yuzaga kelgan zararni chegirib tashlash orqali;

B) Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda (2-shakl, 030-satr) ko'rsatkichidan davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatning boshqa operasion xarajatlarini ayirish

va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish orqali;

C) Soliq to'langunga qadar foydadan (2-shakl, 240-satr) foyda solig'ini (2-shakl, 250-satr) hamda foydadan boshqa soliq va yig'imlarni (2-shakl, 260-satr) chegirib tashlash orqali;

D) Asosiy faoliyatning foydasiga (2-shakl, 100-satr) moliyaviy faoliyatning daromadlarini (2-shakl, 110-satr) qo'shib, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni (2-shakl, 170-satr) ayirib tashlash orqali.

8. Mahsulot sotish rentabelligi qanday aniqlanadi?

A) Sotishdan olingan yalpi foyda ko'rsatkichini sotishdan olingan tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi;

B) Hisobot davrining sof foydasini korxonaning jami mol-mulki summasiga bo'lish orqali;

C) Hisobot davrining sof foydasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali;

D) Hisobot davrining sof foydasini sotishdan olingan tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

9. Asosiy vositalar rentabelligi qanday aniqlanadi?

A) Sotishdan olingan yalpi foyda ko'rsatkichini sotishdan olingan tushum summasiga bo'lish asosida aniqlanadi;

B) Hisobot davrining sof foydasini korxonaning jami mol-mulki summasiga bo'lish orqali;

C) Hisobot davrining sof foydasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali;

D) Hisobot davrining sof foydasini asosiy vositalarning hisobot davri oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

XII BOB. KORXONA INVESTISION FAOLIYATI TAHLILI

12.1. Investisiyalar mazmuni, tasniflanishi va davlat tomonidan tartibga solinishi

Bozor munosabatlari sharoitida investisiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish O‘zbekiston Respublikasini va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning davlat vazifalari bajarilishini ta’minlaydigan investisiya siyosatini amalga oshirish, investisiyalar samaradorligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi hududidagi turli investisiya obyektlariga qo‘yilmalar uchun xavfsiz shart-sharoitlarni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda investisiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- investisiya faoliyatining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish;
- investisiya faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining kafolatlarini taqdim etish;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida maxsus iqtisodiy zonalarni va kichik sanoat zonalarini barpo etish;
- asosiy fondlarni tezlashtirilgan amortizasiya qilish huquqini berish;
- texnik jihatdan tartibga solish normalari, qoidalari va talablarini belgilash;
- raqobatni qo‘llab-quvvatlash choralari qo‘llash;
- er uchastkalariga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

Bugungi kunda investisiyalar va investisiya faoliyatini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasi mavjud bo‘lib, jumladan O‘zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **“investisiyalar** — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligasiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni".

Shuningdek, investisiyalar va investisiya faoliyatini o'rganishda ishlatiladigan asosiy atamalar quyidagilardan iborat:

investisiya siyosati — O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investisiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta'minlashga, investisiya faoliyati subyektlarining investisiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo'naltirilgan investisiyaviy faolligini oshirishga doir o'zaro bog'liq tadbirlar majmui;

investisiya faoliyati — investisiya faoliyati subyektlarining investisiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq harakatlari majmui;

investisiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investisiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui;

reinvestisiyalar — investisiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, lisenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlari;

to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz

mablag‘lari hisobidan investisiyalari;

investisiya shartnomasi — investisiya faoliyati subyektlari o‘rtasida tuziladigan, investisiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim;

investisiya faoliyatining ishtirokchisi — investisiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig‘i asosida ta’minlaydigan investisiya faoliyati subyekti;

investor — foyda olish maqsadida investisiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investisiya resurslarini investisiya qilishni amalga oshiruvchi investisiya faoliyati subyekti;

mahalliy investorlar — investisiya faoliyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

chet ellik investorlar — chet davlatlar, chet davlatlarning ma’muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o‘rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo‘lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar.

Investisiyalarni bir qancha xususiyatlariga ko‘ra tasniflash mumkin.
Masalan:

1. Investisiyalash davriga qarab qisqa muddatli va uzoq muddatli investisiyalarga bo‘linadi. Qisqa muddatli investisiyalar bir yilgacha bo‘lgan omonat sertifikatlari va boshqa qimmatli qog‘ozlardir. Uzoq muddatli investisiyalar bu bir yildan ortiq muddatlarga qo‘yilgan kapital bo‘lib, 2-yilga, 2-3

yil va 5 yildan ortiq muddatlarga ham qo'yilishi mumkin.

2. Investisiyalarni shakli bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkin: moliyaviy investisiyalar; moddiy investisiyalar; intellektual investisiyalar.

Moliyaviy investisiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investisiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Intellektual investisiyalar tarkibi rang-barang bo'lib, ularni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ular mulkiy huquqlar shaklidagi investisiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investisiyalardan iborat.

3. Investisiya faoliyatida qatnashish tasnifiga ko'ra:

- to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar. Bular asosan obyekt aniq ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo'lgan taqdirda yo'naltirilgan mablag'dir.

- boshqa investisiyalar. Bular vositachilar orqali obyektlarga sarflanadi va olingan daromad mijozlar o'rtasida taqsimlanadi.

4. Investisiyalarni kiritish shakliga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- mahalliy investisiyalar. Bu mahalliy investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar;

- chet el investisiyalari. Bu chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar.

Shu bilan birga, investisiyalarni subyektlari, obyektlari, investisiya qo'yiladigan sohalar, makro va mikro iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda boshqa xususiyatlari bo'yicha tasniflash mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investisiyalarning makro va mikro iqtisodiyotda tutgan oʻrnidan kelib chiqib, koʻrsatkichlarni shakllantirgan holda oʻrganishni taqozo qiladi. Jumladan, makro koʻlamda investisiyalar tahlilini mulkchilik shakllariga, hududiy belgisiga koʻra olib borilishi maqsadga muvofiq boʻlsa, mikro koʻlamda moliyaviy hisobot shakllari va ulardagi koʻrsatkichlar asosida oʻrganilishi talab etiladi. Shu sababli, biz mikro koʻlamda, yaʼni korxonaning moliyaviy hisobot shakllari va ulardagi koʻrsatkichlar asosida uning investision faoliyatiga baho berish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini oʻrganishga tuxtalib oʻtmoqchimiz.

Shuni taʼkidlab oʻtish joiz-ki, korxonalar investision faoliyati tahlil qilib oʻrganilar ekan, dastlab investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlarini oʻrganish lozim. Shu bois, keyingi paragrafda investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlari, mazmuni va turlarini bayon qilamiz.

12.2. Investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlari

Investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash uchun investisiyalar hajmi, qoplanish muddati va ulardan kelgusida olinadigan daromadlarni hisob-kitob qilish hamda taqqoslash lozim. Investisiyalarni amalga oshirish va daromadlar olinishi turli davrlarda sodir boʻlishi sababli, ularni qiyoslashda ayrim muammolar vujudga keladi.

Mamlakatimizda investisiya jarayonlarining faollashishi natijasida investisiyalarning samaradorlik koʻrsatkichlarini hisob-kitob qilish zarurati yanada kuchaymoqda. Xususan, muqobil investisiya loyihalarini baholash, ulardan maqbulini tanlash va amalga oshirish muammolarini hal etish jarayonida ularning samaradorligini prognozlash zarurati vujudga keladi. Shu bois, investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning asosiy metodlarini mazmuni va ahamiyatligi boʻyicha ikki guruhga boʻlib taqdim etamiz.

1. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari:

- investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*);
- investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*).

2. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlari:

- sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash);
- investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*);
- investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*);
- investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*).

Ushbu metodlar mohiyatini va amaliy ahamiyatini amaliy misollar yordamida keyingi paragraflarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

12.3. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*);
- investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*).

Investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*)

Qoplanish muddati – bu investisiyaning to'liq qoplanib, investorga sof daromad keltira boshlashi uchun talab etiladigan davr(yillar). Qoplanish muddatini (RR) hisoblash investisiyalarni amalga oshirishdan olinishi rejalashtirilayotgan daromadlarning yillar bo'yicha taqsimlanishiga bog'liq. Bu yerda ikkita variant bo'lishi mumkin:

1. Rejalashtirilayotgan pul tushumlari yillar bo'yicha bir tekis taqsimlanganida. Bu holda qoplanish muddati bir yo'la qilinadigan xarajatlarni

yillik daromad miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$PP = \frac{IC}{P_k}, \quad (12.1)$$

bunda: P_k – k -nchi yilda investisiyadan olinishi kutilayotgan daromad ($k = 1, 2, 3, \dots, n$); IC (*Investment Capital*) – investisiyalanadigan kapital, ya’ni investorning investisiya faoliyati obyektiga qilinadigan dastlabki xarajatlari.

2. Investisiyadan olinadigan daromad qoplanish muddatidagi yillar bo‘yicha notekis taqsimlanganida. Bu holda qoplanish muddati investisiya kumulyativ daromad bilan qoplanadigan yillar yig‘indisini to‘g‘ri hisob-kitob qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

$$PP = n, \text{ бўлганида } \sum_{k=1}^n P_k \geq IC, \quad (12.2)$$

bunda: n – investisiyadan daromad olinishi kutilayotgan yillar soni.

Masalan, korxonada har qaysi 15000,0 mln. so‘mlik bo‘lgan 2 ta «A» va «B» muqobil investisiya loyihalari ko‘rib chiqilmoqda. Ular bo‘yicha prognoz qilinayotgan pul tushumlari 12.1-jadvalda keltirilgan. Ushbu loyihalarning samaradorligini o‘z-o‘zini qoplash metodi yordamida tahlil qilamiz.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, «A» loyihadan olti yil davomida bir maromda har yili 3750,0 mln. so‘mdan daromad olinishi rejalashtirilmoqda. «B» loyiha esa birinchi ikki yil ichida eng yuqori darajada daromad keltirib, keyingi yillarda keskin pasayish kutilmoqda.

12.1-jadval

Loyihalar maqbulligini RR mezoni bo‘yicha baholash (mln. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	«A» loyiha	«B» loyiha
Birlamchi investisiyalar miqdori, mln. so‘m	15 000,0	15000,0
Loyihani amalga oshirishdan kutilayotgan pul tushumlari, mln. so‘m		
birinchi yil	3 750,0	7 500,0
ikkinchi yil	3 750,0	6 500,0
uchinchi yil	3 750,0	1 500,0
to‘rtinchi yil	3 750,0	750,0
beshinchi yil	3 750,0	750,0
oltinchi yil	3 750,0	-
Hammasi	22 500,0	17000,0

12.1-jadval ma’lumotlari asosida investisiya loyihalarining o‘zini-o‘zi qoplash muddatlarini hisoblaymiz:

«A» loyiha bo'yicha: $PP_A = 15\,000 : 3\,750 = 4$ yil;

«B» loyiha bo'yicha: $PP_B = 2 + (15\,000 - (7\,500 + 6\,500)) : 1500 = 2,67$ yil.

Yuqoridagi hisob-kitoblarga ko'ra, o'zini-o'zi qoplash muddati bo'yicha investor uchun «B» loyiha maqbul hisoblanadi.

Ta'kidlash joiz-ki, investisiyalar iqtisodiy samaradorligini baholashda «qoplanish muddati» ko'rsatkichining ayrim kamchiliklarini inobatga olish lozim.

Birinchidan, u qoplanish muddatidan tashqaridagi mavjud daromadlarni hisobga olmaydi (12.2-jadval). Masalan, investisiyalashning birinchi va ikkinchi variantlari qoplanish muddatlari bo'yicha bir xil samaralidir, chunki xarajatlarni qoplash 4 yil ichida ta'minlanadi. Lekin, 2-chi variant afzalroq, chunki u investisiyalardan foydalanishning butun davri davomida ko'proq daromad keltiradi.

12.2-jadval

Investisiya loyihalarining qiyosiy tavsifi

Variant	Yillik daromad, mln. so'm	Investisiya hajmi, mln. so'm	Qoplanish muddati, yillar	Loyihadan foydalanish muddati, yil
1	3 800,0	14 000,0	4	6
2	4 200,0	14 000,0	3,5	4

Ikkinchidan, ushbu ko'rsatkich kumulyativ daromadlar summasi bir xil bo'lgan, ammo uni yillar bo'yicha taqsimlanishi har xil bo'lgan loyihalar o'rtasidagi farqni hisobga olmaydi. Masalan, «A» loyihaning yillik daromadlari 800, 600, 400 mln. so'm va «B» loyihaning yillik daromadlari 200, 600, 1000 mln. so'm bo'lib, samaradorlik bir xil. Lekin, agar daromadlar diskontlansa, «A» loyiha dastlabki ikki yilda katta daromad keltirganligi bois, afzal hisoblanadi.

Uchinchidan, ushbu ko'rsatkich additivlik⁵⁸ xususiyatiga ega emas. Buni quyidagi misolda ko'ramiz (12.3-jadval).

«A» va «B» loyihalar bir-birini o'zaro istisno qiladi, «V» loyiha esa mustaqil. Bu resurslar mavjud bo'lganida ushbu loyihalardan («A» va «V») va («B» va «V») kombinasiyalar rejalashtirilishi mumkin. Qoplanish

⁵⁸**Additivlik** – miqdorning butun ob'ektga mos keladigan qiymati, ob'ektni imkoni bo'lgan bir qancha qismlarga bo'laklaganda, uning qismlariga tegishli qiymatlar yig'indisiga tengligini ifodalovchi xususiyati.

muddati bo'yicha «B» loyiha eng samarali, «A» va «V» loyihalar kamroq samarali hisoblanadi. Lekin, kombinasiyada eng yomon loyihalar hisoblangan «A» va «V» loyihalarning birlashmasi eng samarali bo'ladi.

12.3-jadval

Investisiya loyihalarining parametrlari

Yil	Loyihalar bo'yicha daromadlar, mln. so'm				
	«A»	«B»	«V»	«A» va «V»	«B» va «V»
0	-10 000,0	-10 000,0	-10 000,0	-20 000,0	-20 000,0
1	0	10 000,0	0	0	10 000,0
2	20 000,0	0	0	20 000,0	0
3	5 000,0	15 000,0	15 000,0	20 000,0	30 000,0
Qoplanish muddati	2	1	3	2	3

Investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*).

Investisiyalar (yoki investisiya loyihalari)ning rentabellik koeffitsiyenti investisiya obyektining samaradorligini ifodalaydi. Ushbu koeffitsiyent quyidagi xususiyatlarga ega: *birinchidan*, u «sof foyda» ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi; *ikkinchidan*, uni hisoblaganda daromad diskontlanmaydi.

Investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*ARR*) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$ARR = \frac{CF_{\text{yppm.}}}{IC}, \quad (12.3)$$

bunda:

$CF_{\text{ort.}}$ —rejalashtirilayotgan davr(oylar, yillar) davomida investisiyalardan olinishi rejalashtirilayotgan o'rtacha pul tushumlari (yoki sof foyda);

Masalan, investisiya loyihasining asosiy o'lcham(tavsif)lari quyidagicha: birlamchi investisiya (*IC*) 370 000,0 mln. so'm; 5 yil davomida olinishi rejalashtirilayotgan pul tushumlari mos ravishda quyidagicha (mln. so'm): 85 000,0; 110 000,0; 167 000,0; 180 000,0 va 140 000,0.

Investisiya loyihasining maqbulligini rentabellik koeffitsiyenti (*ARR*) metodi bo'yicha baholash mezonini hisoblaymiz (12.4-jadval).

12.4-jadval

Investisiya loyihasini ARR mezonini bo'yicha baholash (mln. so'm)

Davr (yillar)	Birlamchi investisiya(IC)	Pul tushumi, k-yilda(V _k)
0	370 000	-
1	-	85 000
2	-	110 000
3	-	167 000
4	-	180 000
5	-	140 000
V=		682 000

$$V=85\,000 + 110\,000 + 167\,000 + 180\,000 + 140\,000 = 682\,000:5 = 136\,400 \text{ mln. so'm.}$$

$$ARR = \frac{CF_{\text{ypm.}}}{IC} = \frac{136400}{370000} = 36,9 \%$$

Investisiyalar rentabellik koeffitsiyentini hisoblash formulasining boshqacha shakli ham mavjud. Bunda rejalashtirilayotgan davr davomida investisiya obyekti(loyihasi)ga qo'shimcha qo'yilmalar amalga oshiriladi. Shu bois, investisiya davri uchun kapitalning o'rtacha qiymati olinadi va yuqoridagi formula quyidagi ko'rinishga keladi:

$$ARR = \frac{PN}{0,5(IC-RV)}, \quad (12.4)$$

bunda:

PN – investisiyalarni amalga oshirishdan olinadigan o'rtacha yillik sof foyda;

RV – loyiha qoldiq (tugatilish) qiymati.

Ushbu ko'rsatkich butun korxonaga bo'yicha olingan umumiy sof foydani uning faoliyatiga sarflangan mablag'larning umumiy summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlangan, sarflangan kapitalning rentabellik koeffitsiyenti bilan taqqoslanadi.

Investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (ARR) ko'rsatkichining afzalliklari va kamchiliklari.

Rentabellik koeffitsiyenti (ARR) ko'rsatkichining afzalligi faqat uni hisob-kitob qilishning soddaligidan iborat.

Ushbu koeffitsientning kamchiligi sifatida investisiya loyihasidan kelgusida olinadigan pul tushumlarini prognozlashning murakkabligini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, agar mazkur ko'rsatkich venchur loyihaga nisbatan qo'llanilayotgan bo'lsa, loyiha to'g'risidagi tasavvurni keskin buzib ko'rsatishi mumkin. ARR ko'rsatkichi odatda loyihani umumiy holda tavsiflab, formulada pul qiymatining davr oralig'idagi o'zgarishi (inflyasiya) inobatga olinmaydi. Ushbu ko'rsatkich investisiya loyihalarini baholashning dastlabki va tanlash bosqichida qo'llanilishi mumkin.

12.4. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlari

Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlariga sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash), investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*), investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*) va investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*) kabi metodlarini kiritish mumkin.

Birinchi navbatda investisiya loyihalaridan olinadigan daromadlarni sof joriy qiymatga keltirish (*Net Present Value, NPV*)(daromadlarni diskontlash) metodiga tuxtalib o'sak.

Ushbu metodga muvofiq dastlabki investisiyalar summasi (*Investment capital, IC*) rejalashtirilgan davr davomida mazkur investisiyadan olinishi kutilayotgan pul tushumlarining diskontlangan umumiy summasi (*Present Value, PV*) bilan taqqoslanadi.

Pul mablag'larining kirimi ma'lum davrlar (odatda, yillar) bo'yicha taqsimlanganligi bois, investisiyalar yillik foiz qaytimidan kelib chiqqan holda, investor tomonidan belgilanadigan koeffitsiyent – diskontlash stavkasi (r)⁵⁹ yordamida aniqlanishi lozim. Ushbu koeffitsiyent esa O'zbekiston Respublikasi

⁵⁹**Diskontlash stavkasi** («qiyoslash stavkasi», «daromad normasi» ma'nolarida ham ishlatiladi) – kelgusida olinadigan daromadni hozirgi (joriy) qiymatga keltirish uchun qo'llaniladigan foiz stavkasi.

Markaziy Bankning amaldagi va prognoz qilinayotgan hisob stavkalari asosida oʻrnatilishi mumkin. Loyihaning samaradorlik mezonlarini belgilaydigan koʻrsatkichlar ikkita formula yordamida aniqlanadi:

a) investisiyadan olinishi kutilayotgan pul tushumlarining diskontlangan umumiy summasi (*Present Value, PV*),

$$PV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k}, \quad (12.5)$$

b) sof joriy (diskontlangan) qiymat (*Net Present Value, NPV*),

$$NPV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k} - IC, \quad (12.6)$$

bunda: r – loyihaning diskontlash koeffitsiyenti.

Masalan, taklif etilayotgan investisiya loyhasining asosiy oʻlcham (tavsif) lari quyidagicha: birlamchi investisiya (IC) 370 000,0 mln. soʻm; 5 yil davomida olinishi rejalashtirilayotgan pul tushumlari mos ravishda quyidagicha (mln. soʻm): 85 000,0; 110 000,0; 167 000,0; 180 000,0 va 140 000,0. Loyihaning investor tomonidan belgilangan diskont stavkasi 17 foiz.

$$V = 85\,000 + 110\,000 + 167\,000 + 180\,000 + 140\,000 = 682\,000$$

$$PV = 72\,650,0 + 80\,360,0 + 104\,270 + 96\,057 + 63\,855 = 417\,192$$

$$NPV = -370\,000 + \frac{85\,000}{(1+0,17)^1} + \frac{110\,000}{(1+0,17)^2} + \frac{167\,000}{(1+0,17)^3} + \frac{180\,000}{(1+0,17)^4} + \frac{140\,000}{(1+0,17)^5}$$

$$= -370\,000 + 72\,650,0 + 80\,360,0 + 104\,270,0 + 96\,057,0 + 63\,855,0 = 47\,192,0 \text{ mln. soʻm}$$

Hisob-kitoblardan koʻrinadiki, loyihadan kutilayotgan sof joriy qiymat (NPV) (diskontlangan daromad) 47 192,0 mln. soʻmni tashkil etadi. Shuning uchun yuqorida berilgan shartlar doirasida ushbu loyihani maqbul deb hisoblash mumkin.

Endi, faraz qilaylik, xuddi shu loyiha uchun 22 %lik diskont stavkasi belgilangan:

$$NPV = -370\,000 + \frac{85\,000}{(1+0,22)^1} + \frac{110\,000}{(1+0,22)^2} + \frac{167\,000}{(1+0,22)^3} + \frac{180\,000}{(1+0,22)^4} + \frac{140\,000}{(1+0,22)^5} =$$

$$-370\,000 + 69\,672,0 + 73\,905,0 + 91\,970,0 + 81\,253,0 + 51\,809,0 = -1\,400,0 \text{ mln. sum}$$

Bu holda, loyihadan kutilayotgan sof joriy qiymat (*NPV*) (diskontlangan daromad) salbiy (– 1400,0 mln. so‘m) bo‘lib, ushbu loyihani rad etish tavsiya qilinadi.

Agar loyiha yakunida asosiy vositalar va boshqa aktivlar tugatilishidan daromadlar olinishi rejalashtirilgan bo‘lsa, olingan pul tushumlari tegishli davr uchun daromad sifatida kirim qilinishi lozim.

Agarda loyiha bir martalik emas, balki *m* yil davomida investisiyalanishi ko‘zda tutilayotgan bo‘lsa, u holda yuqoridagi formula (12.6) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$NPV = \sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k} - \sum_{j=1}^m \frac{IC_j}{(1+i)^j}, \quad (12.7)$$

bunda: *i* – prognozlashtirilayotgan inflyasiya darajasi;
j– moliyalashtiriladigan yillar ketma-ketligi (1 dan *m* gacha).

Endi, hisob-kitoblarni yuqoridagi misolning birinchi qismida keltirilgan shartlar asosida ushbu formula bo‘yicha amalga oshiramiz. Lekin, investisiya xarajatlari (*IC*=370 000,0 mln. so‘m) birdaniga emas, balki dastlabki 3 yilda (mos ravishda: 200 000 mln. so‘m; 100 000 mln. so‘m; 70 000 mln. so‘m bo‘laklab) amalga oshirilgan. Xalqaro Valyuta fondining prognozlariga ko‘ra 2019 yil oxiriga kelib O‘zbekistonda kutilayotgan inflyasiya darajasi *i*=18 %.

$$NPV = \left(\frac{85000}{(1+0,17)^1} + \frac{110000}{(1+0,17)^2} + \frac{167000}{(1+0,17)^3} + \frac{180000}{(1+0,17)^4} + \frac{140000}{(1+0,17)^5} \right) -$$

$$- \left(\frac{200\ 000}{(1+0,18)^1} + \frac{100\ 000}{(1+0,18)^2} + \frac{70\ 000}{(1+0,18)^3} \right) =$$

$$= (72650,0+80360,0+104270,0+96057,0+63855,0)-$$

$$-(169\ 492+71\ 818+42\ 605)= 417\ 192,0 - 283\ 915 = 133\ 277 \text{ mln. so‘m}$$

Ushbu vaziyatda investisiya loyihasidan 133 277 mln. so‘m sof joriy (keltirilgan) daromad olinadi. Demak, loyihani bo‘laklab moliyalashtirish investor uchun foydaliroq (133 277 – 47 192=86 085 mln.so‘m).

Investisiya loyihalaridan kelgusida olinadigan daromadlarni sof joriy qiymatga keltirish (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash) metodi

bo'yicha baholash mezonlarini umumlashtirib taqdim etamiz (12.5-jadval).

12.5-jadval

Investisiya loyihasini NPV(*Net Present Value*)mezoni bo'yicha baholash

NPV ni baholash mezonlari	Loyiha bo'yicha xulosa
$NPV > 0$	Investisiya loyihasi kapital qo'yish uchun jozibador, uni rejaga kiritish mumkin
$NPV < 0$	NPV ko'rsatkichi 0 dan kichik, ya'ni salbiy bo'lganida loyiha rad etiladi
$NPV = 0$	Investisiya loyihasidan foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi.
$NPV_1 > NPV_2^*$	Bitta obyekt bo'yicha NPVni boshqa obyekt NPV*si bilan solishtirish ulardan qaysinisi foydaliroq ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, agar $NPV > 0$ bo'lsa, loyiha samarali; $NPV < 0$ bo'lsa, loyiha samarasiz; $NPV = 0$ bo'lsa, loyihadan foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi. Bir nechta investisiya loyihalari ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, ulardan eng yuqori sof daromad keltiradiganini tanlash imkoni bo'ladi ($NPV_1 > NPV_2 > NPV_3$ va h.).

Investisiyalarni rejalashtirishda NPV ko'rsatkichini qo'llashning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uni har xil loyihalar bo'yicha jamlash imkoniyati korxonaning ma'lum davr uchun butun investisiya portfelini integral(uyg'unlikda) baholashga imkon beradi.

Investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*). Investisiyalarning ichki rentabellik normasi (IRR) deyilganda loyihaning NPV ko'rsatkichi nolga teng bo'lgandagi diskontlash koeffitsiyenti tushuniladi:

$$IRR = r, NPV = f(r) = 0. \text{ bo'lganda, } \quad (12.8)$$

Ushbu ko'rsatkich muayyan loyihaga investisiya qilinishi mumkin bo'lgan, xarajatlarning ruxsat etiladigan eng yuqori nisbiy darajasini ko'rsatadi. Masalan, agar loyiha to'lig'icha tijorat bankining ssudalari hisobiga moliyalashtiriladigan bo'lsa, u holda IRR bank foizi stavkasining yo'l qo'yiladigan darajadagi yuqori chegarasini ko'rsatadi, undan oshib ketishi investisiya loyihasidan zarar ko'rilishiga olib keladi.

Investisiyalarni rejalashtirishda rentabellik normasini taqqoslash uchun

«kapital xarajatlar» (*Cost of Capital, SS*)⁶⁰ asos bo‘lib, u korxonada safarbar qilingan kapitalning vujudga kelgan eng kichik qaytimi (rentabelligi)ni ifodalaydi. U tashqi moliyalashtirishning barcha manbalari bo‘yicha o‘rtacha arifmetik tortilgan usul formulasi yordamida hisoblanadi.

Shunday qilib, investisiyalarni rejalashtirishda ichki rentabellik darajasi joriy SS ko‘rsatkichidan past bo‘lmagan loyihalar samarali hisoblanadi. Bunda agar:

$IRR > SS$ bo‘lsa, loyiha ma‘qullanadi;

$IRR < SS$ bo‘lsa, loyiha rad etiladi;

$IRR = SS$ bo‘lsa, loyiha foyda keltirmaydi, ammo zarar ham ko‘rilmaydi.

Investisiyalarning ichki rentabellik normasini hisob-kitob qilish uchun diskontlanadigan ko‘paytmalar qiymatini tabulyasiyalashdan foydalanilgan holda ketma-ket iterasiyalash uslubi qo‘llaniladi. Buning uchun diskontlash koeffitsiyentining $r_1 < r_2$ bo‘lgan ikkita qiymati jadval yordamida (r_1, r_2) intervalda $NPV = f(r)$ funksiyasi o‘z qiymatini «+» dan «-»ga yoki «-» dan «+» ga o‘zgartiradigan chegara tanlanadi. So‘ngra quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$IRR = r_1 + \frac{f(r_1)}{f(r_1) - f(r_2)} \cdot (r_2 - r_1), \quad (12.9)$$

bunda:

r_1 - bunda diskontlash koeffitsiyentining $(f(r_1) > 0)$ ($f(r_1) < 0$) bo‘lgandagi tabulyasiyalangan qiymati;

r_2 - bunda diskontlash koeffitsiyentining $(f(r_2) < 0)$ ($f(r_2) > 0$) bo‘lgandagi tabulyasiyalangan qiymati.

Hisoblashning aniqligi (r_1, r_2) interval uzunligiga teskari proporsional bo‘lib, tabulyasiyalangan qiymatlardan foydalangan holda interval uzunligi eng kichik bo‘lgan vaqtda (1 % ga teng), eng yaxshi approksimasiyaga erishiladi, ya‘ni r_1 va r_2 - diskontlash koeffitsiyentlarining qiymati bir-biriga yaqin bo‘lib, shartlari bajariladi (funksiya belgisi «+» dan «-»ga o‘zgargan holda).

r_1 - NPV ko‘rsatkichi ijobiy qiymatini eng past darajaga tushiradigan, ya‘ni

r_1 - $f(r_1) = \min \{f(r) > 0\}$ bo‘lgandagi diskontlash koeffitsiyentini tabulyasiyalangan qiymati;

r_2 -NPV ko‘rsatkichi salbiy qiymatini eng yuqori darajaga ko‘taradigan, ya‘ni

⁶⁰Ayrim xorij manbalari va amaliyotida *IC (Investment Capital)* «investitsiyalanadigan kapital» tushunchasi o‘rniga «kapital xarajatlar» *SS (Cost of Capital)* tushunchasi qo‘llaniladi. Ular mazmunan bir xil tushunchalardir.

r_2 - $f(r_2) = -\max \{f(r) < 0\}$ bo'lgandagi diskontlash koeffitsiyentining tabulyasiyalangan qiymati.

r_1 va r_2 koeffitsiyentlarni o'zaro almashtirish yo'li bilan funksiya «-» dan «+» ga o'zgargan vaziyat uchun shunga o'xshash shartlar bajariladi.

12.6-jadval

Investisiya loyihasini *IRR (Internal Rate of Return)* mezonini bo'yicha baholash

<i>IRR</i> ni baholash mezonlari	Loyiha bo'yicha xulosa
$IRR > SS$	Investisiya loyihasiga sarflangan kapital o'z qiymatidan yuqori daromad keltiradi. Bunday loyiha foydali hisoblanadi.
$IRR = SS$	Bunday loyihadan olingan daromad xarajatlarni to'liq qoplaydi, lekin foyda olinmaydi va shuning uchun ma'qullanmaydi.
$IRR < SS$	Bunday loyihadan olingan daromad sarflangan kapitalni qoplaymaydi, ya'ni zarar ko'riladi. Shuning uchun rad etiladi.

Investisiyalar rentabelligi (*Profitability Index, PI*)

Investisiyalar samaradorligining asosiy ko'rsatkichi rentabellik (*PI*) bo'lib, u quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$PI = \frac{PV}{IC}, \quad (12.10)$$

Agar $PI > 1$ bo'lsa loyiha samarali; $PI < 1$ bo'lsa loyiha samarasiz; $PI = 1$ bo'lsa loyihadan foyda ham olinmaydi, zarar ham ko'rilmaydi.

Misol: Investisiya loyihalarining maqbulligini investisiyalar rentabelligi ko'rsatkichi bo'yicha baholash. Korxonada 3 ta muqobil («A», «B» va «S») investisiya loyihalaridan qaysinisi maqbulligi masalasi ko'rib chiqilmoqda (12.7-jadval). Ularning amalga oshirilish muddatlari 5 yildan bo'lib, shu davrda har yili mos ravishda: «A» loyiha — 19 050,0 mln. so'm, «B» loyiha — 10 795,0 mln. so'm va «S» loyiha — 29 464,0 mln. so'm doimiy daromad keltirishi rejalashtirilgan. Loyihaning diskontlash stavkasi — 10 %. Qaysi loyiha korxonaga uchun maqbul?

$$PV_A = 17\,318 + 15\,744 + 14\,313 + 13\,011 + 11\,829 = 72\,214,0 \text{ mln. so'm.}$$

$$PV_B = 9\,814 + 8\,921 + 8\,110 + 7\,373 + 6\,703 = 40\,922,0 \text{ mln. so'm.}$$

$$PV_C = 26\,785 + 24\,350 + 22\,137 + 20\,124 + 18\,295 = 111\,692,0 \text{ mln. so'm.}$$

12.7-jadval

Loyihalar maqbulligini RI mezonini bo'yicha baholash (mln. so'm)

Loyiha nomi	Birlamchi investisiyalar summasi, (IC)	t-nchi yilda pul tushumi, (Pt)	PV	NPV	Rentabellik indeksi, (PI)
«A»	63 500,0	19050,0	72214,0	8714,0	1,14
«B»	38 100,0	10795,0	40922,0	2822,0	1,07
«S»	101600,0	29464,0	111692,0	10092,0	1,10

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, ko'rib chiqilayotgan investisiya loyihalaridan NPV ko'rsatkichi bo'yicha eng maqbuli «S» loyiha bo'lsa, rentabellik indeksi (PI) bo'yicha «A» loyiha hisoblanadi.

Bayon qilinganlar asosida investisiya loyihasining rentabelligini baholash mezonlarini taqdim etamiz (12.8-jadval).

Rentabellik indeksi (PI) sof joriy qiymat (NPV) ko'rsatkichidan farq qilib, nisbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu bir qancha muqobil (alternativ) loyihalardan maqbulini tanlashga qulaylik yaratadi.

12.8-jadval

Investisiya loyihasini PI (Profitability Index) mezonini bo'yicha baholash

PI ni baholash mezonlari	Loyiha bo'yicha xulosa
$PI > 1$	Investisiya loyihasi o'zini-o'zi qoplab, qo'shimcha daromad keltira oladi va uni qabul qilish maqsadga muvofiq
$PI < 1$	Investisiya loyihasi unga qilinadigan kapital xarajatlarni to'liq qoplay olmasligi bois, uni rad etish tavsiya qilinadi.
$PI = 1$	Investisiya loyihasi tanlangan diskont stavkasiga teng bo'lgan daromadnigina ta'minlay oladi.
$PI_A > PI_S > PI_V^*$	Bir nechta muqobil loyihalardan qaysi maqbulligini aniqlash maqsadida o'zaro taqqoslanadi. Birinchi loyiha afzal bo'lganligi uchun ikkinchisi rad etiladi.

Investisiyalarning qoplanish muddatini daromadlarni diskontlash asosida aniqlash (Discounted Payback Period, DRR) metodi.

Diskontlangan qoplanish muddati - birlamchi investisiya xarajatlarining qoplanishi uchun zarur bo'ladigan davr (yillar). Ushbu ko'rsatkich (DRR) ni hisoblash formulasi investisiyalarning qoplanish muddati (RR) ni hisoblash formulasiga o'xshash, faqat daromadlarning diskontlanishi bilan farq qiladi.

$$\sum_{k=1}^n \frac{P_k}{(1+r)^k} > IC \text{ bo'lganida } DRR = \min n, \quad (12.11)$$

Misol: Investisiya loyihasining asosiy o'lcham(tavsif)lari quyidagicha: birlamchi investisiya (*IC*) 370 000,0 mln. so'm; 5 yil davomida olinishi rejalashtirilayotgan pul tushumlari mos ravishda quyidagicha (mln. so'm): 85 000,0; 110 000,0; 167 000,0; 180 000,0 va 140 000,0. Loyihaning investor tomonidan belgilangan diskont stavkasi 17 %.

Investisiya loyihasining qoplanish muddatini daromadlarni diskontlash asosida (*DRR*) aniqlaymiz va maqbulligini baholaymiz (12.9-jadval).

12.9-jadval

Investisiya loyihasini *DRR (Discounted Payback Period)* mezoni bo'yicha baholash (mln. so'm)

Davr (yillar)	Birlamchi investisiya(<i>IC</i>)	Pul tushumi, <i>t</i> -yilda(<i>Pt</i>)	Diskontlangan pul tushumi (<i>PV</i>)	Diskontlangan pul tushumi (<i>PV</i>) o'sib boruvchi jami bilan
0	370 000	-	-	-
1	-	85 000	72 650	72 650
2	-	110 000	80 360	153 010
3	-	167 000	104 270	257 280
4	-	180 000	96 057	353 337
5	-	140 000	63 855	417 192

$$PV = 72650,0 + 80360,0 + 104270 + 96057 + 63855 = 417 192$$

$$DPR = 4 + (370 000 - (72650,0 + 80360,0 + 104270 + 96057)) : 63 855 = 4,26 \text{ yil.}$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha investisiyalangan xarajatlar beshinchi yilga kelib to'liq qoplanadi. Investisiya loyihasining qoplanish muddati qanchalik qisqa bo'lsa (*DPP* → *min*), mazkur loyiha shunchalik maqbul hisoblanadi.

Investisiya loyihasining qoplanish muddatini daromadlarni diskontlash (*DRR*) mezoni bo'yicha baholashning oddiy (diskontlanmagan) qoplanish muddati (*RR*) mezoni bo'yicha baholashdan afzalligini asoslash uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

Misol: Xuddi shu loyiha oddiy (diskontlanmagan) o'z-o'zini qoplash

muddati(*PP*)ni aniqlaymiz:

$$PP = 3 + (370000 - (85\ 000 + 110\ 000 + 167\ 000)) : 180\ 000 = 3 + 0,04 = 3,04 \text{ yil.}$$

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, bir xil summadagi (370 000,0 mln. so‘m) loyihadan pul tushumlari diskontlanmaganda 3 yilda, diskontlanganda 4 yilda o‘zini-o‘zi qoplaydi. Boshqacha aytganda, 3 yilda olingan yalpi daromad sof holiga keltirilgan 4 yilda olingan daromadga teng.

Investisiya loyihalari diskontlangan qoplanish muddati (DRR) ko‘rsatkichining qanday kamchiliklari va afzalliklari mavjud?

Ushbu ko‘rsatkichning afzalligi formulada pulning inflyasiya hisobiga vaqt o‘tishi bilan o‘z qiymatini o‘zgartirish xususiyati aks etganligi bilan tavsiflanadi.

Ushbu ko‘rsatkichni qo‘llashning murakkabligi investisiyalardan kelgusida olinadigan pul tushumlarini prognozlash va diskontlash stavkasining aniq belgilanishi bilan bog‘liq. Diskontlash stavkasi investisiya loyahasini amalga oshirish davri davomida har xil iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy-texnologik, ishlab chiqarish, bozor kon’yunkturasi va boshqa omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin.

12.5. Muqobil loyihalar tahlili va eng maqbulini tanlash

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirib, investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash metodlari va maqbul loyihani tanlash mezonlarini taqdim etamiz (10-jadval). Ushbu ko‘rsatkichlar Exel dasturida hisoblanib, ularni baholash mezonlari aniqlansa, investisiya loyahasini tezkor baholash va samarali investisiya qarorlarini qabul qilish ilmiy-uslubiy jihatdan asoslanadi.

Ta’kidlash joizki, mazkur ko‘rsatkichlarni venchur loyihalari⁶¹ni baholash uchun qo‘llash noqulay. Buning sababi venchur loyahasini amalga oshirishda innovatsion mahsulot(ish, xizmat)larga bo‘lgan talabni, ularni sotish hajmini va olinadigan daromadlarni prognozlashning murakkabligidir.

Investisiya loyihalarini amalga oshirishda baholash natijalari tavsiya

⁶¹**Venchur loyihasi** – bu innovatsion biznes-loyiha bo‘lib, yangilik, risk va daromadlilik darajalarining yuqoriligi bilan farq qiladi.

etilayotgan mezonlarga javob bersa, biznes jarayonlar puxta tashkil etilib, izchil amalga oshirilsa, shubhasiz, investisiyalar samaradorligi ta'minlanadi (12.10-jadval).

12.10-jadval

Muqobil loyihalarni tahlil qilish koeffitsiyentlari va eng maqbulini tanlash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Investisiyani tanlash mezonlari
Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari	
<i>O'z-o'zini qoplash muddati</i>	<i>PP</i> → <i>min</i>
<i>rentabellik koeffitsiyenti</i>	<i>ARR</i> > <i>0</i>
Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlari	
<i>Sof joriy qiymat(daromad)</i>	<i>NPV</i> > <i>0</i>
<i>Ichki rentabellik normasi</i>	<i>IRR</i> > <i>CC</i>
<i>Rentabellik indeksi</i>	<i>PI</i> > <i>1</i>
<i>Diskontlangan o'z-o'zini qoplash muddati</i>	<i>DPP</i> → <i>min</i>

Investisiya loyahasini shakllantirishda mavjud bo'lgan muqobil variantlardan yaxshisi(maqubli)ni tanlash samarali qaror qabul qilish juda murakkab masala hisoblanadi. Ayrim hollarda investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini yuqorida ko'rib chiqilgan mezonlar asosida baholashda ularni rejaga kiritishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida butunlay qarama-qarshi bo'lgan xulosalar kelib chiqishi mumkin. Masalan, RR va ARR ko'rsatkichlariga bo'yicha yaxshi (maqbul) deb hisoblangan loyiha, NPV, PI va IRR ko'rsatkichlariga muvofiq samarasiz deb rad qilinishi mumkin. Bu holda quyidagi tavsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq.

Birinchidan, ko'rsatkichlar o'rtasida ma'lum o'zaro bog'liqliklar mavjud bo'lib, ular kompleks baholashda hisobga olinishi zarur:

agar $NPV > 0$ bo'lsa, $IRR > CC$; $PI > 1$ bo'ladi;

agar $NPV < 0$ bo'lsa, $IRR < CC$; $PI < 1$ bo'ladi;

agar $NPV = 0$ bo'lsa, $IRR = CC$; $PI = 1$ bo'ladi.

Ikkinchidan, korxonaga strategiyasi nuqtai nazaridan eng muhim, bitta ko'rsatkich tanlanishi va u bitta loyihani tanlashni belgilab berishi lozim.

Uchinchidan, zarur axborotlarni jalb qilish asosida investisiya siyosatining

talablarini aks ettiradigan, qo‘shimcha mezonlarni shakllantirish zarur.

Shunday qilib, investisiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholashda yuqorida bayon etilgan metodlardan malakali foydalanish va samaradorlik mezonlarini aniq belgilash muqobil loyihalardan eng maqbulini tanlash hamda amalga oshirishga yordam beradi. Ta’kidlash joizki, investisiyalar samaradorligini baholashning statik metodlari obyektini umumiy holda tavsiflaydi, dinamik metodlar esa investisiyalarning muhim o‘lcham (mezon)larini aniqroq baholashga imkon yaratadi. Kuchli globallashuv va keskin raqobat sharoitida ushbu ko‘rsatkichlarni investisiyalash davri nisbatan qisqa bo‘lgan loyihalar uchun qo‘llash yaxshi samara beradi.

Shuningdek, tashqi omillar bilan birga, investisiya loyihalarining samaradorligini baholashga ichki omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Ichki omillar ta’siri asosan kelgusidagi pul tushumlarini prognozlashda, ya’ni ularning qay darajada aniqligida namoyon bo‘ladi. Samaradorlik ko‘rsatkichlari investisiyalarni ko‘proq moliyaviy jihatdan tavsiflaydi va olinadigan daromadlar bilan sabab-oqibatli aloqadorligini ochib bermaydi. Muhimi, ushbu ko‘rsatkich (koeffitsiyent)larni hisob-kitob qilishning soddaligi va tahlilning dastlabki bosqichlaridayoq samarasiz loyihalarni aniqlash hamda rejadan chiqarib tashlashga imkon beradi.

12.6. Korxonalar investitsion faoliyati tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PF- 5635 sonli Farmoni bilan tasdiqlangan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi»ga muvofiq umumiy qiymati 16,9 trillion so‘m va 8,1 milliard AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan⁶².

«Harakatlar strategiyasi»ni hayotga tatbiq etish va ushbu Farmon qabul

⁶² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17 yanvar 2019 yildagi PF- 5635 sonli «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» Farmoni. www.lex.uz.

qilinishi mamlakatimizda investisiya faoliyatini tubdan yangi sifat bosqichiga ko'tarmoqda. Shu bilan birga, hozirgi globallasuv jarayonida har qanday faoliyat yuritayotgan korxonaning iqtisodiy faolligi bevosita investisiya jarayoniga bog'liqlikda kechadi. Bu esa, o'z navbatida korxonalarda investision faoliyat ko'rsatkichlarini tizimlashtirgan holda, tahlilini to'g'ri yo'lga qo'yish va samaradorligini baholashni talab etadi.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi korxonada investision faoliyatining holatini baholash orqali uning hajmini ko'paytirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi. Ushbu maqsadga quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish orqali erishish mumkin:

- korxonaning investision faoliyat ko'rsatkichlari va uning tarkibiy o'zgarishlariga baho berish;

- investisiyaga yo'naltirilgan mablag'lar samaradorligini baholash;

- jalb qilingan investisiyalar samaradorligini o'rganish va baho berish;

- investisiyaga yo'naltirilgan va jalb qilingan mablag'lardan foydalanish samaradorligi hamda ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish va baho berish;

- investisiya hajmini ko'paytirish va foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib berish.

Korxonada investision faoliyati tahlilini amalga oshirishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

- buxgalteriya balansi;

- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;

- xususiy kapital to'g'risidagi hisobot;

- investisiyalarni hisobga olish uchun mo'ljallangan buxgalteriya hisobi schyotlari ma'lumotlari;

- boshqa ma'lumotlar (ustav, ta'sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, investisiya dasturi, biznes reja ma'lumotlari va boshqa).

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan vazifalardan kelib chiqib, korxonada

investision faoliyati tahlilini amalga oshirish jarayonini quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Korxonaning investision faoliyat ko‘rsatkichlari va uning tarkibiy o‘zgarishlarining tahlili;
2. Investisiyaga yo‘naltirilgan mablag‘lar samaradorligining tahlili;
3. Jalb qilingan investisiyalar samaradorligining tahlili.

Korxonaning investision faoliyati tahlilini amalga oshirish jarayonining birinchi yo‘nalishi bo‘yicha, ya‘ni korxonaning investision faoliyat ko‘rsatkichlari va ularning tarkibiy o‘zgarishini tahlil qilib o‘rganganimizda quyidagi ma‘lumotlarga ega bo‘lindi (12.11-jadval).

12.11-jadval

Korxonaning investision faoliyatini tarkibini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+;-)	
	Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i, %	Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i, %	Summa, ming so‘m	Sal-mog‘i, %
Uzoq muddatli investisiyalar (1-shakl, 030-satr)	603229,2	49,2	640120,4	40,7	+36891,2	-8,5
Qimmatli qog‘ozlar	-	-	-	-	-	-
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investisiyalar	-	-	-	-	-	-
Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investisiyalar	-	-	-	-	-	-
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investisiyalar	-	-	-	-	-	-
Boshqa uzoq muddatli investisiyalar	603229,2	100	640120,4	100	+36891,2	-
Qisqa muddatli investisiyalar (1-shakl, 370-satr)	621534,0	50,8	934000,0	59,3	+312466	+8,5
Jami yo‘naltirilgan investisiyalar	1224763,2	100	1574120,4	100	+349357,2	-
O‘z mablag‘lar manbai	3428508,4	98,7	4304256,5	99,9	+875748,1	+1,2
Uzoq muddatli kredit va qarzlari	-	-	-	-	-	-
Qisqa muddatli kredit va qarzlari	43631,5	1,3	1022,9	0,1	-42608,6	-1,2
Investisiya manbalari jami	3472139,9	100	4305279,4	100	+833139,5	-

12.11-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, korxonaning tomonidan jami yo‘naltirilgan investisiyalar yil boshiga 1224763,2 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yil oxirida 1574120,4 ming so‘mga teng bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, korxonaning tomonidan yo‘naltirilgan investisiyalar hajmi yil oxirida yil boshiga

nisbatan 349357,2 ming so‘mga ko‘paygan.

Korxonada tomonidan yo‘naltirilgan investisiyalar tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, yil oxirida uzoq muddatli investisiyalar 640120,4 ming so‘mni va qisqa muddatli investisiyalar 934000,0 ming so‘mni tashkil qilgan. Yo‘naltirilgan investisiyalar tarkibida qisqa muddatli investisiyalar salmog‘i yil boshida ham, yil oxirida ham uzoq muddatli investisiyalarga nisbatan yuqori bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Investisiya manbalari tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda yil boshida ham, yil oxirida ham o‘z mablag‘lari manbalari asosiy salmoqni tashkil etayotganini ko‘ramiz. Ya‘ni, bu ko‘rsatkich yil boshida 98,7 foizga teng bo‘lsa, yil oxirida 0,99 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, korxonada yil oxirida yil boshiga nisbatan yo‘naltirilgan investisiyalarning 349357,2 ming so‘mga ko‘payishi va investisiya manbalarining asosini o‘z mablag‘lari manbai tashkil etishini ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Shundan so‘ng, korxonaning investision faoliyatga yo‘naltirilgan mablag‘larining samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlash va ularning dinamik o‘zgarishini omilli tahlil qilish orqali o‘rganiladi (12.12-jadval).

12.12-jadval

Korxonada investision faoliyatga yo‘naltirilgan mablag‘larning samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich nomi	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Sotib olingan aksiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti (K_a)	$K_a = D : A$	bunda: D – aksiyalar uchun berilgan dividend summasi; A – sotib olingan aksiyalar summasi
2	Yo‘naltirilgan investisiyalarning samaradorlik koeffitsiyenti (K_i)	$K_i = F : I$	bunda: F – yo‘naltirilgan investisiyalardan olingan foyda summasi; I – yo‘naltirilgan investisiyalar summasi.
3	Berilgan qarz va kreditlarning foydalilik koeffitsiyenti (K_k)	$K_k = FT : KQ$	bunda: FT – berilgan kredit va qarzlarning uchun olingan foiz to‘lovi summasi; KQ – berilgan kredit va qarzlarning summasi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joiz-ki, korxonada tomonidan yo‘naltirilgan investisiyalaridan kelayotgan daromadlar jalb qilingan kredit va qarzlarning bo‘yicha

to'lovlardan past bo'lsa, bu uning investision faoliyati samaradorligi pastligini anglatadi. Shu sababli, korxonaning investision faoliyatiga baho berishda samarali moliyaviy richagni aniqlash talab etiladi. Jami yo'naltirilgan investisiyalardan olingan daromadlar, jalb qilingan kredit hamda qarzlarni uchun to'lovlardan yuqori bo'lsa, bu moliyaviy richagning samarali nuqtasi aniqlanganidan dalolat beradi, shuningdek o'z mablag'lar manbaining o'sishiga erishiladi va aksincha bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, samarali moliya richagini aniqlashda uning muhim ikki jihatga e'tibor qaratish zarur:

birinchidan, jami investisiya manbaalarining rentabelligi, jalb qilingan kredit va qarzlarni uchun to'lanadigan foizdan yuqori bo'lishiga;

ikkinchidan, jami investisiya manbalari rentabelligining, jalb qilingan kredit va qarzlarni uchun foizlar, shuningdek inflyasiya darajasidan yuqoriligiga e'tiborni qaratishni talab etadi.

Birinchi holatda, samarali moliya richagi, inflyasiya darajasini inobatga olmagan holda o'z mablag'lar manbaining o'zgarishiga qanchalik ta'sir etishi quyidagicha aniqlanadi (MR_s):

$$MR_s = (1 - I_d) \times (M_r - KQ_C) \times (KQ : O'MM), \quad (12.12)$$

bunda: I_d - foydadan olinadigan soliq stavkasi koeffitsiyenti, M_r - investisiyalar rentabelligi (%), KQ_s - kredit va qarzlarni uchun mo'ljallangan o'rtacha foiz stavkalari (%), KQ - hisobot davrida olingan kredit va qarzlarning o'rtacha qiymati, $O'MM$ - hisobot davridagi o'z mablag'lar manbaining o'rtacha qiymati.

Samarali moliya richagining inflyasiya darajasini inobatga olgan holda o'z mablag'lar manbaining o'zgarishiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi (MR_{si}):

$$MR_{si} = \left(\frac{KQ}{O'MM} \right) \times (1 - I_d) \times \left(M_r - \frac{KQ_s}{1 + \frac{I_i}{100}} \right) + \left(I_i \times \frac{KQ}{O'MM} \right), \quad (12.13)$$

bunda: I_i - inflyasiya ko'rsatkichi.

Samarali moliya richagining inflyasiya darajasini inobatga olgan va inobatga olmagan holda o'z mablag'lari manbaining o'zgarishiga ta'sirini hisob-kitob qilib aniqlaganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (12.13-jadval).

12.13-jadval

Korxonaning investision faoliyati samaradorligini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarishi (+;-)
O'z mablag'lar manbai, ming so'm	3428508,4	4304256,5	+875748,1
Kredit va qarzlarni o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	43631,5	1022,9	-42608,6
Jami investisiya manbalarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	3472139,9	4305279,4	+833139,5
Jalb qilingan investisiya va ustav kapitali nisbati koeffitsiyenti	0,987	0,999	+0,012
Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar foyda, ming so'm	558162,6	767043,1	+208880,5
Foyda solig'i, ming so'm	78142,8	92045,2	+13902,4
Foyda solig'i stavkasi, koeffitsiyentda	0,14	0,12	-0,02
Investisiyalar rentabelligi, %	16,1	17,8	+1,7
Foiz ko'rinishidagi xarajatlar, ming so'm	6413,8	130,9	-6282,9
Kredit va qarzlarga foiz stavkalari, %	14,7	12,8	-1,9
Inflyasiya darajasi, %	12	13,8	+1,8
Inflyasiya darajasini hisobga olmagandagi samara, koeffitsiyent (12.12-formula bo'yicha hisob-kitob qilindi)	1,188	4,396	+3,208
Inflyasiyani hisobga olgandagi samara, koeffitsiyent (12.13-formula bo'yicha hisob-kitob qilindi)	14,369	19,546	+5,177

12.13-jadval ma'lumotlariga ko'ra, samarali moliya richagi inflyasiya darajasini hisobga olmaganda yil boshida 1,188 koeffitsiyentni tashkil etgan holda korxonaning o'z mablag'lari manbaini 40730,6 ($1,188 \times 3428508,4 : 100$) ming so'mga oshirgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil oxirida 189215,1 ($4,396 \times 4304256,5 : 100$) ming so'mni tashkil qilgan.

Samarali moliya richagi inflyasiya darajasini hisobga olgan holda o'z mablag'lar manbaini yil boshida 492642,3 ($14,369 \times 3428508,4 : 100$) ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich yil oxirida 841310 ($19,546 \times 4304256,5 : 100$) ming so'mga teng bo'lgan.

Shunday qilib, korxonada tomonidan yo'naltirilgan investisiyalar bo'yicha olingan daromadning kredit va qarzlarni bo'yicha to'lovlar darajasidan yuqori bo'lganligi ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda yil boshiga nisbatan yil oxirida korxonaning investision faoliyati samaradorligining oshishiga olib kelgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Investisiya tushunchasi va uning mazmunini ochib bering?
2. Investisiyalar qanday belgilari bo'yicha tasniflanadi va ularni tavsiflab bering?
3. Korxonada investitsion faoliyati tahlilining maqsadi va vazifalarini tushuntiring?
4. Korxonada investitsion faoliyati tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
5. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning qanday metodlari bor?
6. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari deganda nimani tushunasiz?
7. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlarini tavsiflab bering?
8. Muqobil loyihalarning eng maqbulini tanlash mezonlarini tushuntiring?
9. Korxonada investitsion faoliyati tahlili qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?
10. Korxonada investitsion faoliyatga yo'naltirilgan mablag'larining samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini tushuntiring?

NAZORAT TESTLARI

1. Investisiyalar tushunchasiga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating?

- A) Investisiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestisiyalar
- B) Investisiyalar - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investisiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui
- C) Investisiyalar - investisiya faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan, investisiya

shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim

D) Investisiyalar - O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi

2. O‘zbekiston Respublikasining “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda) qachon qabul qilingan?

- A) 2016 yil 13 aprelda
- B) 2000-yil 26 mayda
- C) 2019 yil 25 dekabrda
- D) 2019 yil 30 dekabrda

3. Investisiyalar shakli bo‘yicha qanday turlarga ajratiladi?

- A) Moliyaviy investisiyalar; moddiy investisiyalar; intellektual investisiyalar
- B) Qisqa muddatli va uzoq muddatli investisiyalar
- C) To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar va boshqa investisiyalar
- D) Mahalliy investisiyalar va chet el investisiyalari

4. Investisiyalar kiritish shakliga ko‘ra qanday tasniflanadi?

- A) Moliyaviy investisiyalar; moddiy investisiyalar; intellektual investisiyalar
- B) Qisqa muddatli va uzoq muddatli investisiyalar
- C) To‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar va boshqa investisiyalar
- D) Mahalliy investisiyalar va chet el investisiyalari

5. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning qanday metodlari mavjud?

- A) Statik metodlar va dinamik metodlar
- B) Oddiy-an’anaviy va iqtisodiy matematik metodlar
- C) Gorizontol, vertikal va trend tahlili metodlari
- D) Zanjirli bog‘lanish, balansli bog‘lanish va moliyaviy tahlilning maxsus metodlari

6. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning statik metodlari tarkibini ko'rsating?

- A) Investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*); investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*)
- B) Sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash); investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*); investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*); investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*)
- C) Sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash); investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*); investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*)
- D) Investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*); investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*); investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*)

7. Investisiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini baholashning dinamik metodlari berilgan javobni ko'rsating?

- A) Investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*); investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*)
- B) Sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash); investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*); investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*); investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*)
- C) Sof joriy qiymat (*Net Present Value, NPV*) (daromadlarni diskontlash); investisiyalarning ichki rentabellik normasi (*Internal Rate of Return, IRR*); investisiyalarning rentabellik koeffitsiyenti (*Accounting Rate of Return, ARR*)
- D) Investisiyalarning qoplanish muddati (*Payback Period, RR*); investisiyalarning rentabellik indeksi (*Profitability Index, PI*); investisiyalarning diskontlangan qoplanish muddati (*Discounted Payback Period, DRR*)

8. Korxonadan yo'naltirilgan investitsiyalar to'g'risida ma'lumotlar buxgalteriya balansining qaysi tomonida aks ettiriladi?

- A) Aktiv tomonida
- B) Passiv tomonida
- C) Aktiv va passiv tomonlarida
- D) Buxgalteriya balansida bunday ma'lumotlar aks ettirilmaydi

9. Korxonaning investisiya manbalari to'g'risida ma'lumotlar buxgalteriya balansining qaysi tomonida aks ettiriladi?

- A) Aktiv tomonida
- B) Passiv tomonida
- C) Aktiv va passiv tomonlarida
- D) Buxgalteriya balansida bunday ma'lumotlar aks ettirilmaydi

XIII BOB. KORXONA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING TAHLILI

13.1. Tashqi iqtisodiy faoliyat va uning asosiy yo‘nalishlari

Bozor munosabatlari sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish va jahon bozorining aktiv ishtirokchisiga aylanish korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning muhim va samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ham korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirish istiqbollari belgilashga asosiy e‘tibor qaratiladi. Bu esa, yangi bozorlar (tovarlar, xizmatlar, mehnat, axborot, moliya va boshqa bozorlar)ni rivojlantirishga, xomashyoni olib kirishga, texnologiya va axborotlarni ayirboshlashga, ilmiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, madaniy va boshqa tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ko‘plab korxonalar va birlashmalar, korporatsiya va kompaniyalar, firma va boshqa tashkilotlar xorijlik sheriklar bilan tashqi savdo aloqalarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirmoqdalar, xorijiy investorlar ishtirokida yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda.

2000-yil 26 mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda)ning 3-moddasiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga haqlidir. Bundan ko‘rinadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatning subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari hisoblanishadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining ma‘lum huquq va majburiyatlari mavjud.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlari doirasida tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z xohishiga ko'ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

- tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga, shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining majburiyatlari:


- tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi hisobotni belgilangan tartibda taqdim etishi;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning O'zbekistonda belgilab qo'yilgan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etishi shart va h.k.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari oldi-sotdi yoki ayirboshlash obyekti bo'lgan tovarlar, ishlar (xizmatlar), har qanday mol-mulkka, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar, valyuta qimmatliklariga, elektr, issiqlik energiyasi va boshqa turdagi energiyaga, transport vositalariga, intellektual mulk obyektlariga nisbatan (tashqi iqtisodiy faoliyatda foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlanganlari mustasno) tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin.

Bugungi kunda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyida keltirilgan (13.1-rasm).



13.1-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari

13.1-rasmga ko'ra tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bu xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik bo'lib, bu ishlab chiqarish, moliya, bank va sug'urta faoliyati, ta'lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog'liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali aloqalarni o'rnatishi va kengaytirishga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Tashqi savdo faoliyati yo'nalishi esa xalqaro tovarlar, ishlar (xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Bu tovar (ish va xizmat) larni eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning keyingi asosiy yo'nalishlaridan biri chet el investitsiyalarini jalb qilishdir. Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne'matlarning barcha turlari hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning yana bir asosiy yo'nalishlaridan biri O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati bo'lib, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va nomoddiy ne'matlarni hamda ularga bo'lgan huquqlarni qo'yish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari harakatlarining yig'indisidir.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investisiya faoliyati quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- yuridik shaxslar tashkil etish yoki ustav fondlarida (kapitallarida) ulushbay asosda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar sotib olish yo‘li bilan qatnashish;

- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar ta’ sis etish;

- qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan xorijiy davlatlarning rezidentlari tomonidan tasdiqlangan qarz majburiyatlarini sotib olish;

- konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, izlab topish, qazib olish yoxud ulardan foydalanishga mo‘ljallangan konsessiyalarni qo‘lga kiritish;

- mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish.

13.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish usullari

Mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy-ijtimoiy aloqalarning kengayishi, jahon bozorida raqobat muhitining ko‘chayishi, jahon iqtisodiyotida transmilliy korporasiyalar rolining oshishi, valyuta kurslarining barqaror emasligi, to‘lov balanslarining taqchilligi, rivojlanayotgan mamlakatlar qarzlarining yanada o‘ sishi va iqtisodiy munosabatlarning boshqa xususiyatlari tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish zarurligini bildiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish - bozor munosabatlari sharoitida siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar natijaviyligi va samaradorligini oshirish maqsadida mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, xususan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta’minlash, eksportni rag‘batlantirish, xorijiy investisiyalar oqimini ko‘chaytirishga yo‘naltirilgan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunining 17-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

- valyuta bilan tartibga solish;

- soliq bilan tartibga solish;

- tarif va notarif tartibga solish;

- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensasiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash;

- tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o‘rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o‘rnatish;

- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda talab qilinadigan hujjatlarning to‘liq ro‘yxatini belgilash;

- o‘z xossa hamda xususiyatlariga ko‘ra yalpi qirg‘in qurolini (yadroviy, kimyoviy, bakteriologik (biologik) va zaharlovchi qurol) hamda uni yetkazib berish vositalarini (raketalar va yalpi qirg‘in qurolini yetkazib berishga qodir boshqa texnika vositalarini), boshqa turdagi qurol-yarog‘ hamda harbiy texnikani yaratishda muhim hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan, eksport nazorati obyektlari ro‘yxatlarida ko‘rsatilgan tovarlar, asbob-uskunalar, ilmiy-texnika axboroti, ishlar va xizmatlar, intellektual faoliyat natijalariga nisbatan eksport nazoratini o‘rnatish;

- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

- texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari, talablari, qoidalari va normalarini belgilash;

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish qonun

hujjatlariga muvofiq boshqacha usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;
- savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;
- tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish davlatning vakolatli organlari tomonidan tegishli chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va uni bajarilishini ta‘minlash jarayonini o‘zida aks ettiradi. Boshqacha aytganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi har bir mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy vazifasini, ya‘ni milliy iqtisodiyotni rivojlanish samaradorligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

13.3. O‘zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati

Mamlakatda tashqi savdo faoliyatini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a‘zo bo‘lish va ana shu tashkilotlar doirasida faoliyat ko‘rsatish jarayonlarini kengaytirish hisoblanadi. Shu sababli ham mamlakatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik va xavfsizlik tashkiloti (ShHXT), Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti (MOHT), Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (IHT), Jahon Savdo Tashkilotining kuzatuvchisi (JST), Jahon Banki (JB), Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Xalqaro

moliya korporasiyasi (XMK), Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, YuNESKO va shu kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarning a'zosi bo'lishga erishdi. Shuningdek, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvida Xalqaro valyuta fondi (XVF) bilan hamkorligi alohida o'rin tutadi. Natijada bugungi kunda O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining mustaqil ovozigga ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi va dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatmoqda. Ya'ni, ikki va ko'p tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Bunday aloqalarning rivojlanishi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyati tabiiy resurslarning mavjudligi, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik imkoniyatlarning barpo etilishi, infratuzilma, ijtimoiy soha, mahsulot (ish, xizmat)larning chet elga eksport qilinishi bilan aniqlanadi. Mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishda tashqi savdo muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tashqi savdo mamlakatlararo iqtisodiy munosabatlarning eng oddiy va qadimiy shakli bo'lib, uning rivojlanishi mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama foyda olish imkonini beradi.

Tashqi savdo bu bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan o'zaro tovar (ish, xizmat) almashish jarayoni bo'lib, u mamlakatdan tovar (ish, xizmat)larning chiqib ketishi (eksport) va kirib kelishi (import)dan tashkil topadi.

Eksport va import yig'indisi mamlakatning tashqi savdo aylanmasini tashkil qiladi. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh tashqi savdodagi eksport va import tushunchalarining o'zi nima?

O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunining 11 – moddasiga muvofiq tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan

olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tovarlar eksportidir.

O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) eksportidir.

Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir.

Xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) importidir.

Bugungi kunda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida eksport va importni rivojlantirish borasida ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2018 yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi jahonning 160 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yakuni bo'yicha 33430 million AQSh dollar bo'lib, 2017 yil ko'rsatkichiga nisbatan 25,8 % ga oshgan. Shundan, eksport 13991 million AQSh dollarini (41,9 %) va import 19439 million AQSh dollarini (58,1 %) tashkil qildi yoki 2017-yilga nisbatan mos ravishda 111,4 va 138,7 % larni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi saldosu 5448,5 million AQSh dollariga teng bo'ldi. Shundan 2138,2 million AQSh dollarini MDH davlatlari va 3310,3 million AQSh dollarini boshqa davlatlar tashkil qiladi (13.1-jadval).

Respublikamizda oxirgi yillarda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish tuzilmalarida tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi natijasida tashqi savdoda faqat xomashyo vositalari bilan qatnashishi keskin qisqardi. Jumladan, eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 2010-yilda 12,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2018 yil yakuniga ko'ra 1,6 % gacha keskin kamayib borganligini

ko‘rishimiz mumkin.

13.1-jadval


O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosi to‘g‘risida ma’lumot⁶³

Ko‘rsatkichlar	Yillar								
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	22199	26366	26416	28270	27530	24924	24232	26566	33430
eksport	13023	15021	13600	14323	13546	12508	12095	12554	13991
import	9175,8	11345	12817	13947	13984	12417	12138	14012	19439
<i>savdo balansi saldosi</i>	3847,6	3676,7	783,1	375,8	-438,6	91	-43	-1458,7	-5448,5
shu jumladan:									
<i>MDH mamlakatlari</i>	9369,2	11346	12732	11922	12093	9548,9	8388,1	9084,6	12144
eksport	5647,7	6720,1	7703,4	6644,7	6772,5	5230,3	4338,3	4080,1	5003,1
import	3721,5	4625,6	5028,4	5276,8	5320,1	4318,6	4049,8	5004,5	7141,3
<i>savdo balansi saldosi</i>	1926,2	2094,5	2675	1367,9	1452,4	911,7	288,5	-924,4	-2138,2
<i>boshqa mamlakatlar</i>	12830	15020	13684	16348	15437	15375	15844	17482	21286
eksport	7375,7	8301,2	5896,2	7678	6773,2	7277,3	7756,3	8473,6	8987,6
import	4545,3	6719	7788,1	8670,1	8664,2	8098	8087,8	9007,9	12298
<i>savdo balansi saldosi</i>	1921,4	1582,2	-1891,9	-992,1	-1891	-820,7	-331,5	-534,3	-3310,3
O‘tgan yilga nisbatan foizda:									
<i>Tashqi savdo aylanmasi</i>	104,7	118,8	100,2	107	97,4	90,5	97,2	109,6	125,8
eksport	110,6	115,3	90,5	105,3	94,6	92,3	96,7	103,8	111,4
import	97,2	123,6	113	108,8	100,3	88,8	97,8	115,4	138,7

Shu bilan birga, 2018 yil yakuniga ko‘ra eksport tarkibida kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 6,5 % ni, energiya manbalari va neft mahsulotlari 19,1 % ni, qora va rangli metallar 8,4 % ni va xizmatlar 21,9 % ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning barchasi 2017 yilga nisbatan o‘sgan. Bu o‘z navbatida mamlakat eksport salohiyatidagi rivojlanish tendensiyasini ko‘rsatadi (13.2-rasm).


Shuningdek, import tarkibiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, 2017 yilga nisbatan 2018 yilda oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda xizmatlar importida kamayish tendensiyasi kuzatiladi.

⁶³ Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tayyorlandi



13.2-rasm. Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan foizda (tashqi aylanma 2018 yil, ichki aylanma 2017 yil)⁶⁴.

Import tarkibining asosiy ulushi barcha o'rganilgan davrlarda mashina va asbob-uskunalar guruhi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Masalan, bu ko'rsatkich 2017 yilda 36,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda 43 % ga teng bo'lgan. Bundan 2018 yilda 2017 yilga nisbatan 6,9 % ga mashina va asbob-uskunalar importi ko'payganligini ko'rishimiz mumkin (13.3-rasm).



13.3-rasm. Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan foizda (tashqi aylanma 2018 yil, ichki aylanma 2017 yil)⁶⁵.

⁶⁴ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

⁶⁵ Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Umuman olganda, mamlakat iqtisodiyotida eksport va importni rivojlantirish orqali quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkin:

- tashqi bozorda o‘zining tayyor mahsulotlarini eksport qiluvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlar rag‘batlantiriladi, ya’ni o‘z mahsulotlarini eksport qilish orqali barqaror valyuta zaxiralariga ega bo‘linadi;

- moliyaviy-xo‘jalik faoliyati uchun zarur texnika va texnologiyalarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- tashqi bozorni kuzatish orqali ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan import hamda eksport tovarlari o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan yangi korxonalarni qurish, yangi ish o‘rinlarini shakllantirish imkonini beradi;

- milliy iqtisodiyotda texnik va texnologik yangilanish amalga oshadi va buning natijasida jahon bozorida raqobatlasha oladigan milliy mahsulotlar ishlab chiqarila boshlanadi;

- mamlakatimizda xalqaro savdo - iqtisodiy aloqalar rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvi yanada mustahkamlanadi.

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi albatta xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, mamlakat tashqi savdosida eksport va importning barqaror iqtisodiy o‘rishni ta’minlashga, pirovardida mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

13.4. Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishning mazmuni, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Jahonda iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda barqarorlikni ta’minlashning asosiy omili ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallash hisoblanadi. Shu bois, har bir korxonada o‘zining tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qilib o‘rganishi lozim. Chunki, tashqi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilib o‘rganish korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini

yo'lga qo'yishning tashkiliy shakllari, eksport va import operasialari tarkibi, tuzilishi, dinamikasining o'zgarishi hamda ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalarini, korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning mavjud ichki imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa, korxonada tashqi iqtisodiy faoliyati tahlilining mazmunini tashkil etadi.

Tahlilning asosiy vazifalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini yo'lga qo'yishning tashkiliy shakllarini o'rganish va baho berish;
- eksport hajmi rejasining bajarilishiga baho berish;
- eksport operasialari tarkibi va uning strukturasi bo'yicha dinamikasini o'rganish orqali umumiy holatiga baho berish;
- eksport hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalarini aniqlash va baho berish;
- import hajmi rejasining bajarilishiga baho berish;
- import operasialari tarkibi va uning strukturasi bo'yicha dinamikasini o'rganish orqali umumiy holatiga baho berish;
- import hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalarini aniqlash va baho berish;
- korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini yaxshilash va rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishda asosiy axborot manbai bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma'lumotlari;
- moliyaviy hisobot ma'lumotlari;
- statistik hisobot (1-KB shakl) ma'lumotlari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat natijalarini hisobga oluvchi buxgalteriya hisobining analitik va sintetik hisobotlari ma'lumotlari.

13.5. Eksport operasiylarining tahlili

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati va uning samaradorligiga baho berishda eksport operasiylarining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, unda bevosita korxonaning tashqi savdo aylanmasi hajmini oshirish va foydaliligini ta'minlash imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Eksport operasiylarining tahlilida birinchi navbatda korxonaning tashqi savdo faoliyati bo'yicha sotilgan tovarlar turlari bo'yicha tuzilishi, mamlakatlar bo'yicha sotish hajmi va hududlar bo'yicha ulushiga baho beriladi. Shundan so'ng, korxonaning eksport rejasining bajarilishi, dinamik o'zgarishi o'rganiladi.

Tahlilda eksport hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibiga alohida ahamiyat beriladi. Bunda eksport qilingan tovarlar bahosining va fizik hajmi o'zgarishlarining ta'siri bevosita hisob-kitob qilish asosida ularning eksport hajmining o'zgarishiga ta'siri aniqlanib baho beriladi.

Quyida qayta ishlash korxonasi hisoblangan "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatning eksport hajmi rejasi bajarilishi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi malumotlarga ega bo'lindi (13.2-jadval).

13.2-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatni eksport hajmi rejasining bajarilishi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda		Yalpi eksport hajmi		Rejaning bajarilishi, %
	Miqdori, dona	Bahosi, so'm	Miqdori, dona	Bahosi, so'm	Reja, ming so'm	Haqiqat, ming so'm	
A – mahsulot	1000	64000	1200	68000	64000,0	81600,0	127,5
B – mahsulot	900	40000	1100	47000	36000,0	51700,0	143,6
Jami:	x	x	x	x	100000,0	133300,0	133,3

13.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatning eksport hajmi rejada 100000,0 ming so'm belgilangan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 133300,0 ming so'mga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, haqiqatda yalpi eksport hajmi rejaga nisbatan 33,3 foizga oshgan. Mahsulot turlari bo'yicha esa eksport hajmi, ya'ni "A" mahsulot turi bo'yicha 27,5 foizga, "B" mahsulot turi bo'yicha 43,6 foizga oshirib bajarilgan. Shuningdek, jamiyatning

yalpi eksport hajmi haqiqatda rejaga nisbatan “A” mahsulot turi bo‘yicha 17600,0 ming so‘mga va “B” mahsulot turi bo‘yicha esa 15700,0 ming so‘mga oshishi kuzatiladi.

Har bir mahsulot turi bo‘yicha eksport hajmining rejaga nisbatan o‘zgarishiga omillar ta‘sirini 13.2-jadval ma‘lumotlari asosida hisob-kitob qilish orqali aniqlashimiz mumkin. Ya‘ni, “Ko‘rsatkichlar farqi” usuli yordamida quyidagi bog‘lanishlar asosida aniqlaymiz:

“A” mahsulotning eksport hajmi rejaga nisbatan 17600,0 ming so‘mga oshishiga mahsulotning miqdori va bahosi ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta‘sir darajasi quyidagicha bo‘lgan:

1). “A” mahsulot miqdorining haqiqatda rejaga nisbatan 200 donaga ko‘payishi eksport hajmini 12800,0 ming so‘mga oshirgan:

$$(1200 - 1000) \times 64\,000 = + 12800,0 \text{ ming so‘m.}$$

2). “A” mahsulot bahosining haqiqatda rejaga nisbatan 4000 so‘mga qimmatlashishi eksport hajmini 4800,0 ming so‘mga oshishiga ta‘sir ko‘rsatgan:

$$(68000 - 64000) \times 1200 = + 4800,0 \text{ ming so‘m.}$$

Natija ikkala omilning ta‘siri natijasida “A” mahsulotning eksport hajmi rejaga nisbatan 17600,0 (12800,0 + 4800,0) ming so‘mga oshgan.

“B” mahsulot eksport hajmining haqiqatda rejaga nisbatan 15700,0 ming so‘mga oshishiga, uning miqdori va bahosining ta‘siri quyidagicha bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin:

1). “B” mahsulot bo‘yicha eksport miqdorining 200 donaga ko‘payishi, uning eksport hajmini 8000,0 ming so‘mga oshishiga ta‘sir ko‘rsatgan:

$$(1100 - 900) \times 40000 = + 8000,0 \text{ ming so‘m.}$$

2). “B” mahsulot bahosining rejaga nisbatan 7000 so‘mga oshishi esa, uning eksport hajmini 7700,0 ming so‘mga ko‘payishiga olib kelgan.

$$(47000 - 40000) \times 1100 = + 7700,0 \text{ ming so‘m.}$$

Yuqoridagi ikki omilning ta‘siri natijasida “B” mahsulotning eksport hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 15700,0 (8000,0 + 7700,0) ming so‘mga oshgan.

Mazkur omillar ta'sirini yalpi eksport hajmi bo'yicha ham hisoblash mumkin. 13.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jamiyatning yalpi eksport hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 33300,0 ming so'mga ko'paygan. Bunday o'zgarishga eksport qilingan mahsulotlar miqdori va bahosining ta'siri quyidagicha bo'lgan. Ya'ni:

- eksport qilingan mahsulotlar miqdorining o'zgarishi yalpi eksport hajmining 20800,0 ming so'm oshishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$((1200 - 1000) \times 64000) + ((1100 - 900) \times 40000) = 12800,0 + 8000,0 = \\ + 20800,0 \text{ ming so'm.}$$

- eksport qilingan mahsulotlar bahosining o'zgarishi esa, yalpi eksport hajmini 7700,0 ming so'mga ko'payishiga ta'sir etgan:

$$((68000 - 64000) \times 1200) + ((47000 - 40000) \times 1100) = 4800,0 + 7700,0 = \\ + 12500,0 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu omillarning ta'siri natijasida jamiyatning yalpi eksport hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 33300,0 (20800,0 + 12500,0) ming so'mga oshgan. Bunday natijani "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat uchun ijobiy baholash mumkin. Shunday bo'lsada, jamiyat rahbariyati eksport hajmini yanada oshirish imkoniyatlarini izlab topishi va ularni faoliyatga joriy etish choralarini ko'rishi lozim.

13.6. Import operasialarining tahlili

Import operasialarining tahlilida birinchi navbatda yalpi import hajmining tarkibi, tuzilishi, hududlar va mamlakatlar bo'yicha hajmi, reja va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi. Shundan so'ng, yalpi import hajmi bo'yicha rejaning bajarilishi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi va ularning ta'sir darajalariga baho beriladi.

Quyidagi 13.3-jadval ma'lumotlari asosida "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatning import hajmi rejasi bajarilishi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi malumotlarga ega bo'lindi.

13.3-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatni import hajmi rejasining bajarilishi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda		Yalpi import hajmi		Rejaning bajarilishi, %
	Miqdori, dona	Bahosi, so‘m	Miqdori, dona	Bahosi, so‘m	Reja, ming so‘m	Haqiqat, ming so‘m	
X – mahsulot	3000	20000	3500	22000	60000,0	77000,0	128,3
Y – mahsulot	2000	15000	2500	20000	30000,0	50000,0	166,7
Jami:	x	x	x	x	90000,0	127000,0	141,1

13.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat yalpi import hajmini 90000,0 ming so‘m sifatida rejalashtirgan bo‘lib, haqiqatda esa bu ko‘rsatkich 127000,0 ming so‘mga teng bo‘lgan. Demak, aytishimiz mumkinki, jamiyatning haqiqatda yalpi import hajmi rejaga nisbatan 41,1 foizga oshgan. Bunday o‘zgarishni mahsulot turlari bo‘yicha ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni, “X” mahsulot turi bo‘yicha reja 28,3 foizga, “Y” mahsulot turi bo‘yicha esa 66,7 foizga oshirib bajarilgan.

Import qilingan har bir mahsulot turi bo‘yicha rejaning o‘zgarishiga omillar ta’sirini 13.3-jadval ma’lumotlari asosida aniqlashimiz mumkin. Bunda “Ko‘rsatkichlar farqi” usuli yordamida quyidagi bog‘lanishlarni amalga oshirishimiz lozim:

“X” mahsulotning import hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 17000,0 ming so‘mga oshishiga, uning miqdori va bahosining ta’siri quyidagicha bo‘lgan:

1). “X” mahsulot importi miqdorining haqiqatda rejaga nisbatan 500 donaga ko‘payishi import hajmini 10000,0 ming so‘mga oshirgan:

$$(3500 - 3000) \times 20000 = + 10000,0 \text{ ming so‘m.}$$

2). Import qilingan “X” mahsulot bahosining haqiqatda rejaga nisbatan 2000 so‘mga qimmatlashishi import hajmini 7000,0 ming so‘mga oshishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$(22000 - 20000) \times 3500 = + 7000,0 \text{ ming so‘m.}$$

Ikkala omilning ta’siri natijasida “X” mahsulotning import hajmi rejaga nisbatan 17000,0 (10000,0 + 7000,0) ming so‘mga oshgan.

“Y” mahsulotning import hajmi esa haqiqatda rejaga nisbatan 20000,0 ming

soʻmga oshishiga, uning miqdori va bahosining taʼsiri quyidagicha boʻlganligini koʻrishimiz mumkin:

1). “Y” mahsulot import miqdorining 500 donaga koʻpayishi, uning import hajmini 7500,0 ming soʻmga oshishiga taʼsir koʻrsatgan:

$$(2500 - 2000) \times 15000 = + 7500,0 \text{ ming soʻm.}$$

2). “Y” mahsulot bahosining rejaga nisbatan 5000 soʻmga oshishi esa, uning import hajmini 7700,0 ming soʻmga koʻpayishiga olib kelgan.

$$(20000 - 15000) \times 2500 = + 12500,0$$

Mazkur omillar taʼsirida “Y” mahsulotning import hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 20000,0 (7500,0 + 12500,0) ming soʻmga oshgan.

Shuningdek, yalpi import hajmining oʻzgarishiga yuqoridagi kabi miqdor va baho omillarining taʼsirini ham hisoblash mumkin.

13.3-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, jamiyatning yalpi import hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 37000,0 ming soʻmga koʻpaygan. Bunday oʻzgarishga import qilingan mahsulotlar miqdori va bahosining taʼsiri quyidagicha boʻlgan:

- miqdor omilining oʻzgarishi jamiyatda yalpi import hajmini 17500,0 ming soʻm oshishiga taʼsir koʻrsatgan:

$$((3500 - 3000) \times 20000) + ((2500 - 2000) \times 15000) = 10000,0 + 7500,0 = \\ + 17500,0 \text{ ming soʻm.}$$

- baho omilining taʼsirida yalpi import hajmi 19500,0 ming soʻmga oshganligini koʻrishimiz mumkin:

$$((22000 - 20000) \times 3500) + ((20000 - 15000) \times 2500) = 7000,0 + 12500,0 = \\ + 19500,0 \text{ ming soʻm.}$$

Yuqoridagi omillarning taʼsiri natijasida jamiyatning yalpi import hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 37000,0 (17500,0 + 19500,0) ming soʻmga oshgan. Bunday natijani “NAMUNA” masʼuliyati cheklangan jamiyat uchun ijobiy baholash mumkin. Chunki, zarur moddiy resurslar bilan toʻliq taʼminlanishi, uning ishlab chiqarish faoliyati uzluksizligini taʼminlaydi. Biroq, jamiyat rahbariyati import hajmini kamaytirishning ichki imkoniyatlarini topish choralarini koʻrishi

lozim. Sababi, jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan moddiy resurslar importi hajmining oshishi, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxining qimmatlashishiga va foyda miqdorining kamayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushunasiz?
2. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning qanday yo'nalishlari bor?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan qanday usullar orqali tartibga solinadi?
5. O'zbekistonda tashqi savdo va uning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyatini tushuntiring?
6. Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishdan maqsad nima?
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?
8. Korxonada tashqi iqtisodiy faoliyati tahlilining axborot manbalarini aytib bering?
8. Eksport operatsiyalari qanday tahlil etiladi?
9. Import operatsiyalari qanday tahlil etiladi?

NAZORAT TESTLARI

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda ... ?

- A) O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi
- B) O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining xorijiy davlatlarning jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy

aloqalarni o‘rnatish faoliyati tushuniladi

- C) O‘zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi
- D) O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi

2. O‘zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrirda) qachon qabul qilingan?

- A) 2016 yil 13 aprelda
- B) 2000-yil 26 mayda
- C) 1996 yil 30 avgustda
- D) 2019 yil 30 dekabrda

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan javobni ko‘rsating?

- A) Tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish, valyuta bilan tartibga solish, soliq bilan tartibga solish, tarif va notarif tartibga solish, O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensasiya va dempingga qarshi choralarni qo‘llash
- B) O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar ta’sis etish, mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo‘lga kiritish
- C) Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik, tashqi savdo faoliyati, chet el investisiyalarini jalb qilish, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investisiya faoliyati
- D) Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi, savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat

tomonidan himoya qilinishi

4. Eksport deganda nimani tushunasiz?

- A) Tovarlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi tovarlar eksportidir
- B) Tovarlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar eksportidir
- C) Tashqi savdo aylanmasi tovarlar eksportidir
- D) Bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan o‘zaro tovar almashish jarayoni tovarlar eksportidir

4. Import deganda nimani tushunasiz?

- A) Bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan o‘zaro tovar almashish jarayoni tovarlar eksportidir
- B) Tashqi savdo aylanmasi tovarlar eksportidir
- C) Tovarlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga ularni qayta olib chiqib ketish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib kirilishi tovarlar importidir
- D) Tovarlarining O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to‘g‘risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi tovarlar eksportidir

5. Quyidagi jadval ma’lumotlaridan foydalanib, korxonaning yalpi eksport rejasining bajarilishini aniqlang?

Ko‘rsatkichlar	Yalpi eksport hajmi, ming so‘m	
	Reja	Haqiqat
X – mahsulot	60000,0	77000,0
U – mahsulot	30000,0	50000,0

- A) 166,7 %
- B) 128,3 %
- C) 141,1 %
- D) 130,3 %

6. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, yalpi import rejasi bajarilishini aniqlang?

Ko'rsatkichlar	Yalpi import hajmi, ming so'm	
	Reja	Haqiqat
A – mahsulot	64000,0	81600,0
B – mahsulot	36000,0	51700,0

- A) 127,5 %
- B) 128,3 %
- C) 143,6 %
- D) 133,3 %

7. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, yalpi eksport hajmining o'zgarishiga miqdor omilining ta'sirini aniqlang?

Ko'rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda	
	Miqdori, dona	Bahosi, so'm	Miqdori, dona	Bahosi, so'm
X – mahsulot	3000	20000	3500	22000
U – mahsulot	2000	15000	2500	20000

- A) 17500,0 ming so'm
- B) 19500,0 ming so'm
- C) 12500,0 ming so'm
- D) 20800,0 ming so'm

8. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, yalpi import hajmining o'zgarishiga baho omilining ta'sirini aniqlang?

Ko'rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda	
	Miqdori, dona	Bahosi, so'm	Miqdori, dona	Bahosi, so'm
A – mahsulot	1000	64000	1200	68000
B – mahsulot	900	40000	1100	47000

- A) 20800,0 ming so'm
- B) 12500,0 ming so'm
- C) 19500,0 ming so'm
- D) 17500,0 ming so'm

III BO‘LIM. AGRAR SOHANING BOSHQA TARMOQ KORXONALARI XO‘JALIK FAOLIYATINING TAHLILI

XIV BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH TAHLILI

14.1. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sotish ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlardir. Ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklangan va talab esa cheklanmagan sharoitlarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga bozor to‘yingan, raqobat kuchayib borgan sari taxmin qilinayotgan sotish hajmi ishlab chiqarish rejasini tuzishga asos bo‘ladi. Shu sababli, bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonada iste‘molchi talabini chuqur o‘rgangan holda ularning talabini qondira oladigan va sotish imkoniyatiga ega bo‘lgan hajmda mahsulot ishlab chiqarishi lozim. Bu esa, korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o‘z vaqtida sotilishi va ishlab chiqarishning uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o‘sish sur‘atlari hamda sifatining oshishi korxonaning asosiy faoliyat xarajatlari, foyda miqdori va rentabelligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Shu bois, ushbu ko‘rsatkichlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini o‘rganish va ularning samarasini oshirish imkoniyatlarini izlab topish hamda korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga jalb qilish choralarini ko‘rish tahlilning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Bunda tahlilning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi va uning

o'zgarishiga baho berish;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini o'rganish hamda ularning o'zgarishiga baho berish;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlarining o'zgarishiga qanday omillar qay darajada ta'sir ko'rsatganligini aniqlash;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotishni ko'paytirishning ichki imkoniyatlarini aniqlash;

- aniqlangan imkoniyatlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilida asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma'lumotlari;

- "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari;

- "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari;

- statistik hisobot ma'lumotlari;

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini hisobda aks ettirish uchun mo'ljallangan tegishli schyot ma'lumotlari va boshqalar.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish hajmi natural, shartli natural, mehnat va qiymat o'lchovlarida ifodalanishi mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar odatda, qiymat o'lchovi (pul)da baholangan holda olinadi. Buning uchun taqqoslama yoki joriy narxlardan foydalanish lozim.

Ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash uchun ishlab chiqarish va mahsulot sotish hajmlarining natural ko'rsatkichlari (dona, metr, tonna va h.k.) ham muhim ahamiyatga ega. Ulardan mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini alohida turlar va bir turdagi mahsulotlar guruhlarini bo'yicha tahlil qilishda foydalaniladi.

Shartli natural ko'rsatkichlar ham qiymat ko'rsatkichlari kabi mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini umumiy tavsiflash uchun qo'llaniladi. Masalan, tomat

pastasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarda ming shartli banka, sharbat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ming dona idish kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Normativ mehnat sarfi (norma-soatlar yoki normalashtirilgan maosh) shuningdek, ko'p nomenklaturali ishlab chiqarish sharoitida natural yoki shartli natural o'lchovlardan foydalanish imkoni bo'lmaganda foydalaniladigan mahsulot chiqarish hajmini umumlashtirib baholash uchun mo'ljallangan.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish hajmi esa ularning xaridorlarga yuklab jo'natilishi yoki to'lov (tushum) bo'yicha belgilanadi. U taqqoslanuvchi, rejali va amaldagi narxlarda aks ettirilishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida bu ko'rsatkich qanday darajada bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahsulotlarni sotish ishlab chiqarish va xaridor o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Chunki, ishlab chiqarish jarayonining yakuniy bosqichi bu sotish jarayoni bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotilishi korxonaning ijobiy moliyaviy natijaga erishishi, aylanma mablag'larining uzluksiz hamda samarali aylanishi, byudjet oldidagi majburiyatlarini, mehnat haqi bo'yicha to'lovlarni, kredit va qarzlarni hamda mol yetkazib beruvchilar bilan o'z vaqtida hisoblashishlarini ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, mahsulot xaridorlarga qay darajada sotilayotganligi, bozorda unga bo'lgan talab qanday ekanligiga qarab mahsulotni ishlab chiqarish hajmi ham belgilanadi.

Ishlab chiqarish hajmining tahlili mahsulotni ishlab chiqarish va sotish dinamikasini o'rganish, bazisli va zanjirli o'sish sur'atlari va qo'shimcha sur'atlarini hisob-kitob qilishdan boshlanadi (14.1-jadval).

14.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, besh yil ichida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 12 foizga o'sgan bo'lsa, bunga mos ravishda mahsulotlarning sotish hajmi ham 11,3 % ga o'sganligini ko'rish mumkin. Agar o'tgan yillarda mahsulot ishlab chiqarish va sotishning o'sish sur'atlari taxminan mos kelgan bo'lsa, oxirgi yilda mahsulot ishlab chiqarish sur'ati mahsulot sotish sur'atining o'sishiga qaraganda yuqori bo'lgan. Bu korxonada omborlarida

sotilmagan va xaridorlar tomonidan puli to'lanmagan mahsulotlar qoldiqlarining to'planayotganligidan dalolat beradi.

14.1-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasi tahlili (taqqoslanuvchi narxlarda)

Yil	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	O‘sish sur‘atlari		Sotish hajmi, ming so‘m	O‘sish sur‘atlari, %	
		bazisli	zanjirli		bazisli	zanjirli
1-yil	515821	100	100	515321	100	100
2-yil	529748	102,7	102,7	529948	102,8	102,8
3-yil	548833	106,4	103,6	547333	106,2	103,3
4-yil	539033	104,5	98,2	538433	104,5	98,4
5-yil	577720	112,0	107,2	573520	111,3	106,5

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning o‘rtacha yillik o‘sish (o‘sib borish) sur‘atini o‘rta geometrik yoki o‘rta arifmetik o‘lchash usullari yordamida hisob-kitob qilib o‘rganish mumkin. Jumladan, o‘rtacha geometrik usul bo‘yicha hisob-kitob qilinganda quyidagi natijalarga ega bo‘lindi:

$$O'_m = \sqrt[n]{O'_1 \cdot O'_2 \cdot O'_3 \cdot O'_4 \cdot O'_5} = \sqrt[4]{1,0 \cdot 1,027 \cdot 1,036 \cdot 0,982 \cdot 1,072} = \sqrt[4]{1,12} = 1,0287 = 102,87 \%$$

$$O'_s = \sqrt[4]{1,113} = 1,0271 = 102,71 \%$$

Bunda: O'_m – mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur‘ati;
 O'_s – mahsulot sotish hajmining o‘sish sur‘ati.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘sishining o‘rtacha yillik sur‘ati 2,87 % ni tashkil etgan bo‘lsa, mahsulot sotish hajmi o‘sishining o‘rtacha yillik qiymati 2,71 % ga teng bo‘lgan.

Hisobot davrida (oy, chorak, yil) mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishini baholash 14.2-jadvalda keltirilgan uslub bo‘yicha amalga oshiriladi. 14.2-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisobot davrida tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejasi 15,5 % ga oshirib bajarilgan bo‘lsa, bunga mos ravishda sotish rejasining bajarilishi ham 14,9 % o‘sganligini ko‘rish mumkin.

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi tahlili

Mahsulot turlari	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m				Mahsulotning sotilishi, ming so‘m			
	Reja	Amalda	O‘zgarishi (+;-)	Rejaga nisbatan o‘sishi, %	Reja	Amalda	O‘zgarishi (+;-)	Rejaga nisbatan o‘sishi, %
A	150000	144430	-5570	-3,71	149276	143953	-5323	-3,56
B	175000	190648	+15648	+8,94	176235	189262	+13027	+7,39
S	100000	127098	+27098	+27,1	98852	126174	+27322	+27,6
D	75000	115544	+40544	+54,0	74887	114131	+39244	+52,4
Jami	500000	577720	+77720	+15,5	499250	573520	+74270	+14,9

Bunday natijalarni jamiyat uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin, biroq mahsulot ishlab chiqarish rejasini uni sotish rejasiga qaraganda o‘shirish darajasi past ko‘rsatkichni tashkil qilmoqda. Bu esa, sotilmay qolgan mahsulotlar qoldiqlarining o‘sganidan dalolat beradi. Shu sababli, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati sotilmay qolgan mahsulotlarni sotish choralarini ko‘rish lozim.

14.2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tuzulmasi hamda assortimentning tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga mahsulotlar assortiment (nomenklatura) va ishlab chiqarish tuzulmasi hamda mahsulotning sotilishi katta ta’sir ko‘rsatadi.

Korxonada mahsulot assortimenti va ishlab chiqarish tuzulmasini shakllantirishda, bir tomondan, mahsulotlarning ushbu turlariga bo‘lgan talabni, boshqa tomondan esa mehnat, xom-ashyo, texnik, texnologik, moliyaviy va o‘zida mavjud bo‘lgan boshqa resurslarni inobatga olishi lozim. Assortimentni shakllantirish tizimi quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- xaridorlarning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini aniqlash;
- ishlab chiqarilayotgan yoki ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini baholash;

- mahsulotning hayotiy siklini o'rganish va mahsulotlarning yangi, tamomila mukammal turlarini joriy qilishga doir choralarni o'z vaqtida ko'rish va ma'naviy eskirgan hamda iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan chiqarib tashlash;

- iqtisodiy samaradorlikni va mahsulot assortimentidagi o'zgarish riski darajasini baholash.

Bugungi kunda qayta ishlash korxonalari faoliyatini tahlil qilishda o'rtacha assortiment bo'yicha rejaning bajarilishini ham aniqlash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'rtacha assortiment rejasining bajarilishi odatda eng kichik raqamlarni jamlash usuli orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir mahsulot turi bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan miqdori bilan reja ko'rsatkichlari solishtirilib, har ikki ko'rsatkichdan kichigi assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilinadi. Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga bo'lish orqali o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi aniqlanadi.

Mahsulot assortimentini "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (14.3-jadval).

14.3-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda mahsulot assortimentining tahlili

Mahsulot turlari	Mahsulot birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarish hajmi, dona		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida, ming so'm		Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm
		Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	
A	5000	30000	28886	150000	144430	144430
B	5500	31818	34663	175000	190648	175000
S	8000	12500	15887	100000	127098	100000
D	7500	10000	15406	75000	115544	75000
Jami	x	x	x	500000	577720	494430

14.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda hisobot davrida to'rt xil assortimentdagi mahsulotlar ishlab

chiqarish rejalashtirilgan bo‘lib, ulardan “B”, “S” va “D” assortimentdagi mahsulotlar natura holatida ortig‘i bilan ishlab chiqarilgan. “A” assortimentdagi mahsulot bo‘yicha ishlab chiqarish rejasi esa to‘liq bajarilmagan. Buning natijasida jamiyatda hisobot davrida jami assortiment hisobiga 494430 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘rtacha assortiment rejasining bajarilishi 98,9 % ($494430 : 500000 \times 100$) ni tashkil qilgan. Demak, jamiyatda assortiment rejasining bajarilmasligiga asosan “A” turdagi mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilmasligi sabab bo‘lgan. Shu bois, “NAMUNA” mas‘uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati assortiment rejasi bajarilishini ta‘minlash maqsadida o‘z vaqtida tegishli choralarni ko‘rishi lozim.

Korxonada mahsulotlar assortimentini tahlil qilish bilan bir vaqtda ularning tuzilmasi ham tahlil qilib o‘rganiladi va o‘zgarishiga baho beriladi. Ma‘lumki, mahsulotlarning ba‘zi bir turi bo‘yicha ishlab chiqarish (sotish) hajmining ko‘payishi va boshqasi bo‘yicha qisqarishi ularning tuzulmasida o‘zgarishlarga, ya‘ni alohida mahsulotning umumiy mahsulotlarning jami ishlab chiqarish hajmidagi nisbati o‘zgarishiga olib keladi. Mahsulotlar tuzulmasi bo‘yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi – bu mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish hajmidan ularning alohida turlari bo‘yicha rejalashtirilgan hajmiga nisbatini saqlash demakdir.

Mahsulotlar assortiment va ishlab chiqarish tuzilmasining o‘zgarishi barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Jumladan, qiymat bahosidagi ishlab chiqarish hajmi, material sig‘imi, mahsulot tannarxi, foyda va rentabellik darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Agar qimmatroq mahsulotning ulushi oshayotgan bo‘lsa, u holda uning qiymat ko‘rinishidagi ishlab chiqarilish hajmi o‘sadi va aksincha. Yuqori rentabelli mahsulotning ulushi oshganda va tegishli ravishda past rentabelli mahsulotning ulushi kamayganda ham foyda hajmida ham shunday o‘zgarish sodir bo‘ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga tuzulmaviy o‘zgarishlarning ta‘sirini “Zanjirli bog‘lanish” usuli bilan hisob-kitob qilish mumkin (14.4-jadval).

14.4-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mahsulotlar tuzulmasining tahlili

Mahsulot turlari	Mahsulot birligi-ning bahosi (B), so‘m	Ishlab chiqarish hajmi (M), dona		Mahsulot tuzulmasi (Mt), %		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida (MH), ming so‘m			Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining tuzulma hisobiga o‘zgarishi, ming so‘m
		Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	Reja	Shartli ko‘rsatkich	Haqiqatda	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	5000	30000	28886	35,58	30,46	150000	168724	144430	-24294
B	5500	31818	34663	37,73	36,55	175000	196811	190648	-6163
S	8000	12500	15887	14,83	16,75	100000	112520	127098	+14578
D	7500	10000	15406	11,86	16,24	75000	84362	115544	+31182
Jami	-	84318	94842	100	100	500000	562417	577720	+15303

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o‘zgarishiga mahsulotlar tuzulmasining ta’sirini aniqlash uchun “Zanjirli bog‘lanish” usulida birinchi navbatta 8-ustunda aks ettirilgan shartli ko‘rsatkich aniqlanib olinishi lozim. Ushbu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlab olinadi:

$$MH_{shk} = \Sigma (M_{Ij} \times Mt_{0n} \times B_0) = 562417 \text{ ming so‘m}$$

Shartli ko‘rsatkich aniqlab olingandan so‘ng, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga mahsulotlar tuzulmasining o‘zgarishini ta’sirini topish uchun haqiqatdagi ko‘rsatkichdan shartli ko‘rsatkichni chegirish lozim. Ya’ni:

$$\pm \Delta MH_{tuz} = MH_1 - MH_{shk} = 577720 - 562417 = +15303 \text{ ming so‘m}$$

Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda rejaga nisbatan haqiqatda mahsulot turlarining jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidagi tuzilmasining o‘zgarishi mahsulot hajmini 15303 ming so‘mga ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa, mahsulotlar tuzulmasining o‘zgarishi jamiyatning ishlab chiqarish faoliyatiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatganligidan dalolat beradi.

Xuddi shu ma’lumotlarni 7-ustunning har bir mahsulot turi bo‘yicha ko‘rsatkichini jamiyat bo‘yicha umumiy mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha reja bajarilishining shartli-natural birlikdagi (mehnat sarfida ham bo‘lishi mumkin)

koefitsiyentiga (K_{MX}) ko'paytirish yo'li bilan olish mumkin:

$$K_{MX} = 94842 / 84318 = 1,124813$$

Agarda mahsulot ishlab chiqarish rejasi barcha mahsulot turi bo'yicha bir tekisda 112,4813 % ga oshirib bajarilganda va rejalashtirilgan tuzulma o'zgarganida, umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi reja baholarida 562417 ming so'mni tashkil qilgan bo'lar edi. Bunda ham rejadagi mahsulotlar turlari bo'yicha tuzulmasining o'zgarishi jami mahsulot hajmining 15303 (577720 - 562417) ming so'mga ko'payishiga olib kelganligini ko'rishimiz mumkin.

Xuddi shunday natija yanada soddaroq usul, ya'ni "Foiz ayirmasi" usuli bilan ham olinishi mumkin. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati ($K_{mxq} = 577720 / 500000 = 1,15544$) va shartli-natural hajmi (norma-soatlarda bo'lishi ham mumkin) ($K_{mxshn} = 94842 / 84318 = 1,124813$) asosida hisob-kitob qilingan reja koefitsiyentlari o'rtasidagi ayirmani rejadagi ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga (MH_0) ko'paytiramiz:

$$\pm \Delta MH_{tuz} = (K_{mxq} - K_{mxshn}) \times MH_0 = (1,15544 - 1,124813) \times 500000 = +15303 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulot tuzulmasining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qiymat ko'rinishidagi ta'sirini hisoblash uchun "Mutloq farqlar" usulidan foydalanish mumkin (14.5-jadval).

14.5-jadval

Mahsulot birligi o'rtacha bahosining mahsulot tuzulmasi omili hisobiga o'zgarishi tahlili

Mahsulot turi	Mahsulot birligining bahosi (B), so'm	Mahsulot tuzulmasi (Mt), %			O'rtacha bahoning mahsulot tuzulmasi hisobiga o'zgarishi, so'm
		Reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+,-)	
A	5000	35,58	30,46	-5,12	-256
V	5500	37,73	36,55	-1,18	-64,9
S	8000	14,83	16,75	+1,92	+153,6
D	7500	11,86	16,24	+4,38	+328,7
Jami	—	100	100	—	+161,4

Bu usuldan foydalanganda dastlab mahsulot birligining o'rtacha bahosi (ΔB_{tuz}) mahsulot tuzulmasining o'zgarishi hisobiga qanday o'zgarganligini aniqlab olish lozim. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash tartibini quyidagicha matematik formula

ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$\Delta B_{\text{tuz}} = \frac{\Sigma (Mt_{\text{hn}} - Mt_{\text{rn}}) \cdot B_{\text{nr}}}{100}, \quad (14.1)$$

Shundan so‘ng, mahsulot birligining o‘rtacha bahosi (ΔB_{tuz}) mahsulot tuzulmasining o‘zgarishini haqiqatda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning natural miqdoriga ko‘paytirib, mahsulot tuzulmasining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qiymatiga ta‘sirini aniqlaymiz:

$$\pm \Delta MH_{\text{tuz}} = (\pm \Delta B_{\text{tuz}}) \times MH_{\text{h,j}} = (+161,4) \times 94842 = +15303 \text{ ming so‘m}$$

14.5-jadvaldan ko‘rinadiki, o‘rtacha bahoning mahsulot tuzulmasi hisobiga o‘zgarishi 161,4 so‘mni tashkil etadi. Bunday o‘zgarish jami ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi qiymatini 15303 ming so‘mga ko‘payishiga ta‘sir ko‘rsatganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga mahsulot tuzulmasi o‘zgarishining ta‘sirini o‘rganilgani kabi sotilgan mahsulot tuzulmasining o‘zgarishini mahsulot sotishdan olingan tushum summasiga ta‘sirini tahlil qilib o‘rganish mumkin (14.6-jadval).

14.6-jadval

Mahsulot sotishdan olingan tushumga sotilgan mahsulot tuzulmasi o‘zgarishi ta‘sirining tahlili

Mahsulot turi	Mahsulot birligining bahosi (B), so‘m	Mahsulot sotish hajmi (MS), dona		Mahsulot sotishdan olingan tushum (ST), ming so‘m			Mahsulot sotishdan olingan tushumning sotilgan mahsulot tuzulmasi hisobiga o‘zgarishi, ming so‘m
		Reja	Haqiqatda	Reja	Shartli ko‘rsatkich	Haqiqatda	
1	2	3	4	5=2x3	6	7=2x4	8=7-6
A	5000	29855	28791	149276	164834	143953	-20881
B	5500	32043	34411	176235	196859	189262	-7597
S	8000	12356	15772	98852	113029	126174	+13145
D	7500	9985	15217	74887	84772	114131	+29359
Jami	—	84239	94191	499250	559494	573520	+14026

Mahsulot sotishdan olingan tushumning o‘zgarishiga sotilgan mahsulot tuzulmasining ta‘sirini aniqlash uchun avvalo “Zanjirli bog‘lanish” usuli yordamida 6-ustunda aks ettirilgan shartli ko‘rsatkichni aniqlab olamiz. Ushbu ko‘rsatkich quyidagicha aniqlab olinadi:

$$ST_{shk} = \Sigma (MS_{lj} \times Mt_{0n} \times B_0) = 559494 \text{ ming so'm}$$

Endi, sotilgan mahsulotlar tuzulmasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun mahsulot sotishdan olingan tushum summasining haqiqatdagi ko'rsatkichdan shartli ko'rsatkichni chegirish lozim. Ya'ni:

$$\pm \Delta ST_{tuz} = ST_1 - ST_{shk} = 573520 - 559494 = +14026 \text{ ming so'm}$$

Mazkur hisob-kitoblar sotilgan mahsulot tuzulmasining o'zgarishi hisobiga uni sotishdan olingan tushum 14026 ming so'mga ko'payganini ko'rsatadi. Bu "A" va "B" mahsulotlarga qaraganda qimmatroq bo'lgan "S" va "D" mahsulotlarining haqiqatda rejaga nisbatan jami sotish hajmidagi ulushi oshganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan usullardan foydalanib, mahsulot tuzulmasi korxonada faoliyatining boshqa ko'rsatkichlari: mehnat sarfi, materiallar sarfi, xarajatlarning umumiy summasi, foyda, rentabellik va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini ham aniqlash mumkin. Bu esa korxonada mahsulot assortimenti va tuzulmasi bo'yicha yuritilayotgan siyosatning samaradorligini kompleks baholashga imkon beradi.

14.3. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili

Qayta ishlash korxonalarida moliyaviy-xo'jalik faoliyatini o'rganishda mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonining bir maromda ketishini tahlil qilib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maromiylilik - bu mahsulotning tasdiqlangan grafikka binoan bir xilda, rejada ko'zda tutilgan hajmda va assortimentda ishlab chiqarilishi va sotilishidir.

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish mahsulotlarning o'z vaqtida ishlab chiqarilishi va sotilishining muhim sharti hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish maromining buzilishi barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni yomonlashtiradi, mahsulot sifati pasayadi, tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi va omborda tayyor mahsulotlar qoldig'i ko'payadi. Buning natijasida mablag'lar aylanishi sekinlashadi, shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaydi va turli moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishiga olib keladi, mahsulot sotishdan olinadigan tushum o'z vaqtida kelmaydi va uning natijasida pul oqimlari

muvozanati buziladi hamda boshqa salbiy ko'rsatkichlar yuzaga keladi. Bularning bari mahsulot tannarxining ko'tarilishi, foyda summasining kamayishi va natijada korxonada moliyaviy ahvoning yomonlashishiga olib keladi.

Mahsulot ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish rejasining bajarilishini baholash uchun bevosita va bilvosita ko'rsatkichlardan foydaniladi. Bevosita ko'rsatkichlarga – maromiylik koeffitsiyenti, variyasiya koeffitsiyenti, maromsizlik koeffitsiyenti, jami mahsulot chiqarishda n -davr uchun mahsulot ishlab chiqarish ulushi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Bilvosita ko'rsatkichlar – ishdan tashqari mehnat uchun qo'shimcha haq to'lash, korxonada aybi bilan bekor turib qolishlar, brak sababli yo'qotishlar, mahsulotlarning to'liq yetkazib berilmaganligi va o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi uchun jarimalar to'lash va h.k.

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tahlil etishda har o'n kunlikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning oylik mahsulotda tutgan ulushi hisoblanadi va aniqlangan ma'lumotlar reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, faoliyatning maromida bo'layotganligiga baho beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish faoliyatining maromiyligiga baho berish maqsadida maromiylik koeffitsiyenti, maromsizlik koeffitsiyenti va variyasiya koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz.

Eng ko'p tarqalgan ko'rsatkichlardan biri maromiylik koeffitsiyenti har bir davr uchun (lekin rejalashtirilgan darajadan oshmagan) mahsulot ishlab chiqarishning haqiqiy ulushini jamlash bilan aniqlanadi:

$$K_m = 30,0 + 33,0 + 36,0 = 99,0 \%$$

yoki

Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini rejadagi mahsulot ishlab chiqarish qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_m = 44468 : 45000 = 0,99 \text{ yoki } 99 \%$$

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili

O‘n kunliklar	Mahsulot ishlab chiqarish, ming so‘m		Mahsulot ulushi, %			Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot	
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning rejaga nisbatan ulushi	ming so‘m	foizda
I o‘n kunlik	14000	13468	31,0	28,0	30,0	13468	30,0
II o‘n kunlik	15000	16835	33,0	35,0	37,0	15000	33,0
III o‘n kunlik	16000	17797	36,0	37,0	40,0	16000	36,0
Jami	45000	48100	100	100	107	44468	99

14.7-jadval ma’lumotlari asosida “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatning mahsulot ishlab chiqarish maromiyligiga baho berish mumkin. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, jamiyatda hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish maromiylik koeffitsiyenti 0,99 koeffitsiyentni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishiga hisobot oyining birinchi o‘n kunligida rejada belgilangan 14000 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilishi o‘rniga, haqiqatda 13468 ming so‘mlik, ya’ni 532 ming so‘m kam mahsulot ishlab chiqarilishi sabab bo‘lgan. Buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi 0,01 (1-0,99) koeffitsiyentga bajarilmagan. Ya’ni, maromsizlik koeffitsiyenti 0,01 ga teng bo‘lgan.

Uni quyidagi tartibda hisob-kitob qilish asosida ham aniqlashimiz mumkin:

$$K_{ms} = ((13436-14000)+(15000-15000)+(16000-16000)) : 45000 = -0,01$$

Shunday bo‘lsada, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda hisobot oyining keyingi ikkinchi va uchinchi o‘n kunliklari bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejaları ortig‘i bilan bajarilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Variasiya koeffitsiyenti (K_v) bir sutkalik (o‘n kunlik, oy, chorak) uchun rejada topshiriqdan o‘rtacha kvadrat chetga chiqishning o‘rtacha sutkalik (o‘rtacha o‘n kunlik, o‘rtacha oylik, o‘rtacha chorak) reja topshirig‘iga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_v = \frac{\sqrt{(x - \bar{x})^2 / n}}{\bar{x}_r} = \frac{\sqrt{[(13468 - 14000)^2 + (16835 - 15000)^2 + (17797 - 16000)^2] : 3}}{15000} = \frac{1514,3}{15000} = 0,1$$

Bunda: $(x - \bar{x})^2$ — o'rtacha o'n kunlik topshiriqdan kvadratik chetga chiqish;
 p — jamlanadigan reja topshiriqlar soni; \bar{x}_r — grafik bo'yicha o'rtacha o'n kunlik topshiriq.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinadiki, variatsiya koeffitsiyenti 0,1 koeffitsiyentni tashkil etadi. Bu o'n kunliklar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasidan o'rtacha 10 % ga chetga chiqayotganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda bunday natijalarni ijobiy baholasak bo'ladi, chunki jamiyatda mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishi unchalik katta emas. Shunday bo'lsada, jamiyat rahbariyati mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini buzilishini oldini olish choralarini ko'rishi lozim. Chunki, mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishi mahsulot sifatining o'zgarishiga, shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga, iqtisodiy jarimalar qo'llanilishiga va mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

14.4. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot sifatining tahlili

Qayta ishlash korxonalari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifati hisoblanadi. Chunki, mahsulot sifatining oshishi o'z navbatida, sotilgan mahsulot hajmining oshishiga va foydaning ko'payishiga hamda rentabellik darajasining oshishiga olib keladi. Shuningdek, mahsulotga bo'lgan talabning oshishiga, mahsulot bozorida raqobat kurashida yutib chiqish yoki o'z mavqeini ushlab turish imkoniyatini yaratib, yuqori baholarda sotish orqali qo'shimcha daromad olish imkonini beradi.

Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni umumiy, individual va bilvosita ko'rsatkichlarga bo'lgan holda o'rganish mumkin.

Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatini ularning turlari va nimaga mo'ljallanganidan qat'iy nazar tavsiflaydi:

- yangi mahsulotning umumiy mahsulot hajmidagi ulushi;

- oliy sifatli mahsulotning jami mahsulot hajmidagi ulushi;
- mahsulotlarning o‘rtacha o‘lchangan bali;
- navlarga xoslikning o‘rtacha koeffitsiyenti;
- attestasiya qilingan va attestasiya qilinmagan mahsulotlar ulushi;
- sertifikatlangan mahsulotlar ulushi;
- jahon standartlariga mos keluvchi mahsulotning solishtirma kattaligi;
- eksportga chiqariladigan, shu jumladan, sanoati rivojlangan mamlakatlarga eksport qilinadigan mahsulotlar ulushi.

Mahsulot sifatining individual (ayrim) ko‘rsatkichlari uning xususiyatlaridan birini ifodalaydi:

- foydalilik (sutning yog‘liligi, oziq-ovqat mahsulotlarida oqsilning mavjudligi);
- ishonchlilik (chidamlilik, to‘xtovsiz ishlashi);
- texnologiklik, ya’ni konstruktorlik va texnologik yechimlarning samaradorligi (mehnattalablik, energiyatalablik);
- mahsulotning estetik ko‘rinishi.

Bilvosita ko‘rsatkichlar — bu sifasiz mahsulot uchun jarimalar, brakka chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, o‘tmay qolgan mahsulot ulushi, brak sababli yo‘qotishlar va h.k.

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot sifati tahlil qilib o‘rganilar ekan, birinchi navbatda yuqorida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlarning dinamikasini, rejani ularning darajasi bo‘yicha bajarilishini, ularning o‘zgarish sabablarini o‘rganish va korxonada mahsulotining sifat darajasiga ko‘ra uning ishiga baho berish lozim.

Mahsulot sifati tahlilining keyingi vazifasi mahsulot sifatining korxonada moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari qiymatiga, ya’ni mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot sotishdan tushum va foyda kabi ko‘rsatkichlarning qiymatiga ta’sirini hisoblashdan iborat.

Shu o‘rinda mahsulot sotishdan tushum summasiga mahsulot sifatining ta’siri tahlilini ko‘rib chiqamiz. Ma’lumki, sotilgan mahsulot sifati o‘rtacha

navlilik koeffitsiyenti va o‘rtacha mahsulot birligini sotish bahosi ko‘rsatkichlari bilan ifodalanadi.

O‘rtacha navlilik koeffitsiyenti sotilgan mahsulotning har bir navi bo‘yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav bo‘yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$K_{o'n} = \Sigma(M_n \times U_{1n} \times B_n) / \Sigma M \times B^1_n, \quad (14.2)$$

Bunda: M – sotilgan mahsulot miqdori, U₁ – sotilgan har bir navning ulushi (salmog‘i), B – har bir sotilgan mahsulot bahosi; B¹ – mahsulot birinchi navining bahosi.

Bu koeffitsiyent hisobot yili bo‘yicha tahlil qilinsa, sotilgan mahsulotning barcha navlari bo‘yicha qiymati joriy baholarda, agarda dinamik o‘zgarishi bo‘yicha tahlil qilinsa, barcha navlar bo‘yicha qiymati bazis yilining baholarida hisoblab olinishi kerak.

Mazkur koeffitsiyent aniqlangandan so‘ng, hisobot yilidagi o‘rtacha navlilik koeffitsiyentini rejadagi yoki bazis davridagi o‘rtacha navlilik koeffitsiyentiga solishtirilib, mahsulot sifatining oshgani yoki pasaygani aniqlanadi. Hisobot yilidagi koeffitsiyent oshgan bo‘lsa, bu bazis davriga yoki rejalashtirilgan sifatiga nisbatan mahsulotning sifati oshganligini bildiradi.

14.8-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda “A” turdagi mahsulot sifatining tahlili

Nav-lar	Reja bo‘yicha mahsulot birligi bahosi, so‘m	Sotilgan mahsulot miqdori, dona		Navlar salmog‘i, %		Reja bo‘yicha mahsulot sotishdan olinadigan pul tushumi, ming so‘m	Haqiqatda rejadagi baho bo‘yicha olinishi ko‘zda tutilgan pul tushumi, ming so‘m	
		Reja	Haqiqat-da	Reja	Haqiqat-da		Haqiqatdagi navlilik darajasi bo‘yicha	Rejadagi navlilik darajasi bo‘yicha
I	5260	25377	25912	85,0	90,0	133482	136297	128724
II	3527	4478	2879	15,0	10,0	15795	10154	15232
Jami	5000	29855	28791	100	100	149277	146451	143956

14.8-jadval ma’lumotlari asosida “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatning “A” turdagi mahsulotining o‘rtacha navlilik koeffitsiyentini hisob-kitob qilganimizda quyidagi natijalarga ega bo‘lindi:

1. Reja bo'yicha:

$$K_{o'n0} = \Sigma(M_0 \times U_{l0} \times B_0) / \Sigma M_0 \times B^1_0 = 149277 / 29855 \times 5260 = 149277 / 157037 = 0,95$$

yoki 95,0 %

2. Haqiqatda:

$$K_{o'n1} = \Sigma(M_1 \times U_{l1} \times B_0) / \Sigma M_1 \times B^1_0 = 146451 / 28791 \times 5260 = 146451 / 151441 = 0,97$$

yoki 97,0 %

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinadiki, jamiyatda haqiqatda sotilgan "A" turdagi mahsulotning o'rtacha navlilik koeffitsiyenti 97 % ni tashkil qilgan bo'lib, bu rejadagi 95 % ga nisbatan 2 (97-95) % ga oshgan.

14.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "A" turdagi mahsulot navlarining reja va haqiqatdagi hissasi bir biridan farq qiladi. Ya'ni, birinchi navning salmog'i haqiqatda 90 % ni tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich rejaga nisbatan 5 % ga ko'paygan. Bunday natija ham "A" turdagi mahsulot birinchi navining sifati oshganligidan dalolat beradi.

Sotilgan mahsulot sifatining o'zgarishi sotish bahosining hamda sotilgan mahsulotdan olinadigan pul tushumi hajmining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Mahsulot sotishdan olingan pul tushumining o'zgarishiga mahsulot sifati o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun haqiqatda rejadagi baho bo'yicha hisoblangan pul tushumidan haqiqatda rejadagi navlilik va baho bo'yicha hisoblangan pul tushumini chegirish lozim:

$$\pm \Delta ST = \Sigma(M_1 \times U_{l1} \times B_0) - \Sigma(M_1 \times U_{l0} \times B_0) = 146451 - 143956 = +2495 \text{ ming so'm}$$

Demak, "A" turdagi mahsulot sifatining o'rtacha 2 % ga oshishi natijasida shu mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi haqiqatda 2495 ming so'mga ko'paygan.

Mahsulot sifati o'zgarishining o'rtacha sotish bahosining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun sifat o'zgarishi hisobiga mahsulot sotishdan olingan pul tushumi hajmini haqiqatda sotilgan mahsulotning jami miqdoriga bo'lish kerak:

$$\pm \Delta B = (\pm \Delta ST) / M_1 = +2495000 / 28791 = +87 \text{ so'm}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, mahsulot birligining o'rtacha sotish bahosi

haqiqatda rejaga nisbatan mahsulot sifatining oshishi natijasida 87 so‘mga oshgan. Bu “A” turdagi mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi rejaga nisbatan haqiqatda 2504817 (87×28791) so‘mga ortganligidan dalolat beradi.

Boshqa sotilgan mahsulot turlar bo‘yicha ham shunday tartibda hisob-kitob qilish orqali o‘rganiladi va tahlil natijalari umumlashtirilgan holda mahsulotlar sifatiga baho beriladi hamda uni yaxshilash bo‘yicha oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Chunki, mahsulot sifatining yaxshilanishi korxonada mahsulotiga bo‘lgan talabning ko‘payishiga, raqobatbardoshligini oshishiga, sotish hajmining ko‘payishi va foyda miqdorining oshishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

14.5. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo‘yicha sotish holatining tahlili ularning fizik miqdorlari va qiymatlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda har bir mahsulot turi bo‘yicha haqiqatda sotilgan miqdorini rejadagi mahsulot miqdoriga solishtirilib, Mutloq va nisbiy o‘zgarishlari aniqlanadi.

Agarda hisobot yilida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot to‘liq sotilgan bo‘lsa, sotilgan mahsulot miqdorining o‘zgarishiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (M) va ishlab chiqarilgan mahsulotning tovarlilik darajasining (T) o‘zgarishi ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu holatda sotilgan mahsulot miqdori (SM) quyidagicha aniqlanadi:

$$SM = M \times T, \quad (14.3)$$

Sotilgan mahsulot miqdorining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarning ta‘sir darajalarini “Ko‘rsatkichlar farqi” usuli yordamida aniqlaymiz.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinadiki, sotilgan mahsulot miqdorining o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi birinchi omil bu ishlab chiqarilgan mahsulotning fizik miqdorining o‘zgarishi hisoblanadi. Mazkur omilning ta‘sirini aniqlash uchun

haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoridan (M_1) rejadagi miqdorini (M_0) chegirib, rejadagi tovarlilik darajasiga (T_0) ko'paytirish lozim:

$$\pm\Delta SM_m = (M_1 - M_0) \times T_0$$

Sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi omil, mahsulot tovarlilik darajasining o'zgarishi hisoblanadi. Mahsulotning tovarlilik darajasi sotilgan mahsulot miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Ushbu omilning ta'sirini aniqlash uchun haqiqatdagi va rejadagi tovarlilik darajalari o'rtasidagi farqni haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning fizik miqdoriga ko'paytirish lozim:

$$\pm\Delta SM_t = (T_1 - T_0) \times M_1$$

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda “A” turdagi sotilgan mahsulot miqdori va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni 14.9-jadval ma'lumotlaridan foydalanilgan holda tahlil qilib o'rganildi.

14.9-jadval

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishlab chiqarilgan va sotilgan “A” mahsulot to'g'risida ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, dona	30000	28886	-1114
2	Sotilgan mahsulot miqdori, dona	29855	28791	-1064
3	Tovarlilik darajasi, %	99,52	99,67	+0,15
4	Bir birlik mahsulotning o'rtacha sotish bahosi, so'm	5000	5087	+87

14.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda rejaga nisbatan haqiqatda “A” turdagi sotilgan mahsulot miqdori 1064 donaga kamaygan. Albatta, bunday o'zgarish jamiyat uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Ushbu o'zgarishga omillar ta'sirini hisob-kitob qilib o'rganganimizda quyidagi natijalarga ega bo'lindi:

- birinchi omil, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining rejaga nisbatan haqiqatda 1114 donaga kamayishi, sotilgan mahsulot miqdorini 1108 donaga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta SM_m = (M_1 - M_0) \times T_0 = (28886 - 30000) \times 0,9952 = - 1108 \text{ dona}$$

Agar mahsulot ishlab chiqarish rejasi haqiqatda to'liq bajarilganda edi, sotilgan

mahsulot miqdori 28791 dona emas, balki 29899 donani tashkil etgan bo‘lar edi. Mazkur imkoniyatdan “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyati hisobot davrida foydalana olmagan.

- ikkinchi omil, tovarlilik darajasining rejaga nisbatan haqiqatda 0,15 foizga oshishi, sotilgan mahsulot miqdorini 44 donaga ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$\pm\Delta SM_t = (T_1 - T_0) \times M_1 = (0,9967 - 0,9952) \times 28886 = +44 \text{ dona}$$

Xuddi shunday tartibda sotilgan mahsulot fizik miqdori rejasi bajarilishining tahlili har bir mahsulot turi va umumiy korxonaga bo‘yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

Agarda hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot haqiqatda to‘liq sotilmagan taqdirda (bir qismi keyingi davrga o‘tganda), hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdorining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- tayyor mahsulotning yil boshiga bo‘lgan qoldig‘ining o‘zgarishi ($T_{yb1} - T_{yb0}$);
- hisobot yilida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmining o‘zgarishi ($TK_1 - TK_0$);
- tayyor mahsulotlarning boshqa sabablar bilan chiqib ketishi ($TCh_1 - TCh_0$);
- tayyor mahsulotning yil oxiriga bo‘lgan qoldig‘ining o‘zgarishi ($T_{yo1} - T_{yo0}$)

Ushbu omillarning sotilgan mahsulot miqdorining (SM) o‘zgarishiga ta’sirini “Balansli bog‘lanish” usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun avvalo tovar balansi tuziladi. Uni quyidagicha matematik formula (tovar balansi) ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$TZ_{yb} + TK = SM + TCh + TZ_{yo}, \quad (14.4)$$

Mazkur formulaga asosan har bir miqdorni qolganlarining algebrik yig‘indisi ko‘rinishida tasvirlash mumkin. Bunda sotilgan mahsulot miqdorini quyidagi funksional bog‘liqlikda ifodalash mumkin:

$$SM = TZ_{yb} + TK - TCh - TZ_{yo}, \quad (14.5)$$

Yuqoridagi omillarning sotilgan mahsulot miqdoriga ta’siri “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘rganganilganda

quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (14.10-jadval).

14.10-jadval

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Yil boshiga tayyor mahsulot qoldig'i, ming so'm	5460	5100	-360
2	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi, ming so'm	500000	577720	+77720
3	Tayyor mahsulotlarning boshqa sabablarga ko'ra chiqib ketishi, ming so'm	62	59	-3
4	Yil oxiriga tayyor mahsulot qoldig'i, ming so'm	6148	9241	+3093
5	Sotilgan tayyor mahsulot hajmi, ming so'm	499250	573520	+74270
Shu jumladan, sotilgan tayyor mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri:				
- tayyor mahsulotlarning yil boshidagi qoldig'i o'zgarishining hisobiga (ΔT_{yb})				-360
- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga (ΔTK)				+77720
- tayyor mahsulotlarning turli sabablarga ko'ra chiqib ketishining hisobiga (ΔTCh)				+3
- tayyor mahsulotlarning yil oxiriga bo'lgan qoldig'ini o'zgarishi hisobiga (ΔT_{yo})				-3093

14.10.-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sotilgan tayyor mahsulot hajmi hisobot yilida rejaga nisbatan 74270 ming so'mga ko'paygan. Bu o'zgarishga hisobot yilida rejaga nisbatan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar hajmining 77720 ming so'mga ko'payishi va tayyor mahsulotlarning har xil chiqib ketishini 3 ming so'mga kamayishi sotilgan tayyor mahsulotlar hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Boshqa omillar esa sotilgan tayyor mahsulot hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, hisobot yilida rejaga nisbatan haqiqatda sotilgan tayyor mahsulotlar hajmining 74270 (-360+77720+3-3093) ming so'mga ko'payishi ijobiy holat hisoblanadi. Shunday bo'lsada, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbariyati tahlil natijalariga asoslangan holda sotilgan tayyor mahsulotlar hajmini yanada ko'paytirishning ichki imkoniyatlarini o'rgangan holda tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim.

Shuningdek, tahlilda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini belgilovchi omillarning ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday omillarni uch guruhga ajratgan holda o'rganish mumkin:

- korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligi;

- korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligi;

- ishlab chiqarishning moddiy resurslar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanish samaradorligi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zgarishiga ushbu omillar guruhining har birini ta'siri tahlil qilib o'rganilishi lozim. Biz mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga birinchi guruh, ya'ni korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligi ta'sirini aniqlash tartibini ko'rib chiqamiz.

Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga mehnat resurslari bilan bog'liq quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- xodimlar o'rtacha sonining o'zgarishi ($X_1 - X_0$);
- bir xodimning ishlagan kishi kunlarini o'zgarishi ($K_1 - K_0$);
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi ($D_1 - D_0$);
- xodimning bir soatlik ish unumining o'zgarishi ($Ks_1 - Ks_0$).

Mazkur omillarning ko'paytmasi sotilgan mahsulot hajmini ifodalaydi. Buni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ko'rsatish mumkin:

$$SM = X \times K \times D \times Ks, \quad (14.6)$$

“Mutloq farqlar” usuli yordamida yuqoridagi omillarning mahsulot sotish hajmiga ta'sirini “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyat ko'rsatkichlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (14.11-jadval).

14.11-jadval

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga mehnat resurslari bilan bog'liq omillar ta'sirining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Xodimlar soni, kishi	200	202	+2
2	Bir xodimning ishlagan kishi kunlari, kun	220	210	-10
3	Ish kunining o'rtacha davomiyligi, soat	8,0	7,8	-0,2
4	Xodimning bir soatlik ish unumi, so'm	1418,32	1733,34	+315,02
5	Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	499250	573520	+74270

14.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot hajmi hisobot yilida rejaga nisbatan haqiqatda 74270 ming so'mga ko'paygan. Ushbu o'zgarishga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

- birinchi omil, xodimlar sonining hisobot yilida rejaga nisbatan haqiqatda 2 kishiga ko'payishi sotilgan mahsulot hajmini 4992,0 ming so'mga yoki 6,7 foizga oshishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta SM_x = \Delta X \times K_0 \times D_0 \times K_{S_0} = (+2) \times 220 \times 8 \times 1418,32 = +4992,0 \text{ ming so'm}$$

- ikkinchi omil, bir xodimning ishlagan kishi-kunlari rejaga nisbatan haqiqatda 10 kunga kamayishi, sotilgan mahsulot hajmining 22920,0 ming so'mga kamayishiga olib kelgan:

$$\pm\Delta SM_k = X_1 \times \Delta K \times D_0 \times K_{S_0} = 202 \times (-10) \times 8 \times 1418,32 = -22920,0 \text{ ming so'm}$$

- uchinchi omil, ish kuni davomiyligining rejaga nisbatan haqiqatda 0,2 soatga qisqarishi, sotilgan mahsulot hajmini 12034,0 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta SM_d = X_1 \times K_1 \times \Delta D \times K_{S_0} = 202 \times 210 \times (-0,2) \times 1418,32 = -12034,0 \text{ ming so'm}$$

- to'rtinchi omil, xodimning o'rtacha bir soatlik ish unumi rejaga nisbatan haqiqatda 315,02 so'mga oshishi, sotilgan mahsulot hajmini 104232,0 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan:

$$\pm\Delta SM_{K_s} = X_1 \times K_1 \times D_1 \times \Delta K_s = 202 \times 210 \times 7,8 \times (+315,02) = +104232,0 \text{ ming so'm}$$

Sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarning umumiy yig'indisi natija ko'rsatkichining o'zgarishiga teng bo'lishi lozim:

$$\pm\Delta SM = (\pm\Delta SM_x) + (\pm\Delta SM_k) + (\pm\Delta SM_d) + (\pm\Delta SM_{K_s}) = (+4992,0) + (-22920,0) + (-12034,0) + (+104232,0) = +74270 \text{ ming so'm}$$

Bu sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'siri to'g'ri hisob-kitob qilinganligidan dalolat beradi.

Demak, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda sotilgan mahsulot hajmini yanada oshirishning ichki imkoniyatlari mavjud bo'lib, undan jamiyat

rahbariyati foydalana olmagan. Ya'ni, agarda bir xodimning ishlagan kishi kunlari va ish kunining davomiyligi rejasi to'liq bajarilganda, sotilgan mahsulot hajmining yanada oshishi ta'minlagan bo'lar edi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zgarishiga yuqorida ko'rsatilgan boshqa guruh omillarining ta'siri ham tahlil usullaridan foydalangan holda shunday tartibda hisob-kitob qilish asosida tahlil qilib o'rganiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini tahlil qilishning ahamiyati va tahlil vazifalari nimalardan iborat?
2. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini tahlil qilishda qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi qanday tahlil qilinadi?
4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish tuzulmasi hamda assortimenti qanday tahlil etiladi?
5. Mahsulot birligi o'rtacha bahosining mahsulot tuzulmasi omili hisobiga o'zgarishi qanday tahlil qilinadi?
6. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi nima?
7. Mahsulot sifati qanday tahlil qilinadi?
8. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibini guruhlab bering?
9. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili qanday amalga oshiriladi?
10. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish imkoniyatlari qanday aniqlanadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish va sotish tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari, "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari, statistik hisobot ma'lumotlari, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini hisobda aks ettirish uchun mo'ljallangan tegishli schyot ma'lumotlari
- B) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari, statistik hisobot ma'lumotlari, "Materiallarni hisobga olish qaydnomasi" ma'lumotlari va shartnomalar
- C) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari, "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari, "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari va statistik hisobot ma'lumotlari
- D) Biznes reja ma'lumotlari, "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari, "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari, "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari va debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma

2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish hajmi qanday o'lchovlarda baholanadi?

- A) Natural, mehnat va qiymat (pul) o'lchovlarida
- B) Natural, shartli natural, mehnat va qiymat (pul) o'lchovlarida
- C) Mehnat va qiymat (pul) o'lchovlarida
- D) Natural, shartli natural va qiymat (pul) o'lchovlarida

3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishning o'rtacha yillik o'sish (o'sib borish) sur'atini qanday usullar yordamida hisob-kitob qilinadi?

- A) O'rta geometrik yoki o'rta arifmetik o'lchash usullari
- B) Hisobot yili ko'rsatkichini bazis (reja) ko'rsatkichlariga bo'lish orqali
- C) Zanjirli bog'lanish, ko'rsatkichlar farqi va solishtirish usullari
- D) Integral, logorifmlar, mutloq va nisbiy farqlar usullari

4. O'rtacha assortiment bo'yicha rejaning bajarilishi qanday aniqlanadi?

- A) Har bir mahsulot turi bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan miqdori bilan reja ko'rsatkichlarini solishtirish orqali
- B) Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga ko'paytirish orqali
- C) Har bir mahsulot turi bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan miqdorini reja ko'rsatkichlariga ko'paytirish orqali
- D) Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulotlarga bo'lish orqali

5. Mahsulotlar tuzulmasi bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi – bu

....

- A) Mahsulotlarning reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmidan ularning alohida turlari bo'yicha rejalashtirilgan hajmiga nisbatini saqlash demakdir
- B) Mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish hajmidan ularning alohida turlari bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan hajmiga nisbatini saqlash demakdir
- C) Mahsulotlarning haqiqiy ishlab chiqarish hajmidan ularning alohida turlari bo'yicha rejalashtirilgan hajmiga nisbatini saqlash demakdir
- D) Mahsulotlarning reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmidan ularning alohida turlari bo'yicha haqiqatda ishlab chiqarilgan hajmiga nisbatini saqlash demakdir

6. Sotilgan mahsulot miqdorini aniqlash tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i plus ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori minus tayyor mahsulot bo'yicha turli chiqimlar miqdori plus yil oxirida qolgan tayyor mahsulot miqdori
- B) Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori minus yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i minus tayyor mahsulot bo'yicha turli chiqimlar miqdori minus yil oxirida qolgan tayyor mahsulot miqdori
- C) Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i plus ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot

miqdori plus tayyor mahsulot bo'yicha turli chiqimlar miqdori minus yil oxirida qolgan tayyor mahsulot miqdori

D) Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i plus ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori minus tayyor mahsulot bo'yicha turli chiqimlar miqdori minus yil oxirida qolgan tayyor mahsulot miqdori;

7. Agarda hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot shu yilda to'liq sotilgan bo'lsa, sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori va uning tovarlilik darajasini o'zgarishi

B) Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori, tayyor mahsulot bo'yicha turli chiqimlar miqdori va yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'ining o'zgarishlari

C) Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdorini va sotilgan mahsulot o'rtacha bahosining o'zgarishi

D) Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot miqdori va yil oxiridagi tayyor mahsulot miqdorining o'zgarishi

8. O'rtacha navlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav bo'yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga ko'paytirish orqali aniqlanadi

B) Sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav bo'yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

C) Sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha hisoblangan qiymatlarining jami summasini jami mahsulotning birinchi nav bo'yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga qo'shish orqali aniqlanadi

D) Sotilgan mahsulotning har bir navi bo'yicha hisoblangan qiymatlari summasini birinchi nav bo'yicha hisoblangan qiymatining jami summasiga ko'paytirish

orqali aniqlanadi

9. Mahsulotning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?

- A) Sotilgan mahsulot miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo'lish orqali
- B) Sotilgan mahsulot miqdorini ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirish orqali
- C) Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini sotilgan mahsulot miqdoriga bo'lish orqali
- D) Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini sotilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirish orqali

10. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini belgilang:

- A) Xodimlar soni va jami ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi
- B) Xodimlar soni, jami ishlangan kishi kunlari va kishi soatlarining o'zgarishi
- C) Xodimlar soni, bir xodimning ishlagan kishi kunlari, ish kuni davomiyligi va xodimning bir soatlik ish unumining o'zgarishi
- D) Ishchilar soni va mehnat unumdorligining o'zgarishi

**XV BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARINING MEHNAT
RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIGI VA ULARDAN
FOYDALANISH TAHLILI**

**15.1. Qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslarini tahlil qilishning
ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari**

Qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hajmining ortishi va uning samaradorligining oshishi ko'p omillarga, jumladan mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasiga ham bog'liqdir. Chunki, mehnat resurslari ishlab chiqarish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar, inson omilining ishtirokisiz ishlab chiqarish yuzaga kelmaydi. Shu boisdan qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish darajasini o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslarini tahlil qilib o'rganish orqali uning ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik, ish vaqtidan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasi kabi ko'rsatkichlarining holatiga baho beriladi. Tahlil natijalariga asoslangan holda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini yaxshilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu esa, kelgusida ishlab chiqarish hajmini oshishiga va sarf-xarajatlarni kamaytirish hisobiga mahsulot tannarxi darajasini pasaytirish imkonini beradi.

Qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish tahlilining asosiy maqsadi ish vaqtidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va tannarxining darajasini pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tahlilning asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish va baho berish;
- ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish va baho berish;

- mehnat unumdorligi darajasini aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga baho berish;
- mehnat resurslarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini aniqlash va baho berish;
- mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish tahlilining asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes reja ma'lumotlari;
- statistik hisobotning "Mehnat hisoboti" (1-T shakl) jadvali ma'lumotlari;
- boshqa qo'shimcha ma'lumotlar (shtat jadvali, tabel, mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotnoma va boshqalar)

15.2. Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasining tahlili

Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish darajasi tahlilida birinchi navbatda, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganiladi va baho beriladi. Buning uchun avvalo korxonada hisobot yilidagi mavjud haqiqiy ishlovchilar sonini talab qilinadigan ishlovchilar soniga yoki bazis yilidagi soniga solishtirib, ta'minlanish darajasi aniqlanadi. U mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Shundan so'ng, korxonada xodimlarining strukturasi, ularning o'zgarishi, o'zgarish sabablari va dinamikasi tahlil qilib o'rganiladi.

Quyida qayta ishlash korxonasi hisoblangan "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi malumotlarga ega bo'lindi (15.1-jadval).

15.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat mehnat resurslari tarkibida biznes rejaga nisbatan bir qator

o'zgarishlar sodir bo'lgan. Jumladan, biznes rejaga nisbatan mehnat resurslarining jami soni haqiqatda 2 kishiga ko'paygan. Bunday natijani ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Chunki, mehnat resurslari tarkibiga etibor qaratadigan bo'lsak, jamiyatda ishchilar soni biznes rejaga nisbatan 5 kishiga yoki 2 foizga va mutaxassislar soni 2 kishiga yoki 1 foizga ortgan. Jamiyatda ishchilar va mutaxassislar sonining ko'payishi, albatta ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari aholini ish bilan ta'minlashga ham hissa qo'shgan hisoblanadi.

15.1-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes rejada		Haqiqatda		O'zgarishi (+;-)	
	Soni, kishi	Salmog'i, %	Soni, kishi	Salmog'i, %	Soni, kishi	Salmog'i, %
1. Ishchilar	160	80	165	82	+5	+2
2. Xizmatchilar	20	10	17	8	-3	-2
3. Rahbar xodimlar	8	4	6	3	-2	-1
4. Mutaxassislar	10	5	12	6	+2	+1
5. Boshqa xodimlar	2	1	2	1	-	-
Jami:	200	100	202	100	+2	-

Bunday o'zgarish biznes-rejaga nisbatan rahbar xodimlarning 3 kishiga va xizmatchilarning 2 kishiga kamayishi hisobiga sodir bo'lgan. Albatta, jamiyatda rahbar xodimlar va xizmatchilar sonining ko'payishi jamiyat uchun samara bermaydi. Shu sababli ham jamiyat ularning sonini qisqartirish hisobiga bevosita ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashadigan va ishlab chiqarish faoliyatini yaxshilashga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar sonini oshirishga harakat qilgan. Bu esa, jamiyatda ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga olib kelishi mumkin. Qachon-ki, jamiyat mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishni tashkil etgan bo'lsa. Shu bois, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish bilan bir qatorda, ulardan foydalanish samaradorligi ham tahlil qilib o'rganiladi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, ish vaqti fondi (IVF) hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonada mahsulot ishlab chiqarish

hajmining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich ishchilar sonini (I_s), bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari soniga (K_k) va ish kunining davomiyligiga (K_d) ko'paytirish orqali aniqlanadi. Uni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$IVF = I_s \times K_k \times K_d, \quad (15.1)$$

Yuqoridagi formuladan ko'rinadiki, ish vaqti fondining o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ishchilarning o'rtacha yillik sonining (I_C) o'zgarishi;
- bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari sonining (K_k) o'zgarishi;
- ish kuni davomiyligining (K_d) o'zgarishi.

Mazkur omillarning ish vaqti fondiga ta'sirini aniqlashda zanjirli bog'lanish usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab, bazis davridagi ish vaqti fondini har bir omil hisobiga ketma-ket almashtirib quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olinadi:

1. $IVF_0 = I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0}$ – bazis davridagi ish vaqti fondi;
2. $IVF_{sh1} = I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0}$ – 1-shartli ish vaqti fondi;
3. $IVF_{sh2} = I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0}$ – 2-shartli ish vaqti fondi;
4. $IVF_1 = I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}$ – hisobot davridagi ish vaqti fondi.

Ish vaqti fondining umumiy o'zgarishi hisobot davridagi ish vaqti fondidan bazis davridagi ish vaqti fondini chegirish orqali aniqlanadi:

$$\pm \Delta IVF = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}) - (I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

Shundan so'ng, ish vaqti fondining o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitob qilinishi aniqlanadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- ishchilar sonining o'zgarishi ish vaqti fondining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi aniqlash uchun 1-shartli ish vaqti fondi ko'rsatkichidan bazis davridagi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm \Delta I_s = (I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0}) - (I_{s0} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

- bir ishchining ishlagan kishi kunlarining o'zgarishini ish vaqti fondiga ta'sirini aniqlash uchun 2-shartli ish vaqti fondidan 1-shartli ish vaqti fondi

ko'rsatkichini chegirish kerak:

$$\pm\Delta K_k = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0}) - (I_{s1} \times K_{k0} \times K_{d0})$$

- ish kuni davomiyligining o'zgarishini ish vaqti fondiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi ish vaqti fondidan 2-shartli ish vaqti fondi ko'rsatkichini chegirish lozim:

$$\pm\Delta K_d = (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d1}) - (I_{s1} \times K_{k1} \times K_{d0})$$

Ushbu omillarning ta'sir ko'rsatish natijalarining yig'indisi ish vaqti fondining umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\pm\Delta IVF = (\pm\Delta I_C) + (\pm\Delta K_k) + (\pm\Delta K_d)$$

Mazkur hisob-kitoblarning amaliy isbotini "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (15.2-jadval).

15.2-jadval
"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishchilarning ish vaqtidan foydalanishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)	Rejaning bajarilishi, %
1. Ishchilar soni (I), kishi	160	165	+5	103
2. Bir ishchining ishlagan kishi kunlari (K), kun	220	210	-10	95
3. Bir ishchining ishlagan soatlari soni (S), soat	1760	1638	-122	93
4. Ish kunining o'rtacha davomiyligi (D), soat	8,0	7,8	-0,2	97
5. Ish vaqti fondi (IVF), soat	281600	270270	-11330	96

15.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda mehnat resurslaridan foydalanish darajasi, ya'ni ish vaqti fondi biznes rejaga nisbatan haqiqatda 11330 soatga kamaygan. Bunga asosan biznes rejaga nisbatan haqiqatda bir ishchining ishlagan kishi kunlarining 10 kunga va bir ishchini ishlagan soatining 122 soatga kamayishi ta'sir ko'rsatgan.

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda ish vaqti fondining biznes rejaga nisbatan kamayishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ularning ta'sir darajalari quyidagicha bo'lgan:

- birinchi omil, ishchilar sonining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 5 kishiga

ko'payishi ish vaqti fondini 8800 soatga oshishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$(165 \times 220 \times 8) - (160 \times 220 \times 8) = 290400 - 281600 = +8800 \text{ soat};$$

- ikkinchi omil, bir ishchini ishlagan kishi kunlarining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 10 kunga kamayishi, ish vaqti fondini 13200 soatga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$(165 \times 210 \times 8) - (165 \times 220 \times 8) = 277200 - 290400 = - 13200 \text{ soat};$$

- uchinchi omil, ish kuni davomiyligining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 0,2 soatga kamayishi, ish vaqti fondining 6930 soatga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$(165 \times 210 \times 7,8) - (165 \times 210 \times 8) = 270270 - 277200 = - 6930 \text{ soat}.$$

Mazkur omillar ta'siri natijalarining yig'indisi har doim ish vaqti fondining umumiy yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko'rinadiki, ish vaqti fondining o'zgarishiga ishchilar sonining o'zgarishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, bir ishchini ishlagan kishi kunlari va ish kuni davomiyligini o'zgarishi salbiy ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda mehnat resurslaridan foydalanish darajasining yomonlashganligidan dalolat beradi. Shu sababli, jamiyat rahbariyati ish vaqti fondidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim. Bu albatta jamiyatda ish vaqti fondidan foydalanish bo'yicha yo'l quyilgan kamchiliklarni bartaraf etish va kelgusida foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

15.3. Mehnat unumdorligining tahlili

Mehnat unumdorligi mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Mehnat unumdorligi deganda aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmat hajmi tushuniladi.

Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar bu 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, 1 kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan

mahsulot miqdori va 1 ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori kabi ko'rsatkichlar bo'lib, ularni aniqlash tartibi quyidagi jadvalda keltirilgan (15.3-jadval).

15.3-jadval

Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi

No	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot (Ks)	$Ks = M / S$ Bu yerda: M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, S – sarflangan jami kishi-soat miqdori	Bu ko'rsatkich 1 kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ko'rsatadi
2	1 kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot (Kk)	$Kk = M / K$ Bu yerda: M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, K – sarflangan jami kishi-kunlari miqdori	Bu ko'rsatkich 1 kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ifodalaydi
3	1 ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot (Ki)	$Ki = M / Is$ Bu yerda: M – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, Is – ishchilar o'rtacha soni	Bu ko'rsatkich bir ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ko'rsatadi

Mehnat unumdorligining tahlilida mazkur ko'rsatkichlar aniqlanib, ularning bazis yilidagi ko'rsatkichi bilan taqqoslangan holda o'zgarishlari aniqlanadi. Shundan so'ng, ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan omillarning ta'sir darajalari hisob-kitob qilib o'rganiladi. Tahlil natijalari asosida mehnat unumdorligining o'zgarish sabablari va uning darajasini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.

Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (15.4-jadval).

15.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari biznes rejaga nisbatan haqiqatda o'sgan. Jamiyatda biznes rejaga nisbatan bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari va kishi-soatlarida yo'qotilish kuzatilganligiga qaramasdan xodimlar soni hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi hisobiga bunday natijalarga ega bo'lingan. Albatta, jamiyatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari darajasining o'sishini ijobiy baholash mumkin. Biroq, tahlilda bunday o'zgarishlar qaysi omillarning ta'siri natijasida yuzaga kelish sabablari o'rganilishi lozim bo'ladi. Shu sababli, mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri

ishchining bir soatlik ish unumi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahliliga to'xtalib o'tmoqchimiz.

15.4-jadval

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari darajasi va dinamikasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm	500000	577720	+77720
2. Xodimlar soni, kishi	200	202	+2
3. Shu jumladan ishchilar soni, kishi	160	165	+5
4. Bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari, kishi-kuni	220	210	-10
5. Bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlari, kishi soat	1760	1638	-122
6. O'rtacha ish kunining davomiyligi, soat	8,0	7,8	-0,2
7. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm (1/2)	2500	2860	+360
8. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm (1/3)	3125	3501	+376
9. Ishchining bir kunlik ish unumi, ming so'm (1/4)	2273	2751	+478
10. Ishchining bir soatlik ish unumi, ming so'm (1/5)	284,1	352,7	+68,6

15.3-jadvalda ko'rsatib o'tilganidek, ishchining bir soatlik ish unumini aniqlash uchun mahsulot ishlab chiqarish hajmini, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlariga bo'lish lozim.

Bundan ko'rinadiki, ishchining bir soatlik ish unumining o'zgarishiga quyidagi ikki omil ta'sir ko'rsatadi:

- mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi;
- bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlarining o'zgarishi.

Mazkur omillarning ta'sirini “Qayta hisoblash” usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun birinchi navbatda shartli ishchining bir soatlik ish unumini aniqlab olish zarur. Shartli ko'rsatkichni aniqlash uchun haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini biznes rejadagi bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlariga bo'lish kerak:

$$Kq_{sh} = M_1 / Is_0 = 577720 / 1760 = 328,2 \text{ ming so'm.}$$

Shundan so‘ng, ishchining bir soatlik ish unumining o‘zgarishiga omillar ta‘sirini hisob-kitob qilib aniqlanadi. Ya‘ni, “NAMUNA” mas‘uliyati cheklangan jamiyatda ishchining bir soatlik ish unumining o‘zgarishiga, birinchi omil mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun qayta hisoblangan shartli ko‘rsatkichdan biznes rejadagi ko‘rsatkichini chegirib tashlash lozim:

$$328,2 - 284,1 = +44,1 \text{ ming so‘m}$$

Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 77720 ming so‘mga ko‘payishi, ishchining bir soatlik ish unumini 44,1 ming so‘mga ortishiga olib kelgan.

Ikkinchi omil, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlarining o‘zgarishi ta‘sirini aniqlash uchun haqiqatdagi ishchining bir soatlik ish unumi ko‘rsatkichidan qayta hisoblangan shartli ko‘rsatkichni chegirib tashlash kerak:

$$352,7 - 328,2 = +24,5 \text{ ming so‘m}$$

Bundan ko‘rinadiki, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlarining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 122 soatga kamayishi ham ishchining bir soatlik ish unumini 24,5 ming so‘mga ko‘payishiga ta‘sir ko‘rsatgan. Sababi, biznes rejaga nisbatan haqiqatda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yuqori bo‘lganligi, mazkur kamayish qiymatini to‘liq qoplagan holda ko‘payishiga olib kelgan. Bunday natijani jamiyat faoliyati uchun ijobiy holat sifatida baholashimiz mumkin.

Mehnat unumdorligini ifodalovchi boshqa ko‘rsatkichlar va ularga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni ham shu tariqa tahlil qilib o‘rganish mumkin. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerak-ki, mehnat unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga faqatgina mahsulot ishlab chiqarish hajmi va bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-soatlari (ishchilar soni yoki bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari)dan tashqari bevosita ishchilarning umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushi, ishlagan kunlari hamda ish kunining davomiyligi kabi omillarga ham bog‘liq hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkich bo‘lib, bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini

ifodalovchi miqdor hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini xodimlarning o‘rtacha yillik soniga bo‘lish kerak. Biroq, ushbu ko‘rsatkichni aniqlashni quyidagi omillarning ko‘paytmasi ko‘rinishida ham ifodalagan holda ko‘rsatish mumkin:

$$K_m = U_1 \times K_k \times K_d \times K_s, \quad (15.2)$$

Bundan ko‘rinadiki, mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkich (bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot)ning o‘zgarishi quyidagi omillar hisobiga yuzaga keladi:

- ishchilarning umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushining o‘zgarishi ($U_{11} - U_{10}$);
- bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlarining o‘zgarishi ($K_{k1} - K_{k0}$);
- ish kuni davomiyligining o‘zgarishi ($K_{d1} - K_{d0}$);
- bir kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi ($K_{s1} - K_{s0}$).

Mazkur omillarning mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichga ta‘sirini aniqlashda “Zanjirli bog‘lanish” usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun, birinchi navbatda mehnat unumdorligining quyidagi bog‘lanish ko‘rsatkichlarini aniqlab olish lozim:

1. $K_{m0} = U_{10} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0}$ – bazis davridagi mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi;
 2. $K_{m_{sh1}} = U_{11} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0}$;
 3. $K_{m_{sh2}} = U_{11} \times K_{k1} \times K_{d0} \times K_{s0}$;
 4. $K_{m_{sh3}} = U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s0}$;
- } – shartli mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi;
5. $K_{m1} = U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s1}$ – hisobot davridagi mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi.

Mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichning o‘zgarishi hisobot davridagi mehnat unumdorligi ko‘rsatkichidan bazis davridagi mehnat unumdorligi ko‘rsatkichini chegirish orqali aniqlanadi:

$$\pm \Delta K_m = (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s1}) - (U_{10} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0})$$

Shundan so‘ng, ish vaqti fondining o‘zgarishiga omillar ta‘siri hisob-kitob

qilinib aniqlanadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

- umumiy xodimlar soni tarkibidagi ishchilarning ulushining o'zgarishi mehnat unumdorligining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi aniqlash uchun 1-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan bazis davridagi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm\Delta U_1 = (U_{11} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0}) - (U_{10} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0})$$

- bir ishchining yil davomida kishi-kunlarining o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlash uchun 2-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan 1-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichini chegirish kerak:

$$\pm\Delta K_k = (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d0} \times K_{s0}) - (U_{11} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0})$$

- ish kuni davomiyligining o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlash uchun esa 3-shartli mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan 2-shartli ko'rsatkichini chegirish lozim:

$$\pm\Delta K_d = (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s0}) - (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d0} \times K_{s0})$$

- bir kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi mehnat unumdorligi ko'rsatkichidan 3-shartli ko'rsatkichini chegirish lozim:

$$\pm\Delta K_s = (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s1}) - (U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times K_{s0})$$

Ushbu omillarning ta'sir ko'rsatish natijalarining yig'indisi mehnat unumdorligining umumiy farqiga teng bo'lishi kerak:

$$\pm\Delta K_m = (\pm\Delta U_1) + (\pm\Delta K_k) + (\pm\Delta K_d) + (\pm\Delta K_s)$$

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichni “Zanjirli bog'lanish” usulining qoidalariga amal qilgan holda tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (15.5-jadval).

15.5-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bir nafar xodimning mehnat unumi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	O‘zgarishi (+;-)
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	500000	577720	+77720
2	Umumiy xodimlar soni, kishi	200	202	+2
3	Shu jumladan ishchilar soni, kishi	160	165	+5
4	Jami mehnat sarfi, ming kishi-soat	281,6	270,3	-11,3
5	Ishchilar sonining umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushi, %	80	81,7	+1,7
6	Bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari, kishi-kuni	220	210	-10
7	O‘rtacha ish kunining davomiyligi, soat	8,0	7,8	-0,2
8	Bir kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so‘m	1776	2137	+361
9	Bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so‘m	2500	2860	+360

15.5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi haqiqatda biznes rejaga nisbatan 360 ming so‘mga ko‘paygan. Boshqacha aytganda, mehnat unumdorligi darajasi 14,4 ($360 \times 100 / 2500$) foizga oshgan. Buni ijobiy baholash lozim.

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining biznes rejaga nisbatan ko‘payishiga yuqorida ta’kidlab o‘tgan omillarimiz ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalari hisob-kitoblarga ko‘ra quyidagicha bo‘lgan:

- birinchi omil, sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilar ulushining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 1,7 foizga oshishi bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini 54 ming so‘mga oshishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$\pm \Delta U_1 = (0,817 \times 220 \times 8 \times 1,776) - (0,80 \times 220 \times 8 \times 1,776) = 2554 - 2500 = +54 \text{ ming so‘m}$$

- ikkinchi omil, bir ishchini ishlagan kishi kunlarining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 10 kunga kamayishi, bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini 116 ming so‘mga kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$\pm\Delta K_k=(0,817\times 210\times 8\times 1,776)-(0,817\times 220\times 8\times 1,776)=2438-2554=-116 \text{ ming so'm}$$

- uchinchi omil, ish kuni davomiyligining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 0,2 soatga kamayishi, bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 61 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta K_d=(0,817\times 210\times 7,8\times 1,776)-(0,817\times 210\times 8\times 1,776)=2377-2438=-61 \text{ ming so'm}$$

- to'rtinchi omil, bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 361 ming so'mga ko'payishi esa bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 483 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta K_s=(0,817\times 210\times 7,8\times 2,137)-(0,817\times 210\times 7,8\times 1,776)=2860-2377=+483 \text{ ming so'm}$$

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olmagan. Ya'ni, bir ishchining ishlagan kishi-kunlari va ish kuni davomiyligida biznes rejaga nisbatan yo'qotishlarga ega bo'lgan. Bu esa, mehnat unumdorligi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, kelgusida mehnat unumdorligini oshirish maqsadida yo'l quyilgan kamchiliklarni to'g'rilash va mehnat unumdorligi darajasini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishi lozim deb hisoblaymiz. Albatta bu jamiyatda kelgusida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanish imkonini beradi.

15.4. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillarining tahlili

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi ko'p jihatdan mehnat resurslari va ulardan samarali foydalanish darajasiga bog'liq hisoblanadi. Mehnat resurslari ishchi kuchi tariqasida ishlovchilarning o'rtacha soni bilan, mehnat rusurslaridan samarali foydalanish darajasi o'rtacha bir xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan tavsiflanadi. Mazkur omillar mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan ular o'rtasida bevosita

bogʻliqlik mavjud boʻlib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$YaM = X_s \times K_s, \quad (15.3)$$

Bu yerda: YaM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi; X_s – xodimlarning oʻrtacha soni; K_s – bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Mazkur formuladan koʻrinib turibdiki, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining oʻzgarishiga quyidagi mehnat omillari taʼsir koʻrsatar ekan:

- xodimlar oʻrtacha sonining oʻzgarishi;
- bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oʻzgarishi.

Ushbu omillarning ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining oʻzgarishiga taʼsirini “Koʻrsatkichlar farqi” usuli yordamida tahlil qilib oʻrganish mumkin. Tahlilda mazkur usuldan foydalanganda birinchi navbatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmining umumiy oʻzgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot davridagi yalpi mahsulot hajmidan bazis davridagi yalpi mahsulot hajmini chegirish lozim:

$$\pm \Delta YaM = (X_{s1} \times K_{s1}) - (X_{s0} \times K_{s0})$$

Shundan soʻng, yalpi mahsulot hajmining oʻzgarishiga mehnat omillarining taʼsiri hisob-kitob qilinib aniqlanadi. Yaʼni, birinchi omil xodimlarning oʻrtacha yillik sonining oʻzgarishi yalpi mahsulot hajmining oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun hisobot davridagi xodimlar soni bilan bazis davridagi xodimlar soni oʻrtasidagi farqni bazis davridagi bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga koʻpaytirish lozim:

$$\pm \Delta YaM_{xs} = (X_{s1} - X_{s0}) \times K_{s0}$$

Ikkinchi omil, bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oʻzgarishi yalpi mahsulot hajmining oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun hisobot davridagi bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmidan, shu koʻrsatkichning bazis davrida hajmi orasidagi farqni hisobot davridagi xodimlarning oʻrtacha soniga koʻpaytirish kerak:

$$\pm \Delta YaM_{ks} = (K_{s1} - K_{s0}) \times X_{s1}$$

Yuqoridagi ikki omil taʼsirining oʻzaro yigʻindisi yalpi mahsulot hajmining umumiy oʻzgarishiga teng boʻlishi lozim.

Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillarini "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (15.6-jadval).

15.6-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda yalpi mahsulot hajmiga xodimlar soni va mehnat unumdorligi darajasi ta'sirining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1	Xodimlar soni, kishi	200	202	+2
2	Bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm	2500	2860	+360
3	Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi, ming so'm	500000	577720	+77720
	Shu jumladan, o'zgarishiga omillar ta'siri:			
	- xodimlar sonining o'zgarishi hisobiga	x	x	+5000
	- bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi hisobiga	x	x	+72720

15.6-jadvaldan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi biznes rejada 500000 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 577720 ming so'mga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, jamiyatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi biznes rejaga nisbatan haqiqatda 77720 ming so'mga ko'paygan. Bunday o'zgarishni jamiyat uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Endi, mazkur o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan mehnat omillarining ta'sirini "Ko'rsatkichlar farqi" usuli orqali o'rganadigan bo'lsak, birinchi omil xodimlar sonining biznes rejaga nisbatan 2 kishiga ko'payishi, yalpi mahsulot hajmini biznes rejaga nisbatan 5000 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm \Delta Y_{aM_{xs}} = (X_{s1} - X_{s0}) \times K_{s0} = (202 - 200) \times 2500 = +5000 \text{ ming so'm.}$$

Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ikkinchi omil, bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining biznes rejaga nisbatan haqiqatda 360 ming so'mga oshishi, yalpi mahsulot hajmini biznes rejaga nisbatan 72720 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$\pm\Delta Y_{aM_{ks}} = (K_{s1} - K_{s0}) \times X_{s1} = (2860 - 2500) \times 202 = +72720 \text{ ming so'm.}$$

Tahlil natijalaridan ko‘rinadiki, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirishning asosiy imkoniyatlaridan biri mehnat unumdorligi darajasini oshirish hisoblanar ekan.

Yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga xodimlar soni va mehnat unumdorligi darajasidan tashqari, ish kunining davomiyligi, bir ishchining ishlagan kishi-kunlari va bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur omillar bilan ham yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud. Ushbu bog‘liqlikni quyidagicha matematik formula ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$Y_{aM} = X_s \times U_1 \times K_k \times K_d \times K_s, \quad (15.4)$$

Bu yerda: Y_{aM} – yalpi mahsulot; X_s – xodimlar soni; U_1 – sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilarning ulushi; K_k – bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari; K_d – ish kunining davomiyligi; K_s – bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Yuqoridagi formuladan ko‘rinadiki, yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga quyidagi mehnat omillari ta’sir ko‘rsatar ekan:

- xodimlar sonining o‘zgarishi;
- umumiy xodimlar soni tarkibida ishchilar ulushining o‘zgarishi;
- bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlarining o‘zgarishi;
- ish kuni davomiyligining o‘zgarishi;
- bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi.

Ushbu omillarning yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta’sirini “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat ma’lumotlari asosida tahlil qilib o‘rganimizda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (15.7-jadval).

15.7-jadval ma’lumotlaridan ko‘ra, biznes rejada yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 500000 ming so‘m belgilangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich haqiqatda 577720 ming so‘m teng bo‘lgan. Demak, yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasi 77720 ming so‘m ortig‘i bilan bajarilgan. Bunday natija jamiyat faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

15.7-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining omilli tahlili uchun zarur ma’lumotlar

No	Ko‘rsatkichlar	Biznes reja	Haqiqatda	O‘zgarishi (+;-)
1	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so‘m	500000	577720	+77720
2	Xodimlar soni, kishi	200	202	+2
3	Shu jumladan ishchilar soni, kishi	160	165	+5
4	Ishchilar sonining umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushi, %	80	81,7	+1,7
5	Bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari, kishi-kuni	220	210	-10
6	O‘rtacha ish kunining davomiyligi, soat	8,0	7,8	-0,2
7	Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so‘m	1776	2137	+361

Mazkur o‘zgarishga mehnat omillarining ta’sirini “Absalyut farqlar” usuli yordamida hisob-kitob qilib o‘rganganimizda quyidagi natijalarga ega bo‘lindi (15.8-jadval).

15.8-jadval

Mehnat omillarining yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sirining hisob-kitobi

Mehnat omillari	Hisob-kitob qilish tartibi	Yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, ming so‘m
O‘zgarishi:	x	x
Xodimlar soni	$\pm\Delta YaM = \Delta X_s \times U_{10} \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0} = (+2) \times 0,80 \times 220 \times 8 \times 1,776 =$	+5000
Umumiy xodimlar soni tarkibida ishchilar ulushi	$\pm\Delta YaM = X_{s1} \times \Delta U_1 \times K_{k0} \times K_{d0} \times K_{s0} = 202 \times 0,017 \times 220 \times 8 \times 1,776 =$	+10734
Bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari	$\pm\Delta YaM = X_{s1} \times U_{11} \times \Delta K_k \times K_{d0} \times K_{s0} = 202 \times 0,817 \times (-10) \times 8 \times 1,776 =$	-23448
Ish kunining davomiyligi	$\pm\Delta YaM = X_{s1} \times U_{11} \times K_{k1} \times \Delta K_d \times K_{s0} = 202 \times 0,817 \times 210 \times (-0,2) \times 1,776 =$	-12310
Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	$\pm\Delta YaM = X_{s1} \times U_{11} \times K_{k1} \times K_{d1} \times \Delta K_s = 202 \times 0,817 \times 210 \times 7,8 \times 0,361 =$	+97744
Yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi	x	+77720

15.8-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, biznes rejaga nisbatan xodimlar sonining 2 kishiga ko‘payishi 5000 ming so‘mga, umumiy xodimlar soni tarkibida

ishchilar ulushining 1,7 foizga oshishi 10734 ming soʻmga va bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 361 ming soʻmga koʻpayishi 97744 ming soʻmga ortishiga taʼsir koʻrsatgan. Biroq, biznes rejaga nisbatan bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunining 10 kun yoʻqotilgan ish kunlari 23448 ming soʻmga va ish kunining davomiyligining 0,2 soatga qisqarishi 12310 ming soʻmga yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining kamayishiga taʼsir koʻrsatgan. Bu ikki omilning salbiy taʼsiri natijasida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35758 ming soʻmga kamaygan. Agarda jamiyat mehnat resurslaridan toʻliq foydalangan taqdirda yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmi 35758 ming soʻmga kamaymasdan, shuncha summaga ortishi mumkin edi.

Umuman olganda, biznes rejaga nisbatan yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining 77720 ming soʻmga koʻpayishini jamiyat uchun ijobiy natija sifatida baholash mumkin.

Shunday boʻlsada, “NAMUNA” masʼuliyati cheklangan jamiyati kelgusida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlagan holda aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mehnat resurslari deganda nima tushuniladi?
2. Qayta ishlash korxonalarida mehnat resurslarini tahlil qilishning ahamiyatini tushuntirib bering?
3. Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan taʼminlanganligi va ulardan foydalanish tahlilining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan taʼminlanganligi va ulardan foydalanish tahlilida qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
5. Mehnat resurslarining tarkibi, tuzilishi va dinamik oʻzgarishlari qanday tahlil etiladi?
6. Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan taʼminlanganligi va ulardan foydalanish darajasi qanday tahlil qilinadi?

7. Ish vaqti fondi va uning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Mehnat unumdorligi deb nimaga aytiladi? Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qanday aniqlanadi?
9. Mehnat unumdorligi darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanday tahlil qilib o'rganiladi?
10. Yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillari tarkibiga nimalar kiradi va ular qanday aniqlanadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Qayta ishlash korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish tahlilida qaysi axborot manbalaridan foydalaniladi?

- A) Biznes reja ma'lumotlari, "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari, buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi tegishli schyot ma'lumotlari
- B) Buxgalteriya balansi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot va pul oqimlari to'g'risidagi hisobot
- C) Buxgalteriya balansi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot va boshqa ma'lumotlar (ustav, ta'sis shartnomasi, umumiy majlis qarorlari, biznes rejadagi xususiy kapital to'g'risidagi ma'lumotlar)
- D) Biznes reja ma'lumotlari, "Mehnat hisoboti" statistik hisobot (1-T shakl) ma'lumotlari, boshqa qo'shimcha ma'lumotlar (shtat jadvali, tabel, mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida ma'lumotnoma va boshqalar)

2. Ish vaqti fondi qanday aniqlanadi?

- A) Bu ko'rsatkich ishchilar sonini bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari soniga va ish kunining davomiyligiga ko'paytirish orqali aniqlanadi
- B) Bu ko'rsatkich ishchilar sonini bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari soniga ko'paytirish va natijani ish kunining davomiyligiga bo'lish orqali aniqlanadi
- C) Bu ko'rsatkich ishchilar sonini ish kunining davomiyligiga ko'paytirish va natijani bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari soniga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Bu ko'rsatkich bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari sonini ish kunining davomiyligiga ko'paytirish va natijani ishchilar soniga bo'lish orqali aniqlanadi

3. Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?

- A) Aniq vaqt birligi (1 kishi-soat yoki 1 kishi-kuni) hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmi tushuniladi
- B) Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori tushuniladi
- C) Bir ishchining o'rtacha ishlagan kunlari tushuniladi
- D) Ishchining bir kunda ishlashi zarur bo'lgan soat miqdori tushuniladi

4. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan sof tushum
- B) Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va bir ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori
- C) Bir kishi-soat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va ish vaqti fondi
- D) Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik darajasi, bir kishi-kuni hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va bir ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori

5. Bir ishchining bir yilda ishlagan o'rtacha kishi-kunlari qanday aniqlanadi?

- A) Jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarini jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlariga nisbati
- B) Jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlarini ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga nisbati
- C) Jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarini jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga nisbati
- D) Ish kunining o'rtacha uzunligini ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga

ko'paytirish kerak

6. Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlari qanday aniqlanadi?

- A) Ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan jami kishi-soatlarini ishchilarning o'rtacha ro'yxatdagi soniga bo'lish orqali
- B) Ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan jami kishi-kunlarini ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan jami kishi-soatlariga bo'lish orqali
- C) Jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-soatlarini jami ishchilar tomonidan bir yilda ishlangan kishi-kunlariga bo'lish orqali
- D) Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlarini ishchilarning ro'yxatdagi o'rtacha soniga bo'lish orqali

7. Ish kunining o'rtacha davomiyligi qanday aniqlanadi?

- A) Ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlarini ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-soatlariga bo'lish orqali
- B) Ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-soatlarini ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlariga bo'lish orqali
- C) Bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-kunlarini bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlariga bo'lish orqali
- D) Ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlarini bir ishchi tomonidan bir yilda o'rtacha ishlangan kishi-soatlariga bo'lish orqali

8. Mehnat unumdorligini ifodalovchi umumiy ko'rsatkich (bir nafar xodim hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot)ning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) Ishchilarning umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushining o'zgarishi, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlarining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi va bir kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi
- B) Ishchilar sonining o'zgarishi, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlarining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi va bir kishi-soatda

ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi

- C) Xodimlar sonining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi va bir kishi-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi
- D) Ishchilarning umumiy xodimlar soni tarkibidagi ulushining o'zgarishi, bir ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlarining o'zgarishi, ish kuni davomiyligining o'zgarishi va bir ishchining ish unumining o'zgarishi

10. Bir ishchi hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori qanday aniqlanadi?

- A) Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini ishchilarning yillik o'rtacha soniga bo'lish orqali aniqlanadi
- B) Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini ishchilarning yil davomida ishlagan kishi-soatlariga bo'lish orqali aniqlanadi
- C) Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini ishchilarning yil davomida ishlagan kishi-kunlariga bo'lish orqali aniqlanadi

XVI BOB. QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR, NOMODDIY AKTIVLAR VA MATERIALLARDAN FOYDALANISH TAHLILINING XUSUSIYATLARI

16.1. Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligining tahlili

Qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishning eng muhim omillaridan biri ularning asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanganligi hamda ulardan samarali foydalanishdir.

Qayta ishlash korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi tahlilining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- korxonada va uning tarkibiy bo'linmalari asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish darajasini umumlashtiruvchi va xususiy ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlash;

- asosiy vositalardan foydalanish darajasining o'zgarish sabablarini aniqlash va baho berish;

- asosiy vositalardan foydalanishning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri va boshqa ko'rsatkichlarni hisoblash;

- korxonada uskunalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini o'rganish va baho berish;

- asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Tahlilning asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-reja ma'lumotlari;
- korxonaning texnik rivojlanish rejasi;
- "Buxgalteriya balansi" ma'lumotlari;
- "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ma'lumotlari;
- asosiy vositalarni qayta baholash to'g'risidagi ma'lumotlar (1-qayta baholash shakli);
- asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkalari;
- buxgalteriya hisobining tegishli sintetik va analitik schyotlari

ma'lumotlari.

- loyiha-smeta, texnik hujjatlar va boshqalar.

Asosiy vositalar tahlilida birinchi navbatda korxonada asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi, dinamikasi va holatiga baho beriladi. Shuningdek, uning harakat ko'rsatkichlarini ham tahlil qilib o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar 7-bobda bayon qilingan tartibda tahlil qilib o'rganiladi va baho beriladi.

Shu bilan birga, tahlilda yangi texnikani joriy qilish, yangi obyektlarni ishga tushirish, asosiy vositalarni ta'mirlash va modernizatsiyalash bo'yicha rejaning bajarilishi tahlil qilib o'rganiladi. Hamda so'nggi yuqori quvvatga ega bo'lgan avtomatlashtirilgan mashina va uskunalarning, ularning umumiy sonidagi, mashina va uskunalarning har bir guruhi bo'yicha ulushi aniqlanadi.

Bundan tashqari, asosiy vositalarning yosh tarkibi va ma'naviy eskirishini tavsiflash uchun asosiy vositalardan foydalanish davomiyligi bo'yicha guruhlanadi (5 yilgacha, 5-10, 10-20-yilgacha va 20-yildan ortiq) hamda mashina va uskunalarning o'rtacha yoshi hisoblanadi.

Qayta ishlash korxonalarida mashina va uskunalarning holatini tavsiflash uchun ular texnik yaroqliligi bo'yicha guruhlanadi:

- yaroqli mashina va uskunalalar;
- kapital ta'mirlashga muhtoj mashina va uskunalalar;
- hisobdan chiqariladigan yaroqsiz mashina va uskunalalar.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda korxonaning biznes reja yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi tushuniladi. Korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanganligi ko'rsatkichi ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha xodimlar soniga bo'lish orqali hisoblanadi. Bu ko'rsatkich, ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarning asosiy vositalar bilan qay darajada qurollanganligini, ya'ni bir xodimga qancha asosiy vosita to'g'ri kelishini ifodalaydi.

Mazkur ko'rsatkichning biznes rejaga yoki o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi mehnat unumdorligining o'sish darajasi bilan taqqoslanadi. Mehnat unumdorligining o'sish darajasi ushbu ko'rsatkichning o'sish darajasidan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasini "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (16.1-jadval).

16.1-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda asosiy vositalar bilan qurollanish darajasining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	166118	179800	+13682
2	Ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soni, kishi	160	165	+5
3	Asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi, so'm	1038237	1089670	+51433

16.1 – jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatida asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi rejaga nisbatan haqiqatda 51433 so'mga oshgan. Bunday o'zgarishni ijobiy holat sifatida baholash mumkin.

Asosiy vositalar bilan qurollanish darajasining o'zgarishiga asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining va ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ularning ta'sir darajalarini "Qayta hisoblash" usuli orqali hisob-kitob qilish mumkin. Buning uchun avvalo qayta hisoblangan ko'rsatkichni aniqlab olish lozim. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatini rejadagi ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soniga bo'lish kerak:

$$AQ_q = AVI : IX = 179800 : 160 = 1123750$$

Endi, asosiy vositalar bilan qurollanish darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlaymiz. Ya'ni, birinchi omil asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati o'zgarishining asosiy vositalar bilan qurollanish

darajasiga ta'sirini aniqlash uchun qayta hisoblangan ko'rsatkichdan rejadagi ko'rsatkichni chegirib tashlash lozim:

$$1123750 - 1038237 = +85513 \text{ so'm}$$

Demak, asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining rejaga nisbatan haqiqatda 13682 ming so'mga ko'payishi asosiy vositalar bilan qurollanish darajasini 85513 so'mga ortishiga ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchi omil, asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar sonining asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga ta'sirini topish uchun haqiqatdagi ko'rsatkichdan qayta hisoblangan ko'rsatkichni chegirish zarur:

$$1089670 - 1123750 = - 34080 \text{ so'm}$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, rejadagi asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar soniga nisbatan haqiqatda 5 nafarga ko'payishi, asosiy vositalar bilan qurollanish darajasini 34080 so'mga kamaytirgan.

Mazkur omillarning ta'siri natijasida asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi 51433 so'mga ko'paygan.

16.2. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining tahlili

Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalardan foydalanish darajasi oshgan sari mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib boradi. Shu sababli, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini o'rganish asosida mavjud imkoniyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalardan foydalanishning intensivligi va samaradorligini umumlashtirgan holda tavsiflash uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

1. Fond qaytimi (FQ) – bu ko'rsatkich ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini ifodalaydi.

2. Fond sig'imi (FC) – mazkur ko'rsatkich fond qaytimining aksini

ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, 1 so'mlik ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hajmini bildiradi.

3. Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligi (R_{AVI}) – bu ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan foyda summasini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkich 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hisobiga olingan mahsulot sotishdan olingan foyda summasini ko'rsatadi.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi tahlilida birinchi navbatda, mazkur ko'rsatkichlarning har bir turi bo'yicha hisobot yilidagi (haqiqatda) ko'rsatkichni bazis yilidagi (reja) ko'rsatkich bilan solishtirilib, o'zgarishlari aniqlanadi. Shundan so'ng, ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, hisob-kitob qilinadi. Omillar ta'sirini hisob-kitob qilib aniqlashda "Ko'rsatkichlar farqi", "Zanjirli bog'lanish", "Qayta hisoblash", "Mutlaq farqlar" va "Indeks" usullaridan foydalanish mumkin.

Endi yuqoridagi fond qaytimi ko'rsatkichi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bunda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini chuqurroq tahlil qilish maqsadida fond qaytimi ko'rsatkichini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar va ularning aktiv qismi bo'yicha alohida tahlil qilib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, birinchi navbatda asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning fond qaytimi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlilini keltirib o'tamiz. Buning uchun dastlab "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari o'rganilgan holda tegishli ko'rsatkichlar shakllantirildi va ularni rejaga nisbatan solishtirish orqali o'zgarishi aniqlandi (16.2-jadval).

16.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining haqiqiy darajasi rejadagidan 0,2 so'mga oshgan. Ya'ni, 1 so'mlik asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi rejaga nisbatan haqiqatda 20 tiyinga yoki 6,6 foizga oshgan.

16.2-jadval

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish uchun birlamchi ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so'm	500000	577720	+77720
2	Mahsulot sotishdan olingan foyda, ming so'm	93000	110344	+17344
3	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'm:			
3.1	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar (AVI)	166118	179800	+13682
3.2	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar-ning aktiv qismi (AVA)	96671	107880	+11209
3.3	Uskuna birligining o'rtacha yillik qiymati (B)	24168	21576	-2592
4	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar tarkibida aktiv qismining ulushi (AU)	0,60	0,60	-
5	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligi, % (R_{AVI})	55,98	61,37	+5,39
6	Mahsulot rentabelligi, % (R_M)	18,6	19,1	+0,5
7	Fond qaytimi (FQ), so'm:			
7.1	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar bo'yicha (FQ_I)	3,01	3,21	+0,2
7.2	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar aktiv qismi bo'yicha (FQ_A)	5,02	5,36	+0,34
8	Texnologik uskunalarni o'rtacha yillik soni (S)	4	5	+1
9	Hisobot davri davomida uskunalarining ishlagan vaqti (V), soat	15500	17160	+1660
10	Shu jumladan, bir birlik uskuna hisobida:			
10.1	soat (Bs)	3875	3432	-443
10.2	smena (Bsm)	700	662	-38
10.3	kun (Bk)	350	345	-5
11	Bir birlik uskuna ishining smenalik koeffitsiyenti (K_s)	2	1,92	-0,08
12	Smenaning o'rtacha davomiyligi (D), soat	5,53	5,18	-0,35
13	Bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, (Bm), so'm	32258	33667	+1409

Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining o'zgarishi quyidagi omillar hisobiga sodir bo'lgan:

- asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar umumiy summasida asosiy vositalar aktiv qismi ulushining o'zgarishi;
- asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar aktiv qismi bo'yicha fond qaytimining o'zgarishi.

Mazkur omillar ko'paytmasi asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar

fond qaytimining umumiy hajmiga teng bo‘ladi. Uni quyidagi matematik formula ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$FQ_I = AU \times FQ_A, \quad (16.1)$$

Fond qaytimining o‘zgarishiga omillar ta’sirini “Qayta hisoblash” usuli yordamida aniqlash mumkin. Buning uchun avvalo “Qayta hisoblangan fond qaytimi” ko‘rsatkichini aniqlab olish lozim. Uni aniqlash uchun hisobot yilidagi (haqiqatdagi) asosiy vositalar aktiv qismi ulushini bazis yilidagi (rejadagi) asosiy vositalar aktiv qismi fond qaytimiga ko‘paytirish kerak:

$$FQ_{Iq} = AU_1 \times FQ_{A0} = 0,60 \times 5,02 = 3,01 \text{ so‘m}$$

Shundan so‘ng, fond qaytimining o‘zgarishiga omillar ta’siri hisob-kitob qilinadi.

Birinchi omil, asosiy vositalar aktiv qismi ulushi rejaga nisbatan haqiqatda o‘zgarmaganligi sababli, mazkur ko‘rsatkich fond qaytimining o‘zgarishi ta’sir ko‘rsatmagan. Fond qaytimining o‘zgarishiga asosiy vositalar aktiv qismi bo‘yicha fond qaytimining o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun uning haqiqatdagi ko‘rsatkichdan “Qayta hisoblangan” ko‘rsatkichini chegirib tashlash lozim:

$$\begin{aligned} \pm \Delta FQ_{IA} &= (AU_1 \times FQ_{A1}) - (AU_1 \times FQ_{A0}) = (0,60 \times 5,36) - (0,60 \times 5,02) = \\ &= 3,21 - 3,01 = + 0,2 \text{ so‘m} \end{aligned}$$

Demak, asosiy vositalar aktiv qismi fond qaytimining 0,34 ming so‘mga oshishi fond qaytimi darajasining 0,2 so‘mga yoki 6,6 foizga oshishiga sabab bo‘lgan.

Tahlil natijalarini analitik jadvalga joylashtirilsa, xulosa chiqarish qulayroq bo‘ladi. Chunki, jadvalda barcha ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi va omillarning ta’sir qilish darajalari aniq ko‘rinib turadi (16.3-jadval).

Yuqorida asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining tahliliga to‘xtalib o‘tdik. Endi esa, fond qaytimining tahlilini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning aktiv qismi va undan foydalanish samaradorligi bilan bog‘lagan holda ko‘rib chiqamiz. Chunki, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning aktiv qismi mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi

mehnat vositalari hisoblanadi. Ulardan samarali foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

16.3-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda asosiy vositalar fond qaytimining omilli tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatdagi aktiv qismi ulushi va rejadagi aktiv qismi qaytimi bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)	Shu jumladan omillar ta'siri	
						Aktiv qismi ulushi o'zgarishi hisobiga	Aktiv qismi qaytimi o'zgarishi hisobiga
1	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar, ming so'm	166118	x	179800	+13682	x	x
2	Asosiy vositalar aktiv qismining hajmi, ming so'm	96671	x	107880	+11209	x	x
3	Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot, ming so'm	500000	x	577720	+77720	x	x
4	Asosiy vositalar aktiv qismining ulushi, koeffitsiyent	0,60	0,60	0,60	-	x	x
5	Asosiy vositalar aktiv qismining qaytimi, so'm	5,02	5,02	5,36	+0,34	x	x
6	Fond qaytimi, so'm	3,01	3,01	3,21	+0,2	-	+0,2

Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar aktiv qismi bo'yicha (texnologik uskuna) fond qaytimi bevosita ularning soni, ish vaqti va o'rtacha bir soatlik mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liq. Mazkur ko'rsatkichlarning ko'paytmasini asosiy vositalar aktiv qismiga bo'lish orqali asosiy vositalar aktiv qismi bo'yicha fond qaytimi ko'rsatkichini aniqlaymiz. Ushbu hisob-kitobni tahlil uchun quyidagi matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$FQ_A = (S \times B_s \times B_m) : AVA, \quad (16.2)$$

Texnologik uskunadan foydalanish samaradorligini chuqurroq o'rganish maqsadida uskuna birligining ish vaqtini (BC) ishlagan kunlar (Bk) soni, smenalik koeffitsiyenti (Bsm) va smenaning o'rtacha davomiyligining (D) ko'paytmasi ko'rinishida, texnologik uskunaning o'rtacha yillik qiymatini (AVA) esa uskunaning soni (C) va uskuna birligining o'rtacha qiymatining (B) ko'paytmasi

ko‘rinishida taqdim qilinsa, yuqoridagi texnologik uskuna fond qaytimini aniqlashning matematik formulasini quyidagi ko‘rinishda kengaytirish mumkin:

$$FQ_A = (S \times B_k \times K_s \times D \times B_m) : (S \times B), \quad (16.3)$$

Ushbu formuladan texnologik uskunalar sonini (C) qisqartiradigan bo‘lsa, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$FQ_A = (B_k \times K_s \times D \times B_m) : B, \quad (16.4)$$

Shunday qilib, yuqoridagi matematik formuladan ko‘rinadiki, asosiy vositalar aktiv qismi (texnologik uskuna) bo‘yicha fond qaytimining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- uskunaning ishlagan kunlari sonining o‘zgarishi;
- uskuna ishining smenalik koeffitsiyentining o‘zgarishi;
- smenaning o‘rtacha davomiyligini o‘zgarishi;
- bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o‘zgarishi;
- uskuna birligining o‘rtacha qiymatining o‘zgarishi.

Uskuna fond qaytimining o‘zgarishiga yuqoridagi omillar ta’sirini aniqlash uchun “Zanjirli bog‘lanish” usulidan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur usuldan foydalanilganda dastlab shartli uskunaning fond qaytimi ko‘rsatkichlari aniqlab olinadi.

Fond qaytimining birinchi shartli ko‘rsatkichini aniqlash uchun yuqoridagi matematik formuladagi uskuna birligini rejadagi o‘rtacha yillik qiymatining o‘rniga uning haqiqiy o‘rtacha yillik qiymatini olish lozim:

$$FQ_{Ash1} = (B_{k0} \times K_{s0} \times D_0 \times B_{m0}) : B_1 = (350 \times 2 \times 5,53 \times 32258) : 21576000 = 124870718 : 21576000 = 5,79 \text{ so‘m.}$$

Keyingi ikkinchi shartli ko‘rsatkichni quyidagi zanjirli almashtirish, ya’ni uskunaning haqiqiy qiymati va haqiqatda ishlangan kunlari olinib, qolgan omillarning rejadagi miqdorlarini hisobga olgan holda aniqlab olish mumkin:

$$FQ_{Ash2} = (B_{k1} \times K_{s0} \times D_0 \times B_{m0}) : B_1 = (345 \times 2 \times 5,53 \times 32258) : 21576000 = 123086851 : 21576000 = 5,70 \text{ so‘m.}$$

Fond qaytimining uchinchi shartli ko‘rsatkichi uskunaning haqiqiy qiymati,

haqiqatda ishlangan kunlar soni, haqiqatdagi smenalik koeffitsiyenti va qolgan omillarning rejadagi darajasi bo'yicha hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$FQ_{Ash3} = (Bk_1 \times Ks_1 \times D_0 \times Bm_0) : B_1 = (345 \times 1,92 \times 5,53 \times 32258) : 21576000 = 118163376 : 21576000 = 5,48 \text{ so'm.}$$

Fond qaytimining to'rtinchi shartli ko'rsatkichini aniqlashda bir mashinashoatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ko'rsatkichi reja bo'yicha qolgan omillarning esa haqiqatdagi ko'rsatkichi olinadi:

$$FQ_{Ash4} = (Bk_1 \times Ks_1 \times D_1 \times Bm_0) : B_1 = (345 \times 1,92 \times 5,18 \times 32258) : 21576000 = 110684682 : 21576000 = 5,13 \text{ so'm.}$$

Mazkur shartli ko'rsatkichlar aniqlab olingandan so'ng, uskuna fond qaytimining o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitob qilinadi. Ya'ni, birinchi omilning ta'sirini aniqlash uchun birinchi shartli ko'rsatkichdan rejadagi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm \Delta FQ_{AB} = ((Bk_0 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) - ((Bk_0 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0) : B_0) = 5,79 - 5,02 = +0,77 \text{ so'm.}$$

Demak, uskuna birligining o'rtacha yillik qiymatini rejaga nisbatan haqiqatda 2592 ming so'mga kamayishi uskuna fond qaytimi darajasining 0,77 so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga uskunani ishlagan kunlari sonini o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun ikkinchi shartli ko'rsatkichdan birinchi shartli ko'rsatkichni chegirish kerak:

$$\pm \Delta FQ_{ABk} = ((Bk_1 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) - ((Bk_0 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) = 5,70 - 5,79 = - 0,09 \text{ so'm.}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, uskunani ishlagan kunlari sonining rejaga nisbatan haqiqatda 5 kunga kamayishi fond qaytimining 0,09 so'mga pasayishiga ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni, bu uskunaning rejadan tashqari 5 kun davomida bekor turib qolishi natijasi hisoblanadi.

Uskunadan foydalanish smenalik koeffitsiyentining o'zgarishini fond qaytimining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uchinchi shartli ko'rsatkichdan

ikkinchi shartli ko'rsatkichni chegirish zarur:

$$\pm\Delta FQ_{AKs} = ((Bk_1 \times Ks_1 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) - ((Bk_1 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) = 5,48 - 5,70 = - 0,22 \text{ so'm.}$$

Hisob-kitoblardan uskunadan foydalanishning smenalik koeffitsiyenti rejaga nisbatan haqiqatda 0,08 koeffitsiyentga pasayishi hisobiga fond qaytimi 0,22 so'mga kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi omil, smenaning o'rtacha davomiyligining o'zgarishi fond qaytimining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun to'rtinchi shartli ko'rsatkichdan uchinchi shartli ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm\Delta FQ_{Ad} = ((Bk_1 \times Ks_1 \times D_1 \times Bm_0) : B_1) - ((Bk_1 \times Ks_1 \times D_0 \times Bm_0) : B_1) = 5,13 - 5,48 = - 0,35 \text{ so'm.}$$

Demak, smenaning haqiqatdagi davomiyligi rejadagidan 0,35 soatga pasayishi, fond qaytimini 0,35 so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan.

Fond qaytimining o'zgarishiga bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun haqiqatdagi ko'rsatkichdan to'rtinchi shartli ko'rsatkichni chegirish kerak:

$$\pm\Delta FQ_{ABm} = ((Bk_1 \times Ks_1 \times D_1 \times Bm_1) : B_1) - ((Bk_1 \times Ks_1 \times D_1 \times Bm_0) : B_1) = 5,36 - 5,13 = + 0,23 \text{ so'm.}$$

Bundan ko'rinadiki, bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining rejaga nisbatan haqiqatda 1409 so'mga oshishi fond qaytimini 0,23 so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan.

Barcha omillar ta'sir darajalarining yig'indisi uskuna fond qaytimining umumiy o'zgarishi 0,34 so'mga teng bo'lishi lozim:

$$\pm\Delta FQ_A = (\pm\Delta FQ_{AB}) + (\pm\Delta FQ_{ABk}) + (\pm\Delta FQ_{AKC}) + (\pm\Delta FQ_{Ad}) + (\pm\Delta FQ_{ABm}) = = (+0,77) + (- 0,09) + (- 0,22) + (- 0,35) + (+ 0,23) = +0,34 \text{ so'm.}$$

Ushbu omillarning asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimiga ta'siri uskuna fond qaytimining n-omil hisobiga o'sib borishini asosiy vositalar aktiv qismining haqiqiy ulushiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun asosiy

ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining har bir omil hisobiga o'zgarishini asosiy vositalarning haqiqiy o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytirish zarur.

Mazkur omillarning asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'siri hisob-kitobini quyidagi jadval ko'rinishida keltirib o'tamiz (16.4-jadval). Unda har bir omilning ta'sir qilish darajasi aniq ko'rinadi va tegishli xulosa chiqarishimiz mumkin bo'ladi.

16.4-jadval
“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda fond qaytimini omilli tahlil qilish natijalari

№	Omillar	Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining o'zgarishi $yo\Delta FQ_I = \Delta FQ_{An} \times AU_1$	Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi $yo\Delta MH = \Delta FQ_{In} \times AVI_1$
1	Uskuna birligi o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi	$+0,77 \times 0,60 = +0,462$	$-0,462 \times 179800 = +83068$
2	Uskunani ishlagan kunlari sonining o'zgarishi	$-0,09 \times 0,60 = -0,054$	$-0,054 \times 179800 = -9709$
3	Uskuna ishining smenalik koeffitsiyentining o'zgarishi	$-0,22 \times 0,60 = -0,132$	$-0,132 \times 179800 = -23734$
4	Smena o'rtacha davomiyligini o'zgarishi	$-0,35 \times 0,60 = -0,21$	$-0,21 \times 179800 = -37758$
5	Bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi	$+0,23 \times 0,60 = +0,138$	$-0,138 \times 179800 = +24812$
	Jami	$+0,204$	$+36679$

16.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining va mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga uskunaning ishlagan kunlari soni, uskuna ishining smenalik koeffitsiyenti va smena o'rtacha davomiyligining o'zgarishi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati mazkur o'zgarishlar sabablarini o'rganishi va ularni bartaraf etish imkoniyatlarini izlab topishi lozim. Bunday imkoniyatlardan biri sifatida shuni aytish mumkinki, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda rejadan tashqari bekor turib qolishlarga yo'l qo'ymaslik hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni 71201 (9709 + 23734 + 37758)

ming soʻmga oshirish mumkin.

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi keyingi koʻrsatkich bu rentabellik koʻrsatkichi hisoblanadi. 16.2-jadval maʼlumotlariga koʻra asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligining haqiqiy darajasi rejadagidan 18,7 foizga past. Bunday oʻzgarishning yuzaga kelishiga asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimining va mahsulot rentabelligining oʻzgarishi taʼsir koʻrsatgan boʻlib, ularning taʼsir darajalarini “Mutlaq farqlar” usuli yordamida aniqlash mumkin. Mazkur usuldan foydalanilganda quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi:

1. Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligining oʻzgarishiga undagi asosiy vositalar qaytimining oʻzgarishini aniqlash uchun fond qaytimining haqiqiy darajasidan uning rejadagi darajasini chegirib, natijani mahsulot rentabelligining rejadagi koʻrsatkichiga koʻpaytirish lozim. Yaʼni:

$$\pm\Delta R_{fq} = \Delta FQ_I \times R_{M0} = (3,21 - 3,01) \times 18,6 = +3,79 \%$$

Demak, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar fond qaytimi haqiqatda rejaga nisbatan 0,2 soʻmga koʻpayishi, rentabellik darajasini 3,79 foizga oshishiga taʼsir koʻrsatgan.

2. Mahsulot rentabelligi darajasining oʻzgarishini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligining oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun haqiqatdagi fond qaytimi koʻrsatkichini mahsulot rentabelligining haqiqiy darajasidan rejadagi darajasini chegirishdan olingan natijaga koʻpaytirish kerak.

$$\pm\Delta R_{Rm} = FQ_{II} \times (R_{M1} - R_{M0}) = 3,21 \times (19,1 - 18,6) = +1,60 \%$$

Hisob-kitoblarga koʻra, mahsulot rentabelligi darajasining rejaga nisbatan haqiqatda 0,5 foizga ortishi, asosiy vositalar rentabelligi darajasini 1,60 foizga oshishiga taʼsir koʻrsatgan.

Shunday qilib, asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar rentabelligining oʻzgarishiga har ikki omil ham ijobiy taʼsir koʻrsatgan. Buning natijasida rentabellik darajasining rejaga nisbatan haqiqatda 5,39 foizga oshganligini koʻrishimiz mumkin.

Yuqoridagi 16.4-jadvalda fond qaytimining omilli tahlilida keltirilgan omillarning ham asosiy vositalar rentabelligi darajasiga ta'sirini hisob-kitob qilib o'rganish mumkin. Buning uchun n – omil hisobiga o'zgargan fond qaytimi ko'rsatkichini mahsulot rentabelligining rejadagi darajasiga ko'paytirish lozim. Mazkur hisob-kitobni quyidagi jadvalda keltiramiz (16.5-jadval).

16.5-jadval

“NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyatda asosiy vositalar rentabelligining omilli tahlili

№	Omillar	Fond qaytimining o'zgarishi, so'm	Omillar ta'siri hisob-kitobi $\pm\Delta R_{AVI} = \Delta FQ_{In} \times R_{M0}$	Asosiy vositalar rentabelligining o'zgarishi, %
1	Uskuna birligi o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi	+0,462	+0,462 × 18,6	+8,58
2	Uskunani ishlagan kunlari sonining o'zgarishi	- 0,054	- 0,054 × 18,6	-1,0
3	Uskuna ishining smenalik koeffitsiyentining o'zgarishi	- 0,132	- 0,132 × 18,6	-2,45
4	Smena o'rtacha davomiyligini o'zgarishi	- 0,21	- 0,21 × 18,6	-3,91
5	Bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi	+ 0,138	+ 0,138 × 18,6	+2,57
	Jami	+0,204	+ 0,204 × 18,6	+3,79

16.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy vositalar rentabelligi darajasinig o'zgarishiga uskuna birligi o'rtacha yillik qiymatining va bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, qolgan omillar uning o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, “NAMUNA” mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati uskunalarning rejadan tashqari butun ish kuni va smena ichida bekor turib qolishlarini qisqartirish va smenalilik koeffitsiyentini reja darajasiga ko'tarish choralarini ko'rishi lozim. Mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi asosiy vositalar rentabelligi darajasini 7,36 (1,0 + 2,45 + 3,91) foizga oshirish imkonini beradi.

16.3. Texnologik uskunalardan foydalanish darajasining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirining tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga texnologik uskunalardan foydalanish darajasining ta'sirini tahlil qilish uchun ularning soni, ish vaqti va quvvatini tavsiflaydigan ko'rsatkichlar tizimi qo'llaniladi. Mazkur ko'rsatkichlar ko'paytmasining natijasi mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalaydi. Uni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalashimiz mumkin:

$$MH = S \times Bk \times Ks \times D \times Bm, \quad (16.5)$$

Bunda: MH – mahsulot ishlab chiqarish hajmi; S – uskunalar soni; Bk – bir uskunaning ishlagan kunlari soni; Ks – bir uskuna ishining smenalik koeffitsiyenti; D – smenaning o'rtacha davomiyligi; Bm – bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Yuqoridagi matematik formuladan ko'rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga uskunalar sonining, bir uskunaning ishlagan kunlari sonining, bir uskuna ishining smenalik koeffitsiyentini, smenani o'rtacha davomiyligining va bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishlari bevosita ta'sir ko'rsatar ekan.

Ushbu omillarning mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini 16.2-jadval ma'lumotlaridan foydalanilgan holda “Zanjirli bog'lanish”, “Mutlaq va nisbiy farqlar” usullari yordamida hisob-kitob qilib o'rganish mumkin.

Agarda “Zanjirli bog'lanish” usuli orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitob qilib o'rganiladigan bo'lsa, u holda birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi shartli ko'rsatkichlar aniqlab olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining birinchi shartli ko'rsatkichini aniqlash uchun haqiqatdagi uskunalar sonini qolgan omillarning rejadagi ko'rsatkichlariga ko'paytirish lozim:

$$MH_{sh1} = S_1 \times Bk_0 \times Ks_0 \times D_0 \times Bm_0 = 5 \times 350 \times 2 \times 5,53 \times 32258 = 624354 \text{ ming so'm.}$$

Keyingi ikkinchi shartli ko'rsatkich uskunalar soni va bir uskunaning ishlagan kunlari sonining haqiqatdagi ko'rsatkichiga qolgan omillarning rejadagi ko'rsatkichini ko'paytirish orqali aniqlanadi:

$$MH_{sh2} = S_1 \times Bk_1 \times K_{S0} \times D_0 \times Bm_0 = 5 \times 345 \times 2 \times 5,53 \times 32258 = 615434 \text{ ming so'm.}$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining uchinchi shartli ko'rsatkichi uskunalarning haqiqiy soni, haqiqatda ishlangan kunlar soni, haqiqatdagi smenalik koeffitsiyenti va qolgan omillarning rejadagi darajasi bo'yicha hisobga olgan holda aniqlanadi:

$$MH_{sh3} = S_1 \times Bk_1 \times K_{S1} \times D_0 \times Bm_0 = 5 \times 345 \times 1,92 \times 5,53 \times 32258 = 590817 \text{ ming so'm.}$$

So'nggi to'rtinchi shartli ko'rsatkichini aniqlashda bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ko'rsatkichi reja bo'yicha qolgan omillarning esa haqiqatdagi ko'rsatkichi olinadi:

$$MH_{sh4} = S_1 \times Bk_1 \times K_{S1} \times D_1 \times Bm_0 = 5 \times 345 \times 1,92 \times 5,18 \times 32258 = 553423 \text{ ming so'm.}$$

Shundan so'ng, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalari hisob-kitob qilinadi. Jumladan, uskunar sonining o'zgarishini ta'sirini aniqlash uchun birinchi shartli ko'rsatkichdan rejadagi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm \Delta MH_S = (S_1 \times Bk_0 \times K_{S0} \times D_0 \times Bm_0) - (S_0 \times Bk_0 \times K_{S0} \times D_0 \times Bm_0) = 624354 - 500000 = +124354 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitoblardan ko'rinadiki, uskunar sonining rejaga nisbatan haqiqatda 1 donaga ko'payishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 124354 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga uskunani ishlagan kunlari sonini o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun ikkinchi shartli ko'rsatkichdan birinchi shartli ko'rsatkichni chegirish kerak:

$$\pm \Delta MH_{Bk} = (S_1 \times Bk_1 \times K_{S0} \times D_0 \times Bm_0) - (S_1 \times Bk_0 \times K_{S0} \times D_0 \times Bm_0) = 615434 - 624354 = -8920 \text{ ming so'm.}$$

Demak, uskunani ishlagan kunlari sonining rejaga nisbatan haqiqatda 5 kunga kamayishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 8920 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan.

Uskunadan foydalanish smenalik koeffitsiyentining o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uchinchi shartli

ko'rsatkichdan ikkinchi shartli ko'rsatkichni chegirish zarur:

$$\pm\Delta MH_{Ks} = (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_1} \times D_0 \times Bm_0) - (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_0} \times D_0 \times Bm_0) = 590817 - 615434 = -24617 \text{ ming so'm.}$$

Bu ko'rsatkich uskunadan foydalanishning smenalik koeffitsiyenti rejasiga nisbatan haqiqatda 0,08 koeffitsiyentga pasayishi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmining 24617 ming so'mga kamayganligidan dalolat beradi.

Keyingi omil, smenaning o'rtacha davomiyligining o'zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun to'rtinchi shartli ko'rsatkichdan uchinchi shartli ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm\Delta MH_D = (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_1} \times D_1 \times Bm_0) - (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_1} \times D_0 \times Bm_0) = 553423 - 590817 = -37394 \text{ ming so'm.}$$

Demak, smenaning haqiqatdagi davomiyligi rejadagidan 0,35 soatga pasayishi, mahsulot ishlab chiqarish hajmini 37394 ming so'mga kamayishiga ta'sir ko'rsatgan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun haqiqatdagi ko'rsatkichdan to'rtinchi shartli ko'rsatkichni chegirish kerak:

$$\pm\Delta MH_{Bm} = (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_1} \times D_1 \times Bm_1) - (S_1 \times Bk_1 \times K_{S_1} \times D_1 \times Bm_0) = 577720 - 553423 = +24297 \text{ ming so'm.}$$

Bundan ko'rinadiki, bir mashina-soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining rejaga nisbatan haqiqatda 1409 so'mga oshishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 24297 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, omilli tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mahsulot ishlab chiqarish rejasi uskunalar soni va bir mashina-soat davomida mahsulot ishlab chiqarilishining ko'payishi hisobiga oshirib bajarilgan. Uskunaning rejadan tashqari butun kun, smena ichida bekor turib qolishlari va smenalilik koeffitsiyentining pasayishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini 70931 (8920 + 24617 + 37394) ming so'mga yoki rejaga nisbatan 14,2 foizga kamayishiga sabab bo'lgan. Demak, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan

jamiyatda texnologik uskunalardan yanada samaraliroq foydalanish mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishning imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati texnologik uskunalardan yanada samarali foydalanish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi lozim.

16.4. Nomoddiy aktivlardan foydalanish tahlili

"Nomoddiy aktivlar" nomli 7-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)ga muvofiq nomoddiy aktivlar – bu korxonadan tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlaridir.

Nomoddiy aktivlarning ta'rifi aktivdan xo'jalik faoliyatida foydalanilishini va u moddiy mohiyatga ega bo'lmasligini talab etadi. Moddiy mohiyatga ega bo'lmagan (pul mablag'lari ko'rinishida bo'lmagan) aktivlar, agarda yuridik huquqlar, jumladan mulk huquqi bilan o'zaro munosabatda bo'lishi mumkin bo'lgan va ulardan uzoq muddat davomida foydalanilgan taqdirda nomoddiy aktivlar ta'rifiga javob beradi. Shuningdek, aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda bir vaqtning o'zida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- moddiy-ashyoviy tuzilish (shakl)ga ega bo'lmasligi;
- aktivlardan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoxud korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalari uchun uzoq muddat, ya'ni davomiyligi 12 oydan yuqori foydali xizmat muddati yoki agar u 12 oydan oshadigan bo'lsa, oddiy operasion sikl mobaynida foydalanish;
- korxonadan ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallamaydi;
- ishonchlilik, ya'ni korxonada aktiv va unga bo'lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz

kechish (sotib olish) shartnomasi)ning mavjudligi;

- korxonadan boshqa aktivlardan identifikatsiyalash (bo'lish, ajratish) imkoniyati, ya'ni aktivni undan foydalaniladigan xo'jalik faoliyatidan alohida foydalanishning mumkin bo'lishi.

Mazkur shartlarga javob beruvchi quyidagi obyektlar nomoddiy aktivlar tarkibiga kiritiladi: patent egasining ixtiro, sanoat namunalari va foydali modellarga bo'lgan mutlaq huquqi; muallif yoki boshqa huquq egasining EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalariga bo'lgan mutlaq huquqi; muallif yoki boshqa huquq egasining integral mikroxejalarning topologiyalariga bo'lgan mutlaq huquqi; huquq egasining tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisiga bo'lgan mutlaq huquqi, shuningdek tovar ishlab chiqarilgan joy nomidan foydalanish huquqi; huquq egasining seleksiya yutuqlariga bo'lgan mutlaq huquqi; gudvill; tabiiy resurslardan foydalanish huquqi, ya'ni yer osti boyliklari, atrof-muhitdagi boshqa resurslar, atrof-muhit to'g'risidagi geologik va boshqa ma'lumotlar hamda shu kabilardan foydalanish huquqi; mol-mulkdan foydalanish huquqi, ya'ni yer uchastkalari, binolar va shu kabilardan foydalanish huquqi; boshqa nomoddiy aktivlar (mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, iqtisodiy va boshqa imtiyozlardan foydalanish huquqi va shu kabilardan).

Nomoddiy aktivlar buxgalteriya balansi aktiv qismi "Uzoq muddatli aktivlar" bo'limining "Nomoddiy aktivlar" moddasida aks ettiriladi. Shu bois, buxgalteriya balansi nomoddiy aktivlarni tahlil qilib o'rganishda asosiy axborot manbalaridan biri hisoblanadi. Buxgalteriya balansida xo'jalik yurituvchi subyektda mavjud nomoddiy aktivlarning umumiy boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan eskirishi va qoldiq qiymati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Lekin, nomoddiy aktivlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlil qilib o'rganishda ushbu ma'lumotlar yetarli hisoblanmaydi. Shu sababli, nomoddiy aktivlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan schyot ma'lumotlaridan ham foydalanish zarur hisoblanadi.

Yuqoridagi axborot manbalaridan foydalanilgan holda xo'jalik yurituvchi

subyektning nomoddiy aktivlardan foydalanish darajasi tahlil qilib o‘rganiladi. Bunda dastlab, nomoddiy aktivlar holati tahlil qilib o‘rganiladi. Nomoddiy aktivlar holati tahlil qilib o‘rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (16.6-jadval).

16.6-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda nomoddiy aktivlar holatining tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘zgarishi (+;-)	O‘zgarish sur’ati, %
1	Balans aktivi, ming so‘m	819826	867457	+47721	105,8
2	Nomoddiy aktivlar, ming so‘m	98379	106331	+7952	108,1
3	Nomoddiy aktivlar eskirishi, ming so‘m	24595	31899	+7304	130
4	Balans aktivi tarkibida nomoddiy aktivlarning salmog‘i, % (2 / 1 x 100)	12	12,2	+0,2	101,7
5	Nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti (3 / 2)	25	30	+5	120

16.6-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda nomoddiy aktivlarning umumiy hajmi hisobot yilida o‘tgan yilga nisbatan 5,8 % ga ko‘paygan. Bunga mos ravishda nomoddiy aktivlarning eskirishi ham 30 % ga oshgan. Natijada nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti 25 koeffitsiyentdan 30 koeffitsiyentgacha yoki 20 % ga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan ko‘rinadiki, jamiyatda nomoddiy aktivlarning holatidagi o‘zgarish o‘tgan yilga nisbatan yomonlashgan.

Balans aktivi tarkibida nomoddiy aktivlarning salmog‘i 1,7 % ga oshgan. Bu ham nomoddiy aktivlarning o‘tgan yilga nisbatan hisobot yilida 7952 ming so‘mga ko‘payishi hisobiga to‘g‘ri keladi. Agarda jamiyatning nomoddiy aktivlari 7952 ming so‘mga oshmaganda edi, uning balans aktivi tarkibidagi salmog‘ida yil boshiga nisbatan yil oxirida kamayish kuzatilar edi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, nomoddiy aktivlarning holati tahlil qilib o‘rganilar ekan, uning tarkibiy tuzilishidagi o‘zgarishlarni o‘rganmasdan nomoddiy aktivlar holatidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Shu sababli, tahlilning keyingi bosqichida nomoddiy aktivlar tarkibi, tuzilishi va

dinamik o'zgarishlari tahlil qilib o'rganiladi.

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat ma’lumotlari asosida nomoddiy aktivlar tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlari tahlil qilib o'rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo'lindi (16.7-jadval)

16.7-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda nomoddiy aktivlar tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlarining tahlili

№	Nomoddiy aktivlar tarkibi	O'tgan yil		Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)	
		Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i, %	Mutlaq, ming so'm	Sal-mog'i, %
1	Sanoat namunasi	45279	46,0	45279	42,6	-	-3,4
2	Savdo markalari	29824	30,3	29824	28,0	-	-2,3
3	Dasturiy ta'minot	8075	8,2	11675	11,0	+3600	+2,8
4	Intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi	11789	11,9	14461	13,6	+2672	+1,7
5	Boshqa nomoddiy aktivlar	3412	3,6	5092	4,8	+1680	+1,2
	Nomoddiy aktivlar jami	98379	100	106331	100	+7952	-

16.7-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatning nomoddiy aktivlari o'tgan yilga nisbatan 7952 ming so'mga ko'paygan. Bunday o'zgarishni ijobiy baholagan holda nomoddiy aktivlar tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning tarkibida asosiy salmoqni sanoat namunasi va savdo markalari egallab turibdi. Ya'ni, sanoat namunasi o'tgan yilda 46 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 42,6 % ga teng bo'lgan. Savdo markalarining salmog'i esa o'tgan yili 30,3 % bo'lgan bo'lsa, hisobot yilida 28 % ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki, sanoat namunasi va savdo markalarining salmog'ida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatilgan. Biroq, ularning qiymatida o'zgarish bo'lmagan.

Nomoddiy aktivlar tarkibida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan dasturiy ta'minot 3600 ming so'mga, intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqi 2672 ming so'mga va boshqa nomoddiy aktivlar 1680 ming so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur nomoddiy aktivlarning ko'payishi natijasida jamiyatning nomoddiy aktivlari o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 7952 ming so'mga ortgan. Albatta, bunday natijalarni ijobiy holat sifatida baholash

mumkin. Ammo, mazkur o'zgarishlar qanday samara berganligi "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, nomoddiy aktivlardan foylanish samaradorligini tahlil qilib o'rganish lozim.

Nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bu nomoddiy aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich bir so'mlik nomoddiy aktiv hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Mazkur ko'rsatkich va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (16.8-jadval).

16.8-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligining tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yilidagi sof foyda va o'tgan yildagi nomoddiy aktivlar qiymati	Hisobot yili	O'zgarishi (+;-)	Shu jumladan omillar ta'siri	
						Sof foyda miqdori-ni o'zgarishi hisobiga	O'rtacha yillik qiymati-ni o'zgarishi hisobiga
1	Sof foyda, ming so'm	20500	30262	30262	+9762	x	x
2	Nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	98379	98379	106331	+7952	x	x
3	Nomoddiy aktivlar rentabelligi, %	20,8	30,8	28,5	+7,7	+10	-2,3

16.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat nomoddiy aktivlari rentabelligi o'tgan yil 20,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich hisobot yilida 28,5 % ga teng bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, rentabellik ko'rsatkichi hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 7,7 % ga ko'paygan. Bunday natijani ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Endi, mazkur o'zgarishga omillar ta'sirini o'rganadigan bo'lsak, birinchi omil, sof foyda

miqdorining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 9762 ming so'mga ko'payishi, mazkur rentabellik ko'rsatkichi darajasini 10 % ga oshishiga olib kelgan:

$$30,8 \% - 20,8 \% = + 10 \%$$

Ikkinchi omil, nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatining hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 7952 ming so'mga ko'payishi, rentabellik darajasini 2,3 % ga pasayishiga ta'sir ko'rsatgan:

$$28,5 \% - 30,8 \% = - 2,3 \%$$

Mazkur omillarning ta'siri natijasida nomoddiy aktivlar rentabelligi darajasi o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 7,7 foizga ko'paygan. Tahlil natijalariga ko'ra, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda nomoddiy aktivlar rentabelligi darajasini oshirishning asosiy imkoniyatlari bo'lib, sof foyda miqdori hisoblanar ekan. Shu sababli, jamiyat rahbariyati sof foyda miqdorini yanada ko'paytirish choralarini ko'rishi lozim.

16.5. Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida qayta ishlash korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, uning tannarxini kamaytirish, foyda va rentabellik ko'rsatkichlarni oshirishga doir rejalar bajarilishining zarur sharti bo'lib, yetarli assortiment va sifatga ega bo'lgan xomashyo va materiallar bilan to'la va o'z vaqtida ta'minlashdir. Chunki, qayta ishlash korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijasi va samaradorligi bevosita ularning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi korxonada mavjud moddiy resurslarning haqiqiy hajmini (miqdorini) normativ bo'yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi tahlili taqqoslash, ko'rsatkichlar farqi, qayta hisoblash va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Dastlab, tahlilda ularning umumiy o'zgarishi aniqlanadi, shundan so'ng mazkur o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan omillarning ta'sir

darajalari hisob-kitob qilish orqali aniqlanib, moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga baho beraladi. Bunda mol yetkazib beruvchilardan olingan materiallarning sifati, ularning standartlari, texnik talablarga muvofiqligi va shartnomada belgilangan tomonlarning huquq va majburiyatlari ham o'rganiladi.

Tahlilning keyingi bosqichida moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilib o'rganiladi. Ushbu ko'rsatkichlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- moddiy resurslar qaytimi;
- moddiy resurslar sig'imi;
- moddiy resurslar rentabelligi.

Moddiy resurslar qaytimi deganda bir so'mlik moddiy xarajatlar hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi tushuniladi. Bu ko'rsatkichning darajasi qancha katta bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini sarflangan moddiy xarajatlar hajmiga bo'lish kerak:

$$MQ = YaM : MX, \quad (16.6)$$

Bunda: MQ- material qaytimi; YaM – ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi; MX – moddiy xarajatlar hajmi.

Moddiy resurslar sig'imi ko'rsatkichi moddiy resurslar qaytimining aksini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, bir so'mlik ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar summasini ifodalaydi. Bunda mazkur ko'rsatkich qancha past bo'lsa, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Ya'ni, 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi shuncha oshib boradi. Bu esa, korxonada moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligining ortishiga olib keladi.

Bu ko'rsatkich mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlar hajmini ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$MS = MX : YaM, \quad (16.6)$$

Bunda: MS- material sig'imi.

Moddiy resurslar rentabelligi ko'rsatkichi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning har bir so'mi hisobiga olingan foyda summasini ifodalaydi. Bu ko'rsatkichning ham yuqori bo'lishi korxonada moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortganligidan dalolat beradi. Ya'ni, 1 so'mlik moddiy xarajat hisobiga olingan foydaning oshishi, korxonada moliyaviy ahvolidan ham mustahkamlanishiga sababchi bo'ladi.

Mazkur ko'rsatkichni aniqlash uchun mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan moddiy xarajatlarning summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$MR = YaF : MX, \quad (16.7)$$

Bunda: MR- moddiy resurslar rentabelligi; YaF – mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda.

Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi yuqoridagi ko'rsatkichlarni "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlari asosida tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (16.9-jadval).

16.9-jadval

"NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili

No	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1	Yalpi mahsulot hajmi, ming so'm	500000	577720	+77720
2	Moddiy xarajatlarning hajmi, ming so'm	150000	175627	+25627
3	Yalpi foyda, ming so'm	93200	106878	+13678
4	Material qaytimi, so'm	3,33	3,29	-0,04
5	Material sig'imi, so'm	0,300	0,304	+0,004
6	Moddiy resurslar rentabelligi, %	62,1	60,8	-1,3

16.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 77720 ming so'mga ko'paygan bo'lsa, bunga mos ravishda moddiy xarajatlarning hajmi ham 25627 ming so'mga ko'paygan. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda ko'rsatkichi ham rejaga nisbatan haqiqatda 13678 ming so'mga

ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, barcha ko'rsatkichlar rejaga nisbatan haqiqatda yomonlashgan. Bunga asosan moddiy xarajatlar hajmining rejaga nisbatan haqiqatda ko'payishi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday natijalar "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Shu sababli, jamiyat rahbariyati yalpi mahsulot hajmini oshirish va moddiy xarajatlar hajmini kamaytirish choralarini ko'rishi lozim. Chunki, mazkur omillar korxonada moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi birlamchi omillar hisoblanadi.

Endi, material qaytimi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 16.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jamiyatda material qaytimi ko'rsatkichi haqiqatda rejaga nisbatan 0,04 so'mga kamaygan. Mazkur o'zgarish quyidagi birlamchi omillar ta'siri natijasida yuzaga kelgan:

- yalpi mahsulot hajmining o'zgarishi;
- moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi.

Ushbu omillarning material qaytimining o'zgarishiga ta'sirni "Qayta hisoblash" usuli orqali aniqlash mumkin. Bunda dastlab, material qaytimini qayta hisoblab olish lozim. Buning uchun birinchi omilning haqiqiy (hisobot yili) miqdorini (YaM_1) ikkinchi omilning reja (o'tgan yil)dagi miqdoriga (MX_0) bo'lish lozim. Ya'ni:

$$MQ_{qh} = YaM_1 : MX_0$$

Shundan so'ng, material qaytimining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash mumkin.

Mazkur usul yordamida "NAMUNA" mas'uliyati cheklangan jamiyat ma'lumotlaridan foydalanib, material qaytimi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (16.10-jadval).

16.10-jadval

“NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyatda material qaytimi va uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Qayta hisoblangan	O‘zgarishi (+;-)	shu jumladan	
						yalpi mahsulot hajmi o‘zgarishi hisobiga	moddiy xarajat hajmi o‘zgarishi hisobiga
1	Yalpi mahsulot hajmi, ming so‘m	500000	577720	577720	+77720	x	x
2	Moddiy xarajat-lar, ming so‘m	150000	175627	150000	+25627	x	x
3	Material qaytimi, so‘m	3,33	3,29	3,85	-0,04	+0,52	-0,56

16.10-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, materiallar qaytimi (1 so‘mlik xarajat hisobiga olingan mahsulot hajmi) haqiqatda rejaga nisbatan 0,04 so‘mga yoki 1,2 % ga kamaygan. Mazkur o‘zgarish ikki omil ta’siri natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, birinchi omil, yalpi mahsulot hajmining haqiqatda rejaga nisbatan 77720 ming so‘mga ko‘payishi, material qaytimini 0,52 so‘mga oshirgan. Ya’ni, 1 so‘mlik material xarajati hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi 0,52 so‘mga ko‘paygan:

$$3,85 - 3,33 = +0,52 \text{ so‘m}$$

Ikkinchi omil, moddiy xarajatlarning hajmining haqiqatda rejaga nisbatan 25627 ming so‘mga ko‘payishi, material qaytimi darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, uning 0,56 so‘mga kamayishiga ta’sir ko‘rsatgan:

$$3,29 - 3,85 = -0,56 \text{ so‘m}$$

Demak, “NAMUNA” mas’uliyati cheklangan jamiyat rahbariyati material qaytimi darajasini oshirish uchun moddiy xarajatlarning hajmini kamaytirish choralarini ko‘rish lozim.

Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi boshqa ko‘rsatkichlar va ularning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ham tegishli tahlil usullaridan foydalangan holda yuqoridagi kabi tahlil qilib o‘rganiladi. Shuningdek, mazkur ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga omillar ta’sirini birlamchi omillardan kelib chiqqan holda ikkilamchi omillar ta’sirini ham tahlil qilib

o'rganish mumkin. Masalan, material qaytimining o'zgarishiga birlamchi omil sifatida yalpi mahsulot hajmi ta'sir ko'rsatishini ko'rib chiqdik. Yalpi mahsulot hajmi birlamchi omil sifatida o'z navbatida quyidagi ikki omil ta'siri natijasida o'zgaradi: ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi; mahsulot birligi bahosining o'zgarishi.

Chunki, mazkur omillar ko'paytmasi yalpi mahsulot hajmiga teng bo'ladi.

Shuningdek, material qaytimining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir birlamchi omil moddiy xarajatlar hajmi quyidagi ikkilamchi omillar ta'siri natijasida o'zgaradi: ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi; bir birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan moddiy resurs miqdorining o'zgarishi; bir birlik moddiy resurs qiymatining o'zgarishi.

Bunday tartibda moddiy resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'zgarishiga omillar ta'sirini tahlil qilib o'rganish, korxonada moddiy resurslardan foydalanish darajasiga xolisona baho berish va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qayta ishlash korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanish va qurollanish darajasi qanday tahlil qilib o'rganiladi?
2. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar asosida aniqlanadi va ular qanday tahlil qilib o'rganiladi?
3. Fond qaytimi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanday tahlil qilinadi?
4. Asosiy vositalar rentabelligi va uni omilli tahlil qilish tartibini tushuntirib bering?
5. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga texnologik uskunalardan foydalanish darajasining ta'siri qanday tahlil qilib o'rganiladi?
6. Nomoddiy aktivlar tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday tahlil etiladi?
7. Nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali

ifodalanadi?

8. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi qanday aniqlanadi va tahlil qilib o'rganiladi?
9. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi qanday ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?
10. Material qaytimi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar qanday tahlil qilinadi?

NAZORAT TESTLARI

1. Korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

- A) Bu ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha xodimlar soniga bo'lish orqali aniqlanadi
- B) Bu ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha xodimlar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi
- C) Bu ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha xodimlar sonini ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga ko'paytirish orqali aniqlanadi
- D) Bu ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha xodimlar sonini ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

2. Asosiy vositalar bilan qurollanish darajasining o'zgarishiga qanday birlamchi omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati va ishlab chiqarishda foydalanayotgan uskunalarning sonining o'zgarishi
- B) Korxonada mavjud asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati va xodimlar sonining o'zgarishi

C) Korxonada mavjud ko'chmas mulk obyektlarining o'rtacha yillik qiymati va ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi

D) Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati va ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar sonining o'zgarishi

3. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?

A) Tannarx, foyda, yalpi foyda va asosiy vositalar rentabelligi

B) Fond qaytimi, fond sig'imi va asosiy vositalar rentabelligi

C) Asosiy vositalar rentabelligi, material qaytimi va sof foyda

D) Fond qaytimi, o'rtacha yillik qiymati va asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi

4. Fond qaytimi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Bu ko'rsatkich ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

B) Bu ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan foyda summasini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

C) Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatini mahsulot sotishdan olingan foyda summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

5. Fond sig'imi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Bu ko'rsatkich ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

B) Bu ko'rsatkich mahsulot sotishdan olingan foyda summasini asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

C) Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatini ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Bu ko'rsatkich asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar o'rtacha yillik

qiymatini mahsulot sotishdan olingan foyda summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

6. Nomoddiy aktivlarning eskirish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- A) Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymatini nomoddiy aktivlar eskirish summasiga bo'lish orqali aniqlanadi
- B) Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatini nomoddiy aktivlar eskirish summasiga bo'lish orqali aniqlanadi
- C) Nomoddiy aktivlar eskirish summasini nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi
- D) Nomoddiy aktivlar eskirish summasini nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi

7. Nomoddiy aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?

- A) Sof foyda summasini nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi
- B) Yalpi foyda summasini nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi
- C) Nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatini sof foyda summasiga bo'lish orqali aniqlanadi
- D) Nomoddiy aktivlar o'rtacha yillik qiymatini yalpi foyda summasiga bo'lish orqali aniqlanadi

8. Moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi qanday aniqlanadi?

- A) Korxonada mavjud moddiy resurslarning haqiqiy hajmini (miqdorini) normativ bo'yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi
- B) Korxonada mavjud moddiy resurslarning haqiqiy hajmini (miqdorini) reja bo'yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi
- C) Korxonada mavjud moddiy resurslarning rejadagi hajmini (miqdorini) normativ bo'yicha talab qilinadigan hajmiga (miqdoriga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi
- D) Korxonada mavjud moddiy resurslarning rejadagi hajmini (miqdorini) omborda mavjud hajmiga (miqdoriga) bo'lish yo'li bilan aniqlanadi

9. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar orqali

ifodalanadi?

- A) Material qaytimi, o'rtacha yillik qiymati va asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi
- B) Material qaytimi, material sig'imi va moddiy resurslar rentabelligi
- C) Moddiy resurslar rentabelligi, material qaytimi va sof foyda
- D) Tannarx, yalpi foyda va moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi

10. Material qaytimining o'zgarishiga qanday birlamchi omillar ta'sir ko'rsatadi?

- A) Yalpi mahsulot hajmi va moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi
- B) Yalpi foyda hajmi va moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi
- C) Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, bir birlik mahsulotning sotish bahosi va moddiy xarajatlar hajmining o'zgarishi
- D) Yalpi mahsulot hajmi, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va bir birlik mahsulotning o'rtacha sotish bahosining o'zgarishi

XVII BOB. TA'MINOT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI TAHLIL QILISHNING XUSUSIYATLARI

17.1 Ta'minot tashkilotlarida tovar aylanmasining tahlili


17.1.1. Ta'minot tashkilotlarida tovar aylanmasi tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ga muvofiq barcha tarmoq va sohalarda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Jumladan, bu o'zgarishlar agrar sohada faoliyat yuritayotgan ta'minot tashkilotlariga ham bevosita daxldor hisoblanadi.

Ta'minot tashkilotlari ishlab chiqaruvchi korxonalaridan tovarlarni tuzilgan shartnomalar asosida belgilangan narxlarda sotib olib, iste'molchilarga shartnomalarda ko'rsatilgan miqdorda va qiymatda o'z vaqtida yetkazib berish faoliyati bilan shug'ullanadi. Ya'ni, ularning asosiy faoliyati turi ta'minot faoliyati hisoblanadi. 2018 yil oxiriga respublikamizda 3040 ta ta'minot tashkilotlari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, shundan 844 tasi meniral o'g'it sotish shaxobchalari hisoblanadi. Ularning viloyatlar kesimi bo'yicha joylashuvini quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, ta'minot tashkilotlari fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga nihoyatda zarur bo'lgan mineral o'g'it, yoqilg'i moylash mahsulotlari va texnika xizmatlarini ko'rsatmoqda. Afsuski, ko'pgina ta'minot tashkilotlari faoliyati bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bermaydi. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «... fermer, dehqon xo'jaliklariga yoqilg'i-moylash mahsulotlari, mineral o'g'itlar, urug'lik yetkazib berish, kasallik va zararkunandalarga qarshi

kurash ishlari talab darajasida tashkil etilmagan. Bu ham haqiqat.»⁶⁶ deb ta’kidlab o’tganlar. Mazkur muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun ta’minot tashkilotlari faoliyati tahlilini to’g’ri yo’lga qo’yish va uning uslublarini takomillashtirish zarurati vujudga kelmoqda. Chunki, xo’jalik jarayonlarini tahlil qilib o’rganish mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo’yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, ta’minot tashkilotlarida tovar aylanmasi hajmini ko’paytirish, tannarx darajasini pasaytirish va foyda hajmini oshirish bo’yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash hamda ularni moliyaviy-xo’jalik faoliyatiga jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish imkoniyatini paydo qiladi.



17.1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlar kesimida mineral o‘g‘itlar sotish bo‘yicha ta’minot tashkilotlari dinamikasi⁶⁷

Ta’minot tashkilotlari faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri tovar aylanmasining hajmi hisoblanadi. Tovlar aylanmasi – hisobot davrida sotilgan, joriy baholardagi kabi taqqoslama baholarda ham ifodalanishi mumkin bo‘lgan barcha sotilgan tovarlarning qiymati. Bu ko‘rsatkich ta’minot tashkiloti moliyaviy-xo’jalik faoliyatining hajmi to‘g‘risida umumiy

⁶⁶Sh.M.Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faolligimizga berilgan eng oliy bahodir» «O‘ZBYEKISTON» NMIU, 2018. – 56 b.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan

tasavvur beradi.

Tahlilning maqsadi – bu ta’minot tashkilotlari faoliyatini o’rganish asosida tovar aylanmasi hajmiga baho berish va uni oshirish bo’yicha mavjud imkoniyatlarni topish hamda ularni moliyaviy-xo’jalik faoliyatiga jalb qilish yo‘llarini ko‘rsatish hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan tahlilning asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- tovar aylanmasi va alohida tovar guruhlari bo’yicha reja bajarilishiga baho berish hamda o‘zgarish sabablarini omilli tahlil qilish;
- tovar aylanmasi va alohida tovar guruhlari bo’yicha dinamikasi o‘zgarishini o’rganish hamda omilli tahlil qilish;
- tovar aylanmasi hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va ularni moliyaviy-xo’jalik faoliyatiga jalb qilish bo’yicha tavsiyalar berish.

Tahlil natijalarining to‘g‘ri va aniq shakllanishi, uning axborot manbalariga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ta’minot tashkilotlari tovar aylanmasini tahlil qilishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

- biznes reja ma’lumotlari;
- «Buxgalteriya balansi» (1-shakl);
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl);
- statistik hisobot ma’lumotlari;
- tahlil uchun zarur bo‘ladigan boshqa hisob va hisobdan tashqari ma’lumotlar (dastlabki va yig‘ma hujjatlar ma’lumotlari, analitik va sintetik schyotlar ma’lumotlari, tezkor hisob ma’lumotlari, vakolatli davlat organlarining taftish ma’lumotlari).

17.1.2. Tovar aylanishi rejasi bajarilishining tahlili

Tovar aylanmasi rejasining bajarilishini o’rganish birinchi navbatda tovar aylanmasining haqiqiy hajmini rejada belgilangan hajmiga taqqoslash orqali o‘zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Ya’ni, hisobot davridagi tovar aylanmasining

haqiqiy hajmidan rejadagi hajmini chegirish orqali uning o'zgarishi aniqlanadi. Shu bilan birga, tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tovarlarning har bir turi bo'yicha ham o'rganiladi. Chunki, tahlil natijalari asosida tovarlarning qaysi turlari bo'yicha talab qondirilmaganligi, qaysi tovarlarga nisbatan talab yuqori bo'lmaganligini ko'rsatib berish lozim. Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» aksiyadorlik jamiyati (AJ) ta'minot tashkiloti hisoblanganligi va asosiy faoliyat turi ta'minot faoliyati ekanligini hisobga olgan holda shartli ko'rsatkichlar asosida tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.1-jadval).

17.1-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi rejasi bajarilishining taqqoslama tahlili

№	Tovar turlari	Hisobot yili		Rejaga nisbatan o'zgarishi (+;-)	
		Reja	Haqiqatda	Mutlaq summada	Foizda
1	Jami tovar aylanishi, ming so'm	2213970	2363360	+149390	+6,7
	Shu jumladan, tovar turlari bo'yicha:				
1.1	Karbamid	75410	79880	+4470	+6,0
1.2	Ammofos	282380	270900	-11480	-4,1
1.3	Azot	967500	1074920	+107420	+11,1
1.4	Fosfor	745000	774300	+29300	+4,0
1.5	Boshqa mineral o'g'itlar	143680	163360	+19680	+13,7

17.1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda hisobot yilida tovar aylanmasining haqiqiy hajmi 2363360 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich rejada 2213970 ming so'm bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda hisobot yilidagi tovar aylanmasi rejasining hajmi haqiqatda 149390 ming so'mga yoki 6,7 foizga oshgan. Albatta, bunday natijani jamiyat uchun ijobiy holat sifatida baholash mumkin. Shuningdek, 17.1-jadval ma'lumotlaridan qaysi tovar turlari bo'yicha tovar aylanmasi rejasi oshirib bajarilganligi, qaysilari bo'yicha esa bajarilmaganligini ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, karbamid, azot, fosfor va boshqa mineral o'g'itlar bo'yicha tovar aylanmasi rejasi oshirib bajarilgan bo'lsa, ammfos

bo'yicha tovar aylanmasi rejası 11480 ming so'mga yoki 4,1 foizga kam bajarilganligini ko'rishimiz mumkin.

Tovar turlari bo'yicha tovar aylanmasi rejasidagi bunday o'zgarishlar (ayrim tovarlar turlari bo'yicha tovar aylanmasi rejasining bajarilmaganligi va boshqa tovar turlari bo'yicha oshirib bajarilganligi) tovar aylanmasi strukturasi o'zgarishiga olib keladi, ya'ni ayrim tovarlar ulushi ko'payadi, boshqalariniki esa kamayadi. Bunday holat ta'minot tashkilotining yalpi daromadiga, sotish xarajatlariga, foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, assortiment tarkibi bo'yicha tovar aylanmasi strukturasi qanday o'zgarishlar sodir bo'lganligini o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish lozim.

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJning tovar aylanmasi strukturasi o'zgarishlari tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.2-jadval).

17.2-jadval

«Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi strukturasi tahlili

№	Tovar turlari	Hisobot yili		O'zgarishi (+;-)
		Reja	Haqiqatda	
1	Karbamid	3,0	3,0	-
2	Ammofos	13,0	11,0	-2
3	Azot	44,0	46,0	+2
4	Fosfor	34,0	33	-1
5	Boshqa mineral o'g'itlar	6,0	7,0	+1
6	Jami:	100	100	-

17.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi strukturasi tarkibida asosiy ulushni ammos, azot va fosfor kabi mineral o'g'itlar egallamoqda. Jumladan, hisobot yilida tovar aylanmasi rejasida ammos 13 foiz, azot 44 foiz va fosfor 34 foiz belgilangan bo'lsa, bu tovar turlari haqiqatda ham jami tovar aylanmasi hajmida asosiy ulushni tashkil etmoqda. Ya'ni, ammos 11 foiz, azot 46 foiz va fosfor 33 foiz.

Tovar aylanmasi strukturasi asosiy ulushga ega bo'lgan tovar turlaridan, ammos haqiqatda rejaga nisbatan 2 foizga va fosfor 1 foizga kamaygan bo'lsa,

azotning ulushi 2 foizga ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshqa tovar turlari tarkibida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmagan.

Umuman olganda, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi strukturasi hisobot yili rejasida va haqiqatda ham ammos, azot va fosfor kabi mineral o‘g‘itlar salmog‘ining yuqori bo‘lishi, bu mazkur mineral o‘g‘itlarga nisbatan talab hajmining ko‘pligi, yuqori savdo ustamasining belgilanganligi va sotish rentabelligi darajasi yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Shu sababli, tovar aylanmasi strukturasi bunday o‘zgarishlar Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari sotish yo‘nalishlari hamda ko‘rinishi bo‘yicha ham tovar aylanmasi hajmi va uning strukturasi rejasini bajarilishi tahlil qilinadi (17.3-jadval).

17.3-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ tovar aylanmasining tovarlarni sotish ko‘rinishi bo‘yicha tahlili

№	Sotish yo‘nalishlari	Tovar aylanmasi, ming so‘m			Tovar aylanmasi strukturasi, %		
		Reja	Haqiqatda	Rejaga nisbatan o‘sishi, %	Reja	Haqiqatda	O‘zgarishi (+;-)
1	Ulgurji savdo	2213970	2363360	106,7	100	100	-
1.1	Ombordan	1549779	1772520	114,4	70	75	+5
1.2	Yetkazib berish yo‘li bilan	664191	590840	88,9	30	25	-5

17.3-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ ulgurji savdo yo‘nalishi bo‘yicha tovarlarni xaridorlarga sotgan bo‘lib, uning tovar aylanmasi rejasini 2213970 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, haqiqatda bu ko‘rsatkich 2363360 ming so‘mga teng bo‘lgan. Jamiyatda xaridorlarga tovarlarni sotish ikki xil ko‘rinishda ombordan va yetkazib berish sharti bo‘yicha amalga oshirilgan.

17.3-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, jamiyat tovarlarni ombordan sotish hajmini ko‘proq belgilagan va bu ko‘rsatkich haqiqatda rejaga nisbatan 5 foizga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday sotish ko‘rinishining tanlanishi xaridorlarga tovarlarni yetkazib berish katta xarajatlarni talab etishi va bu jamiyat

uchun foydasizligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Tovar aylanmasi rejasining bajarilishini tahlil qilish faqat bir yil uchun emas, balki chorak, oy va o‘n kunliklar bo‘yicha ham amalga oshiriladi. Bu albatta, ta‘minot tashkilotining qanchalik barqaror faoliyat yuritayotganligini aniqlashga yordam beradi (17.4-jadval).

17.4-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJning ish maromiyligi tahlili

Yil choraklari	Tovar aylanma hajmi, ming so‘m		Tovar aylanma hajmining salmog‘i, %		
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	O‘zgarishi, %
I	442794	401771	20	17	-3
II	664191	886260	30	37,5	+7,5
III	664191	808269	30	34,2	+4,2
IV	442794	267060	20	11,3	-8,7
Jami:	2213970	2363360	100	100	-

Tovar aylanmasining barqarorligi bo‘yicha rejasining bajarilishida i-chi davr uchun tovar aylanmasining haqiqiy ulushi qabul qilinadi. Bunda olingan davr rejadagidan oshmasligi lozim.

17.4-jadval ma‘lumotlari asosida Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJning ish maromiyligiga baho berish mumkin. Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, jamiyatning ish maromiyligi koeffitsiyenti quyidagicha bo‘lgan:

$$K_m = 0,17 + 0,30 + 0,30 + 0,11 = 0,88$$

Yuqoridagi hisob-kitobdan ko‘rinadiki, ta‘minot tashkiloti ish maromiyligining buzilishiga hisobot yilining birinchi choragida belgilangan rejasining 3 foizga yoki 41023 (401771 - 442794) ming so‘mga va to‘rtinchi choragida rejaning 8,7 foizga yoki 175734 (267060 - 442794) ming so‘mga bajarilmaganligi sabab bo‘lgan. Buning natijasida ta‘minot tashkilotining ish maromiyligi 0,12 (1-0,88) koeffitsiyentga bajarilmagan. Ya‘ni, ishning maromiy emasligi koeffitsiyenti 0,12 ga teng bo‘lgan. Bunday ko‘rsatkichni ijobiy holat sifatida baholab bo‘lmaydi. Shu sababli, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ rahbariyati ish maromiyligini buzilishini oldini olish choralari ko‘rishi lozim. Chunki, bunday tartibda ish maromiyligining buzilishi shartnomaviy

majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga, iqtisodiy jarimalar qo'llanilishiga va mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shundan so'ng, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri tahlil qilib o'rganiladi. Ma'lumki, tovar aylanmasi (TA) hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar bu sotilgan tovarlarning fizik miqdori va bahosi hisoblanadi. U mazkur omillarning ko'paytmasi ko'rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$TA = \sum q \cdot r, \quad (17.1)$$

Bunda: q-sotilgan tovarlarning fizik miqdori; p-tovarlarning bahosi.

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga mazkur omillarning ta'sirini «Indeks» usuli yordamida quyidagicha hisob – kitob qilish orqali aniqlashimiz mumkin (17.5 - jadval).

17.5-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ tovar aylanmasi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Tovar turlari	Tovar aylanmasi, ming so'm			O'zgarishi (+;-)	shu jumladan, omillar ta'siri	
	Reja	Haqiqatda sotilgan tovarlar miqdori va rejadagi sotish bahosi bo'yicha	Haqiqatda		tovarlar fizik miqdori-ning o'zgarishi hisobiga	tovarlar bahosi-ning o'zgarishi hisobiga
Karbamid	75410	76840	79880	+4470	+1430	+3040
Ammofos	282380	279500	270900	-11480	-2880	-8600
Azot	967500	998600	1074920	+107420	+31100	+76320
Fosfor	745000	755700	774300	+29300	+10700	+18600
Boshqa mineral o'g'itlar	143680	157300	163360	+19680	+13620	+6060
Jami:	2213970	2267940	2363360	+149390	+53970	+95420

17.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ tovar aylanmasining rejadagi hajmi 2213970 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 2363360 ming so'mga teng bo'lgan. Demak, jamiyat tovar aylanmasining haqiqatdagi hajmi rejaga nisbatan 149390 ming so'mga ko'paygan. Bunday o'zgarishni ijobiy holat sifatida

baholagan holda uning o'zgarishiga omillar ta'sirini «Indeks» usuli yordamida hisob-kitob qilish orqali aniqlashimiz mumkin. Buning uchun dastlab, jamiyat tovar aylanmasi rejasining bajarilish indeksi aniqlab olinadi. Ya'ni:

$$K_{qp} = \sum q_1 \cdot r_1 / \sum q_0 \cdot r_0 = 2363360 / 2213970 = 1,067$$

Mazkur hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi rejasining bajarilishi 1,067 koeffitsiyentga yoki 106,7 foizga teng bo'lgan. Ya'ni, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek tovar aylanma hajmi rejaga nisbatan haqiqatda 149390 ming so'mga ko'paygan.

Endi, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisob-kitob qilish asosida aniqlaymiz:

- birinchi omil, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga sotilgan tovarlar fizik miqdori o'zgarishining ta'siri aniqlash uchun haqiqatda sotilgan tovarlar miqdori va rejadagi sotish bahosi bo'yicha aniqlangan tovar aylanmasi hajmini rejadagi ko'rsatkichga bo'lish lozim:

$$\Delta K_q = \sum q_1 \cdot r_0 / \sum q_0 \cdot r_0 = 2267940 / 2213970 = 1,024$$

Bundan ko'rinadiki, sotilgan tovarlar fizik miqdorining o'zgarishi tovar aylanma hajmining rejaga nisbatan haqiqatda 1,024 koeffitsiyentga yoki 102,4 foizga yoxud 53970 ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

- ikkinchi omil, tovarlarni sotish bahosining o'zgarishi tovar aylanma hajmining o'zgarishiga ta'siri tovar aylanmasining haqiqatdagi hajmini, haqiqatda sotilgan tovarlar miqdori va rejadagi sotish bahosi bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$\Delta K_p = \sum q_1 \cdot r_1 / \sum q_1 \cdot r_0 = 2363360 / 2267940 = 1,042$$

Demak, tovarlarni sotish bahosining o'zgarishi haqiqatda tovar aylanma hajmini rejaga nisbatan 1,042 koeffitsiyentga yoki 104,2 foizga yoxud 95420 ming so'mga ko'payishiga ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi ikki omilning ta'siri natijasida jamiyat tovar aylanmasining umumiy hajmi rejaga nisbatan haqiqatda 106,7 ((1,024 x 1,042) x 100) foizga yoki 149390 ming so'mga ko'paygan.

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini yuqoridagi kabi har bir tovar turi bo'yicha ham tahlil qilib o'rganish mumkin. Bu albatta, jamiyatning tovar aylanmasi rejasi bajarilishini ta'minlash bo'yicha yuritilayotgan siyosatning samaradorligini kompleks baholashga imkon beradi.

17.1.3. Ta'minot jarayonini tovar bilan ta'minlanganligi va tovar resurslaridan foydalanish samaradorligining tahlili

Tovar resurslari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligi ta'minot tashkiloti tovar aylanmasining hajmi, muomala xarajatlari va foydasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Xususan, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga bevosita tovar balansi bilan bog'liq ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Ushbu bog'liqlik quyidagi tovar balansi asosida aniqlanishi mumkin:

$$TZ_{yb} + TK = TS + TCh + TZ_{yo}, \quad (17.2)$$

Bu yerda: TZ_{yb} – yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'i; TK – tovarlar kirimi; TS – sotilgan tovarlar; TCh – tovarlarning turli chiqimi; TZ_{yo} – yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'i.

Bunda sotilgan tovarlar hajmi, ya'ni tovar aylanmasi quyidagicha aniqlanadi:

$$TS = TZ_{yb} + TK - TCh - TZ_{yo}, \quad (17.3)$$

Bundan ko'rinadiki, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari bilan bog'liq quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi (TZ_{yb});
- tovarlar kirimining o'zgarishi (TK);
- tovarlarning turli chiqimining o'zgarishi (TCh);
- yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi (TZ_{yo}).

Mazkur omillarning tovar aylanma hajmining o'zgarishiga ta'sirini «Taqqoslash» yoki «Zanjirli bog'lanish» usullari yordamida aniqlash mumkin. Xususan, tovar aylanma hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini «Taqqoslash» usuli yordamida hisob-kitob qilib o'rganilganda, birinchi navbatda har bir omilning

haqiqiy ko'rsatkichini rejadagi ko'rsatkichi bilan taqqoslab, omillarning ta'sir darajalari aniqlanadi. Mazkur usul yordamida tovar balansi ko'rsatkichlarining o'zgarishini tovar aylanma hajmining o'zgarishiga ta'siri hisob-kitob qilinganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.6-jadval).

17.6-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari ta'sirining tahlili
(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)	Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri	
				so'm hisobida	foiz hisobida
Yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'i	51143	74446	+23303	+23303	+1,05
Tovarlar kirimi	2217600	2364551	+146951	+146951	+6,64
Tovarlarning turli chiqimi	14273	17707	+3434	-3434	-0,15
Yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'i	40500	57930	+17430	-17430	-0,79
Sotilgan tovarlar hajmi	2213970	2363360	+149390	+149390	+6,75

17.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda tovar aylanmasi hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 149390 ming so'mga yoki 6,75 foizga oshgan. Bunday o'zgarishga tovar balansi bilan bog'liq ko'rsatkichlarning ta'siri quyidagicha bo'lgan. Ya'ni, yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'i rejaga nisbatan haqiqatda 23303 ming so'mga ko'payishi, bevosita tovar aylanma hajmining 23303 ming so'mga yoki 1,05 foizga oshishiga olib kelgan. Bunga mos ravishda, tovarlar kiriminin ham haqiqatda rejaga nisbatan 146951 ming so'mga ko'payishi, tovar aylanma hajmini 146951 ming so'mga yoki 6,64 foizga ortishiga ta'sir ko'rsatgan. Biroq, rejaga nisbatan haqiqatda tovarlar turli chiqimining 3434 ming so'mga va yil oxirida tovar zaxiralarinin 17430 ming so'mga ko'payishi, tovar aylanma hajminin o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning hajminin 20864 (3434+17430) ming so'mga yoki 0,94 foizga kamayishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ rahbariyati tovarlarning turli

chiqimini (yo'qolishi, buzilishi, kamomad va h.k.) qat'iy nazorat qilishi va ularning oldini olish hamda yil oxirida tovar zaxiralari qoldig'ini kamaytirish, ya'ni sotish choralari ko'rishi lozim.

Shunga o'xshash hisob – kitoblarni tovar aylanma hajmida asosiy salmoqni tashkil etuvchi tovar turlari bo'yicha ham amalga oshirib o'rganish mumkin. Bu albatta, asosiy tovar turlarining umumiy tovar aylanma hajmiga ta'sirini aniqroq baholash imkonini beradi.

Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari bilan bog'liq omillar ta'sirini o'rganish bilan bir qatorda tovar resurslaridan foydalanish samaradorligiga ham baho beriladi. Tovar resurslaridan foydalanish samaradorligi (S_{tr}) ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{tr} = TS / (TZ_{yb} + TK - TZ_{yo}), \quad (17.4)$$

Mazkur hisob-kitob asosida 17.6-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, tovar resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlaganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi:

- reja bo'yicha:

$$S_{trr} = 2213970 / (51143 + 2217600 - 40500) = 0,993$$

- haqiqatda:

$$S_{trx} = 2363360 / (74446 + 2364551 - 57930) = 0,992$$

Yuqoridagi hisob-kitob ma'lumotlari tovar resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi tovarlarni turli chiqimi (yo'qolishi, buzilishi, kamomad va h. k) hisobiga pasayganligidan dalolat beradi. Shuningdek, tahlil jarayonida tovar zaxiralarning holati va tovar aylanuvchanligiga ham katta e'tibor qaratilishi lozim. Chunki, tovar aylanish rejasining bajarilishi, muomala xarajatlari, moliyaviy natijalari va moliyaviy ahvoli ushbu ko'rsatkichlarga ham bog'liq hisoblanadi.

Tovar aylanmasi rejasining uzluksiz bajarilishi uchun tovar zaxiralari optimal darajada bo'lishi lozim. Tovar zaxiralarning yetishmasligi yoki yetarli darajada bo'lmasligi tovar aylanma hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning kamayishiga olib keladi. Tovar zaxiralarning ortiqchaligi kapitalning

muzlatilishi, aylanuvchanligining sekinlashishi va daromadligining pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, tovar zaxiralari har doim belgilangan reja darajasida bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tovar zaxiralar holatini umumiy baholash uchun tovarlar guruhining har biri va butun korxonaga bo'yicha o'rtacha yillik zaxiralar hisoblab chiqiladi va tahlil qilinadi. Ularning miqdori o'rtacha xronologik miqdor bo'yicha hisoblanadi. O'rtacha tovar zaxiralarining normativdan farqi tovar aylanma hajmi va tovar aylanishi tezligining o'zgarishi bilan bog'liq.

Tovar zaxiralari holatini o'rganish bilan bir vaqtda tovarlar aylanishi darajasi o'zgarishini ham o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, tovar aylanmasi hajmining oshishi yoki kamayishi bevosita mazkur ko'rsatkichga bog'liq bo'ladi.

Tovarlar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Agarda tashkilotda tovarlar aylanishi tezlashgan bo'lsa, bu undan foydalanish samaradorligi ortganligi va qo'shimcha foyda olinganligini anglatadi. Aksincha, tovarlar aylanishi sekinlashgan bo'lsa, bu ularning yetishmasligini va xo'jalik faoliyatni davom ettirish uchun tashqi manbalardan foydalanib, yetishmovchilikni to'ldirish lozimligini bildiradi.

Odatda tovarlar aylanishining tahlilida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- tovarlarning aylanish koeffitsiyenti;
- tovarlarning aylanish davri;
- tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti.

Mazkur ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini quyidagi jadvalda keltirib o'tamiz (17.7-jadval).

17.7-jadval**Tovarlar aylanishining tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi**

№	Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh
1	Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti	$K_a = TA / TZ$	bunda: TA – tovar aylanma hajmi, TZ – tovar zaxiralari o'rtacha qoldig'i
2	Tovarlarning aylanish davri	$K_d = TZ \times D / TA$	bunda: D – hisobot davridagi kunlar soni
3	Tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	$K_s = TZ / TA$	-

17.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tovarlar aylanishini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatar ekan:

- tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi;
- tovar zaxiralari o'rtacha qoldig'ining o'zgarishi.

Yuqoridagi omillarning tovarlar aylanishi ko'rsatkichlariga, jumladan tovarlarni aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga ta'sirini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.8-jadval).

17.8-jadval**Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ tovar aylanishi ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlili**

№	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1	Tovar aylanmasi hajmi, ming so'm	2213970	2363360	+149390
2	Tovar zaxiralarning o'rtacha qoldig'i, ming so'm	45821	66188	+20367
3	Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti (1 : 2)	48,3	35,7	-12,6
4	Tovarlarning aylanish davri, kun hisobida (2*360):1	7	10	+3
5	Tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti (2:1)*100	2,1	2,8	+0,7

17.8-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tovarlarning aylanish koeffitsiyenti rejada 48,3 koeffitsiyentni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 35,7 koeffitsiyentga teng bo'lgan. Demak, tovarlarning aylanish koeffitsiyenti haqiqatda rejaga nisbatan 12,6 koeffitsiyentga pasaygan. Ya'ni, tovarlarning pulga

aylanish davri sekinlashgan. Bunday natijani ijobiy holat sifatida baholab bo‘lmaydi.

Bunday o‘zgarish ikki omil ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lib, ularning ta’sir darajalarini «Qayta hisoblash» usuli yordamida hisob-kitob qilib aniqlashimiz mumkin.

Bunda har bir omilning ta’sirini hisoblash uchun natijani qayta hisoblab olish lozim. Buning uchun birinchi omilning haqiqatdagi ko‘rsatkichini (TA_1) ikkinchi omilning rejadagi ko‘rsatkichiga (TZ_0) bo‘lish lozim. Ya’ni:

$$K_{aqh} = TA_1 : TZ_0 = 2363360 : 45821 = 51,58$$

Endi, tovarlarning aylanish koeffitsiyentiga yuqoridagi ikki omilning ta’sirini topish uchun quyidagi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim. Ya’ni:

- tovarlarning aylanish koeffitsiyentining o‘zgarishiga tovar aylanmasi hajmining o‘zgarishini ta’sirini aniqlash uchun qayta hisoblangan tovarlarning aylanish koeffitsiyentidan rejadagi tovarlarning aylanish koeffitsiyentini chegirish kerak:

$$51,58 - 48,3 = + 3,28$$

Demak, tovar aylanmasi hajmining haqiqatda rejaga nisbatan 149390 ming so‘mga ko‘payishi, tovarlarning aylanish darajasini 3,28 martaga tezlashtirgan.

- tovarlarning aylanish koeffitsiyentini o‘zgarishiga tovarlar zaxirasi o‘rtacha qoldig‘ining o‘zgarishi ta’sirini aniqlash uchun haqiqatdagi tovarlarning aylanish koeffitsiyentidan qayta hisoblangan tovarlarning aylanish koeffitsiyentini chegirish lozim:

$$35,7 - 51,58 = - 15,88$$

Yuqoridagi hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, tovarlar zaxirasi o‘rtacha qoldig‘ining haqiqatda rejaga nisbatan 20367 ming so‘mga ko‘payishi natijasida tovarlarning aylanishi 15,88 martaga pasaygan.

Xulosa qilib aytganda, tovarlar aylanuvchanligining rejaga nisbatan haqiqatda sekinlashishi tovar zaxiralari o‘rtacha qoldig‘ining rejaga nisbatan ko‘payishi salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Natijada tovarlarning aylanish davri ham 3

kunga uzayganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bois, tovar zaxiralari qoldig‘ini har doim belgilangan reja darajasida bo‘lishini ta‘minlash, ortiqcha tovar zaxiralarini sotish choralarini ko‘rishi lozim deb hisoblaymiz.

17.2. Sotish xarajatlari tahlili

17.2.1. Sotish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida agrar sohada faoliyat yuritayotgan ta‘minot tashkilotlarida xarajatlarni kamaytirish va tannarxni pasaytirish masalasi bugungi kunda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «... xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliyashtirish va rentabellik darajasini, mahsulot raqobatdoshligini so‘zsiz oshirish»⁶⁸ vazifasini hal etish lozim deb ta‘kidlab o‘tganlar. Mazkur vazifaning bajarilishi, albatta ta‘minot tashkilotlari o‘rtasida erkin raqobatni vujudga keltirish, sotish xarajatlarini kamaytirish, tovarlar tannarxini arzonlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi.

Bugungi kunda respublikamizda xarajatlarning mohiyati, tasnifi va tavsifi, tan olinishi, schyotlar tizimi va ular bo‘yicha buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish tartibi bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar tizimi shakllangan:


- O‘zbekiston Respublikasi Qonuni «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»;
- O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi;
- 3-sonli BHMS «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»;
- 21-sonli BHMS «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma»;
- «Mahsulot (ish va xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom».

Ma‘lumki, xarajatlar hisobot davrida aktivlarning chiqimi yoki kamayishi yoxud majburiyatlarning ortishi shaklida iqtisodiy nafning kamayishi bo‘lib,

⁶⁸Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. - 14 b.

korxonalarda moliyaviy natijalarni o'lchashdagi asosiy elementlardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi normativ hujjatlardan biri Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar to'rt guruhga bo'linadi (17.2-rasm).



17.2-rasm. Xarajatlarning guruhlanishi

Xarajatlarni bunday guruhlashda ustun darajada soliq solinadigan bazani to'g'ri aniqlash maqsadi nazarda tutiladi.

Endi Nizomda keltirilgan xarajat guruhlaridan biri davr xarajatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Mazkur normativ hujjatda davr xarajatlariga quyidagicha ta'rif berilgan: «Davr xarajatlari ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar bo'lib, unga xo'jalik yurituvchi subyektning boshqarish xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar kiradi»⁶⁹.

Demak, Nizomda keltirilgan ta'rifga ko'ra davr xarajatlari ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflardan iborat. Lekin, bu turdagi xarajatlar qaysidir ma'noda korxonalarining asosiy faoliyati bilan ham bog'liq hisoblanadi. Bu yerda gap «Davr xarajatlari» tarkibidagi «Sotish xarajatlari» to'g'risida bormoqda. Masalan, agrar sohada faoliyat yuritayotgan ta'minot tashkilotlarining asosiy faoliyati ta'minot, ya'ni ishlab chiqaruvchi korxonalardan

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 5-fevral 1999-yildagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom».

tovarlarni tuzilgan shartnomalar asosida belgilangan narxlarda sotib olib, iste'molchilarga shartnomalarda ko'rsatilgan miqdorda va qiymatda o'z vaqtida yetkazib berish faoliyati hisoblanadi. Shu sababli, ta'minot tashkilotlarida sotish xarajatlari asosiy faoliyat xarajatlari sifatida qaralishi lozim. Chunki, ta'minot tashkiloti ishlab chiqaruvchidan tovarlarni sotib olgandan so'ng to iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda ma'lum xarajatlarni amalga oshiradi. Ammo, iqtisodiy adabiyotlarda ushbu jarayonda qilingan xarajatlar sotish xarajatlari emas, balki muomala xarajatlari sifatida keltirib o'tilgan. Muomala xarajatlari normativ-huquqiy hujjatlarda alohida xarajat turi sifatida ko'rsatilmagan. Shu bois, muomala xarajatlarini amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda sotish xarajatlari sifatida tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchidan tovarlarni sotib olgandan so'ng to iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonda qilingan xarajatlar ta'minot tashkilotining sotish xarajatlari hisoblanadi. U «... xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom»ning 2.1. «Sotish xarajatlari» moddasida keltirilgan barcha xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Ta'minot tashkilotlarida sotish xarajatlari hajmini kamaytirish va uning darajasini pasaytirish faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Shu bois, sotish xarajatlari hajmini, uning darajasini, tarkibi va strukturasi hamda ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalarini uzluksiz ravishda tahlil qilib o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, tahlil qilib o'rganish jarayonida sotish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari aniqlanadi, qanday omillar va sharoitlar hisobiga kamaytirishning mavjud imkoniyatlari o'rganiladi, natijada ulardan foydalanish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Sotish xarajatlari tahlilining maqsadi sotish xarajatlari darajasini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash va ularni moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga jalb qilish yo'llarini ko'rsatish hisoblanadi.

Sotish xarajatlari tahlilining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- sotish xarajatlari hajmini o'rganish va uning darajasiga baho berish;
- sotish xarajatlari hajmi va darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash hamda ularning ta'sir darajalariga baho berish;
- sotish xarajatlari darajasini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Sotish xarajatlarini tahlil qilib o'rganishda quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:

- biznes reja ma'lumotlari;
- «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» ma'lumotlari;
- statistik hisobot ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining xarajatlarni va daromadlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan tegishli schyotlari ma'lumotlari.

17.2.2. Sotish xarajatlari umumiy hajmi va darajasi o'zgarishining tahlili

Sotish xarajatlarining tahlili sotish xarajatlari umumiy hajmi va darajasining o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlil jarayonida sotish xarajatlari umumiy hajmining o'zgarishi hisobot davridagi haqiqiy ko'rsatkichlarni rejadagi yoki bazis davridagi ko'rsatkichlarga taqqoslash orqali aniqlanadi. Shundan so'ng, ushbu o'zgarishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanadi va baho beriladi.

Sotish xarajatlarining (SX) o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi (TA);
- sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi (SXD).

Mazkur omillarning ko'paytmasi sotish xarajatlari hajmiga teng bo'ladi. Ya'ni, buni quyidagi matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$SX = TA \times SXD, \quad (17.5)$$

Yuqoridagi formuladan kelib chiqqan holda sotish xarajatlari darajasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$SXD = SX : TA, \quad (17.6)$$

Bunda sotish xarajatlari mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

Ya'ni, sotish xarajatlari umumiy hajmi (SX) mutlaq ko'rsatkichda, sotish xarajatlari darajasi (SXD) esa nisbiy ko'rsatkich orqali ifodalanadi.

Sotish xarajatlari hajmining o'zgarishiga yuqoridagi ikki omilning ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida aniqlaymiz. Ushbu usulda sotish xarajatlari hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

- birinchi omil, ya'ni tovar aylanma hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanma hajmidan (TA_1) rejadagi yoki o'tgan yildagi tovar aylanma hajmini (TA_0) chegirib tashlagan holda natijani rejadagi yoki o'tgan yildagi sotish xarajatlarining o'rtacha darajasiga (SXD_0) ko'paytirish lozim:

$$\pm\Delta SX_{TA} = (TA_1 - TA_0) \times SXD_0$$

- ikkinchi omil, sotish xarajatlari o'rtacha darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun esa hisobot yilidagi haqiqiy sotish xarajatlari o'rtacha darajasidan (SXD_1) rejadagi yoki o'tgan yildagi sotish xarajatlari o'rtacha darajasini (SXD_0) chegirish va natijani hisobot yilidagi haqiqiy tovar aylanmasi hajmiga (TA_1) ko'paytirish kerak:

$$\pm\Delta SX_{SXD} = (SXD_1 - SXD_0) \times TA_1$$

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi omillar ta'sirining yig'indisi natijaning umumiy farqiga teng bo'lishi lozim:

$$\pm\Delta SX = (\pm\Delta SX_{TA}) + (\pm\Delta SX_{SXD})$$

Mazkur usul yordamida Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish xarajatlari umumiy hajmining rejaga nisbatan o'zgarishini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.9-jadval).

17.9-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish xarajatlari reja bo'yicha 409584 ming so'mga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 449038 ming so'mni tashkil qilgan. Demak, sotish xarajatlarining umumiy hajmi rejaga nisbatan haqiqatda 39454 ming so'mga oshgan. Bunday o'zgarishga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan:

birinchi omil, tovar aylanmasi hajmi rejaga nisbatan haqiqatda 149390 ming so'mga ko'payishi, sotish xarajatlari umumiy hajmini 27637 ming so'mga

oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

ikkinchi omil, sotish xarajatlari o'rtacha darajasi rejaga nisbatan haqiqatda 0,005 koeffitsiyentga yoki 0,5 foizga oshishi, sotish xarajatlari umumiy summasini 11817 ming so'mga ko'payishiga olib kelgan.

17.9-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ sotish xarajatlari umumiy hajmi rejasining bajarilishi tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1	Tovar aylanmasi hajmi, ming so'mda	2213970	2363360	+149390
2	Sotish xarajatlari o'rtacha darajasi, koeffitsiyent hisobida	0,185	0,190	+0,005
3	Sotish xarajatlari umumiy hajmi, ming so'm shu jumladan, o'zgarishiga omillar ta'siri:	409584	449038	+39454
	- tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi	x	x	+27637
	- sotish xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishi	x	x	+11817

Tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, sotish xarajatlari umumiy hajmini kamaytirishning asosiy imkoniyatlaridan biri bu ularning darajasini pasaytirish hisoblanadi. Shu bois, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ rahbariyati sotish xarajatlari o'rtacha darajasini pasaytirish choralarini ko'rish lozim. Buning uchun sotish xarajatlari tarkibini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilib o'rganish zarur.

Shundan so'ng, sotish xarajatlari o'rtacha darajasi va uning o'zgarishiga omillar ta'siri tahlil qilib o'rganiladi. Bunda «Qayta hisoblash» usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu usulda sotish xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlash quyidagi tarzda amalga oshiriladi.

Birinchi navbatda, sotish xarajatlari o'rtacha darajasining qayta hisoblangan ko'rsatkichi aniqlanadi:

$$SXD_{QH} = SX_1 : TA_0$$

So'ngra, sotish xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

- birinchi omil, sotish xarajatlari umumiy hajmining o'zgarishini sotish

xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun qayta hisoblangan sotish xarajatlari o'rtacha darajasidan rejadagi sotish xarajatlari o'rtacha darajasini chegirish lozim:

$$\pm\Delta SXD_{SX} = (SX_1 : TA_0) - (SX_0 : TA_0)$$

- ikkinchi omil, tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi sotish xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun haqiqatdagi sotish xarajatlari o'rtacha darajasidan qayta hisoblangan sotish xarajatlari o'rtacha darajasini chegirish zarur:

$$\pm\Delta SXD_{TA} = (SX_1 : TA_1) - (SX_1 : TA_0)$$

Ushbu omillarning ta'sir darajalarining yig'indisi sotish xarajatlari o'rtacha darajasining umumiy farqiga teng bo'lishi kerak.

Sotish xarajatlari o'rtacha darajasi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar «Qayta hisoblash» usuli yordamida shu tarzda o'rganiladi va baho beriladi. Tahlil natijalari asosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

17.2.3. Sotish xarajatlarining xarajat moddalari bo'yicha tahlili

Ta'minot tashkilotlarida sotish xarajatlari umumiy hajmi va darajasini pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish uchun uning tarkibini xarajat moddalari bo'yicha ham o'rganish lozim. Chunki, sotish xarajatlari tarkibidagi har bir modda bo'yicha o'zgarishini omilli tahlil qilish orqali uni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsatish mumkin.

Sotish xarajatlari har bir xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilib o'rganilar ekan, ularni tovar aylanmasi hajmiga bog'liqligiga qarab quyidagi guruhlarga ajratgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- o'zgaruvchan sotish xarajatlari;
- doimiy sotish xarajatlari.

Sotish xarajatlari moddalarini bunday tartibda guruhlash orqali tahlilni amalga oshirish, tahlil natijalari asosida oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zgaruvchan sotish xarajatlari – tovar aylanma hajmiga to'g'ri proporsional tarzda o'zgaruvchi xarajatlar, ya'ni tovar aylanma hajmi ikki barobar oshsa, o'zgaruvchan sotish xarajatlari umumiy hajmi ham ikki barobar oshadi. Bundan ko'rinadiki, o'zgaruvchan sotish xarajatlari hajmi bevosita tovar aylanma hajmiga bog'liq bo'ladi. Umumiy o'zgaruvchan sotish xarajatlari chiziqli funktsiya sifatida, bunday xarajatlar sotilgan tovar birligiga nisbatan doimiy miqdor hisoblanadi. Ya'ni, sotish xarajatlarning darajasi tovar birligiga nisbatan o'zgarmasdir.

«... xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom»ning 2.1. «Sotish xarajatlari» moddasida ko'rsatilgan quyidagi xarajatlarni kiritish mumkin:

- tovarlarni temir yo'l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida va otulovda tashish xarajatlari;
- tovarlarni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ijtimoiy sug'urta xarajatlari;
- tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari;
- gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari;
- o'rash-joylash materiallari xarajatlari;
- tashish, saqlash va sotish chog'ida tovarlarning yo'qotilishi va boshqalar.

Tovar aylanma hajmidan qat'iy nazar hisobot davrida umumiy miqdori o'zgar olmaydigan xarajatlar doimiy sotish xarajatlari deyiladi. Ya'ni, bu hisobot davri oralig'ida faollik darajasiga nisbatan o'zgarmas xarajatlardir. Bunga «... xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq quyidagi xarajatlarni kiritish mumkin:

- binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- mol-mulkni majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari;
- maxsus kiyim-bosh va maxsus poyabzalning eskirishi;
- mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi xarajatlari;

- reklama xarajatlari;
- savdoni tashkil qilish, boshqarish xarajatlari va boshqa.

Tovar aylanma hajmi va sotish xarajatlari summasi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$SX = TA \times O'XD : 100 + DSX, \quad (17.7)$$

Tovar aylanma hajmi va sotish xarajatlari darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni esa, quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$SXD = DSX : TA \times 100 + O'XD, \quad (17.8)$$

Bu yerda: O'XD – o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasi, DSX – doimiy sotish xarajatlari.

Ta'minot tashkilotida sotish xarajatlari moddalari bo'yicha rejaning bajarilishini tahlil qilib o'rganganimizda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (17.10-jadval).

17.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish xarajatlari hisobot yilida rejaga nisbatan 39454 ming so'mga oshgan. Shu jumladan, o'zgaruvchan sotish xarajatlari 16516 ming so'mga va doimiy sotish xarajatlari 22938 ming so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish hajmi va darajasining o'zgarishiga quyidagi uchta omil ta'sir ko'rsatgan:

- tovar aylanma hajmining o'zgarishi;
- o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi;
- doimiy sotish xarajatlarning o'zgarishi.

Mazkur omillarning sotish xarajatlari hajmi va darajasiga ta'sirini aniqlashda «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanishimiz mumkin. Ushbu usuldan foydalanilganda dastlab, reja bo'yicha natija ko'rsatkichlarini har bir omil hisobiga ketma-ket almashtirib quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlab olish lozim:

1. $SX_0 = TA_0 \times O'XD_0 : 100 + DX_0 = 2213970 \times 11,93 : 100 + 145585 = 409584$ ming so'm;

2. $SX_{sh1} = TA_1 \times O'XD_0 : 100 + DX_0 = 2363360 \times 11,93 : 100 + 145585 = 427534$ ming so'm;

3. $SX_{sh2} = TA_1 \times O'XD_1 : 100 + DX_0 = 2363360 \times 11,87 : 100 + 145585 = 426116$ ming so'm;

4. $SX_1 = TA_1 \times O'XD_1 : 100 + DX_1 = 2363360 \times 11,87 : 100 + 168523 = 449038$ ming so'm.

17.10-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ sotish xarajatlari tarkibi bo'yicha reja bajarilishining tahlili

№	Xarajat moddalari	Hisobot yili				O'zgarishi (+;-)	
		Reja		Haqiqatda		Summasi, ming so'm	Darajasi, %
		Summasi, ming so'm	Darajasi, %	Summasi, ming so'm	Darajasi, %		
1	Transport xarajatlari	61438	2,77	53884	2,28	-7554	-0,49
2	Temir yo'l xarajatlari	81917	3,70	103278	4,37	+21361	+0,67
3	Ish haqi xarajatlari	81900	3,69	90090	3,81	+8190	+0,12
4	Ijtimoiy soliq (12%)	9828	0,44	10811	0,46	+983	+0,02
5	Quriqlash xarajatlari	20480	0,92	28645	1,21	+8165	+0,29
6	Amortizasiya xarajatlari	31438	1,42	38845	1,64	+7407	+0,22
7	Komunal to'lov xarajatlari	22767	1,03	25266	1,07	+2499	+0,04
8	Ta'mirlash xarajatlari	32287	1,46	27549	1,16	-4738	-0,3
9	Yoqilg'i	28916	1,31	22452	0,95	-6464	-0,36
10	Boshqa sotish xarajatlari	38613	1,74	48218	2,04	+9605	+0,3
11	Sotish xarajatlari	409584	18,5	449038	19,0	+39454	+0,5
	shundan:						
	o'zgaruvchan	263999	11,93	280515	11,87	+16516	-0,06
	doimiy	145585	6,57	168523	7,13	+22938	+0,56
12	Tovar aylanmasi	2213970	-	2363360	-	+149390	-

Shundan so'ng, sotish xarajatlari hajmining umumiy o'zgarishi aniqlanadi. Uni aniqlash uchun haqiqatdagi sotish xarajatlari hajmidan, rejadagi sotish xarajatlari hajmini chegirish zarur:

$$\pm\Delta SX_{umum} = (\pm\Delta SX_1) - (\pm\Delta SX_0) = 449038 - 409584 = +39454 \text{ ming so'm.}$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish xarajatlari hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 39454 ming so'mga ko'paygan. Mazkur ko'payish jamiyat uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Shu bois, sotish xarajatlari

hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri hisob-kitob qilib o'rganish lozim. U quyidagicha amalga oshiriladi:

- birinchi omil, tovar aylanma hajmining o'zgarishi sotish xarajatlari hajmining o'zgarishiga qanday ta'sir ko'rsatganligi aniqlash uchun 1-shartli sotish xarajatlari hajmi ko'rsatkichidan rejadagi sotish xarajatlari hajmi ko'rsatkichni chegirish lozim:

$$\pm\Delta SX_{TA} = (TA_1 \times O'XD_0 : 100 + DX_0) - (TA_0 \times O'XD_0 : 100 + DX_0) = \\ = 427534 - 409584 = +17950 \text{ ming so'm}$$

Demak, hisobot yilida haqiqatda rejaga nisbatan tovar aylanma hajmining 149390 ming so'mga ko'payishi, sotish xarajatlari hajmini 17950 ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

- ikkinchi omil, o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasining o'zgarishini sotish xarajatlari hajmiga ta'sirini aniqlash uchun 2-shartli sotish xarajatlari hajmidan 1-shartli sotish xarajatlari hajmi ko'rsatkichini chegirish kerak:

$$\pm\Delta SX_{O'XD} = (TA_1 \times O'XD_1 : 100 + DX_0) - (TA_1 \times O'XD_0 : 100 + DX_0) = \\ = 426116 - 427534 = - 1418 \text{ ming so'm}$$

Hisob-kitoblarga ko'ra, o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasining haqiqatda rejaga nisbatan 0,06 foizga pasayishi, sotish xarajatlari hajmini 1418 ming so'mga kamayishiga olib kelgan.

- uchinchi omil, doimiy sotish xarajatlarining o'zgarishini sotish xarajatlari hajmiga ta'sirini aniqlash uchun haqiqatdagi sotish xarajatlari hajmidan 2-shartli sotish xarajatlari hajmi ko'rsatkichini chegirish lozim:

$$\pm\Delta SX_{DX} = (TA_1 \times O'XD_1 : 100 + DX_1) - (TA_1 \times O'XD_1 : 100 + DX_0) = \\ = 449038 - 426116 = +22922 \text{ ming so'm}$$

Yuqoridagi hisob-kitob natijasiga ko'ra, doimiy sotish xarajatlarining haqiqatda rejaga nisbatan 22938 ming so'mga ko'payishi, sotish xarajatlari hajmini 22922 ming so'mga oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur omillarning ta'siri natijasida sotish xarajatlari hajmi haqiqatda rejaga nisbatan 39454 ((+17950) + (- 1418) + (+22922)) ming so'mga ko'paygan.

Shundan so'ng, sotish xarajatlari darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir darajalari tahlil qilib o'rganiladi. Bunda ham «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblar orqali ketma-ketlikda zanjirli almashtirish asosida sotish xarajatlari darajasining o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi. Ushbu hisob-kitoblar quyidagi 17.11-jadvalda keltirildi.

17.11-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ sotish xarajatlari darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

№	Almashtirish	Aniqlash tartibi	Ta'sir ko'rsatuvchi omillar			Sotish xarajat-lari daraja-si, %	Sotish xarajat-lari darajasining o'zgarishi	
			Doimiy sotish xarajatlari, ming so'm	Tovar aylanma hajmi, ming so'm	O'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasi, %		Omil-lar shartli belgisi	O'zga-rishi, %
1	-	$SXD_0=DX_0:TA_0 \times 100+O'XD_0$	145585	2213970	11,93	18,5	x	x
2	1	$SXD_{sh1}=DX_1:TA_0 \times 100+O'XD_0$	168523	2213970	11,93	19,5	DX	+1
3	2	$SXD_{sh2}=DX_1:TA_1 \times 100+O'XD_0$	168523	2363360	11,93	19,1	TA	-0,4
4	-	$SXD_1=DX_1:TA_1 \times 100+O'XD_1$	168523	2363360	11,87	19,0	O'XD	-0,1

17.11-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish xarajatlari darajasi hisobot yili rejasida 18,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich haqiqatda 19 foizga teng bo'lgan. Demak, sotish xarajatlarning darajasi rejaga nisbatan haqiqatda 0,5 foizga oshgan. Bunday o'zgarish doimiy sotish xarajatlari hajmining hisobot yilida rejaga nisbatan 22938 ming so'mga ko'payishi hisobiga yuzaga kelgan. Bundan ko'rinadiki, jamiyat sotish xarajatlari bo'yicha rejaga nisbatan doimiy xarajatlarning ko'payishiga yo'l qo'ygan bo'lib, ularni kamaytirish imkoniyatlaridan foydalana olmagan.

Shunday qilib, sotish xarajatlari hajmi va darajasining hisobot yilida rejaga nisbatan oshishiga doimiy sotish xarajatlarning ko'payishi salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bois, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ rahbariyati doimiy sotish xarajatlari moddalari bo'yicha rejadan chetga chiqish va ularning sabablarini o'rgangan holda kamaytirish choralarini ko'rishi lozim.

17.3. Ta'minot tashkilotlari moliyaviy natijalari tahlili va uni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish

17.3.1. Yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi korxonaning buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari orqali moliya-xo'jalik faoliyatida o'tgan davrda, tahlil qilinayotgan vaqtda erishilgan hamda istiqbolda erishiladigan moliyaviy natijalar ko'rsatkichlariga har tomonlama baho berishdan iboratdir.

Moliyaviy natijalar tahlilida qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar qatoriga korxonaning foydaliligi yoki natijaviyligini va bozor faolligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiritiladi. Korxonaning foydaliligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan eng muhimi foyda ko'rsatkichi hisoblanadi.

Foyda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining samaradorligini ifodalovchi asosiy va ayni vaqtda ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha barcha natijalarni aks ettiradigan umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir. Foyda korxonaning xo'jalik faoliyatining turli yo'nalishlarining moliyaviy yakunidir. Shu bois, foyda turli shakllarda bo'lishi mumkin.

«Mahsulot (ishlar, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar foydasi quyidagi shakllarda hisobga olinadi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi;

2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda. Yalpi foydadan davr xarajatlari ayrilib, asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi;

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar). Bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi;

4. Soliq to'languncha olingan foyda. U umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi;

5. Yilning sof foydasi. U soliqlar to'langunga qadar olingan foydadan to'lanadigan soliqni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar hamda to'lovlarni chegirib tashlagan holda aniqlanadi va xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi.

Yuqoridagi moliyaviy natija ko'rsatkichlari, ularni shakllanishi, moliyaviy natijalar tahlilining maqsadi, tahlil vazifalari va axborot manbalari, moliyaviy natija ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili, rentabellik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili kabi masalalar 11-bobda atroflicha bayon qilindi.

Endi, ta'minot tashkilotlarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda moliyaviy natijalari tahliliga va uni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tamiz.

Ta'minot tashkiloti moliyaviy natija ko'rsatkichlaridan moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bu yalpi foyda ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ta'minot tashkilotining yalpi foydasi yalpi daromad summasi bilan sotish xarajatlari summasi orasidagi farqqa teng bo'ladi. Ta'minot tashkilotining foydasi tovar aylanma hajmiga mutanosib ravishda o'zgaradi. Bu yerda, tovar aylanma hajmi va sotish xarajatlari miqdorining o'zaro bog'liqligi hisobga olinmaydi. Tovar aylanma hajmi oshganida sotish xarajatlari kamayadi. Chunki, bunda odatda faqat o'zgaruvchan xarajatlar summasi o'sib, doimiy xarajatlar summasi esa o'zgarmaydi. Aksincha, tovar aylanma hajmi pasayganda sotish xarajatlari doimiy xarajatlarining katta qismi bir so'mlik tovar aylanma hajmiga to'g'ri kelishi bois, sotish xarajatlari oshib ketadi. Shu bois, xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda ta'minot tashkilotining yalpi foydasini tahlil qilishga tizimli yondashishni ta'minlash maqsadida quyidagi formuladan foydalanish lozim:

$$YaF = TA \times D_s - DSX, \quad (17.9)$$

Bunda: YaF – yalpi foyda; D_s – 1 soʻmlik tovar aylanma hajmiga toʻgʻri keladigan marjinal daromad stavkasi; DSX – doimiy sotish xarajatlari summasi.

Marjinal daromadning oʻrtacha stavkasi (\overline{DC}) oʻz navbatida oʻrtacha yalpi daromadga ($\overline{O'YaD}$) va oʻrtacha oʻzgaruvchan xarajatlar ($\overline{O'O'X}$)ga bogʻliq :

$$\overline{D_s} = \overline{O'YaD} - \overline{O'O'X}, \quad (17.20)$$

Yalpi daromadning oʻrtacha darajasiga umumiy tovar aylanma hajmidagi alohida tovarlar turlarining ulushi (U_i) va i-nchi tovar turiga quyilgan ustamaning miqdori (O'YaD_i) taʻsir koʻrsatadi:

$$\overline{O'YaD} = \sum U_i \times O'YaD_i, \quad (17.21)$$

Tovar aylanma hajmi sotilgan tovarlar miqdori (massasi) (q) va tovarlar bahosiga (r) bogʻliq:

$$TA = \sum q \times p, \quad (17.22)$$

Shundan soʻng, taʻminot tashkiloti yalpi foydasining omilli modeli quyidagi koʻrinishda boʻladi:

$$YaF = \sum q \times p \times [\sum (U_i \times O'YaD_i) - \overline{O'O'X}_i] - DX, \quad (17.23)$$

Ushbu model sotilgan tovarlarning fizik hajmi, bahosi, tovar aylanma strukturasi, i-nchi tovarlar boʻyicha yalpi daromad darajasi, oʻzgaruvchan sotish xarajatlarining oʻrtacha darajasi va doimiy xarajatlar hajmi hisobiga yalpi foydaning qanday oʻzgarganligini aniqlashga imkon beradi.

17.12-jadvalda keltirilgan maʼlumotlar asosida «Zanjirli bogʻlanish» usuli yordamida yalpi foydaning oʻzgarishiga yuqoridagi omillarning taʻsir darajalarini hisoblash mumkin. Buning uchun dastavval barcha omillarning rejadagi koʻrsatkichlarini qoʻllagan holda rejadagi yalpi foyda summasini aniqlaymiz:

$$YaF_r = 2213970 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585 = 254607 \text{ ming soʻm}$$

Shundan soʻng, haqiqatdagi sotish hajmi, ammo tovarlarning rejadagi sotish bahosi va barcha boshqa omillarning rejadagi qiymatlari boʻyicha yalpi foyda summasini aniqlaymiz:

$$YaF_{sh1} = 2008856 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585 = 217616 \text{ ming soʻm}$$

**Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ yalpi foydasining omilli tahlili
uchun umumiy ma'lumot**

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili	
		Reja bo'yicha	Haqiqatda
1	Tovar aylanma hajmi, ming so'm	2213970	2363360
2	Tovar aylanma hajmi reja bahosi bo'yicha haqiqatda, ming so'm	-	2008856
3	Yalpi daromad, ming so'm	664191	779909
4	Sotish xarajatlari, ming so'm	409584	449038
	shu jumladan:		
	- o'zgaruvchan sotish xarajatlari, ming so'm	263999	280515
	- doimiy sotish xarajatlari, ming so'm	145585	168523
5	Yalpi foyda, ming so'm	254607	330871
6	O'rtacha yalpi daromad darajasi, %	30	33
7	O'rtacha o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasi, %	11,92	11,87

Olingan natijani rejadagi yalpi foyda summasi bilan taqqoslaganimizda sotish fizik hajmining pasayishi hisobiga yalpi foyda summasi 36991 (217616-254607) ming so'mga kamayganligini ko'ramiz.

So'ngra haqiqiy sotish hajmi va tovarlarning haqiqiy sotish bahosi, ammo boshqa barcha omilli ko'rsatkichlarning rejadagi miqdori bo'yicha yalpi foyda summasini aniqlaymiz:

$$YaF_{sh2} = 2363360 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585 = 281710 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovarlar bahosining o'zgarishi hisobiga yalpi foyda summasi 64094 (281710-217616) ming so'mga ko'paygan.

Keyinchalik o'rtacha yalpi daromad ko'rsatkichi va yalpi foyda summasining tovar aylanma strukturasi hisobiga o'zgarishini aniqlash zarur.

Tovar aylanmaning haqiqiy hajmi va strukturasi, ammo tovarlarga quyiladigan ustamaning rejadagi ko'rsatkichi bo'yicha yalpi daromadning o'rtacha darajasi quyidagicha:

$$O'YaD_{sh} = \sum U_{ix} \times O'YaD_{ir} / 100 = 30,734 \%.$$

Bunday shart-sharoitlarda yalpi foyda summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$YaF_{sh3} = 2363360 \cdot (30,734 - 11,92) / 100 - 145585 = 299057 \text{ ming so'm.}$$

Shunday qilib, tovar aylanma strukturasi o'zgarishi hisobiga yalpi foyda 17347 (299057-281710) ming so'mga ko'paygan.

Shundan keyin haqiqiy tovar aylanma hajmi, uning haqiqiy strukturasi va alohida tovarlarga quyiladigan ustamalarning haqiqiy summasi, ammo rejadagi o'zgaruvchan xarajatlar va rejadagi doimiy sotish xarajatlari bo'yicha yalpi foyda miqdorini aniqlaymiz:

$$YaF_{sh4} = 2363360 \cdot (33 - 11,92) / 100 - 145585 = 352611 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovarlarga quyilgan ustamaning reja (30 %) ga nisbatan haqiqat (33 %) da o'zgarishi hisobiga yalpi foyda summasi 53554 (352611-299057) ming so'mga ko'paygan.

Endi, doimiy xarajatlardan tashqari barcha omillar bo'yicha haqiqiy ko'rsatkichlarga asosan yalpi foyda summasini aniqlaymiz:

$$YaF_{sh5} = 2363360 \cdot (33 - 11,87) / 100 - 145585 = 353793 \text{ ming so'm.}$$

Olingan natijani oldingisi bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'zgaruvchan sotish xarajatlarning rejadagi 11,92 foizdan, haqiqatda 11,87 foizga o'zgarishi hisobiga yalpi foyda summasi 1182 (353793-352611) ming so'mga ko'paygan.

Hisobot yilining haqiqiy yalpi foyda summasi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$YaF_h = 2363360 \cdot (33 - 11,87) / 100 - 168523 = 330871 \text{ ming so'm.}$$

U inflyasiya munosabati bilan doimiy xarajatlar summasi rejaga nisbatan haqiqatda 22938 ming so'mga ko'payishi hisobiga yalpi foyda summasi 22922 (330871-353793) ming so'mga kamaygan.

Mazkur omillarning ta'siri natijasida Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ yalpi foydasi hisobot yilida rejaga nisbatan 76264 ((-36991) + (+64094) + (+17347) + (+53554) + (+1182) + (-22922)) ming so'mga ko'paygan.

Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'minot tashkiloti yalpi foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganishda yuqoridagi omilli modeldan foydalanish yalpi foyda summasi o'zgarishiga omillar ta'sirini ancha to'g'ri hisoblashga imkon beradi. Chunki, bunda sotish hajmi, xarajatlar va foyda summasi inobatga olinadi va moliyaviy natijalar shakllanish jarayonini samaraliroq boshqarishga imkon beradi.

17.3.2. Sotish rentabelligi tahlili: milliy va xalqaro tajriba

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligiga baho berishda rentabellik darajasi muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilishdan asosiy maqsad ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish natijalariga asoslanib, ichki imkoniyatlarni aniqlash va tahlil qilinayotgan korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish yo'llarini belgilashdan iboratdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlar tomonidan korxonalarning rentabellik ko'rsatkichlarini tavsiflashga yondashuvlar xilma-xil bo'lib, ta'minot tashkilotining faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda sotish rentabelligi ko'rsatkichini tahlil qilishning uslubiy jihatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Bugungi kunda ta'minot tashkilotining faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliyotda sotish rentabelligi yalpi foyda ko'rsatkichini tovar aylanma hajmiga bo'lish asosida aniqlanadi. Ya'ni, ushbu ko'rsatkichni quyidagicha matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$R_s = YaF \times 100 / TA, \quad (17.24)$$

Bunda: R_s – sotish rentabelligi; YaF – yalpi foyda (moliyaviy hisobotning 2-shakli 030-satr); TA – tovar aylanma hajmi (moliyaviy hisobotning 2-shakli 010-satr).

Demak, yuqoridagi formuladan ko'rinadiki sotish rentabelligining o'zgarishiga yalpi foydaning o'zgarishi va tovar aylanma hajmining o'zgarishi bevosita ta'sir ko'rsatadi ekan. Bunda ikkala omil bir-biridan mustaqil holda o'zgaradi deb faraz qilinadi.

Bu borada xorijlik va mamlakatimiz olimlarining ilmiy va o'quv-uslubiy ishlanmalarini o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan sotish rentabelligini tahlil qilish uslublari bizning amaliyotimizda qo'llanilayotgan tahlil uslublaridan farq qiladi. Jumladan, xorij amaliyotida ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liqroq hisobga olish va omillar ta'sirini aniqroq o'lchash imkoni mavjud.

Xususan, turli xil tovarlarni sotish sharoitida sotish rentabelligini tahlil qilish

uslubu biroz murakkablashadi. Shu bois, xalqaro amaliyotda sotish rentabelligini o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishda tizimli yondashuvni ta'minlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$YaF = (TA \times DC) - DSX, \quad (17.25)$$

Bunda: D_s – 1 so'mlik tovar aylanma hajmiga to'g'ri keladigan marjinal daromad stavkasi;

DSX – doimiy sotish xarajatlari summasi.

Marjinal daromadning o'rtacha stavkasi (DC) o'z navbatida o'rtacha yalpi daromadga ($YaDD$) va o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar ($O'O'X$)ga bog'liq :

$$\overline{D_s} = \overline{YaDD} - \overline{O'O'X}, \quad (17.26)$$

Yalpi daromadning o'rtacha darajasiga umumiy tovar aylanma hajmidagi alohida tovarlar turlarining ulushi (U_i) va i-tovar turiga quyilgan ustamaning miqdori ($O'YaD_i$) ta'sir ko'rsatadi:

$$\overline{YaDD} = \sum U_i \times O'YaD_i, \quad (17.27)$$

Tovar aylanma hajmi sotilgan tovarlar massasi (q) va tovarlar bahosi (r) ga bog'liq:

$$TA = \sum q \times p, \quad (17.28)$$

Sotish xarajatlari tovar aylanma hajmi (TA), o'rtacha o'zgaruvchan xarajatlar ($O'O'X$) va doimiy sotish xarajatlari (DSX) summasiga bog'liq:

$$SX = (\sum q \times p \times O'O'X) + DSX \quad (17.29)$$

Shundan so'ng, ta'minot tashkilotlari sotish rentabelligi tahlilining omilli modeli quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$R_s = YaF \times 100 / TA = (\sum q \times p \times [\sum (U_i \times O'YaD_i) - O'O'X] - DSX) \times 100 / \sum q \times p, \quad (17.30)$$

Ushbu formula sotishning fizik hajmi, tovarlar bahosi, tovar oboroti strukturasi, i-tovarlar bo'yicha yalpi daromad darajasi, o'zgaruvchan muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi va doimiy xarajatlarning umumiy summasi ko'rsatkichlarining ta'siri hisobiga sotish rentabelligining qanday o'zgarganligini aniqlashga imkon beradi. Ushbu omillar ta'sirini aniqlash uchun ta'minot tashkilotining quyidagi birlamchi ma'lumotlaridan foydalanamiz (17.13-jadval).

17.13-jadval

Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ sotish rentabelligi va uning omilli tahlili uchun birlamchi ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (+;-)
1	Tovar aylanma hajmi, ming so'm	2213970	2363360	+149390
2	Tovar aylanma hajmi reja bahosi bo'yicha haqiqatda, ming so'm	-	2008856	-
3	Yalpi daromad, ming so'm	664191	779909	+115718
4	Sotish xarajatlari, ming so'm shu jumladan:	409584	449038	+39454
	- o'zgaruvchan sotish xarajatlari, ming so'm	263999	280515	+16516
	- doimiy sotish xarajatlari, ming so'm	145585	168523	+22938
5	Yalpi foyda, ming so'm	254607	330871	+76264
6	O'rtacha yalpi daromad darajasi, %	30	33	+3
7	O'rtacha o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasi, %	11,92	11,87	-0,05
8	Sotish rentabelligi, %	11,5	14,0	+2,5

17.13-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida, «Zanjirli bog'lanish» usuli bilan sotish rentabelligi ko'rsatkichini va unga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini aniqlaymiz. Shu bois, birinchi navbatda hisobot yili rejasi bo'yicha sotish rentabelligi ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$R_{sr} = (2213970 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585) / 2213970 = 11,5 \%$$

Shundan so'ng, haqiqatdagi sotish hajmi, ammo tovarlarning rejadagi sotish bahosi va barcha boshqa omillarning rejadagi ko'rsatkichlari bo'yicha birinchi shartli sotish rentabelligi ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$R_{sh1} = (2008856 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585) / 2008856 = 10,83 \%$$

Mazkur ko'rsatkichdan rejadagi sotish rentabelligi ko'rsatkichini chegirish orqali sotilgan tovarlar fizik miqdorining o'zgarishini sotish rentabelligiga ta'sirini aniqlaymiz. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu omilning ta'siri natijasida sotish rentabelligi 0,67 (10,83-11,5) foizga pasayganligini ko'rishimiz mumkin.

So'ngra haqiqiy sotish hajmi va tovarlarning haqiqiy sotish bahosi, ammo boshqa barcha omil ko'rsatkichlarining rejadagi miqdori bo'yicha ikkinchi shartli sotish rentabelligini aniqlaymiz:

$$R_{sh2} = (2363360 \cdot (30 - 11,92) / 100 - 145585) / 2363360 = 11,92 \%$$

Aniqlangan ikkinchi shartli ko'rsatkichdan birinchi shartli ko'rsatkichni chegirish asosida tovarlarni sotish bahosi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi. Mazkur hisob-kitobni bajarish orqali tovarlarni sotish bahosining o'zgarishi hisobiga sotish rentabelligi 1,09 (11,92-10,83) foizga oshganligini ko'ramiz.

Endi, o'rtacha yalpi daromad ko'rsatkichi va foyda summasining tovar aylanma hajmi strukturasi hisobiga o'zgarishini aniqlash zarur. Bunda tovar aylanmasining haqiqiy hajmi va strukturasi, ammo tovarlarga quyiladigan ustamaning rejadagi ko'rsatkichi bo'yicha yalpi daromadning o'rtacha darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'YaD_{sh} = \sum U_{ix} \times O'YaD_{ir} / 100 = 30,734 \%$$

Shundan keyin uchinchi shartli sotish rentabelligi ko'rsatkichi quyidagicha hisob-kitob qilinadi:

$$R_{sh3} = (2363360 \cdot (30,734 - 11,92) / 100 - 145585) / 2363360 = 12,65 \%$$

Shunday qilib, tovar aylanma hajmi strukturasi o'zgarishi hisobiga sotish rentabelligi ko'rsatkichi 0,75 (12,65-11,92) foizga oshgan.

Shundan so'ng haqiqiy tovar oboroti hajmi, uning haqiqiy strukturasi va alohida tovarlarga quyiladigan ustamalarning haqiqiy summasi, ammo rejadagi o'zgaruvchan xarajatlar va rejadagi doimiy sotish xarajatlari bo'yicha turtinchi shartli sotish rentabelligi ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$R_{sh4} = (2363360 \cdot (33 - 11,92) / 100 - 145585) / 2363360 = 14,92 \%$$

Demak, tovarlarga qo'yilgan ustamaning rejaga nisbatan (30 %) haqiqatda 3 (33-30) foizga o'sishi, sotish rentabelligi ko'rsatkichini 2,27 (14,92-12,65) foizga oshishiga ta'sir ko'rsatgan.

Endi doimiy sotish xarajatlaridan tashqari barcha omillar bo'yicha haqiqiy ko'rsatkichlarga asosan beshinchi shartli sotish rentabelligi ko'rsatkichini aniqlaymiz:

$$R_{sh5} = (2363360 \cdot (33 - 11,87) / 100 - 145585) / 2363360 = 14,97 \%$$

Mazkur natijadan turtinchi shartli rentabellik ko'rsatkichini chegirish shuni ko'rsatadiki, o'zgaruvchan sotish xarajatlarining rejadagi 11,92 foizdan, haqiqatda

11,87 foizgacha pasayishi hisobiga sotish rentabelligi ko'rsatkichi 0,05 (14,97-14,92) foizga oshgan.

Tahlilning so'nggi bosqichida sotish rentabelligining haqiqatdagi ko'rsatkichini aniqlash lozim. Ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$R_{sh} = (2363360 \cdot (33 - 11,87) / 100 - 168523) / 2363360 = 14 \%$$

U inflyasiya munosabati bilan doimiy sotish xarajatlari summasi rejaga nisbatan haqiqatda 22938 ming so'mga ko'payishi hisobiga sotish rentabelligi ko'rsatkichi 0,97 (14-14,97) foizga pasayganligini bildiradi.

Umuman olganda, sotish rentabelligining rejaga nisbatan 2,5 foizga oshishi Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJ uchun ijobiy holat hisoblanadi. Agarda sotish xarajatlari haqiqatda rejaga nisbatan 39454 (o'zgaruvchan sotish xarajatlari – 16516 ming so'mga, doimiy sotish xarajatlari – 22938 ming so'm) ming so'mga yoki 9,63 foizga oshmaganda edi, sotish rentabelligi ko'rsatkichi rejaga nisbatan bundanda yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent viloyati «Agrokimyohimoya» AJda sotish rentabelligini oshirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bunday imkoniyatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- yalpi daromad darajasini oshirish maqsadida tovarlar tannarxini va sotish bahosini to'g'ri shakllantirish lozim. Bunda tovarlarning xarid qiymati va ularni sotib olish hamda tayyorlash bilan bog'liq xarajatlarni sotish xarajatlari tarkibiga emas, balki tovarlar tannarxiga kiritish kerak. Shuningdek, tovarlarni turli sotish usullaridan foydalangan holda yuqori savdo ustamalar orqali sotish choralarini ishlab chiqish;

- xarajatlarni ularni paydo qilgan obyektlari yoki ularni tashuvchilari, ya'ni alohida tovar turlari bo'yicha jamlab borish. Bu har bir tovar turi bo'yicha tannarxning to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi.

- sotish xarajatlari ustidan nazorat o'rnatish va ularning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilib o'rganish. Bunda sotish xarajatlarini o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga ajratgan holda o'rganish lozim. Albatta, tahlil

natijalari asosida sotish xarajatlarining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatganligi aniqlanadi va ularni kamaytirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, xorij amaliyotida qo'llanilayotgan uslub bo'yicha sotish rentabelligini omilli tahlil qilish (17.30-formula) natijalarini mamlakatimiz tajribasi (17.24-formula) bilan taqqoslaganda, xorij amaliyotidagi tahlil uslubini qo'llash afzalroq deb hisoblaymiz. Chunki, unda model elementlarining, jumladan sotish hajmi, xarajatlar va foydaning o'zaro aloqadorligi to'liqroq hisobga olinadi. Bu o'z navbatida omillarning ta'sirini aniqroq baholashni va tahlil samarasi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. Umuman, sotish rentabelligini tahlil qilishning har xil uslublarini qo'llash, ularning xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, sotish xarajatlarini doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishga asoslangan uslubning afzalligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'minot tashkilotining xo'jalik jarayonlarini samaraliroq boshqarish bo'yicha menejerlarga tavsiyalar ishlab chiqish imkonini ham beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Tovar aylanmasi rejasi bajarilishi tahlilining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta'minot tashkilotlarida tovar aylanmasi rejasi bajarilishini tahlil qilishda qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
3. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Ta'minot jarayonining tovar bilan ta'minlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?
5. Tovar resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi qanday ko'rsatkichlar mavjud?
6. Tovar balansi qaysi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi?
7. Sotish xarajatlari tahlilining maqsadi, vazifalari va axborot manbalarini aytib bering?
8. Sotish xarajatlari umumiy hajmi va darajasining o'zgarishi qanday tahlil qilib

o'rganiladi?

9. Moliyaviy natijalar tahlili va uni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish tartibini tushuntirib bering?

10. Sotish rentabelligi: milliy va xalqaro tajribaning qiyosiy tahlilini tushuntirib bering?

NAZORAT TESTLARI

1. Tovar aylanmasi rejasi hajmining o'zgarishi qanday aniqlanadi?

A) Tovar aylanmasining haqiqiy hajmidan rejadagi hajmini chegirish orqali aniqlanadi

B) Tovar aylanmasining haqiqiy hajmiga rejadagi hajmini qo'shish orqali aniqlanadi

C) Tovar aylanmasining haqiqiy hajmini rejadagi hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Tovar aylanmasining haqiqiy hajmini rejadagi hajmiga ko'paytirish orqali aniqlanadi

2. Tovar aylanma hajmi qanday aniqlanadi?

A) Sotilgan tovarlarning fizik miqdorini bahosiga ko'paytirish lozim

B) Sotilgan tovarlarning fizik miqdorini bahosiga bo'lish kerak

C) Sotilgan tovarlarning umumiy summasini ularning fizik miqdoriga bo'lish orqali

D) Sotilgan tovarlarning umumiy summasini o'rtacha tovar bahosiga bo'lish kerak

3. Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishiga tovar balansi ko'rsatkichlari bilan bog'liq qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) Yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi, tovarlar kirimining o'zgarishi, tovar resurslari aylanuvchanligi va rentabelligining o'zgarishi

B) Tovarlar kirimining o'zgarishi, tovarlarning turli chiqimining o'zgarishi va sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishi

C) Tovarlar kirimining o'zgarishi, sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishi va yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi

D) Yil boshiga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi, tovarlar kirimining o'zgarishi, tovarlarning turli chiqimining o'zgarishi va yil oxiriga tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi

4. Tovar resurslari aylanuvchanligi tahlilida qanday ko'rsatkichlar o'rganiladi?

A) Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti, tovarlarning aylanish davri, tovar resurslari rentabelligi

B) Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti, tovarlarning aylanish davri, tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti

C) Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti, tovarlar aylanmasining tovar zaxiralari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti va tovarlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

D) Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti, tovar resurslari rentabelligi va tovarlar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti

5. Tovarlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Tovar aylanma hajmini tovar zaxiralari o'rtacha yillik qoldig'iga ko'paytirish orqali aniqlanadi

B) Tovar zaxiralari o'rtacha yillik qoldig'ini hisobot davridagi kunlar soniga ko'paytirib, natijani tovar aylanma hajmiga bo'lish asosida aniqlanadi

C) Tovar aylanma hajmini tovar zaxiralari o'rtacha yillik qoldig'iga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Tovar zaxiralari o'rtacha yillik qoldig'ini hisobot davridagi kunlar soniga bo'lish, natijani tovar aylanma hajmiga ko'paytirish asosida aniqlanadi

6. Sotish xarajatlari hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi va davr xarajatlari darajasining o'zgarishi

B) Sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi, ma'muriy-boshqaruv xarajatlarining o'zgarishi va boshqa operasion xarajatlar darajasining o'zgarishi

C) Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi va sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi

D) Tovar aylanmasi hajmining o'zgarishi va asosiy faoliyat xarajatlari darajasining o'zgarishi

7. Ta'minot tashkilotida sotish hajmi va darajasining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?

A) Tovar aylanma hajmining o'zgarishi, o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi va asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi

B) Tovar aylanma hajmining o'zgarishi, o'zgaruvchan sotish xarajatlari darajasining o'zgarishi va doimiy sotish xarajatlarning o'zgarishi

C) Tovar aylanma hajmining o'zgarishi, doimiy sotish xarajatlarning o'zgarishi, tovar resurslari bilan ta'minlanganlik darajasining o'zgarishi

D) Tovar resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi o'zgarishi, tovarlarning aylanish koeffitsiyentining o'zgarishi, aylanish davrining o'zgarishi va tovar aylanma hajmining o'zgarishi

8. Sotish rentabelligi qanday aniqlanadi?

A) Tovar aylanma hajmini yalpi foyda ko'rsatkichiga bo'lish orqali aniqlanadi

B) Tovar aylanma hajmini sof foyda ko'rsatkichiga bo'lish asosida aniqlanadi

C) Yalpi foydani tovar aylanma hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi

D) Tovarlarini sotishdan olingan daromadni tovar aylanma hajmiga bo'lish asosida aniqlanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни (Янги таҳрири) - Тошкент, Ўзбекистон 2016 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия Ҳисобининг Миллий Стандартлари ЎзБАМА нашриёт-ахборот Маркази. –Т.: 2007 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сон буйруғи «Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш бўйича қоидаларни тасдиқлаш тўғрисида». «Солиқ ва божхона» газетаси 2004 йил 27 декабрь №52.
4. «Маҳсулот (иш, хизмат)ларни ишлаб чиқариш ва реализация харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларини шакллантириш тартиби тўғрисида Низом». Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 5 февralидаги 54-сон қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги ПФ-4947-сонли Фармони.
6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 103 б.
7. Мирзиёев Ш.М. «Халқимизнинг розилиги бизнинг фаоллигимизга берилган энг олий баҳодир» «ЎЗБЕКИСТОН» НМИУ, 2018. – 56 б
8. О‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. -Т.: “О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
9. О‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5-jild, -Т.: “О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
10. Пардаев М.Қ. Молиявий таҳлил. Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 1999.
11. Хасанов Н., Нажбиддинов С. Корхона молиявий ҳолатини баҳолаш: Муаммолар ва уларни ҳал қилиш. 8-чиқарилиш. –Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси”, 1999.

12. Пардаев М.Қ. Иқтисодий таҳлил назарияси. Самарқанд: «Зарафшон» 2001. -272 б.
13. Ваҳобов А.В., Ибрагимов А.Т “Молиявий таҳлил”. Т.: ”Шарқ” 2002.
14. Ваҳобов А.В., Иброҳимов А.Т., Хақимов Б. Иқтисодий таҳлил назарияси. -Т.: «Тошкент Молия институти», 2003. -176 б.
15. Пардаев М.Қ., Абдукаримов И.Т., Исроилов Б.И “Иқтисодий таҳлил”. Т.: ”Меҳнат” 2004.
16. Ваҳобов А.В., Иброҳимов А.Т., Ишонқулов Н.Ф Молиявий ва бошқарув таҳлили. Т.: «Шарқ» 2005.
17. Qudratov T.Q., Ibrohimov M.M., Karimova Z.N. Iqtisodiy tahlil. -Т.: «Ilm Ziyο», 2005. -200 б.
18. Ергешев Е. Иқтисодий ва молиявий таҳлил. -Т.: «Тошкент тезкор босмахонаси», 2005. -345 б.
19. Алексеева А.И., Васильев Ю.В., Малеева А.В., Ушвицкий Л.И. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. М.: «Финансы и статистика», 2006.
20. Akramov E.A. Korxonalar moliyaviy holati tahlili. O‘quv qo‘llanma. – Т., 2007. -121 б.
21. Басовский Л.Е., Лунёва А.М., Басовский А.Л. Экономический анализ. М.: «ИНФРА-М», 2008.
22. Шоғиёсов Т. Комплекс иқтисодий таҳлил. Т.: “Иқтисод-молия”, 2009.
23. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. / Учебник. -5 е изд., перераб. и. доп. –М, Инфра-М, 2009. с 678.
24. Ергешев Е. Давлятов Х.М. Иқтисодий ва молиявий таҳлил. –Т.: «Адолат», 2010. -240 б.
25. Qudratov T.Q., Fayzieva N. Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatining tahlili. – Samarqand. “N.Dobf”, 2010.
26. Qudratov T., Fayzieva N. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. –Т.: «Voriz-nashriyoti», 2012. -256 б.

27. Дўсмуратов Р.Д., Тўлаев У.И. Молиявий ҳисобот: назарий, услубий ва амалий жиҳатлари. –Т.: «Ехтремум-Пресс», 2012.
28. Pardaev va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O‘quv qo‘llanma. –Т.: “Cho‘lpon” nashriyoti, 2012. -400 b.
29. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. -392 b.
30. Hakimov B.J., Alimov B.B., Xolmirzaev U.A., Po‘latov A.X. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. -240 b.
31. Dusmuratov R.D., Davletov I.R., Boltaev A.S. Iqtisodiy tahlil va audit. Amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv qo‘llanma. –Т.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2014. -183 b.
32. K.R.Subramanyam Financial statement analysis, 11th ed, USA, McGraw-Hill Education, 2014.
33. Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil: O‘quv qo‘llanma. –Т, 2017. -536 b.
34. Internet saytlari:
 - www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
 - www.ziyonet.uz – Ta’lim portali
 - www.norma.uz – “Norma” axborot-huquqiy portali

ILOVALAR

O'zbekiston Respublikasi Moliya
vazirligining 2002-yil 27 dekabrda 140-
sonli buyrug'iga 1-sonli ilova

BUXGALTERIYA BALANSI (1-sonli shakl)

		Kodlar
_1-yanvar __ 20... yilga	BHUT bo'yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilotlar: "Sharq" fermer xo'jaligi	KTUT bo'yicha	04825909
Tarmoqlar: O'simlikchilik	XXTUT bo'yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: Fermer xo'jaligi	THShT bo'yicha	
Mulkchilik shakli: Xususiy	MShT bo'yicha	142
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo'yicha	
Soliq to'lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do'stlik ko'chasi 27 uy	Jo'natilgan sana	
O'lchov birligi, ming so'm	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlangich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010	88154	101991
Eskirish summasi (0200)	011	39669	46259
Qoldiq (balanC) qiymati (satr. 010 - 011)	012	48485	55732
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlangich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qoldiq (balanC) qiymati (satr. 020 - 021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030		
Qimmatli qog'ozlar (0610)	040		
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chet el kapitali mavjud bo'lgan korxonalariga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo'yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
shundan: muddati o'tgan	111		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo'lim bo'yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120)	130	48485	55732
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:	140		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150	26190	26584
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160	20665	17661
Tayyor mahsulot (2800)	170	5525	8923
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (satr.220+230+240+250+260+270+280+290+300+310)	210	25514	24685
shundan: muddati o'tgan	211		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220	13857	11401
Ajratilgan bo'linmalarining qarzi (4110)	230		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	250	758	620
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	260	7158	6891
Byudjetga solik va yigimlar bo'yicha bo'nak to'lovlari	270		

(4400)			
Maqsadli davlat jamgarmalari va sugurtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	280	1385	1835
Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310	2356	3938
Pul mablag'lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	320	24729	54377
Kassadagi pul mablag'lari (5000)	330		
Hisoblashish schyotidagi pul mablag'lari (5100)	340	24729	54377
Chet el valyutasidagi pul mablag'lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo'lim bo'yicha jami (satr.140+190+200+210+320+370+380)	390	76433	105646
Balans aktivi bo'yicha jami (satr.130+390)	400	124918	161378

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Passiv			
I. O'z mablag'lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410	18720	18720
Qo'shilgan kapital (8400)	420		
Rezerv kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450	38746	80070
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun zaxiralar (8900)	470		
I bo'lim bo'yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480	57466	98790
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500+510+520+530+540+550+560+570+580+590)	490	40182	40182
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590)	491		
shundan: muddati o'tgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari	492		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo'linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho'ba va karam xo'jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar	550		

(7250, 7290)			
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570	40182	40182
Uzoq muddatli qarzlilar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlilar (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (sitr.610+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600	27270	22406
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlilar (sitr.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	27270	22406
shundan: muddati o'tgan joriy kreditorlik qarzlilar	602		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzi (6000)	610	2935	4657
Ajratilgan bo'linmalarga qarzi (6110)	620		
Sho'ba va karam xo'jalik jamiyatlarga qarzi (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo'naklar (6300)	670	4428	4945
Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzi (6400)	680	11552	4614
Sugurtalar bo'yicha qarzi (6510)	690		
Maqsadli davlat jamgarmalariga to'lovlar bo'yicha qarzi (6520)	700	3767	3890
Ta'sisichilarga bo'lgan qarzlilar (6600)	710		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzi (6700)	720	4283	3395
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlilar (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlilar (6950 dan tashqari 6900)	760	305	905
II bo'lim bo'yicha jami (sitr.490+600)	770	67452	62588
Balans passivi bo'yicha jami (sitr.480+770)	780	124918	161378

Korxonara rahbari _____

Buxgalter _____

MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT
(2-sonli shakl)

		Kodlar
_1-yanvar __ 20... yilga		
	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilotlar: “Sharq” fermer xo‘jaligi	KTUT bo‘yicha	04825909
Tarmoq: O‘simlikchilik	XXTUT bo‘yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: Fermer xo‘jaligi	THShT bo‘yicha	
Mulkiylik shakli: Xususiy	MShT bo‘yicha	142
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do‘stlik ko‘chasi 27 uy	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodlari	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	010	653350	x	683292	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020	x	546908	x	583648
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	030	106442		99644	
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	040	x	49556	x	43386
Sotish xarajatlari	050	x	7136	x	7376
Ma'muriy xarajatlar	060	x	4757	x	3471
Boshqa operatsion xarajatlar	070	x	37663	x	32539
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari	080	x		x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromatlari	090		x	4630	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090)	100	56886		60888	
Moliyaviy faoliyatning daromatlari, jami (satr.120+130+140+150+160), shu jumladan:	110		x		x
Dividendlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) dan daromadlar	140		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150		x		x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromatlari	160		x		x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	170	x		x	
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x		x	
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x		x	
Valyuta kursi farkidan zararlar	200	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	210	x		x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr.100+110-170)	220	56886		60888	
Favquloddagi foyda va zararlar	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr.220+/-230)	240	56886		60888	
Daromad (foyda) solig'i	250	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va yigimlar	260	x	18140	x	19564
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr.240-250-260)	270	38746		41324	

BYUDJETGA TO'LOVLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisob bo'yicha to'lanadi	Haqiqatda to'langan
Daromad (foyda) solig'i, (satr.281+282) shu jumladan:	280		
yuridik shaxslardan	281		
jismoniy shaxslardan	282	4977	
Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq	290		
Belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq	300		
Yagona yer solig'i	310	19564	4614
Yagona soliq	320		
Ko'shilgan qiymat solig'i	330		
Aktsiz solig'i	340		
Boshqa soliqlar	400		
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar	410	1232	
Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar	420	9367	
Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lovlar	430	8216	
Yagona ijtimoiy to'lov	440	7894	4004
Byudjetga to'lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazolar	470		
Jami byudjetga to'lovlar summasi (280 dan 440 satrgacha, 281 va 282 satrlardan tashkari)	480		

Korxonra rahbari _____

Buxgalter _____

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya
vazirligining 2002-yil 27 dekabrda
140-sonli buyrug‘iga 3-sonli ilova**

**ASOSIY VOSITALAR HARAKATI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT
(3-sonli shakl)**

		Kodlar
_1-yanvar __ 20... yilga		
	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilotlar: “Sharq” fermer xo‘jaligi	KTUT bo‘yicha	04825909
Tarmoqlar: O‘simlikchilik	XXTUT bo‘yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: Fermer xo‘jaligi	THShT bo‘yicha	1150
Mulkchilik shakli: Xususiy	MShT bo‘yicha	142
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do‘stlik ko‘chasi 27 uy	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

Ko'rsatkichlar nomi	Satr raqami	Boshlang'ich (tiklash) qiymati				Yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori				Qoldiq qiymati	
		Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan	chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgani bo'yicha	Chiqimi bo'yicha	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Yer	010										
Yerni obodonlashtirish	020										
Uzoq muddatli ijara shartnomasidagi asosiy vositalarni obodonlashtirish	030										
Bino	040	27485			27485	9121	1374		10495	18364	16990
Inshoot	050	4388			4388	2097	219		2316	2291	2072
Uzatish moslamalari	060										
Mashina va jihozlar	070	12388	3670		16058	9291	1858		11149	3097	4909
Mebel va ofis jihozlari	080	2800	1230	892	3138	2100	435	892	1643	700	1495
Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	090	2462	2500	898	4064	1985	421	898	1508	477	2556
Transport vositalari	100	28120	10150		38270	15075	4073		19148	13045	19122
Ishchi hayvonlar	110										
Mahsuldor hayvonlar	120	10511	6527	8450	8588					10511	8588
Ko'p yillik o'simliklar	130										
Boshqa asosiy vositalar	140										
Uzoq muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar	160										
JAMI asosiy vositalar	170	88154	24077	10240	101991	39669	8380	1790	46259	48485	55732
Shulardan: -ishlab chiqarish	171										
-noishlab chiqarish	172										
Ma'lumot uchun:											

Yil davomida sotib olingan asosiy vositalar, jami Shu jumladan:	180					x	x	x	x	x	x
o'z mablag'lari hisobiga	181					x	x	x	x	x	x
Bank kreditlari hisobiga	182					x	x	x	x	x	x
Boshqa qarzga olingan mablag'lar hisobiga	183					x	x	x	x	x	x
Tugallanmagan qurilish	190					x	x	x	x	x	x

Korxonra rahbari _____

Buxgalter _____

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining
2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘iga
4-sonli ilova**

**PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT
(4-sonli shakl)**

		Kodlar
_1-yanvar __ 20... yilga		
	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonona, tashkilot: “Sharq” fermer xo‘jaligi	KTUT bo‘yicha	04825909
Tarmoq: o‘simlikchilik	XXTUT bo‘yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: fermer xo‘jaligi	THShT bo‘yicha	1150
Mulkchilik shakli: xususiy	MShT bo‘yicha	142
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do‘stlik ko‘chasi 27 uy	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	Chiqim
1	2	3	4
Operatsion faoliyat			
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari	010	672375	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to'langan pul mablag'lari	020		581753
Xodimlarga va ular nomidan to'langan pul mablag'lari	030		16423
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to'lovlari	040		29681
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040)	050	44518	
Investitsiya faoliyati			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	4630	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090		
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr.060+/-070+/-080+/- -090)	1100	4630	
Moliyaviy faoliyat			
Olingan va to'langan foizlar	1110		
Olingan va to'langan dividendlar	1120		
Aktsiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	1130		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	1150		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	1170		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqim (satr.110+/-120+130-140+/-150+/- -160+/-170)	1180		
Soliqqa tortish			
To'langan daromad (foyda) solig'i	1190		
To'langan boshqa soliqlar	2200		19500
Jami: to'langan soliqlar (satr.190+200)	2210		19500
Jami: moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)	2220	29648	
Yil boshidagi pul mablag'lari	2230	21247	
Yil oxiridagi pul mablag'lari	2240	50895	

Korxonalar rahbari _____

Buxgalter _____

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining
2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘iga
5-sonli ilova**

**XUSUSIY KAPITAL TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT
(5-sonli shakl)**

		Kodlar
_1-yanvar __ 20... yilga		
	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilotlar: “Sharq” fermer xo‘jaligi	KTUT bo‘yicha	04825909
Tarmoqlar: o‘simlikchilik	XXTUT bo‘yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: fermer xo‘jaligi	THShT bo‘yicha	144
Mulkchilik shakli: xususiy	MShT bo‘yicha	
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do‘stlik ko‘chasi 27 uy	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod	Ustav kapitali	Qo'shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Yil boshidagi qoldiq	010	18720			38746			57466
qimmatli qog'ozlar emissiyasi	020			x	x	x	x	
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	030	x	x		x	x	x	
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valyuta kursi farqlari	040	x		x	x	x	x	
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050	x	x		x	x	X	
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x	41324	x	x	41324
Tekinga olingan mol-mulk	070	x	x		x	x	x	
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar	080	x	x	x	x	x		
To'langan dividendlar	090	x	x	x		x	x	
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100							
Yil oxiridagi qoldiq	110	18720			80070			98790
Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-)	120							
MA'LUMOT UChUN:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona	130	x	x	x	x	x	x	x

Shu jumladan:								
imtiyozli	131	x	x	x	x	x	x	x
oddiy	132	x	x	x	x	x	x	x
Aktsiyaning nominal qiymati	140	x	x	x	x	x	x	x
Muomaladagi aktsiyalar soni, dona	150	x	x	x	x	x	x	x
Shu jumladan:								
Imtiyozli	151	x	x	x	x	x	x	x
Oddiy	152	x	x	x	x	x	x	x

Rahbar: _____

Bosh hisobchi: _____

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining
2002-yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug‘iga
6-sonli ilova**

**DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLAR HAQIDA MA’LUMOTNOMA
2a-sonli shakl**

20__ yil _____ holatiga

__1-yanvar __ 20... yilga		Kodlar
	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilotlar: “Sharq” fermer xo‘jaligi	KTUT bo‘yicha	04825909
Tarmoqlar: o‘simlikchilik	XXTUT bo‘yicha	21100
Tashkiliy-huquqiy shakli: fermer xo‘jaligi	THShT bo‘yicha	144
Mulkchilik shakli: Xususiy	MShT bo‘yicha	
Vazirlik, idora va boshqalar:	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami:	STIR	200605450
Hudud: Toshkent viloyati	MHOBT	1727248855
Manzil: Toshkent viloyati Qibray tumani Do‘stlik ko‘chasi 27 uy	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana	
	Taqdim qilish muddati:	

T/r №	Debitor va kreditorlar ro'yxati	Umumiy qarz		Korxonaga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha vujudga kelgan qarzar								
				Jami	Undan muddati o'tgan	shu jumladan				Xukumat karorlari bo'yicha kechiktirilgan qarzarlar	Konunchilikka muvofik da'volar bo'yicha sud jarayonida ko'rib chikilayotgan yoki xo'jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to'g'risida qaror chiqqan qarzar summasi	
						Xukumat karorlariga asosan oldindan xak to'lamay jo'natilgan (olingan) maxsulotlar bo'yicha qarzarlar		Davlat resurslari va jamgarmalaridan jo'natish ko'zda tutilgan xom ashyo va materiallar bo'yicha o'tkazilgan bo'nak to'lovlari summasi				
						jami	undan muddati o'tgan	jami	undan muddati o'tgan			jami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
DEBITORLIK QARZLARI												
1	Debitorlar, jami	24685										
2	Respublika ichidagi qarzarlar, jami	24685										
3	Respublikadan tashqaridagi qarzarlar, jami											
KREDITORLIK QARZLARI												
4	Kreditorlar, jami	22406						x	x			
5	Respublika ichidagi qarzarlar, jami	22406						x	x			
6	Respublikadan tashqaridagi qarzarlar, jami							x	x			

Korxonah rahbari _____

Buxgalter _____

